Ammo bu davrda yozuv darsi bilan o`qish darsi o`rtasida birmuncha farq bo`lishi mumkin, bundan cho`chimaslik kerak, chunki bu vaqtda o`quvchilar so`z va harflarni otilgan materiallar asosida yozib o`rganadilar.

Keyinchalik esa o`qish bilan yozuv darsi bir- biri bilan, uzviy bog`langan holda davom etadi. Yozuv darsiga taaluqli bo`lgan ayrim xususiyatlar hisobga olingan holda tayyorgarlik mashqlari



beriladi.

O'qishning birinchi haftalaridagi tayyorgarlik mashqlari, asosan, og'zaki nutqni o'stirishga qaratiladi. Ammo butun bir soatlik dars davomida og'zaki nutq bilan shug'ullanish bolalarni zeriktirib qo'yishi mumkin. Shuning uchun bu darslarning yarmini og'zaki nutq o'stirishga, ikkinchi yarmini esa yozuv darsiga taalluqli bo'lgan tayyorgarlik mashqlarini bajarishga qaratish lozim. Bu mashqlarni qiziqarli chiqishi uchun rangli qalam yoki flomasterdan foydalanish mumkin. Bu davrda husnixatga oid tayyorgarlik mashqlarini tashkil etish muhim ahamiyatga ega.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:**

1. Umarova M., Xudoyberganova M. “Bayonlar to'plami” Toshkent 1992 yil.
2. Yusupov M. “O'qish va yozuv darslari samaradorligini oshirish”. Toshkent 1994 yil.
3. G'ulomov M. “Husnixat”-boshlang'ich-sinflar uchun “O'zbekiston” 2002 yil



## BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARINI TARBIYALASHDA SINIF RAHBARINING TARBIYAVIY VA TA‘LIMIY JIHATDAN YONDASHUVI

**Baratova Dilnoza Sobirovna**

Sirdaryo viloyati Sardoba tumani

4-maktab boshlang‘ich ta‘lim o‘qituvchisi

**ANNOTASIYA:** Boshlang‘ich sinif o‘quvchilarini tarbiyalash va ularga ta‘lim berish bu qiyin jarayon hisoblanadi. Sinif rahbari bilimli, tarbiyali, malakali, o‘z kasbini sevadigan, tashkilotchi bo‘lmasa, o‘quvchilarni sal e‘tiborsiz qo‘ysa, ta‘lim va tarbiyadan ko‘zlangan maqsadga erishib bo‘lmaydi.

**TAYANCH SO‘ZLAR:** ta‘lim-tarbiya, tarbiya, sinif rahbar

A. Novoiyning fikricha, ba‘zan bir kishi bitta bolaga tarbiya berishga o‘zlik qiladi. Endi sinif rahbarini oladigan bo‘lsak, u bir emas bir qancha o‘quvchilarga ta‘lim va tarbiya beradi. Bu asnoda o‘qituvchidan yuksak salohiyat talab etiladi. O‘qituvchi har bir bola bilan shug‘ullanishga vaqt topishga harakat qilishi kerak. Biron bola nazardan chetda qolmasligi va ularning barchasini darsga jalb etishda o‘z mahoratini ishga solishi darkor. Bunda o‘qituvchi, albatta, o‘quvchining ota-onasi yoki tarbiyasi uchun mas‘ul bo‘lgan shaxslar bilan hamkorlikni yaxshi yo‘lga qo‘yishi kerak. “O‘quvchilarning axloqiy xislatlari, uning yutuqlar va kamchiliklari shakllanishida, eng avvalo uning ta‘lim va tarbiya olish jarayonida ijtimoiy uy sharoiti, tevarak-atrofi ham ahamiyat kasb etadi. O‘quvchilarni o‘rgatish dasturi ularni faqat maktabdagina emas, balki shu bilan birga uy sharoitida, oilada ham o‘rganishni nazarda tutmog‘i darkor” O‘qituvchi juda yaxshi dars o‘tishi, o‘quvchilarni jalb eta olishi mumkin. Ammo oilada ham bola bilan shug‘ullanadigan shaxs bo‘lmasa, bolaning risoladagidek darslarni va tarbiyani o‘zlashtira olmaydi. Biz ta‘limni tarbiyadan ajrata olmaymiz. Chunki komil insonni tarbiyalashda birini ustun, birini past qo‘yib bo‘lmaydi. L.N. Tolstoy shunday yozadi: “Tarbiya, biz o‘qitish, tarbiyalashni xohlamas ekanmiz, murakab va qiyinchiligicha qoladi. Agarda boshqalarni biz faqat o‘zimiz orqali tarbiyalashimiz mumkinligini tushunib olsak, unda tarbiya masalasi yo‘qoladi va hayot to‘g‘risidagi masala qoladi: O‘zim qanday yashashim kerak!” Tarbiya qiyin masala. Uni yillar mobaynida shakllantirib boriladi. Boshlang‘ich sinif rahbari esa asosiy tarbiyani bola shaxsida shakllantiradi. Ayniqsa, o‘qituvchining o‘zi katta tarbiya maktabini o‘taydi. Bola ustozining yurishi, turishi, muomala madaniyatiga qarab ko‘p narsalarni o‘rganadi. Chunki bola o‘qituvchisini dunyodagi eng yaxshi va buyuk inson deb biladi. Agar o‘qituvchi tarbiyali va bilimli bo‘lmasa, uning bergan tarbiyasi mavhum bo‘lib qoladi. O‘qituvchi asosan ota-onalar bilan hamkorlikda aloqani muntazam o‘rnatib borish kerak. Buning uchun biz bir nechta talablarni o‘z oldimizga qo‘yamiz:

- Ota-onalar bilan har oyda bir martadan majlis o‘tazish. Bunda ota-onalar bolalarining o‘zlashtirishi va xulq-atvori haqida ma‘lumotlarga ega bo‘ladi.

- O‘qituvchi har bir bolaning alohida tashkil etilgan kundaligini joriy etish kerak. Bunda o‘qituvchi har kunlik o‘quvchining bilimi va hulq-atvori haqidagi o‘zgarishlarni yozib boradi. Buni har kunlik ota-ona tasdiqlab imzo qo‘yib boradi. Bunda ota-onaning yaqindan hamkorligini yo‘lga qo‘yamiz. Asosan ikki shartni qo‘yishimizdan maqsad bola nazoratini kuchaytirish hisoblanadi. O‘qituvchi ta‘lim va tarbiyaviy yondashuvda o‘zi alohida yuqori natijaga erisha olmaydi. Albatta, bolaning maktabda, uyda nazoratini kuchaytirish uning kamoloti sari borishda porloq yo‘l hisoblanadi. Shu o‘rinda shuni ta‘kidlab o‘tish joizdir: “Bolalar, ota-onalar va o‘qituvchilar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar masalasiga alohida e‘tibor berish lozim. Bu uchlik markazida bola, ya‘ni o‘quvchi turadi, maktab va oila esa unga ikki tomondan ta‘sir etadi. Ayni vaqtda bola maktab bilan oilasidagi aloqani taminlovchi vosita rolini ham bajaradi”.

Bola maktabdagi ma‘lumotni ota-onasiga boshqacha qilib yetkazishi mumkin. Shuning uchun ota-ona va o‘qituvchi orasida anglashilmovchilik kelib chiqmaslik uchun o‘zaro kundalik daftar tutish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Agarda ikki tomonning hamkorligi yaxshi yo‘lga qo‘yilsa, bola ta‘lim va tarbiya o‘rganish jarayonida qiynalmaydi. Bu jarayonda o‘qituvchidan yuksak salohiyat va tirishqoqlik talab etiladi.

“Tarbiya jarayonini tashkil etishda o‘qituvchi tomonidan qo‘llaniladigan metodlar ham muhim ahamiyatga ega bo‘lib, ular ijtimoiy jamiyat tomonidan ta‘lim muassasalari oldiga qo‘yilgan yosh avlodni har tomonlama barkamol, erkin, ijodkor, mustaqil fikr egasi etib tarbiyalash vazifalari



bilan belglanadi”. Sinf rahbari tarbiya metodlarini ham yaxshi bilishi va tatbiq eta olishi kerak. Metodlar yordamida o‘qituvchining ishi anchayin yengil va unumli bo‘ladi. o‘quvchilarda zerikish sezilmaydi. Tarbiyani ta’limdan ajratib bo‘lmaydi. Shuning uchun ikkisini bir jarayonda tashil etish talab etiladi. Bunda sinf rahbari o‘ziga xos yondashuvda ishga kirishmog‘i darkor.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. R. Mavlonova, N. Rahmonqulova, B. Normurodov “Tarbiyaviy ishlar metodikasi” darslik. “Tib-kitob” nashryoti. Toshkent-2010. a
2. Tolstoy L. N. Asarlar to‘plami, 22 jildlik, 1984-yil.; 19-j.
3. J. Hasanboev, X. A. To‘raqulov, I. SH. Alqarov, N. O‘. Usmanov “Pedagogika”. “Noshir” Toshkent 2011-yil.



## BOSHLANG'ICH SINFLARDA „TARBIYA“ FANINI O'QITISHNING ILMIY-METODIK ASOSLARI

**Qo'chqarova Dilbar**

18-son maktabning boshlang'ich  
ta'lim fanidan musiqa madaniyat fani  
o'qituvchisi Tel: +998 91 435 77 05

**ANNOTATSIYA:** Ushbu maqolada boshlang'ich sinflarda tarbiya fanini o'qitishda o'qituvchilarning darslarda pedagogik texnologiya, boshlang'ich sinflarda interfaol metodlar va ta'limiy o'yinlardan, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish o'quvchilarni mustaqil fikrlashga, ijodiy izlanish va mantiqiy fikrlash doiralarini kengaytirish bilan birga ularni darslarda o'rganganlarini hayot bilan bog'lashga, qiziqishlarini oshirishga yordam beradigan fikrlar bayon qilingan.

**Kalit so'zlar:** texnikaviy, axborotli, audiovizualli faol fuqarolik pozitsiyasi, mas'uliyat, majburiyat, huquqiy ong va madaniyat, teran dunyoqarash, sog'lom e'tiqodlilik, ma'rifatparvarlik, bag'rikenglik, ma'naviy, g'oyaviy, nafosat tarbiyasi.

Tarbiya fani O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tashabbusi bilan umumiy o'rta ta'lim muassasalarida 2020-2021-o.,quv yilidan boshlab joriy qilindi. Fan va darslik konsepsiyasini yaratishda Yaponiya, Singapur, Angliya, BAA, Xitoy, Koreya, Rossiya, Germaniya kabi xorijiy davlatlarning tajribasidan foydalanildi. Ta'lim jarayoni nihoyatda murakkab jarayon bo'lganligi uchun ta'lim samaradorligi pedagog va o'quvchi faolliligiga, ta'lim vositalarining mavjudligiga, ta'lim jarayonining tashkiliy, ilmiy, metodik mukammalligiga bog'liq. Ta'lim-tarbiya jarayonini ilg'or vositalari, metodlar, texnik vositalar, usullariga tayanib takomillashtirish tizimi hisoblanadi. Bu tizim o'qituvchi tomonidan yaratiladi, ta'lim-tarbiya bosqichlarini o'zaro bog'lashga xizmat qiladi. Uning mazmuni va vazifalarini, maqsadini oldindan belgilash, ta'lim-tarbiyaning shakllari va vositalarini tayyorlash, o'quvchida shakllantirish ko'zda tutilgan ma'naviy sifatlarni o'zlashtirishga yo'naltirilgan darslarni rejalashtirish kabilarni o'z ichiga oladi. Bugungi kunda fan-texnikaning rivojlanishi bilan inson faoliyati nihoyatda kengayib, yangi texnologiyalar kirib kelmoqda. Sifat o'zgarishlari shundan dalolat beradiki, endilikda yangi metodikalarni talab etadigan va ta'lim jarayonining ajralmas qismiga aylanib borayotgan, unga o'zining ma'lum xususiyatlarini joriy etadigan yangi texnikaviy, axborotli, audiovizualli, vositalar ham mavjud bo'lib, ular zamonaviy pedagogik texnologiyalarni aniq voqelikka aylantirdi. Ta'lim-tarbiya jarayonining unumdorligini oshiradi, o'quvchilarni mustaqil fikrlash jarayonini shakllantiradi, o'quvchilarda bilimga ishtiyoq va qiziqishni oshiradi, bilimlarni mustahkam o'zlashtirish, ulardan amaliyotda erkin foydalanish ko'nikma va malakalarini shakllantiradi. An'anaviy o'qitish tizimi, aytish mumkinki, yozma va o'g'zaki so'zlarga tayanib ish ko'rish tufayli axborotli o'qitish sifatida tafsiflanadi, chunki o'qituvchi faoliyati birgina o'quv jarayonining tashkilotchisi sifatida emas, balki nufuzli bilimlar manbaiga aylanib borayotganligini ta'kidlagan holda baxolanmoqda. O'zbek xalqining yosh avlodni hayotga tayyorlashda ko'p asrlar davomida qo'llagan usul va vositalari, tadbir shakllari, o'ziga xos urf-odatlar va an'analari, ta'lim-tarbiya haqidagi g'oyalari va hayotiy tajribasi mavjud. Bu meros o'tmishda ko'plab alloma-yu donishmandlar etishib chiqishiga asos bo'lgan. Ajdodlarimiz bilim o'rgatuvchi ustoz faoliyatiga katta ahamiyat berganlar. Bu pedagogik faoliyatga bo'lgan asosiy talablardan biri edi. Sharq uyg'onish davrining buyuk mutafakkiri Abu Nasr Forobiy aqlli, dono va o'tkir fikrlaydigan kishilar to'g'risida shunday deydi: «Aqlli deb shunday kishiga aytiladiki, ular fazilatli, o'tkir mulohazali, foydali ishlarga berilgan, zarur narsalarni kashf va ixtiro etishda zo'r istidodga ega; yomon ishlardan o'zini chetda olib yuradilar. Bunday kishilarni oqil deydilar». Uning fikricha, «Ta'lim so'z va o'rgatish bilangina bo'ladi. Tarbiya esa amaliy ish va tajriba bilan o'rganishdir, ya'ni shu xalq, shu millatning amaliy malakalaridan iborat bo'lgan ish-harakatga, kasb-hunarga berilgan bo'lishidir. Agar ular ish, kasb-hunarga berilgan bo'lsalar, kasb-hunarga qiziqsalar, shu qiziqish ularni butunlay kasb-hunarga jalb etsa, demak, ular kasbhunarning chinakam oshig'i bo'ladi» NATIJALAR VA MUHOKAMA Tarbiya jarayoni o'zaro bog'liq ikki faoliyatni – o'qituvchi va o'quvchi faoliyatini o'z ichiga oladi. Tarbiya jarayonida o'quvchining ongi shakllana boradi, his-tuyg'ulari va turli qobiliyatlari rivojlanadi, g'oyaviy, axloqiy, irodaviy,



estetik xislatlari shakllanadi, tabiatga, jamiyatga ilmiy qarashlar tizimi tarkib topadi, jismoniy kuch-quvvatlari mustahkamlanadi. Bunday bo'lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o'quvchilar faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish esa ularni egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topish, mustaqil o'rganish va fikrlash, tahlil qilish, hatto yakuniy xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishga o'rgatadi. O'qituvchi bu jarayonda shaxs rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik funksiyasini bajaradi. Bugungi kunda ta'limda «Aqliy hujum», «Fikrlar hujumi», «Tarmoqlar» metodi, «Sinkveyn», «BBB», «Beshinchisi ortiqcha», «6x6x6», «Bahs-munozara», «Rolli o'yin», FSMU, «Kichik guruhlarda ishlash», «Yumaloqlangan qor», «Zigzag», «Oxirgi so'zni men aytay» kabi zamonaviy texnologiyalar qo'llanmoqda. XULOSA Boshlang'ich sinflarda interfaol metodlar va ta'limiy o'yinlardan, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish o'quvchilarni mustaqil fikrlashga, ijodiy izlanish va mantiqiy fikrlash doiralarini kengaytirish bilan birga ularni darslarda o'rganganlarini hayot bilan bog'lashga, qiziqishlarini oshirishga yordam beradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Shavkat Mirziyoyev. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz.
2. Shavkat Mirziyoyev. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash
3. Forobiy. «Fozil odamlar shahri». - T.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi. nashriyoti, 1993. . 184-185-b.



## DRAMATIK ASARLAR USTIDA ISHLASH TEXNOLOGIYASI

**Erkaboyeva Zulxumorxon Umarovna**

Farg'ona viloyati O'zbekiston tumani

37-umumiy o'rta ta'lim maktabining

ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

**Anotatsiya:** Ushbu maqolada so'z san'atining asosiy turlaridan biri bo'lgan drammatik asarlar ustida ishlash hamda o'quvchilarga drammatik asarlar bilan ishlash texnologiyasini o'rgatish metodi haqida fikr mulohazalar yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** Dramatik asarlar, kompozitsion tuzilish

So'z san'atining asosiy turlaridan biri bo'lgan drama qadimgi yunon tilidan olingan bo'lib harakat, amal-faoliyat degan ma'nolarni anglatadi. Dramatik asarlar, asosan, sahnada ijro etishga mo'ljallangan bo'lib, suhbat-dialog shaklida yoziladi.

Dramatik turga drama, komediya, tragediya (fojea) singari janrlar mansubdir. Bunday bitiklarda voqelik asarda bevosita ishtirok etuvchi shaxslarning xatti-harakatlari va nutqi orqali ochiladi. Dramatik asarlar sahnaga moslab yoziladi. Yozuvchining fikrlari asarda ishtirok etuvchilarning so'zi va faoliyati vositasida namoyon bo'ladi. Lirik yoki epik turdagi asarlarda muallif nuqtai nazarini, ba'zan ochiq, ba'zan yashirin-pardali tarzda bildiriladi. Dramatik asarlarda ayni mana shu holatning mavjud emasligi o'quvchi uchun qo'shimcha qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi. Shunga ko'ra dramatik asarlarda munosabatlarning o'ziga xos tarzda aks ettirilishini o'quvchi yoki tomoshabin ongiga, idrokiga yetkazish masalasi turadi. Sahnada asaridagi har bir harakat va har bir so'zning katta ma'no tashishi o'quvchi yoki tomoshabinlar tomonidan anglab yetilishi kerak. Buning uchun tahlil jarayonida dramatik asarlarning shu xususiyatlariga alohida urg'u berishga to'g'ri keladi.

O'quvchi yoki tomoshabiniga bayon va tasvirlashga xos usullar yot bo'lganidan u personajlar xatti-harakatini, voqealar rivojini bevosita tahlil etish imkoniyatiga ega emas. Bunday vazifalar dialoglar yetakchiligida, monolog, remarka va pauzalar yordamida muayyan vaqt ichida tomoshabin yoki kitobxon ko'z o'ngida sodir bo'layotgan qismlar shaklida amalga oshiriladi.

Har bir voqeaga yo'nalish beriladi. Dramatik asar tanaffuslar bilan ko'rsatilganligi sababli, har qaysi qismi parda deb yuritiladi. Parda ichida ko'rinishlar bo'ladi. Bir ko'rinishga mo'ljallanganligi sababli dramatik asar hajman cheklangan bo'ladi.

Dramatik asarlar kompozitsion tuzilish jihatidan boshqa janrlardagi asarlardan farq qiladi. Shuning uchun drama janri so'z san'atiga mansub bo'lsa ham, sahnada ijro etilishi bilan roman va qissa janridan farq qiladi. Dramada har bir obraz o'z xarakteriga xos xislatlarni jonli tili, xatti-harakati orqali namoyish qiladi. Shunga ko'ra dramada proza va poeziyaga xos bo'lgan muallif nutqi bevosita ishtirok etmaydi. «Nasrchi va nazmchilar hikoya qilish, voqealarni izohlash, hodisalarni ifodalash, xarakterlarni tasvirlash yo'lidan borishsa, dramaturg so'zlarni harakatga solish, qahramonlarni so'zlatib qo'yib, xarakterlarini ochish usulidan foydalanadi»<sup>121</sup>. Kitobxon yoki tomoshabin dramada sodir bo'layotgan voqea va qahramonlarni ularning o'zidan payqab oladi. Binobarin, dramaturg o'z qahramonlarining hayoti haqida hikoya qilmaydi, balki ularni harakatda ko'rsatadi.

Dramatik asarlarda ohang, pauza va ovoznining baland-pastligi katta ahamiyatga ega bo'lib, nutqning o'ziga xos bu xususiyati sahnada yorqinroq namoyon bo'ladi. Dramada dramaturg tashqi voqea-hodisalar, hayotiy masalalar, ishtirok etuvchi shaxslarni o'z-o'zini namoyon qilish vositasida aks ettiradi. Har qanday hodisa ham dramatik bo'lavermaydi.

Ta'lim jarayonida o'quvchi va talabalar bir necha dramatik asarlar bilan tanishadilar. Ular orasida qadimgi Yunon dramaturglarining asarlaridan boshlab, xorijiy mamlakatlardagi adiblar qalamiga mansub bo'lgan sahna asarlari, o'zbek dramaturglari bitiklarigacha qamrab olingan. Maqsud Shayxzoda, Said Ahmad, Sharof Boshbekov, Xurshid Davron va h.k. adiblarning dramaturgiyasi ham shular jumlasidandir. Dramatik asarlarni tahlil qilishda adabiyotshunoslikdagi mavjud tadqiqotlarga tayanish mumkin. Ayniqsa, Izzat Sulton, N. Mallayev, H. Abdusamatov, B. Imomov, I. G'afurov, Sh. Rizayevlarning tadqiqotlari bu jihatdan e'tiborlidir. Quyida dramaturg Sharof Boshbekov qalamiga mansub «Temir xotin» komediyasi matni ustida ishlash namunasi tavsiya etiladi. Adabiyotga XX asming 70-yillarida kirib kelgan Sharof Boshbekov badiiy adabiyotning



murakkab turlaridan bo‘lgan dramaturgiyada ijod qiladi. Shu paytgacha adibning «Taqdir eshigi», «Tikansiz tipratikanlar», «Eski shahar gavroshlari», «Eshik qoqqan kim bo‘ldi?», «Temir xotin», «Tushov uzgan tulporlar», «Charog‘bonlar» kabi dramalari chop etilgan va sahnalashtirilgan. Dramaturgning «Temir xotin» komediyasi hozirgi kungacha tomoshabinlar olqishiga sazovor bo‘lib kelmoqda.

Sh. Boshbekov o‘z ijodidagi xususiyatlar haqida gapirib: «Mening eng yaxshi ko‘rgan qurolim - yumor. Asar qanday janrda yozilmasin, voqealar qanchalik jiddiy, qahramonlarimning taqdiri qay darajada fojiali bo‘lmasin, yumor, hazil-mutoyiba, askiya unsurlari, so‘z o‘yinlaridan unumliroq foydalanishga harakat qilaman, bu, birinchidan, asami o‘qishli qiladi, tomoshaviyligini oshiradi, ikkinchidan, boshqa nuqsonlarni «yopib» ketadi. Masalan, «Temir xotin» asarimda aytiladigan «gap» jiddiy, lekin vaziyat, qahramonlarning so‘zi kulgili yoki aksincha bo‘lishi mumkin», - deb yozadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Imomov B., Jo‘rayev J., Hakimova O‘. O‘zbek dramaturgiyasi tarixi. - T.: «O‘qituvchi», 1995, 5-bet.
2. Abdusamatov O. Drama nazariyasi. - T.: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti. 2000. 210-bet.



**BOSHLANG’ICH SINFLARDA MATEMATIKA FANINI O’RGATISHDA  
SAMARADORLIKNI TA’MINLOVCHI CHET EL METODLARI**

**Qosimova Feruza Abdusaid qizi**

Navoiy viloyati, Xatirchi tumani  
52- umumiy o’rta ta’lim maktabining  
boshlang’ich ta’lim o’qituvchisi  
+99899 755 07 24

**Kubayeva Komila Raximqul qizi**

Navoiy viloyati, Xatirchi tumani  
52-umumiy o’rta ta’lim maktabining  
boshlang’ich ta’lim o’qituvchisi

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada boshlang’ich sinflarda matematika fanini o’qitish jarayonida chet el tajribalarida qo’llanuvchi metodlardan foydalanish haqida fikr yuritiladi. Chet el tajribalari matematika fanida qo’llanilishi misollar bilan aytib o’tilgan.*

***Kalit so’zlar:** “Zapusk texnologiyasi”, “Avtofokus” metodi, “Diqqatni jamlash” metodi, “Sayohat” metodi.*

Bugungi kun ta’limi zamonaviy pedagogdan zamonaviy texnologiyalardan foydalanishni, o’z ustida tinimsiz ishlashni, ta’lim tizimi taraqqiy etgan davlatlar tajribasini o’rganib ularni o’z darslarida qo’llashni talab etadi. Bugun o’quvchilarni an’anaviy metod va texnologiyalar bilan jalb etish, darsda sog’lom muhitni yaratish, fanga o’quvchini qiziqitira olish dolzarb muammoga aylandi. Endi har qanday darsni samarali tashkil etish uchun jahonning ta’lim tizimi eng rivojlangan mamlakatlari: Finlandiya, Buyuk Britaniya, Yaponiya kabi bir qator davlatlar ta’lim tizimini o’rganib ular tajribasidan unumli foydalanish har bir pedagog oldidagi muhim vazifaga aylandi.

“Zapusk texnologiyasi” metodi Buyuk Britaniyaning o’qitish texnikalari orasida eng samaralisi va mashhuri hisoblanadi. Ushbu metod orqali pedagog dars muhitini o’zi istagan atmosferada olib bora oladi. Bu metodning yana bir muhim jihati shundaki, o’quvchilarni boshqarish ham pedagog uchun yanada osonlashadi. Bu texnologiyaning mohiyati shundaki, darsga kirdingiz va o’quvchilarga bugungi mavzuga aloqador jumboqli savol bering. Bu savolingiz shunchalik qiziq bo’lsinki, o’quvchilar ushbu jumboqning javobini bilishga oshiqsin. Aytaylik, boshlang’ich sinflarda “To’rtburchakning yuzasi” mavzusini o’tmoqchisiz. O’quvchilarga dars boshlanishida: “To’rtburchakning yuzasi qanday aniqlanishini bilasizmi, uni topish to’g’ri to’rtburchakning perimetrini topishga o’xshaydimi?” – kabi savollar bering. O’quvchilar bir muddat ushbu jumbog’ingizni muhokama qilishsin. Javobni bilishga qiziqish darajasiga yetishgan paytda siz yangi mavzuni o’tishga kirishing va javobini dars davomida aytishingizni bildiring. O’quvchilar butun dars davomida mavzuni katta ishtiyoqda tinglashadi va dars oxirigacha barcha o’quvchining diqqatini ushlab tura olasiz.

“Avtofokus” metodini matematika darsida qo’llashimiz ko’proq maqsadga muvofiq bo’ladi. Bu metod Finlandiya o’qitish tizimida eng ko’p qo’llanadigan metodlardan biri sanaladi. Ushbu metodni yangi mavzuni tushuntirish jarayonida qo’llashimiz mumkin. Mavzu tushuntirish jarayoniga qadar o’quvchilarga turli rangdagi kartochkalar (oq, qora, sariq, qizil...) tarqatiladi va mavzu tushuntirish jarayonida o’quvchilar diqqatli bo’lishini har bir aytgan ma’lumot qaytadan so’ralishi haqida ogohlantiriladi. Yangi mavzuni tushuntirish jarayonida kutilmaganda to’xtab sariq kartochkali o’quvchilarni o’midan turg’azasiz va o’zingiz aytgan ma’lumotlarni istalgan o’quvchidan takrorlashini so’raysiz. Bu metod har bir o’quvchini darsga diqqat bilan quloq solishini ta’minlaydi va siz ularni o’zingizga qarata olasiz.

“Diqqatni jamlash” metodi Yaponiya ta’lim tizimida samarali qo’llaniladigan metodlardan biri sanaladi. Bu metodni biz istalgan fanda uy vazifasini so’rash jarayonida foydalanishimiz mumkin. Bu metodning mohiyati shundaki, o’quvchilarga daftariga berilgan mavzu, vazifa yuzasidan bitta to’g’ri, bitta noto’g’ri formula yozish topshiriladi. O’quvchilar yozib bo’lgach ularning daftarlari partadoshining daftari bilan almashtiriladi. O’quvchilar partadoshi yozgan formulaning qaysi biri to’g’ri, qaysi biri noto’g’ri ekanligini topishlari kerak bo’ladi. Bu usul o’quvchini darsga mas’uliyat bilan yondashishga, mustaqil fikrlashga harakat qilishiga undaydi. Bu metod orqali o’quvchi uyga vazifani qay darajada o’zlashtirganini aniqlash va uning fikrlash qobiliyatini o’stirishga yordam



berishimiz mumkin.

Bugungi kunda ta'lim tizimida samarali natijaga erishish mushkul vazifaga aylandi. Bu pedagoglardan ijodkorlik mahoratini ham talab etmoqda. Har bir pedagog o'quvchi bilan yuzlashishdan avval dars rejasini tuzib chiqsa, dars davomida qanday metod va texnologiyalardan foydalanishini oldindan belgilab olsa maqsadga muvofiq bo'lar edi. Bugungi kun zamonaviy o'quvchisi zamonaviy fikrlarga ega. Hozir o'quvchidan kelajakdagi rejalarini so'rasangiz 10 tadan 9 tasining rejaları orasida “chet elga sayohat” rejasi mavjud. Siz buni inobatga olgan holda “Sayohat” metodidan foydalaning. Masalan, darsga dunyoning mashhur shaharlari suratini olib kiring va ularni doskaga osib qo'ying. O'quvchilarga yopishadigan kartochkalar tarqatib unga bugungi mavzudan xotirasida qolgan biror ma'lumot yozishini so'rang. O'quvchi yozgan ma'lumotini sinfdoshlariga o'qib bersin va o'zi yoqtirgan shahar surati ustiga kartochkani yopishtirib ketsin. Shu tariqa doskadagi suratlar ustida ko'plab kartochkalar paydo bo'ladi. Siz o'quvchilardan qaysi sinfdoshi qanday ma'lumot aytgani va qaysi shaharga “sayohat” qilganini so'rang. Ular maroq bilan bu vazifani ado etishadi. Bu metod mavzuni mustahkamlashda qo'l keladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. E. Mahkamov, “ O'zbekiston va Finlandiya umumiy o'rta ta'limida matematika fanini o'qitish”
2. S. Alixonov, “ Matematika o'qitish metodikasi”



**BOSHLANG‘ICH SINFLARDA FANLARNI O‘QITISHDA INNOVATSION  
METODIKALARDAN FOYDALANISH YO‘LLARI**

**Mamatova Maxsuda Ikromjonovna**  
Namangan viloyati Norin tumani  
27-maktab boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi  
**Abduvaliyeva Feruza Abduvohitovna**  
27-maktab boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

**ANNOTATSIYA:** ushbu maqola orqali boshlang‘ich ta‘lim metodikasini o‘qitishda bir qator innovatsion metodikalardan foydalanish yo‘llari haqida fikrlar yurilgan.

**KALIT SO‘ZLAR:** metodika, Kognitiv metod, Eksperimental metod, Amaliyot orqali o‘qitish

Bugungi kunda boshlang‘ich ta‘limning asosiy maqsadi bolani o‘qishga bo‘lgan ijodiy munosabati, o‘qish savodxonligi, turli ma‘lumotlar bilan ishlashi, matematik amallarni bilishi, ularni kundalik hayotda qo‘llay olishi, mantiqiy va erkin fikrlashi, o‘zo‘zini boshqarishi, jamoada o‘zini tuta bilishi, yozma, og‘zaki muloqat madaniyat qoidalarini egallashi, chet tillarini puxta o‘rganishi ta‘lim poydevorini mustahkamlashdagi omildir. Ta‘limiy faoliyatni tashkil etishda o‘quvchilarning kreativ fikrlashini shakllantirish usullarini qo‘llash, ulardan unumli foydalanish ta‘lim oluvchining bilim, malaka, ko‘nikma o‘zlashtirish jarayonini qulaylashtiradi. Atrofga boqsak, har tomonda inson ijodkorligining beqiyos va hayratlanarli, aql, idroki, fikrlashi, tasavvur qilishi orqali yaratilgan namunalarga duch kelamiz. Har bir sohada ijodiy fikrlovchi, yangilik yaratuvchanlik qobiliyati bor insonlarga talab katta. Bu jarayonlarga beg‘ubor qalb egalarida qiziqish, ularga intilish hissi tez uyg‘onadi. Shunday ekan, o‘z-o‘zidan savol tug‘ilishi tabiiy. “Xo‘sh, ta‘lim oluvchini qanday qilib kreativ fikrlashga o‘rgatish mumkin?” Bu savolga javob berish uchun o‘quvchida esa yangi fikr, yangi g‘oya paydo bo‘lishi shart. Yuqoridagi savolga quyidagicha javob oldishimiz mumkin. Matematika darsligining “Takrorlash”, “Mustahkamlash” qismida quyidagi noodatiy savollarni beramiz. 1. “Sizga 10 000 so‘m berilsa, uni nimalarga sarflardingiz?” 2. “Sizga 2 soat vaqt berilsa, nimalar bilan mashg‘ul bo‘lardingiz?” Ulardan bu savollarga kichik guruhlarda ishlash orqali yozma, og‘zaki javoblar olamiz. Birinchi savolga o‘quvchilar ijobiy va salbiy fikrda yondashgan. Ba‘zi o‘quvchi pulni faqat o‘z ehtiyoji uchun ishlatishini, maqsadsiz foydalanishini bayon qilgan. Bu salbiy fikr. Yana bir o‘quvchi o‘z ehtiyojidan orttirib kitob, yangilik yaratish uchun turli buyum narsalar sotib olishini yozgan. Bu ijobiy fikr. Bugungi zamon talabi o‘z fikrini ravon va lo‘nda, go‘zal va ifodali bayon qiluvchi nutqiy savodxonligi yuqori bo‘lgan o‘quvchini shakllantirishdan iboratdir. O‘quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatining rivojlanishi berilayotgan ta‘lim sifatining samaradorligining yuqori bo‘lishini ta‘minlaydi, binobarin, erkin fikrlash barkamol shaxs sifatining bir ko‘rinishi hisoblanadi. Bu borada o‘quvchilarning nutqi ravon hamda tiniq fikrga ega bo‘lishlarida ona tili fanining o‘rni beqiyos. Endilikda bu masalaning yechimi sifatida darslarda o‘quvchining passiv tinglovchi bo‘lib qolmay bevosita dars jarayonida faol ishtiroki ta‘minlanishi, o‘qituvchi esa ma‘ruzachi emas, dars jarayoni va o‘quvchilar faoliyatini boshqaruvchi shaxs sifatida namoyon bo‘lishiga alohida e‘tibor qaratilmog‘i kerak. O‘quvchilarni har tomonlama tarbiyalashning asosi ularda ilmiy dunyoqarashni shakllantirishdan iborat. Bu vazifani boshlang‘ich sinflarda amalga oshirish muhim hisoblanadi. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari pedagogik o‘quv predmeti sifatida fanlarni o‘qitish metodikasini ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan puxta bilmog‘i va tanish bo‘lishlari lozim. O‘qitish metodikasini yaxshi bilish boshlang‘ich sinflar o‘qituvchisiga bolalarni o‘qitishni to‘g‘ri tashkil qilish imkonini beradi. Metodika o‘qituvchini fanlarni o‘qitish nazariyasi bilan qurollantirib, o‘qitish mahoratini egallab olishga imkoniyat yaratadi. O‘quv materiallarining mazmunini ochib berishda xilma-xil o‘qitish metodlaridan foydalanishga turlicha yondashish mumkin. Metodni tanlashda shuni nazarda tutish kerakki, bu tanish metodlar rivojlantiruvchi ta‘limning vazifalarini ta‘minlasin, o‘quvchilarning bilish qobiliyatini faollashtirsin. Ayni bir paytning o‘zida qayta axborot bersin. Ya‘ni muvaffaqiyatsizlik sababini aniqlash va o‘z vaqtida yordamga kelish uchun o‘quvchilar tomonidan yangi bilimlarning qanday o‘zlashtirilayotganligini tez va aniq ko‘rsatib bersin. Shunga ko‘ra darslarda amaliy ishlar, suhbatlar, mustaqil ishlardan ko‘proq foydalanish, bunda tadqiqiy yondashish, murakkab bo‘lmagan tahlil va sintez, taqqoslash xalqaro onlayn ilmiy-amaliy konferensiya materiallari va umumlashtirish, hodisalar o‘rtasidagi



sababiy bog‘lanishlarni aniqlash dars mashg‘uloti samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Boshlang‘ich sinflarda barcha fanlarni o‘qitishda quyidagi innovatsion metodikalardan amalda keng foydalanish maqsadga muvofiq:

1. Kognitiv metod. Bilim va bilish ma’nosini anglatadi. Bu metod o‘quvchilarning jamoa tafakkurini shakllantirishga yo‘naltirilgan, u yoki bu shaklda jamoa muhokamasini tashkil etadi.

2. Eksperimental metod. Bu metod o‘quvchilarning jonli va shaxsiy tajriba orttirishiga yo‘naltirilgan. Bunda darsda olingan bilim asosida mashq bajarish va misol yechish ko‘nikmasini hosil qiladi.

3. Rolli o‘yinlar, modellashtirish metodi. Bu metod hayotiy vaziyatlarni modellashtirish hamda ma’lum rollarni ijro etish orqali ularni sinab ko‘rishga yo‘naltirilgan. Bu usullar jamoa tafakkuri, muhokama bilan bog‘liq, ammo muhokama rolli o‘yin tahlili asosida olib boriladi.

4. Amaliyot orqali o‘qitish, bevosita faoliyat–o‘quvchilar guruhi ishini tashkil etish, ko‘pincha aniq, real, amaliy bilan bog‘liq: aniq qaror qabul qilish bo‘yicha muhokama, faoliyatning real rejasini ishlab chiqish, real, mojaroli manfaatlarni muvofiqlashtirish. Kognitiv metod. Bu metodda video orqali, chizma orqali muammolar tahlil qilinadi va yechimi topiladi. Bu metodni boshlang‘ich sinflarda aniq fanlarni o‘qitishda qo‘llash samarali natija beradi. O‘quvchilar yangi bilimni ko‘rish qobiliyati orqali miyaga singdiriladi.

Eksperimental metod. Bu metodni boshlang‘ich sinflarda barcha fanlarni o‘qitishda qo‘llay olish mumkin. Masalan, texnologiya darsini o‘laylik, o‘qituvchi mavzuni tushuntirishda o‘quvchilar bilan birgalikda bosqichma-bosqich mavzuga oid detalni, buyumni yasaydi, jumladan, o‘quvchilar ham amalda bajarish orqali yangi mavzuni o‘zlashtiradilar. Rolli o‘yinlar, modellashtirish. Bu metoddan boshlang‘ich sinflarda o‘qitish, odobnoma darslarida, hamda tarbiyaviy soatlarda ko‘proq qo‘llash maqsadga muvofiq sanaladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. M.I. Nuriddinova. Tabiatshunoslikni o‘qitish metodikasi. – T: Cho‘lpon nomidagi nashriyot manbaa ijodiy uyi -2005

2. J.G‘. Yo‘ldoshev, S.A. Usmonov. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy qilish. – Toshkent. Fan va texnologiya nashriyoti -2008



## ОНА ТИЛИ ВА КИМЙО ТА’ЛИМДА ИЛГ’ОР ТЕХНОЛОГИЯЛАР ВА ИНТЕРФАОЛ МЕТОДЛАРДАН FOYDALANISH

**Nurmetova Gulora Narimon qizi**

Ona tili fani o`qituvchisi

**Nurmetova Xulkar Rustamovna**

Kimyo fani o`qituvchisi

Yangiariq tumani 23-son umumiy o`rta ta`lim maktabi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada o`qitishning zamonaviy metodlarini qo`llash o`qitish jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga olib kelish, bu metodlarni har bir darsning didaktik vazifasidan kelib chiqib tanlash maqsadga muvofiqligi haqida ma`lumotlar keltirilgan.

**Kalit so`zlar:** interfaol ta`lim strategiyalari, interfaol, grafik organayzerlar,

Interfaol ta`lim metodlari hozirda eng ko`p tarqalgan va barcha turdagi ta`lim muassasalarida keng qo`llanayotgan metodlardan hisoblanadi. Shu bilan birga, interfaol ta`lim metodlarining turlari ko`p bo`lib, ta`limtarbiya jarayonining deyarlik hamma vazifalarini amalga oshirish maqsadlari uchun moslari hozirda mavjud. Amaliyotda ulardan muayyan maqsadlar uchun moslarini ajratib tegishli qo`llash mumkin. Bu holat hozirda interfaol ta`lim metodlarini ma`lum maqsadlarni amalga oshirish uchun to`g`ri tanlash muammosini keltirib chiqargan.

Interfaol metod biror faoliyat yoki muammoni o`zaro muloqotda, o`zaro bahs-munozarada fikrlash asnosida, hamjixdtlik bilan hal etishdir. Bu usulning afzalligi shundaki, butun faoliyat o`quvchi-talabani mustaqil fikrlashga o`rgatib, mustaqil hayotga tayyorlaydi.

O`qitishning interfaol usullarini tanlashda ta`lim maqsadi, ta`lim oluvchilarning soni va imkoniyatlari, o`quv muassasasining o`quv-moddiy sharoiti, ta`limning davomiyligi, o`qituvchining pedagogik mahorati va boshqalar e`tiborga olinadi.

Interfaol metodlar deganda – ta`lim oluvchilarni faollashtiruvchi va mustaqil fikrlashga undovchi, ta`lim jarayonining markazida ta`lim oluvchi bo`lgan metodlar tushuniladi. Bu metodlar qo`llanilganda ta`lim beruvchi ta`lim oluvchini faol ishtirok etishga chorlaydi.

Shunday qilib, fanlarni o`qitish jarayonida interfaol metodlardan foydalanish o`ziga xos xususiyatga ega. Ta`lim amaliyotida foydalanilayotgan har bir interfaol metodni sinchiklab o`rganish va amalda qo`llash o`quvchi-talabalarning fikrlashini kengaytiradi hamda muammoning to`g`ri yechimini topishlariga ijobiy ta`sir ko`rsatadi.

Yuqorida aytilganlardan interfaol ta`lim metodlarini tegishli tahlil qilish va shu asosda ularni tasniflash zarurati ma`lum bo`ladi. Quyida ushbu masala yuzasidan umumiy mulohazalarni keltiramiz.

Bu metodlarni tasniflashda ularni interfaol metodlar, interfaol ta`lim strategiyalari, interfaol grafik organayzerlarga ajratish mumkin.

Hozirgi kunda eng ommaviy interfaol ta`lim metodlari quyidagilar sanaladi: Interfaol metodlar: “Keys-stadi” (yoki “O`quv keyslari”), “Blist-so`rov”, “Modellashtirish”, “Ijodiy ish”, “Muammoli ta`lim” va b.

Interfaol ta`lim strategiyalari. “Aqliy hujum”, “Bumerang”, “Galereya”, “Zig-zag”, “Zinamazina”, “Muzyorar”, “Rotastiya”, “Yumaloqlangan qor” va k. Interfaol ta`lim metodlari tarkibidan interfaol ta`lim strategiyalarini ajratishda guruh ishini tashkil qilishga yondashuv ma`lum ma`noda strategiyondashuvga qiyoslanishiga asoslaniladi. Aslida bu strategiyalar ham ko`proq jihatdan interfaol ta`lim metodlariga tegishli bo`lib, ularning orasida boshqa farqlar yo`q.

Interfaol grafik organayzerlar: “Baliq skeleti”, “BBB”, “Konsteptual jadval”, “Venn diagrammasi”, “T-jadval”, “Insert”, “Klaster”, “Nima uchun?”, “Qanday?” va b. Interfaol grafik organayzerlarni ajratishda bunday mashg`ulotlarda asosiy fikrlar turli grafik shakllarda yozma ko`rinishda ifodalanishiga asoslaniladi. Aslida bu grafik organayzerlar bilan ishlash ham ko`proq jihatdan interfaol ta`lim metodlariga tegishli bo`lib, ularning orasida boshqa farqlar yo`q.

### Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Avliyoqulov N.X.. Zamonaviy o`qitish texnologiyalari.- Buxoro. Matbaa,
2. Ilmiy-metodik, ta`limiy, ma`naviy-ma`rifiy jurnal “Estetik fanlar metodikasi”.
3. Ziyomhammadov B., Abdullaeva Sh. Ilg`or pedagogik - texnologiyalar. - Toshkent: Abu Ali Ibn Sino.



## TEKNOLOGIYA DARSLARIDA FANLARARO ALOQADORLIK

**Rasulova Iroda Olimjonovna,**  
Navoiy viloyati, Navoiy shahar  
2-maktab texnologiya fani o'qituvchisi  
Telefon:+998 94 372 81 81

**Annotatsiya:** Maqolada texnologiya fanini o'qitishda o'tiladigan mavzularning boshqa fanlar bilan o'zaro aloqadorlik va bu aloqadorlikning o'quvchilarda komtensiya elementlarini shakllantirishdagi ahamiyatibog fanlararo bog'liqlik va xususida so'z yuritmoqchiman.

**Kalit so'zlar:** Milliy qo'g'irchoq, o'lchov olish, o'simlik, hayvon, informatika, mol go'shti, ekstrakt moddalar, oqsil, yog', mineral moddalar, baliq, oqsilar.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida texnologiya fanini o'qitishning yangilangan o'quv dasturida o'quvchi shaxsi va qiziqishlari ustuvorligidan kelib chiqib, ularning yosh xususiyatlariga mos ravishda fanga oid hamda tayanch kompetensiyalar elementlarini shakllantirilishi ko'zda tutilgan.

Texnologiya fani tasviriy san'at va chizmachilik, ona tili, kimyo, biologiya, matematika, fizika fanlari bilan o'zaro aloqador bo'lib, bu aloqadorlik tamoyili o'quvchilarda fanga oid hamda tayanch kompetensiyalarni shakllantirishda muhim o'rin tutadi. Bu aloqadorlikni quyida asoslab beramiz.

5-sinf o'quv dasturida milliy qo'g'irchoq yasash texnologiyasiga 6 soat ajratilgan bo'lib, ushbu darslar davomida milliy o'yinchoq (qo'g'irchoq) turlari, qo'g'irchoq andozasini tayyorlash va bichish, tana bo'laklarini birlashtirish, qo'g'irchoqning sochini tikish, yuziga ishlov berish, qo'g'irchoq ko'ylak va lozimini tikish yuzasidan o'quvchilarda bilim, ko'nikma va malakalar hosil qilinadi.

Qo'g'irchoq andozasini tayyorlash va bichish texnologiyasini o'rgatishda o'quvchilarda to'g'ri o'lchov olish va hisob-kitob qilish ko'nikmalarini rivojlantiriladi, yani matematika va texnologiya fanining bevosita o'zaro aloqadorligi yuzaga keladi.

Turli xil gazlamalardan hamda gazlama qoldiqlaridan qo'g'irchoq tikish jarayonida o'quvchilarda tejamkorlik, ishbilarmonlik, tadbirkorlik tushunchalari shakllantiriladi.

Qo'g'irchoq tayyorlash uchun mato, paxta, lenta, qaychi, andaza, qora jun ip, qalam, senrafon kabilar ishlatilishi haqida o'quvchilarga tushuntirishda bu mahsulot-materiallar o'simliklar va hayvonlardan olinadigan tolalar va narsalar ekanligiga izoh berish orqali bevosita botanika faniga doir ma'lumotlarga tayanish lozimligini ko'rsatadi.

Qo'g'irchoqni bichish –tikish jarayonida xalq ohanglarini xirgoyi qilish yoki yoqimli musiqa ohanglari ostida ish olib borish o'quvchida estetik zavq uyg'otadi.

Qo'g'irchoq sochini tikish, yuziga ishlov berish, qo'g'irchoqqa ko'ylak va lozimini tikish darsida milliy qadriyatlarimiz an'analarimiz, kiyinish odobi, urf-odatlarimiz haqida o'quvchilar bilan suhbatlashiladi. Ya'ni, milliy qo'g'irchoq va “barbi”larni o'quvchilarga ko'rsatib, ularning farqini, qaysi jihati ularga yoqishini va sababi so'raladi. O'quvchilarning fikrini tinglagandan so'ng milliylikimizga yot bo'lgan liboslari, yuzi va gavdasining tuzilishi, sochi, ko'zlarining rangidagi farqi haqida tushuncha beriladi. Bu jarayonda ma'naviyat asoslari fani bilan bog'liqlik muhim o'rin egallaydi.

Qo'g'irchoqqa kiyimlar qanday fashonda bo'lishi bo'yicha ma'lumot olish uchun Internet saytlariga kiriladi va kiyim tanlanadi. Bunda informatika faniga bog'liqlikni ko'ramiz va o'quvchilarda axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi shakllantiriladi.

Tayyor bo'lgan qo'g'irchoq uchun kiyimlarida gul, naqshlarning ranglari uyg'unligiga mos material tanlash jarayonida o'quvchilarning tasviriy san'at va chizmachilik fanidan o'lgan bilim va malakalariga tayaniladi.

7-sinfda “Go'sht (mol, qo'y, tovuq) va baliq mahsulotlarning ozuqaviy qiymati, ahamiyati, turlari, ularning sifatiga bo'lgan talablar. Go'sht yoki baliqni (tozalash) va bo'laklarga bo'lish tartibi. Ekstrogenital kasalliklar haqida tushuncha” mavzu bo'yicha olib boriladigan darslarda mol, qo'y, tovuq go'shti va baliq mahsulotlarning ozuqaviy qiymati va ularning sifati haqida tushuncha berishda o'quvchilarning biologiya, kimyo va matematika fanlaridan olgan bilim va malakalariga tayaniladi. Darsda odamlar kundalik taomlarida ko'pincha mol yoki qo'y go'shti iste'mol qilishlari hamda ularda ekstrakt moddalar, oqsil, yog', mineral moddalar. A, D, RR va V guruhlardagi darmondorilar borligi ta'kidlanib, go'sht to'qimalari muskul, birlashtiruvchi suyak



va iliklardan iborat ekanligi aytiladi hamda ularning har birining xususiyalari va inson salomatligi uchun foydali jihatlari tavsiflab beriladi.

Darsda baliq zarur ozuqa mahsuloti ekanligi haqida ushbu ma'lumotlar biologiya, kimyo va matematika fanlari bilan o'zaro bog'li: Kimyoviy tarkibi jihatidan uy hayvoni go'shtidan pastroq bo'lsa ham, mineral moddalarga, darmondorilarga, oqsilga boyligi jihatidan go'shtdan ustunlik qiladi. Baliq tarkibida 13-23% oqsil, 0,1-33% yog', 1-2% mineral moddalar. 50-80% suv. A, D, E, B. B1, PP, C darmondorilari, ekstraktiv moddalar bo'ladi.

Baliq oqsillari tarkibida kishi tanasida yangi to'qimalarni hosil qiluvchi juda kerakli aminokislotalar qimmatli hisoblanadi. Bularga albumin, globulin, nukleoproteid va boshqalar kiradi. Birlashtiruvchi to'qima oqsili - kollegen sifatsiz oqsil bo'lib, issiqlik ta'sirida o'z ko'rinishini tez o'zgartirib, yopishqoq modda-glyutinga aylanadi. O'z tuzilishiga ko'ra baliq odam tanasida tez hazm bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, o'quvchilarda fanfa oid va tayan kompetensiya elementlarini shakllantirishda darslarda fanlararo aloqadorlik muhim ahamiyatga egadir. Bunday aloqadorlik o'quvchilarda mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi va ilmiy dunyoqarashni shakllantiradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standartlari. 2017-yil.
2. Mavlonova R.A, Sanoqulov X.R, Xodieva D.P “Mexnat va uni o'qitish metodikasi” O'quv qo'llanma. 2007yil TDPU.
3. Texnologiya. (darslik. 5-sinf) Toshkent. 2021-y.
4. Texnologiya. (darslik 7-sinf) Toshkent. 2022-y.
5. www. Ziyonet.uz.



**CHET EL TA'LIM TIZIMIDAGI TAJRIBALARDAN FOYDALANIB BOSHLANG'ICH TA'LIM DARSLARINI TASHKIL ETISH**

**Bobomurodova Nargiza Suyarqulovna**

Navoiy viloyati, Xatirchi tumani  
55-umumiy o'rta ta'lim maktabining  
bog'lang'ich ta'lim o'qituvchisi  
+998973775040

**Yo'ldosheva Dilrabo Hamroqulovna**

Navoiy viloyati, Xatirchi tumani  
55- umumiy o'rta ta'lim maktabining  
boshlang'ich o'qituvchisi  
+998934 223 8282

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada boshlang'ich sinf fanlarini o'qitish jarayonida chet el tajribalarida qo'llanuvchi metodlardan foydalanish haqida fikr yuritiladi. Chet el tajribalari o'zbek maktablarida qo'llanilishi misollar bilan aytilgan.

**Kalit so'zlar:** “Sayohat” metodi, “Kaizen falsafasi”, “Vark modeli”, metod, model, vizual, knestetik.

Boshlang'ich bilimlarni chuqur anglamagan avlod kelajakda vatanparvar shaxs bo'lib ulg'ayishiga hech kim kafolat bera olmaydi. Har qanday millat yuksalishi uchun u, avvalo, barcha bilimlarni chuqur bilmog'i lozim. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida boshlang'ich sinf fanlarini o'rgatish samaradorligiga erishish uchun bir qator metodlarni qo'llashimiz mumkin. Hozirgi zamonaviy pedagog zamonaviy o'quvchini o'z faniga jalb qilishi, uni fanga qiziqitira olishi uchun, avvalo, o'quvchi psixologiyasini chuqur anglashi lozim. Hozirgi kunda yoshlarning kelajakdagi rejalari orasidan, boshqa davlatlarga sayohat qilish, albatta, o'rin egallagan. Ularning qiziqishini inobatga olgan holda, o'qish fanida “ Sayohat” metodini qo'llash maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu metod asosi quyidagicha: dunyoning eng mashhur shaharlari suratini doskaga osib qo'ying. Dars so'ngida o'quvchilarga yopishadigan kartochkalar tarqating va dars davomida o'rgangan ma'lumotidan bittasini yozib qaysi shaharga sayohat qilishni xohlasa, shu shahar surati ustiga yopishtirib kelishini so'rang. O'quvchilarga bir-birlarining aytgan ma'lumotini, qaysi shaharga sayohat qilganligini eslab qolishini ta'kidlang. O'quvchilar sinfdoshlari aytgan ma'lumotni takror aytilib u yopishtirgan kartochkani surat ustidan topsin. Bu juda qiziqarli mashg'ulot bo'ladi va o'quvchilar jon-dili bilan bajarishadi.

Ikkinchi Jahon urushidan keyin Yaponiyaning taraqqiyot yo'li sifatida ishlab chiqilgan “Kaizen” (continuous improvement) falsafasi bugunga kelib barcha sohalarga, qolaversa, shaxsiy rivojlanish uchun ham foydalanib kelinmoqda. Kaizen jarayonini faqat to'rt bosqichga qisqartirish mumkin. Har bir qadam nimani anglatishini qisqacha ko'rib chiqamiz.

Maqsadingizni va unga qanday erishish mumkinligini aniqlang, ya'ni oldindan rejalashtiring. Masalan, men qisqa muddatda arifmetikani o'rganmoqchiman.

Rejani bajaring va uning bajarilishini ta'minlash uchun zarur bo'lgan barcha o'zgarishlarni amalga oshiring, ya'ni doimiy talabchanlikni yo'qotmang. Masalan, bir kunda 3-4 mavzuni o'rganing, mustahkamlang va amalda qo'llang

Natijangizni tekshiring, baholang va takomillashtirish imkoniyatlarini aniqlang

Oldingi bosqichlarda erishilgan narsalarga qarab doimiy tuzatishlar kiritib boring

Kaizen falsafasining eng asosiy ma'nosi – Siz doimiy ravishda maqsadingiz uchun kichik nimanidir amalga oshirib boring. Bu metod, ayniqsa, karra jadvalini yod olib bilimini oshirmoqchi bo'lganlar uchun juda samarali hisoblanadi. Zero, karra jadvali arifmetikani o'rganishning tamal toshidir.

Vanderbilt universiteti ma'lumotlariga ko'ra, 70 dan ortiq turli xil uslublar mavjud, ammo hozirgacha eng mashhurlari Vark modelidagi to'rtta uslubdir.

Bu uslublar orqali tarix fanini o'rganish tez va oson amalga oshadi.

Vizual (kosmik) uslub – o'quvchilar ko'rish orqali yaxshiroq o'rganadilar. Bu uslubda ko'proq rasm, sxema va jadvallar qo'l keladi. Biror rasmni bo'laklarga bo'ling va har bir bo'lagiga tarix fanidagi biror matn qismlarini joylashtiring. O'quvchi bo'laklarga bo'lingan rasmni tiklasin va shu



orqali undagi matn ham tiklanadi.

Eshitish – o’quvchi eshitish orqali yaxshiroq o’rganadi. Tarix fanida o’quvchilarga mavzuga doir ma’lumotlar aytting. O’quvchi nutqini telefonga yozing va ularni o’zlariga eshittiring. O’quvchilarning xatolarini sinfdoshlari topishsin. Yoshlar tengdoshining maslahatini yaxshiroq qabul qilishadi.

O’qish-yozish – o’quvchilar o’qish va yozish orqali eng yaxshi narsani o’rganishadi. Bu uslub o’qish va yozishni xush ko’ruvchilar uchun samaraliroq bo’ladi.

Kinestetik (jismoniy harakat) – o’quvchilar harakat qilish va bajarish orqali yaxshiroq o’rganadi. Bu uslubda ko’proq harakatli o’yinlar orqali mavzu mustahkamlanadi. O’quvchilar uchun bu uslub juda qiziqarli va maroqli. Ularni dars boshlashdan oldin mavzuga diqqat qilishi va dars so’ngida qiziqarli mashg’ulot ularni kutayotgani haqida ogohlantiring. Shunda o’quvchi butun dars davomida sizni butun vujudi bilan tinglaydi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. J. Suyundikov “ Boshlang’ich ta’lim metodikasi”
2. M. Jalilov “ Metodika”
3. N. Rahmatullayev “ Pedagogika”



«ПСИХОЛОГИЧЕСКОЕ СОПРОВОЖДЕНИЕ СЕМЕЙ ВОЕННОСЛУЖАЩИХ  
ПРИ АДАПТАЦИИ К УСЛОВИЯМ ВОЕННОЙ СЛУЖБЫ»

Соаталиев Жасурбек Ахроржон ўғли

E-mail: jasurbeksoataliyev190399@gmail.com

Национальный университет имени Мирзо Улугбека  
Факультет Социальных наук направления Психология  
Магистратура 2-го курса

**Аннотация:** В статье рассматриваются факторы, определяющие необходимость организации психологического сопровождения семей военнослужащих при их адаптации к условиям военной службы. Особое внимание уделяется определению основных направлений психологической работы в процессе психологического сопровождения семей военнослужащих.

**Ключевые слова:** адаптация, психологическая сопровождение военнослужащих и его особенности, стадии кризисы семей, психологический помощь.

**Annotation:** The article discusses the factors that determine the need to organize psychological support for the families of military personnel in their adaptation to the conditions of military service. Particular attention is paid to the definition of the main directions of psychological work in the process of psychological support for the families of military personnel.

**Key words:** adaptation, psychological support of military personnel and its features, stages of family crises, psychological assistance.

Психологическое сопровождение семей военнослужащих представляет собой одно из важнейших направлений работы военного психолога. Важность данного направления обусловлена спецификой несения военной службы и психологическими особенностями выполнения военнослужащими своего долга по защите страны. Анализ социальных и психологических проблем военнослужащих и их семей необходимо начинать с рассмотрения таких факторов, как «воинская служба и ее специфика», «социальный статус военнослужащего», «права и свободы военнослужащих», так как большая часть трудностей, с которыми они сталкиваются обусловлены спецификой военной службы.

Профессиональная деятельность военнослужащего такова, что большая ее часть посвящена несению службы и выполнению своего служебного долга в разных регионах и при разных условиях. Это могут быть как большие города с развитой инфраструктурой, так и закрытые военные городки рядом с небольшими поселениями, расположенные вдалеке от современных условий, что, в свою очередь, будет существенно осложнять благополучие брачно-семейных отношений, так как они будут протекать на фоне продолжительных бытовых трудностей. Кроме того, замкнутое пространство военных городков, постоянное пребывание военнослужащего на службе и большая ответственность за семью на плечах жен военнослужащих и необходимость все вопросы быта решать самостоятельно оказывается серьезным испытанием для многих и отражается на качестве брачных отношений.

Семья для военнослужащего является важным психостабилизирующим основанием, она помогает ему преодолевать трудности службы, придает смысл его жизни, там он находит удовлетворение своих потребностей и поэтому устойчивость и стабильность этого основного социального института является одним из важнейших условий успешной военной службы.

В тоже время увеличение числа разводов, снижение уровня удовлетворенности браком у многих военнослужащих, учащение случаев домашнего насилия, возникновение ненормативных семейных кризисов, разного рода аддикций приводят военнослужащих к дезорганизации, нервно-психическим срывам и другим негативным эмоциональным состояниям.

Помимо социальных и психологических трудностей специалисты отмечают также снижение уровня жизни военнослужащих и членов их семей. Среди причин, вызывающих эту тенденцию выделяют следующие:<sup>1</sup>

- малообеспеченность, следствием которой являются достаточно низкие ставки оплаты

1 Шуман С.Г., Шуман В.П. Конфликты в молодой семье. Минск, 1989. с. 80



труда и имеющиеся задержки с выплатой денежного содержания. Также проблемы с финансовым обеспечением семьи возникают из-за невозможности военнослужащих найти дополнительные заработки (юридически запрещено законом и, фактически, блокировано ненормируемым рабочим днем, охватывающим практически целые сутки), отсутствия постоянного собственного жилья и необходимость высокой оплаты за аренду частного жилья;

- проблемы со здоровьем как самого военнослужащего, связанные со спецификой современного воинского труда (рост социальной напряженности, повышение физических и психологических нагрузок, воздействие различных внешних факторов, необходимость постоянной социально-психологической адаптации к новым условиям и т.д.) так и проблемы со здоровьем членов семьи военнослужащего и отсутствием возможности постоянно получать высококвалифицированную специализированную медицинскую помощь;

- проблемы с образованием и воспитанием детей, возникающие из-за частой смены учебных заведений, невозможности выбора мест обучения, отдаленности от культурных и академических центров. Перегруженность служебными обязанностями и их повышенная сложность мешает нормальному участию в воспитании детей и вызывает внутрисемейную дисгармонию. Нередки конфликтные ситуации и разногласия;

- проблемы с трудоустройством членов семьи (жен) военнослужащих, связанные с переездами к новому месту службы и ограниченностью в местах прохождения службы рабочих мест по специальности. В отдаленных гарнизонах и закрытых военных городках практически невозможно трудоустроиться, что вынуждает жен военнослужащих оставаться без работы, а в дальнейшем иметь проблемы с получением пенсионного содержания.

Резюмируя вышесказанное, отметим, что имеет место некоторых парадокс. На первый взгляд военнослужащие по характеру своей деятельности, набору личных качеств и возрастному диапазону не должны относиться к уязвимым слоям населения. Однако, в реалиях современной жизни из-за специфики профессиональной деятельности связанной с воинской службой и негативных тенденций все чаще проявляющихся в современной военно-социальной среде, они становятся социальной группой находящейся в трудной жизненной ситуации и в уязвимом положении. Особенно это касается военнослужащих уволенных в запас или в отставку и членов их семей.

Проблема адаптации граждан, уволенных с воинской службы и членов их семей, является одной из важнейших. Учитывая основные социальные характеристики кадровых военнослужащих, уволенных в запас или отставку, мы можем охарактеризовать их, как «определенную категорию населения, представляющую устойчивую систему социально-значимых черт, характеризующих личность, сформировавшуюся в процессе адаптации в рамках института Вооруженных Сил и обладавшую определенным статусом в этом институте, но в результате социальных преобразований вошедшую в новую для нее среду - гражданское общество».<sup>1</sup>

Перечисленные выше это факторы объективного характера и материального плана, при этом существуют и трудности психолого-педагогического характера. К ним относятся неподготовленность современной молодежи к браку, отсутствие знаний о семье, ее функциях, семейных ролях, жизненных циклов семьи, нормативных и ненормативных семейных кризисов, системы взаимоотношений, взаимодействия и взаимовлияния, способов общения и разрешения конфликтных ситуаций, процесса адаптации и принятия новых ролей и функций, осознанного и ответственного отношения в своей жизни и жизни своей семьи и пр.

Все вышеперечисленные трудности требует своего решения и психологического в том числе, которое может быть выражено в психологическом сопровождении процесса адаптации членов семей как к условиям военной службы, так и перед ее окончанием и адаптации уже к гражданской жизни.

Для обеспечения достаточных условий эффективности социально-психологической помощи членам семей военнослужащих необходимо решить ряд организационно-методических задач, которые носят теоретико-методологический, собственно

<sup>1</sup> Голод С. Социально-психологические и нравственные ценности семьи. Молодая семья. Ред. сост. А.И. Антонов. М., 1977.



организационный, психологический и этический характер.

В числе организационных задач стоит определение места социально- психологической помощи среди других направлений деятельности военного психолога и в целом в системе воспитательной работы, планирование психологической работы, выявление лиц и семей, нуждающихся в помощи психолога и определение основных организационных форм проведения и тематики этой работы.

Наряду с организационными мерами, направленными на более быструю и успешную адаптацию семей военнослужащих, особое место занимает комплекс специальных психологических воздействий, проводимых психологами, направленными на помощь в таком изменении поведения, деятельности, общения и внутреннего мира членов семей военнослужащих, которое позволит осуществить их успешную психологическую адаптацию. Этой работе предшествует формирование у военнослужащих готовности к осознанию значимости психологической помощи, преодоление у них стереотипов, вызывающих недооценку этого вида работы, стремление улучшить свою семейную жизнь и приложение усилий для изменения себя и своих представлений.

Между тем задачи, стоящие перед Вооруженными Силами, определяют все более высокие требования к морально-психологическому обеспечению повседневной деятельности военнослужащих.<sup>1</sup>

В этой связи управление процессом адаптации членов семей военнослужащих приобретает очень важное значение.

К рекомендациям по оптимизации психологической помощи в адаптации членов семей военнослужащих проживающих в военных городках можно отнести следующее:

а) с целью повышения эффективности оказания психологической помощи военнослужащих и членов их семей на уровне Министерства Обороны необходимо рассмотреть вопрос о создании специальной психологической службы, в рамках которой можно будет объединить усилия по оказанию психологической помощи не только военнослужащим и их семьям, но и гражданскому персоналу, в том числе помощи психотерапевтического, психо-коррекционного характера;

б) в интересах более полного и глубокого изучения адаптационных проблем членов семей военнослужащих целесообразно разработать опросник диагностики уровня адаптированности (ДУА) как для военнослужащих, так и для членов их семей;

в) для оказания психологической помощи нуждающимся в ней членам семей военнослужащих использовать методики оказания индивидуальной психологической помощи и группового адаптационного тренинга. В интересах организационно-методического обеспечения оказания психологической помощи целесообразно разработать Наставление о порядке оказания психологической помощи в Вооруженных Силах и разработать методику адаптационного тренинга;

г) в целях обеспечения материально-технической базы психологической помощи в воинских частях необходимо создать рабочие места психологов, обеспеченные помещениями для индивидуальной и групповой работы, проведения психодиагностики и аналитической работы, оборудованные звуко(видео)-записывающей, воспроизводящей и электронно-вычислительной техникой.

Что же касается самой психологической помощи членам семей военнослужащих в решении адаптационных проблем то здесь также необходимо решение ряда вопросов связанных с:

- анализом факторов и условий эффективности организации и осуществления психологической помощи;
- рассмотрением механизмов ее осуществления и определения путей, способов и форм ее реализации и соотносением с психотерапевтическими подходами;
- внедрением в теорию и практику психологической помощи интегративного подхода;
- разработкой инструментально-методической базы и определением критериев эффективности данной работы и пр.

#### **Заключение**

В данной работе были приведены предпосылки объективного и психологического плана,

<sup>1</sup> Президент.uz Президент посетил полигон «Фориш»



которые определяют необходимость осуществления психологического сопровождения военнослужащих и членов их семей. Мы очертили основные теоретические подходы к психологическому обеспечению военнослужащих и их психологическому сопровождению. Еще раз акцентировали внимание на деятельности военного психолога и на том, какую важную роль в жизни подразделения он играет. Военная психологическая служба всё еще находится в стадии своего становления и развития и нуждается в структурно-организационных решениях и в активном методическом обеспечении.

### Литература

1. Голод С. Социально-психологические и нравственные ценности семьи. Молодая семья. Ред. сост. А.И. Антонов. М., 1977.
2. Гребенников И. В., Дубровина И. В., Разумихина Г. П. Этика и психология семейной жизни. - М., 1994.
3. Андреева Т.В. Семейная психология: учеб. пособие. — СПб.: Речь, 2004.
4. Алфеева Е.В. Изучение особенностей протекания супружеских конфликтов в семьях на разных стадиях развития // Вестник Курганского государственного университета: Сер. Физиология, психофизиология, психология и медицина, 2006. № 6. С. 97-99.
5. Алешина Ю.Е. Цикл развития семьи: исследования и проблемы // Вестник МГУ: Сер. 14. Психология, 1987. № 2. С. 18-26
6. Данилова Е.А. Исследование особенностей самоактуализации личности супругов и их поведения в конфликте // Социальные представления и самоопределение молодежи в изменяющемся мире: Материалы междунар. науч. конф. Саратов, 2009. Ч. 1. С. 197-200.
7. Сатир, В. Психотерапия семьи / В. Сатир. – СПб.: Речь, 2001. – 295 с.62, Семейная психотерапия / сост. Эйдемиллер Э.Г., Александрова Н.В., Юстицкис В. – СПб.: Питер, 2000. – 512 с.
8. Psychologyjournal.ru
9. Psystudy.ru
10. Prezident.uz



**BOSHLANG‘ICH TA‘LIMDA SO‘Z MA‘NOLARI USTIDA ISHLASH**

**Abdullayeva Altinjon Egamberganovna**

Xiva shahar 1-son maktab o‘qituvchisi

Telefon: +998 (99) 131 72 40

ae.altinjon\_1school@inbox.uz

**Raximova Sharofat Rajabovna**

Xiva shahar 1-son maktab o‘qituvchisi

Telefon: + 998 (90) 090 56 70

sharofat.rajabovna\_1school@inbox.uz

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada boshlang‘ich ta‘limda boshlang‘ich sinf o‘quvchilari nutqini o‘stirish, ularning lug‘atini boyitish, muloqotga kirisha olish va fikrni ifodalash ko‘nikmalarini rivojlantirishda haqida.

**Kalit so‘zlar:** So‘z ma‘nosi, fikr, tafakkur, mashq, nutq.

Jamiyatimizning har bir a‘zosi, har qanday mutaxassis, zamon bilan hamqadam har qanday kadr, eng avvalo, o‘z ona tilining sadoqatli sohibi bo‘lmog‘i lozim. Ona tiliga chinakam sohib bo‘lmoqning bosh sharti esa uning tuganmas imkoniyatlarini tugal egallamoq, ya‘ni fikrni mustaqil, ravon, go‘zal va lo‘nda ifoda eta olmoqdan iborat nutqiy madaniyat malakalarini shakllantirmoqdir. Zotan, nutq madaniyati tildan bemalol va maqsadga o‘ta muvofiq tarzda foydalana olishni ta‘minlaydigan ko‘nikma, malaka va bilimlarning jami demakdir.

So‘zning ma‘nosini tushuntirish juda kam vaqt olishi va darsning asosiy mavzusidan o‘quvchilar diqqatini chalg‘itmasligi kerak. Buning uchun o‘qituvchi har bir darsga tayyorlanish jarayonida ma‘nosi tushuntirilishi lozim bo‘lgan so‘zlarni, uni tushuntirishning eng qulay usullarini va darsning qaysi o‘rnida tushuntirishni belgilab oladi.

O‘qish kitoblaridagi matnlarda birinchi marta uchragan, bolalar ma‘nosini bilmaydigan ayrim so‘zlar matnni o‘qishdan oldin tushuntiriladi.

Matnni o‘qish jarayonida so‘z ma‘nosini tushuntirishga chek qo‘yish kerak. Agar biror so‘zni matnni o‘qish vaqtida tushuntirish zaruriyati tug‘ilsa, matn mazmunidan o‘quvchilar diqqatini chalg‘itmagan holda shu so‘z ma‘nosi qisqacha tushuntiriladi.

Ko‘chma ma‘noda ishlatilgan obrazli so‘zlar va badiiy nutq oborotlari matn o‘qilgandan keyin tushuntiriladi, chunki ularning ma‘nosi matn mazmunidan, kontekstdan yaxshi tushuniladi. Ayniqsa, masallar o‘qilganda, undagi allegorik, ko‘chma ma‘noda ishlatilgan so‘zlarni asarni o‘qishdan oldin yoki o‘qish jarayonida tushuntirib bo‘lmaydi.

Metodikada so‘zlarni tushuntirishning quyidagi usullaridan foydalaniladi:

1. So‘zni kontekst asosida tushuntirish. Bunda o‘quvchilar tushunmaydiganso‘zularga tushunarli so‘zlar qo‘llangan gap (yoki matn) yordamida tushuntiriladi.

2. So‘z ma‘nosini lug‘atdan va o‘qish kitoblarida matn ostida berilgan izohdan foydalanib tushuntirish. Bundo o‘quvchilarni izohdan mustaqil foydalanib, so‘z ma‘nosini mustaqil tushunib olishga o‘rgatish muhim ahamiyatga ega.

3. So‘z ma‘nosini shu so‘zning ma‘nodoshi yordamida tushuntirish.

Masalan, sabo - shabada, mudofaa - himoya, sozanda - musiqachi, diyor - vatan, inshoot - bino, samo - osmon kabi. So‘zni sinonim tanlash bilan tushuntirganda, shu so‘zning stilistik (uslubiy) ahamiyatini ham ko‘rsatish zarur.

4. Tanish bo‘lmagan so‘z bilan ifodalangan tushunchani tanish bo‘lgan so‘z bilan ifodalangan tushunchaga (uning antonimiga) taqqoslash orqali tushuntirish. Masalan, ishchan tushunchasini dangasa tushunchasiga, rostgo‘y so‘zini yolg‘onchi so‘ziga taqqoslab tushuntirish mumkin. Ko‘chma ma‘noda ishlatilgan so‘z va so‘z birikmalari, tasviriy vositalar, maqollar ham taqqoslash usulidan foydalanib tushuntiriladi.

5. So‘zni o‘ziga yaqin tushuncha bilan, ya‘ni boshqacha ifoda etish bilan tushuntirish. Bunda tushuntiriladigan so‘zning izohi qisqa va aniq bo‘lishi kerak. Masalan, o‘zboshimchalik – o‘z xohishicha ish tutish, ishni o‘zi xohlaganicha bajarish; mutaxassis – biror hunar egasi; shunqor – uzoq uchadigan ko‘zi o‘tkir qush; mesh – mol terisidan tikilgan idish; guldon – gul solib qo‘yiladigan idish va boshq.

Ba‘zi so‘zlar ularning vazifasini izohlash orqali tushuntiriladi. Masalan, kombayn – bir vaqtning



o‘zida donni o‘radigan, yanchadigan, tozalaydigan qishloq xo‘jalik mashinasi; ekskavator - bir vaqtning o‘zida yerni qazib tuproqni yuk mashinasiga ortadigan mashina; aerodrom - samolyotlar turadigan, uchib ketadigan yoki kelib qo‘nadigan joy va hok.

6. So‘zni predmetning asosiy belgisini izohlash orqali tushuntirish. Masalan, yantoq – suvsiz joyda o‘sadigan ninasimon tikanli o‘simlik; akula – okeanlarda yashaydigan juda katta yirtqich baliq va boshq.

7. Axloqiy, mavhum tushunchalarni ifoda etuvchi so‘zlarning ma‘nosini misollar yordamida tushuntirish. Buning uchun o‘quvchilar o‘rgangan badiiy asardan axloqiy fazilatga ega bo‘lgan asar qahramonining qilgan ishlari tahlil qilinadi.

Xulosa qilib aytganda, boshlang‘ich ta‘limda boshlang‘ich sinf o‘quvchilari nutqini o‘stirish, ularning lug‘atini boyitish, muloqotga kirisha olish va fikr ifodalash ko‘nikmalarini rivojlantirish zarurdir. Shunday ekan, so‘z ma‘nosini tushuntirish ustida ishlash o‘quvchilar lug‘atini boyitadi, nutqini ravonlashtiradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati:**

1. Rahmatullayev Sh. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – T.: Universitet, 2006. – 476 b.
2. Tolipov Q., Usmonboeva M. Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot. – T.: Fan, 2005. – 205 b.
3. Xodiev B., Golish L. Mustaqil o‘quv faoliyatini tashkil etish usul va vositalari. –T.: TDIU, 2010. – 87 s.
4. Qurbonova M. Hozirgi zamon o‘zbek tili. O‘zMU, T.: 2002.



## TARIXNI O'RGANISHDA "QORA QUTI" METODINING SAMARASI

Allanazarova Zebiniso, Ismailova Muhayyo

Yangiariq tumani 23-maktabning  
tarix fani o'qituvchilari

*Annotatsiya:* Maqolada tarix fani darslarida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati, dunyoqarash hamda tafakkur ko'lamini hosil qilish, jismoniy, ma'naviy va axloqiy sifatlarni shakllantirish bo'yicha ayrim tavsiyalar berilgan muxokama qilingan.

*Kalit so'zlar:* pedagogik texnologiyalar, uslublar, mezonlar, amaliy darslar

Mustaqil O'zbekiston Respublikasida shakllanayotgan milliy istiqlol g'oyasi Respublika Konstitutsiyasida e'tirof etilgan insonparvar, demokratik, huquqiy davlat va jamiyatni barpo etish, shuningdek, ijtimoiy-iqtisodiy hamda madaniy rivojlanishning yuqori bosqichlariga ko'tarish, jahon hamjamiyati safidan munosib o'rin egallashga yo'naltirilgan ezgu maqsadlarni amalga oshirishga xizmat qiladi. Ushbu maqsadlarning ijobiy natijaga ega bo'lishi eng avvalo, yosh avlodga ilmiy bilimlar asoslarini puxta o'rgatish, ularda keng dunyoqarash hamda tafakkur ko'lamini hosil qilish, jismoniy, ma'naviy va axloqiy sifatlarni shakllantirish borasidagi ta'limiy-tarbiyaviy ishlarni samarali tashkil etishga bog'liqdir. Zero, yurtning porloq istiqbolini yaratish, uning nomini jahonga keng yoyish, ulug' ajdodlar tomonidan yaratilgan milliy-madaniy merosni jamiyatga namoyish etish, ularni boyitish, mustaqil O'zbekiston Respublikasining rivojlangan mamlakatlar qatoridan joy egallashini ta'minlash yosh avlodni xar tomonlama komil inson hamda malakali mutaxassis qilib tarbiyalashga bog'liqdir. O'qituvchilar o'qitish uslublarini mujassamlashtirgan holda, mashg'ulotlar o'tkazishga tayyorlanishi, turli o'quv qurollaridan samarali foydalanishi hamda o'quv rejasi va dasturlarini metodologiyasini ochib berishi lozim. Biroq, shuni unutmaslik lozimki, o'qitish va o'rgatish jarayonlarini boshqarish, mavjud o'quv vositalaridan samarali foydalanish va o'quv mashg'ulotarida o'quvchilarga imkon qadar manfaatli bo'lishini ta'minlash va shu kabi boshqa ko'pgina vazifalar o'qituvchining zimmasiga to'liq yuklatiladi. Fanlarni o'qitishda yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish; o'qituvchi o'qitish va o'rgatish, shuningdek, mavjud imkoniyat va sharoitlardan unumli foydalanish uchun mas'ul shaxs hisoblanadi. Bu vazifani bajarish uchun o'qituvchi o'qitish jarayoni hamda o'qitiladigan fanlarning ilmiy va texnik jihatlarini to'liq bilishi lozim. Bundan maqsad shuki, o'qitish uslubi shunday yo'lga qo'yilsinki, bunda o'quvchilar o'qitilayotgan fanni to'liq o'zlashtira olishsin.

**"Qora quti" metodi** Ta'lim jarayonida mazkur metodni qo'llashdan maqsad, o'quvchilar tomonidan mavzuni puxta o'zlashtirishga erishish bilan birga ularni faollikka undash, ularda hamkorlikda ishlash, ma'lum vaziyatlarni boshqarish hamda mantiqiy tafakkur yuritish ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat. Metoddan foydalanishda quyidagi harakatlar tashkil etiladi:

- o'quvchilar juftlikka birlashtiriladi;
- juftliklarga mavzu mohiyatini yorituvchi asosiy tushunchalar (tayanch so'zlar, sanalar, raqamlar, belgilar va h.k.)ni kartochkalarga qayd etish vazifasi yuklanadi:
- o'qituvchi o'quvchilar bilan hamkorlikda guruhlar tomonidan topshiriqning bajarilishini tekshiradilar;
- topshiriqni to'g'ri bajargan guruhning bir a'zosi o'qituvchi rolini bajaradi va topshiriqning yechimini yozuv taxtasiga yozadi;
- o'quvchilar yozuv taxtasida qayd etilgan fikrni sharhlay-dilar (tayanch so'zlar, sanalar, raqamlar, belgilar qanday ma'noni ang-latishini aytadilar);
- to'g'ri javob bergan o'quvchi o'qituvchi rolini bajarib, juftliklarga mavzu mohiyatini yorituvchi shakl, jadval yoki tasvir yaratishni topshiradi va o'qituvchi yordamida topshiriqning bajarilishini tekshiradi.

### Foydalanilgan adabiyotlar royxati:

1. Ishmuhammedov R va boshqalar. "Ta'limda innovatsion texnologiyalardan foydalanish". Toshkent. 2008 y
2. Ishmuhammedov R va boshqalar. "Ta'lim-tarbiya jarayonlarida innovatsion texnologiyalardan foydalanish". Toshkent. 2010 yil.
3. Avliyoqulov N.X.. Zamonaviy o'qitish texnologiyalari.- Buxoro. Matbaa, 2. Ilmiy-metodik, ta'limiy, ma'naviy-ma'rifiy jurnal "Estetik fanlar metodikasi".



## BOSHLANG‘ICH SINFLARDA FE‘L SO‘Z TURKUMINI O‘RGANISHDA INTERFAOL METODLARNI QO‘LLASH

Atadjonova Laylo Muxammadsadikovna

Xorazm viloyati Urganch shahar

22-sonli maktabning boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada ta‘lim mazmuni, bunda didaktik o‘yinlar va interfaol metodlarning o‘rni haqida mulohaza yuritilgan, shuningdek boshlang‘ich sinflarda “Fe‘l” so‘z turkumini o‘rganishda interfaol metodlarni qo‘llash usullari keltirib o‘tilgan.

**Kalit so‘zlar:** boshlang‘ich sinf, didaktik o‘yin, ona tili, fe‘l, metod, interfaol, maktab, ta‘lim, malaka, bola.

Ijtimoiy borliqning barcha jabhalari chuqur globallashtayotgan va ularda muammolar yechilayotgan bir sharoitda, o‘zaro aloqador va bog‘liq bo‘lgan hozirgi davrda serqirra tafakkurli yoshlarning har tomonlama mukammal rivojlanishi, kamol topishi va shakllanishiga ehtiyoj bor. Ta‘lim mazmuni va tuzilishini takomillashtirish yo‘llarini izlash, zamonaviy ilmiy integratsiya g‘oyalari asosida boshlang‘ich ta‘limning didaktik asoslarini ishlab chiqish orqali tanqidiy tafakkur egalarini tabiiyalash hozirgi kunning muhim talabidir. Chunki, bolada bunday tafakkur qilish natijasida bunyodkor g‘oyalarni vayronkor g‘oyalardan farqlay olish ko‘nikmasiga ega bo‘ladi. bolalarda mustaqil faollikni, fikrlar rang-barangligini shakllantirishda fanlararo aloqadorlik mexanizmidan foydalanish muhim amaliy ahamiyat kasb etadi.

O‘yin inson o‘zligining namoyon bo‘lishi, uning takomillashuv usulidir. O‘yin nafaqat kattalar balki bolalar hayotida ham alohida o‘rin tutadi. Uni “bolalikning hamrohi” deb atash qabul qilingan. O‘yin maktabgacha va boshlang‘ich ta‘lim yoshidagi bolalar hayotining mazmunini tashkil etadi. O‘yin mehnat va ta‘lim bilan uzviy aloqada olib boriladigan jarayondir. O‘yinda shaxsda mavjud jihatlar ishga tushadi, ya‘ni bola gapiradi, sakraydi, harakat qiladi, idrok etadi, diqqatini jamlaydi, o‘ylaydi. O‘yin tarbiyaning muhim vositasi hisoblanadi.

Didaktik o‘yinlarda bolalar o‘zlarida tabiatdagi predmet va hodisalar, hayvonlar va o‘simliklar haqida mavjud bo‘lgan bilimlarni aniqlaydilar, mustahkamlaydilar, kengaytiradilar. Ko‘pgina o‘yinlar bolalar bilimni umumlashtirish hamda sistemaga solishga o‘rgatadi. Didaktik o‘yinlar xotira, diqqat, kuzatuvchanlikning o‘shiga yordam beradi, bolalarni mavjud bilimlardan yangi sharoitlarda foydalanishga o‘rgatadi, turli aqliy jarayonlarni aktivlashtiradi, lug‘atni boyitadi, bolalarda birgalikda o‘ynash ko‘nikmasini tarbiyalashga yordam beradi. Biz quyida boshlang‘ich sinflarda qo‘llash uchun ayrim o‘yin turlarini ko‘rib o‘tamiz.

3-sinfda “Fe‘l” so‘z turkumini o‘rganishda quyidagi interfaol metodlardan foydalanishni tavsiya etamiz:

Muzyorar metodi asosida tanishuv mashqi; “Mening ismim.... va men yotirib bajaradigan harakat...” “Mening ismim Behzodjon, men futbol o‘ynayman” kabi.

“Aqliy hujum” metodi asosida “ Fe‘lga oid oid so‘zlar ayting” topshirig‘i asosida bajarishimiz mumkin: o‘qidi, yugurdi, chizdi, yozdi, yedi.....

“Klater” metodi asosida tarmoqlash:

Har bir guruhga “Fe‘l” so‘zi berilib, klaster usulida tarmoqlash beriladi.

Masalan:





3x4 texnologiyasi asosida soʻzlar yozish;  
1-guruh: nima qildi?; uxladi, uygʻondi....  
2-guruh: nima qilyapti: tayyorlayapti, yozayapti...  
3-guruh: nima qilmoqchi; bormoqchi, kelmoqchi  
“T” chizma asosida rasmlar asosida topshiriqni bajarish:

Boʻlishli feʼl    Boʻlishsiz feʼl

davoladi      davolamadi

oʻqitadi      oʻqitmaydi

oʻynadi      oʻynamadi

oʻqiydi      oʻqimaydi.....

Kichik guruhlarda ishlash:

1-guruhga topshiriq: Bugun nima ishlar qilyapsiz? 2 ta gap topib yozing.

2-guruhga topshiriq: Ertaga nima qilmoqchisiz? 2 ta gap yozing va uni tahlil qiling.

3-guruhga topshiriq: Kecha nima ishlar qilgansiz? 2 ta gap yozing.

Guruhlar taqdimoti tinglanib, xulosa qilinadi.

Bular bilan bir qatorda ijodiy mehnat, venn diagrammasi, baliq skeleti metodlaridan ham oʻz oʻrnida foydalanish mumkin.

Xulosa shuki, interfaol metodlardan foydalanish asosida oʻquvchilarda faollikni oshirish bilan bir qatorda mavzu yuzasidan kompetensiyalarni shakllantirish imkoniga ham ega boʻlamiz.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. N.Atayeva va boshq. Umumiy pedagogika. T., 2013 y.
2. N.Avliyaqulov, N.Musaeva. Pedagogik texnologiyalar. T., 2008 y.
3. G.Boymurodova va boshq. Oʻqish tili “3-sinf oʻqituvchilari uchun ilgʻor pedagogik va axborot kommunikatsiya texnologiyalarini amaliyotga joriy etish boʻyicha metodik qoʻllanma T-2016.
4. S.Fuzailov va boshq. “Ona tili” darsligi 3-sinf T-2019.
5. Z.Maxmatkulova 3-sinfda “feʼl” soʻz turkumini oʻrganishda interfaol metodlarni qoʻllash. T.,2020
6. Internet materiallari.



## “JISMONIY TARBIYA NAZARIYASI VA USLUBIYATI” FANI TARAQQIYOTINING USTUVOR YO‘NALISHLARI

**Atajonova Gulasal Baxodirovna**

Sirdaryo viloyati Sardoba tumani

4-umumta'lim maktabi

jismoniy tarbiya fani o'qituvchisi

ANNOTATSIYA Mazkur maqola O‘zbekiston Respublikasida “Jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyati” fani va uning ahamiyati, rivojlanishiga bag‘ishlangan. Maqolada barcha fikrlar tahlil qilingan va misollar erdamida isbotlangan.

KALIT SO‘ZLAR: universiada, spartakiada, xorijiy tajriba, jimoniy tarbiya nazariyasi, jismoniy tayergarlik, sohlom hayot, pedagogik texnologiya

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma‘ruzasida quyidagi fikrlarni “jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish bilan bog‘liq. Albatta, bu sohada, ayniqsa, oliy mahorat sporti borasida keyingi yillarda muayyan yutuqlarimiz bor. Biz ular bilan haqli ravishda faxrlanamiz. Lekin, oxirgi Olimpiadada faqatgina og‘ir atletika, boks, kurash va dzyudo bo‘yicha sovrinli o‘rinlar egallandi. Buning sababi nimada? So‘nggi besh yilda jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish, shuningdek, uning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash uchun byudjetdan 1 trillion 230 milliard so‘m ajratilgan”. O‘zbekiston o‘zining mustaqil ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish yo‘lini tanlab olgan va ta‘lim sohasini ham sobit qadamlilik bilan isloh qilib bormoqda. Ayniqsa, “Ta‘lim to‘g‘risida”gi Qonun va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”da qabul qilingan, bu boradagi ishlar keng ko‘lamga erishdi. Ushbu hujjatlarning dolzarbligi asosida bilim va kasb-hunar egallashga bo‘lgan e‘tibor kuchayib ketdi. Shu bilan birga bugungi kunda sport ta‘limi va jismoniy tarbiya tizimiga ham yangicha yondashuvlar kirib kelmoqda. Bu yondashuvlar o‘z navbatida, o‘quv jarayonining turli tashkiliy va metodik jamg‘armalarida muayyan ijobiy o‘zgarishlarni sodir etadi, albatta. Ularning ko‘pchiligi pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat bilan uzviy bog‘liq o‘zgarishlardir. Jamiyatda jismoniy madaniyat rivojlanganligining asosiy ko‘rsatkichi bu - insonlarning salomatligi va jismoniy rivojlanganligi darajasi, jismoniy madaniyatning ta‘lim va tarbiya, ishlab chiqarish va maishiy sohalarda, bo‘sh vaqtni to‘g‘ri tashkillashtirish jarayonida qanchalik muhim o‘rin tutishidir. Inson faoliyatida jismoniy tarbiyaning amaliy natijasi sifatida, kishining jismoniy tayyorgarligi va xarakter bilim va ko‘nikmalarining barkamollik darajasi, yuksak xayotiy kuchga egaligi, sport sohasida erishgan yutuqlari, aqliy rivojlanganligi hisoblanadi. Shu jihatdan ta‘lim nazariyasi va amaliyotida o‘quv jaraeniga texnologik xususiyatni berish uchun 50-yillarda birinchi urinishlar qilib ko‘rilgan. Ular o‘z ifodasini an‘anaviy o‘qitish uchun majmualari texnik vositalarni yaratishda topgan. Hozirgi vaqtda jismoniy tarbiya darslarida pedagogik texnologiya “o‘qitishning texnik vositalari yoki kompyuterlardan foydalanish sohasidagi tadqiqotlardek qaralmaydi, balki bu ta‘lim samaradorligini oshiruvchi omillarni tahlil qilish, ishlab chiqish hamda usul va materiallarni qo‘llash, shuningdek qo‘llanilaetgan usullarni baholash yo‘li orqali ta‘lim jarayonining asoslari va uni maqbullashtirish yo‘llarini ishlab chiqishni aniqlash maqsadidagi tadqiqotdir”. Mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar, yosh avlod salomatligini muxofaza qilish va mustahkamlash, ta‘lim jarayonini barcha qismlarida ta‘lim yo‘nalishida sog‘lomlashtirish dasturlarni ta‘minlab borilishiga katta e‘tibor qaratilmoqda. Shu bois, ta‘lim muasassalarida asosan bolalik va o‘smirlik davridan jismoniy tarbiya va sportga poydevor qo‘yilgan. Milliy genofondning shakllanishida, sog‘lom turmush tarzini to‘g‘ri tashkil etishda va yosh avlodni sog‘lom tarbiya qilishda jismoniy tarbiya va sport ma‘naviy va mafkuraviy vosita sifatida qo‘llaniladi. Biz bugun demokratik ajdodlar merosi, milliy qadriyatlar asosida, o‘zimizning turmush tarzimiz talablaridan kelib chiqqan holda barpo etishga xarakter qilmoqdamiz. Ana shu harakatlar negizida sog‘lom inson turipti. Jismoniy tarbiya va sport orqali sog‘lom insonni shakllantirish butun bir jamiyatning vazifasi bo‘lmog‘i kerak. Har bir inson, oila, ota-ona jismoniy tarbiya va sport bilan shug‘ullanishni odat darajasiga chiqarishi bilan birga, qadriyat sifatida e‘zozlashi jamiyatning uzluksiz ravishda jismoniy tarbiya va sport bilan shug‘ullanishiga olib keladi. “Muxtasar aytganda, sport mamlakatimizda barkamol avlodni tarbiyalashning eng muhim vositasi bo‘lib kelmoqda va kelajakda ham shunday bo‘lib qolishi



mukarrar. Chunki - sport sog‘lom avlod, sog‘lom kelajak degani. Binobarin, faqat sog‘lom xalq, sog‘lom millatgina buyuk ishlarga qodir bo‘ladi”. Davlatimiz rahnamoligida yosh avlod o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini keng targ‘ib etish, jismoniy tarbiya va sport soxasini ommaviylashtirish va rivojlantirishga alohida e‘tibor qaratilaётgani barchaga ma‘lum. Bugungi zamon yoshlari, bevosita ertamiz egalari hisoblangan esh avlod vakillari jismonan sog‘lom, kuchli irodaga ega, shu bilan bir qatorda, ta‘lim va tarbiyaga ega bo‘lishi, ularni yetuk insonlar etib voyaga yetkazish, dunèda xech kimdan kam bo‘lmagan avlodni tarbiyalashdek ezgu maqsadga yunaltirilgan keng ko‘lamli islohotlar natijasida sport eshlarimiz haétiga tobora chuqur kirib bormoqda, minglab yigit-qizlar sport bilan shug‘ullanishni kundalik vazifasiga aylantirmokda. Eng muhimi, sog‘lom turmush tarzini ta‘minlash va sport bilan hamnafaslik qilish ularning jismoniy holatiga hamda salomatligiga ijobiy ta‘sirini ko‘rsatmokda. Shuni ta‘kidlash lozimki, Respublikamizda aynan bolalar sportini rivojlantirish davlatimiz rahbari va huqumatimiz tomonidan alohida e‘tibor qaratilgan bo‘lib, bu borada qonun, farmon va qarorlar ijrosini ta‘minlash yuzasidan xam keng ko‘lamli ishlar olib borilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdullaev A., Xonkeldiev SH. “Jismoniy tarbiya nazariyasi va usuliyati”. Oliy o.,quv yurtlari uchun darslik. T.O`DJTI nash. 2007 y.
2. Abdullaev. Jismoniy tarbiya vositalari. O`quv qo`llanma. Far`ona, 2005 y.
3. Abdullaev A., Rasulov R., Xasanov A. Umumiy o`rta va kasb –hunar ta`limi tizimlarida jismoniy tarbiyadan sinfdan tashqari ishlar. Farg`ona. 2009 y.



## TEKNOLOGIYA DARSLARIDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH

**Axmedova Dildora Rustamovna**

Xorazm viloyati Xiva shahar 13-son maktab

**Davletova Marhabo Shavkatovna**

Xorazm viloyati Xiva shahar 9-son maktab

texnologiya fani o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada texnologiya darslarida o'quvchilarning qiziqishlarini oshirish uchun interfaol metodlardan va ekskursiyalar tashkillashning ahamiyati haqida fikr mulohazalar bildiriladi.

**Kalit so'zlar:** qo'l qaychisi, Mexanik qaychi, averlo, ekskursiya, mehnat unumdorligi.

Interfaol metod – ta'lim jarayonida o'quvchilar hamda o'qituvchi o'rtasidagi faollikni shirish orqali o'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirishini faollashtirish, shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Interfaol metodlarni qo'llash dars samaradorligini oshirishga yordam beradi. Interfaol ta'limning asosiy mezonlari: norasmiy bahs-munozaralar o'tkazish, o'quv materialini erkin bayon etish va ifodalash imkoniyati, ma'ruzalar soni kamligi, lekin seminarlar soni ko'pligi, o'quvchilar tashabbus ko'rsatishlariga imkoniyatlar yaratilishi, kichik guruh, katta guruh, sinf jamoasi bo'lib ishlash uchun topshiriqlar berish, yozma ishlar bajarish va boshqa metodlardan iborat bo'lib, ular ta'lim-tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirishda o'ziga xos ahamiyatga ega.

Hozirda ta'lim metodlarini takomillashtirish sohasidagi asosiy yo'nalishlardan biri interfaol ta'lim va tarbiya usullarini joriy qilishdan iborat. Barcha fan o'qituvchilari dars mashg'ulotlari jarayonida interfaol usullardan borgan sari kengroq foydalanmoqdalar.

Interfaol usullarni qo'llash natijasida o'quvchilarning mustaqil fikrlash, tahlil qilish, xulosalar chiqarish, o'z fikrini bayon qilish, uni asoslagan holda himoya qila bilish, sog'lom muloqot, munozara, bahs olib borish ko'nikmalari shakllanib, rivojlanib boradi.

Bu masalada amerikalik psixolog va pedagog B.Blum bilish va emotsional sohalaridagi pedagogik maqsadlarning taksonomiyasini yaratgan. Uni **Blum taksonomiyasi** deb nomlanadi. (Taksonomiya-borliqning murakkab tuzilgan sohalarini tasniflash va sistemalashtirish nazariyasi). U tafakkurni bilish qobiliyatlari rivojlanishiga muvofiq ravishdagi oltita darajaga ajratdi.

Innovatsion metodlar o'quv materialini mazmunida ifodalangan ilmiy fikr mantiqiga bog'liqdir. O'quv materialining mazmuni tobora chuqurlashib, murakkablashib va ilmiy tus olib bormoqda, shuning uchun talim metodlari ilmiy bilishning mantiqi va metodlariga tobora ko'proq bog'liq bo'lib qolmoqda esida yaxshi qoladi.

**Klaster interfaol metodi** - ta'lim oluvchini mantiqiy fikrlashga, umumiy fikr doirasini kengaytirishga, mustaqil ravishda adabiyotlardan foydalanishni o'rgatishga asoslangan. Fikrlashning tarmoqlanishi pedagogik strategiya bo'lib, u ta'lim oluvchilarning bir mavzuni chuqur o'rganishlariga yordam berib, ularni mavzuga taalluqli tushuncha yoki aniq fikrni erkin va aniq ravishda ma'lum ketma-ketlik bilan uzviy bog'laydi.

**Venna diagrammasi** - 2 va 3 jihatlarini hamda umumiy tomonlarini solishtirish, taqqoslash yoki qarama-qarshi qo'yish uchun faoliyatni tashkil etish jarayonida qo'llaniladi.

Diagrammani tuzish uch bosqichni o'z ichiga oladi. 1-bosqich: Talabalar ushbu diagrammani tuzish qoidalari bilan tanishtiriladi. 2-bosqich: YAKKA, juftlikda yoki guruh ichida diagramma asosida taqqoslash faoliyati tashkil etiladi. 3-bosqich: Faoliyat natijalari tahlil qilinadi va baholanadi.

**Ekskursiya tashkil etish metodikasi** – mazkur metod o'quvchilarda o'rganilgan bilimlarini amaliy qo'llab ko'rishga yordam beradi. Ular ilgari o'rganilgan materiallarni: qo'l va elektr mashinalar bilan tikish, qo'l va mashinalarda averloglash, qo'l va mexanik qaychilarda qirqish va hokazolarni eslasalar mazkur topshiriqni bajaradilar. Ishlab chiqarishdagi ekskursiyalarni kasb ta'lim o'qituvchisi boshqa fan o'qituvchilari, xususan fizika o'qituvchisi bilan birgalikda o'tkazishi mumkin. Bunday hollarda ekskursiya vaqti uzaytiriladi va o'rganish ob'ekti ancha chuqurlashadi hamda ko'p qirrali bo'ladi. Ekskursiya ob'ektlarini tanlashda qishloq joylarida kasb ta'limi o'qituvchisining imkoniyati nihoyatda cheklanganini nazarda tutish kerak. Buning ustiga ba'zan hamma ekskursiyalarni bitta korxonaning o'zida o'tkazishga to'g'ri keladi. Bunday hollarda kasb ta'limi o'qituvchisi ekskursiyalar mazmunan takrorlanmasligi va ularga o'quvchilarning qiziqishi



susaymasligi uchun oldindan ustaxonalarda ta'lim berishning butun davri uchun o'tkaziladigan ekskursiyalarning rejasini tuzib oladi. O'qituvchi ekskursiya uchun ob'ekt tanlagach korxonalar rahbarlari bilan kelishib oladi va ekskursiyani kam o'tkazishi masalasini hal qiladi. Ekskursiyani o'qituvchining o'zi o'tkazsa, eng ko'p ta'limiy samaraga erishiladi. Chunki o'qituvchi mana shu tadbirning ta'limiy vazifalarini, o'quvchilarning tayyorligi va fan asoslariga doir bilimlarini yaqqol tasavvur etadi. Bularning xammasi unga ishni aniq olib borish, o'quvchilarning diqqat – e'tiborini ular uchun eng muhim hisoblangan asosiy narsalarga qaratish imkonini beradi. Afsuski, har bir kasb ta'limi o'qituvchisi hozirgi sanoat korxonalarida o'tkaziladigan ekskursiyalarni boshqarishga tayyorlangan, deb bo'lmaydi. Ana shunday hollarda ekskursiyani korxonaning xodimi o'tkazib, o'qituvchi unga avval ekskursiyaning vazifalarini tushuntiradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Karimov I.A. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. - Toshkent., SHarq, 1998. - 64 b.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining ta'lim to'g'risidagi qarorlari. 1-qism. Toshkent., 1998. - 106 b.
3. Davlatov K., Vorobyov A., Karimov I. Mehnat va kasb ta'limi nazariyasi hamda metodikasi. - Toshkent., O'qituvchi, 1992. - 320 b.



## BOSHLANG'ICH SINFLARNI O'QITISHDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH

**Bekchanova Mexribon Atabayevna**  
**Qadamova Mashhura Anvar qizi**  
Xorazm viloyati Xiva shahar 9-maktab  
boshlang'ich sinf o'qituvchilari

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada boshlang'ich sinflarda o'qitishning zamonaviy usullari hamda ularni dars jarayonida qo'llashning afzalliklari haqida fikr mulohazalar bildiriladi

**Kalit so'zlar:** hamkorlikdagi faoliyati, ilg'or pedagogik metodlar, zamonaviy ta'lim, innovatsion metod.

Ta'lim o'qituvchi va o'quvchilarning hamkorlikdagi faoliyati bo'lib, shu jarayonda shaxsning taraqqiyoti, uning ma'lumoti va tarbiyasi ham amalga oshadi. Darslarda o'qituvchi o'z bilimi, ko'nikma va malakalarini mashg'ulotlar vositasida o'quvchilarga yetkazadi, o'quvchilar esa uni o'zlashtirib borishi natijasida undan foydalanish qobiliyatiga ega bo'ladi. O'rganish jarayonida o'quvchilar o'zlashtirishning turli ko'rinishlaridan foydalanishadi, ya'ni o'zlashtirilayotgan ma'lumotlarni qabul qilish, qayta ishlash hamda amaliyotga tatbiq etishda o'ziga xos tafovutlarga tayanadi. Ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchilarning dars paytidagi hamkorligi, o'quvchilarning mustaqil ishlashi, sinfdan tashqari ishlar shaklida ta'lim va tarbiya masalalari hal etiladi. Ta'limning maqsadi jamiyat ehtiyojiga mos ravishda shakllanadi. Shunday ekan, ta'lim-tarbiya maqsadi mos va mutanosib bo'lishi kerak. Ilmiy adabiyotlarda ta'limning maqsadi imkoniyatlaridan to'g'ri, aniq, o'rinli foydalanish ko'nikma va malakalarini hosil qilish, mantiqiy-ijodiy tafakkurni rivojlantirish, kommunikativ savodxonlikni oshirish, milliy g'oyani singdirish, sharqona tarbiyani shakllantirish, shaxsni ma'naviy boyitishdan iboratligi ta'kidlangan. Ta'limiy maqsad asosida o'quvchilarda mustaqil fikrlash, og'zaki va yozma savodxonlikni oshirish, mantiqiy tafakkurni rivojlantirish orqali ularning muloqot madaniyati takomillashtiriladi. Tarbiyaviy maqsad asosida esa ma'naviy, g'oyaviy, nafosat tarbiyasi beriladi. Til o'rganish jarayonida xalqning madaniy-ahloqiy qadriyatlariga yaqinlashtirish imkoni paydo bo'ladi.

"Juft barmoqchalar" metodi ona tili darslarida qo'llash mumkin bo'lgan samarali metodlardan biridir. Mazkur metodning nomi bolada uni bajarishga nisbatan qiziqish uyg'otadi. Metodni darsning turli bosqichlarida qo'llash mumkin. Masalan, ona tili darslarida son mavzusini uyga vazifa sifatida berishda foydalanish samaralidir. "Juft barmoqchalar" metodi ona tili va amaliy san'atning integratsiyasini o'zida aks ettiradi. Metodning qo'llanilishida o'quvchilarning barmoqlari ishlatiladi. Bunda, o'qituvchi tomonidan o'quvchilarga qo'l mehnati yordamida o'ng qo'l barmoqlariga sonlar va hisob so'zlarni yozishni tushuntiradi, chap qo'l barmoqlariga esa miqdori ko'rsatilgan shaxs-narsalarning rasmlarini chizish kerakligi va oxirgi bosqichda ikki qo'l barmoqlarini qovushtirganda, son va miqdori ko'rsatilgan narsa o'rtasida muvofiqlik hosil bo'lishi ta'kidlanadi. O'qituvchi tomonidan oldindan tayyorlangan "Juft barmoqchalar" namuna sifatida ko'rsatiladi va tasvir orqali tushuntiriladi: chap qo'l ko'rsatkich barmog'iga 2 soni hamda hisob so'z yozilgan qog'ozchalar yopishtirilgan, o'ng qo'l ko'rsatkich barmog'iga esa piyozning rasmi chizilgan. Ikki barmoqni juftlashtirganimizda "Ikki bosh piyoz" degan so'z hosil bo'ladi. Shunday davom etgan holda qolgan barmoqlarimizga ham rasmlarni chizamiz va sonlarni yozamiz.

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interfaol metodlar va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish kundan-kunga ortib bormoqda. Bunday bo'lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o'quvchilar faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish esa ularni egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topish, mustaqil o'rganish va fikrlash, tahlil qilish, hatto yakuniy xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishga o'rgatadi. O'qituvchi bu jarayonda shaxs rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik funksiyasini bajaradi.

Dars mashg'ulotlarida o'yin-topshiriqlarni takrorlash yoki mustahkamlash darslarida foydalanilsa ijobiy natija beradi. O'yin-topshiriqning qaysi bir turini tanlash darsning turiga, sinf o'quvchilarining o'yin-topshiriqlarni bajarishga o'rgatilganlik darajasi, ularning bilimsaviyasi, mustaqil ijodiy ishlash imkoniyatlari, o'rganilganlarni xotirada tez tiklay olishi, ijodkorlikning qay darajada



shakllanganiga ham bog'liq bo'lishi kerak. Ta'limda o'quvchi shaxsini fikrlashga, o'zgalar fikrini anglash va shu fikrni og'zaki hamda yozma shaklda savodli bayon eta olishga o'rgatish masalasiga e'tibor qaratilgan bo'lib, mustaqil fikrlaydigan, nutq madaniyati rivojlangan savodxon shaxsni kamol toptirish asosiy o'rin egallaydi. Millatning turmush tarzi, madaniy yaratuvchanligi uning boy tarixiy merosi asosida o'rganiladi.

Xulosa o'rnida shuni aytish kerakki, innovatsion metodlarni rivojlanishi mamlakat ta'lim tizimini yanada rivojlantirish uchun xizmat qiladi. Bu esa, mamlakat iqtisodiyotini oshirishning eng to'g'ri yo'li hisoblanadi. Shuni inobatga olgan holda, maktablarda boshlang'ich sinflardan o'rgatib borish har bir pedagog oldidagi eng yusak vazifalardan biri.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori.- T.: «Sharq» nashriyot-matbaa kontserni, 1997.

2. Axmedov M., Abduraxmonova N. Jumayev M.E. Birinchi sinf matematika darsligi. Toshkent. “Turon-iqbol” 2008 yil., 160 bet

3. BOSHLANG'ICH SINFLARDA INNOVATSION METODLARNING AHAMIYATI, Nilufar Mahamadjon, Qizi Qo'Chqorova,



## BOSHLANG‘ICH SINFLARDA MILLIY QADRIYATLAR ASOSIDA TARBIYALASHNING METODIK ASOSLARI

**Bekchanova Ozoda Otajon qizi**

Urganch davlat Universiteti Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi  
Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 2-bosqich magistranti

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarini milliy qadriyatlar asosida tarbiyalash va ta'lim berish uchun mamlakatimizda qilingan va qilinayotgan ishlar haqida so'z yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** boshlang'ich sinf, qadriyat, tarbiya, yoshlar, milliy, xalq, meros.

Milliy qadriyat, milliy g'oya, milliy iftixor va tuyg'u, milliy an'ana, milliy madaniyat, milliy urf-odat, milliy me'morchilik, milliy musiqa, milliy kiyim so'z birikmalari nutqimizni rang-barangligi va ta'sirchanligini taminlanayotganligi barchamizga ayon. Qadriyat so'zi xalq boyligi, qimmatbaho buyumlar, qiymat, ahamiyat kabi ma'nolarni ifoda yetadi. Voqelikdagi muayyan hodisalarning umuminsoniy ijtimoiy-axloqiy, madaniy, ma'naviy ahamiyatini ko'rsatish uchun qo'llaniladigan tushuncha. Inson va insoniyat uchun ahamiyatli bo'lgan barcha narsalar, masalan, erkinlik, tinchlik, adolat, ma'rifat, haqiqat, yaxshilik moddiy va ma'naviy boyliklar qadriyat hisoblanadi. Bugungi kunda turli zararli ta'sirlardan saqlanish, har qanday sharoitda ham xalqimizga azaldan xos bo'lgan milliy qiyofa, betakror fazilatlar yegasi bo'lib qolishimizda qadimiy an'ana va qadriyatlarimizni asrab-avaylab, ularga amal qilib yashash o'ta muhim ahamiyat kasb yetadi.

Xalqimizning asrlardan asrlarga o'tib kelayotgan milliy qadriyatlari ham uzoq tarixiy jarayonda shakllangan. Jumladan, o'zi tug'ilib o'sgan ona yurtiga ehtirom, o'z taqdirini mana shu yurtsiz tasavvur qila olmaslik, o'tgan ajdodlar xotirasiga sadoqat, kattalarga doimiy hurmat ko'rsatish, har qanday sharoitda ham hayo va andishani saqlash, turmushda poklikka alohida ye'tibor berish singari ko'plab fazilatlar bizning milliy qadriyatlarimiz asosini tashkil yetadi. Yurtimizda bunyod etilgan Samarqand, Qarshi, Buxoro, Xiva, Shahrisabz, Andijon, Marg'ilon, Termiz va Qo'qon singari o'nlab shaharlarning yoshi ming yillar bilan o'lchanishi ham bejiz yemas. Demoqchimizki, xalqimiz o'zi tug'ilib o'sgan yer-zaminga qattiq bog'langan, uni e'zozlashni bolaligidan o'rganib, his qilib o'sadigan millat sanaladi. Demak, xalqimizning o'z yurtiga cheksiz sadoqati, ehtiromi bilan bog'liq milliy an'ana va qadriyatlari uning boy tarixi bilan izohlanadi. Xuddi shuningdek, xalqimizning kattalarga hurmat, kichiklarga izzat ko'rsatish, mehmondo'stlik, yordamga muhtojlarga shafqatli bo'lish, hayo, ibo va mehr-oqibat, ahli ayolini - oilasini asrash, maishiy turmushda poklikni yuksak qadrlash singari an'ana va qadriyatlari ham hayotning uzoq sinovlaridan o'tgan o'lmas ma'naviy merosimiz sanaladi.

Mustaqillikning dastlabki kunlaridan e'tiboran xalqimizning xotirasini tiklash, qadimgi urf-odat va qadriyatlarini e'zozlash, muqaddas qadamjolarini asl holiga qaytarish yuzasidan chinakam tarixiy ahamiyatga molik ishlar amalga oshirila boshlandi. Ushbu keng ko'lamli jarayon birgina o'zbek millatining tili, dini va qadriyatlarini tiklash, rivojlantirish bilan cheklanib qolmay, balki mamlakatimizda istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlarning qadriyatlariga yuksak hurmat ko'rsatish bilan uzviy tarzda olib borilmoqda. Darhaqiqat, har qanday an'ana, urf-odat hamda rasm-rusumlar hayotiy zarurat tufayli paydo bo'ladi. Ular muayyan xalqning ruhiyati, ma'naviy dunyosi, orzu istaklarining ifodasi bo'lib, kelgusi avlodlar ma'naviy-axloqiy qiyofasining shakllanishiga ham hal qiluvchi ta'sir o'tkazadi. Aksariyat an'analar mazmun mohiyatida xalqni, elatni ezgulikka, insonparvarlikka, yaxshilikka chorlashdek o'lmas g'oyalar yotadi. Ta'kidlash joiz, bugungi globallashuv davrida, dunyoda mafkuraviy kurash avj olgan sharoitda doimo ogoh, sezgir va ma'naviy uyg'oq bo'lib yashashimiz, eng katta boyligimiz bo'lmish yurtimizdagi millatlararo ahillik, o'zaro mehr-oqibat hamda hamjihatlik muhitini ko'z qorachig'idek asrash va mustahkamlash yo'lida olib borilayotgan ishlarimizning ma'no-mazmunini tushunib yetishimiz lozim. O'sib kelayotgan yosh avlodni vatanparvarlik va millatparvarlik ruhida tarbiyalash dolzarb vazifadir. Bu esa oilada va o'quv dargohlarida ta'lim hamda tarbiyaga e'tiborni kuchaytirishni taqozo etadi. Ma'lumki, ma'naviy-madaniy, ruhiy-ahloqiy hislatlar va insoniy qadriyatlar avvalambor, bolalikdan shakllana boshlaydi. Bolalar erta go'daklikdan boshlab ota-onalari, bobobuvilari va boshqa oila a'zolarining yurish-turishlari, odob-ahloqlari, muomala munosabatlari, oilaviy urf-odatlarini, rasm-rusumlar, udum va an'analari qarang, ibrat olishga harakat qiladilar.



Barkamol avlod ma'naviyatini shakllantiruvchi yagona manba esa tarbiyadir. Ma'rifat va bilimni shakllantiruvchi manba - ta'lim, saboqdir. Binobarin "ta'lim va tarbiya" emas, aksincha, "tarbiya va ta'lim" deb aytish maqsadga muvofiqdir.

"Bag'rikenglik va insonparvarlik madaniyatini rivojlantirish, millatlararo va fuqarolararo hamjihatlik va totuvlikni mustahkamlash, yosh avlodni shu asosda, Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalash O'zbekistonda davlat siyosatining eng muhim ustuvor yo'nalishlaridan biri etib belgilandi" - deb aytgan edi O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoyev o'z nutqida.

Milliy qadriyatlarga muhabbat hissini, ularni asrab-avaylash tushunchasini o'quvchilarga boshlang'ich sinf paytidanoq singdirishimiz lozim! Biz bolalar adabiyoti fanini o'qib-o'rganish jarayonida boshlang'ich sinf darsliklari bilan tanishib o'tdik. Bu darsliklar asosan yosh avlodni milliy qadriyatlarimizni asrab-avaylash ruhida tarbiyalashga xizmat qiladi. Jumladan: tarbiya, o'qish va ona tili kabi darsliklar. Tarbiya fani o'quvchilarda vatanga bo'lgan muhabbatni, milliy qadriyatlarga sadoqat ruhini shakllantiradi. O'qish darsligidagi mavzularning mazmuni ham asosan o'quvchini komil inson bo'lishga yetaklaydi. Ona tili fanida keltirilgan mashqlar o'z ona tiliga bo'lgan hurmat hissini oshiradi. So'zimizning isbotini quyida keltirilgan loyihada ham ko'rish mumkin.

Fikrimizcha bolalarni har tomonlama yuksaklikka ko'taruvchi fan bu O'qish kitobi bo'lsa kerak. Chunki o'qish kitobida bir biridan qiziq hikoyalar, ertaklar, topishmoqlar, maqollar va hokazo juda ko'plab ma'lumotlar mavjuddir. 1- sinf o'qish kitobining ilk mavzularidayoq Vatan mavzusi olinmoqda. Bu esa bolajonlarda vatanga bo'lgan muhabbatni, yanada oshiradi. Hikoyalardan esa o'ziga kerakli xulosalarni oladi. Masalan yaxshini yomondan, oqni qoradan farqlaydigan bo'ladi. Topishmoqlar esa mantiqan o'ylashga majbur qiladi. Bundan tashqari o'qish kitobida bir biridan ajoyib she'rlar bor. Bu she'rlarni yodlagan bolalarning xotirasi kuchli bo'ladi, shu she'r orqali unda ma'naviy yuksalish bo'ladi.

Nafaqat o'qish fani balki boshlang'ich sinf darsliklarining barchasi o'quvchining dunyoqarashini kengaytirishga xizmat qiladi. “Yosh avlodga yuksak ma'naviyatni shakllantirishda milliy – ma'naviy qadriyatlardan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Zero, tariximiz, madaniyatimiz, qadriyatlarimizni ulug'lash asosida yosh-avlodni tarbiyalash mustaqil davlatimizning bosh maqsadlaridan hisoblanadi”.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ongida milliy qadriyatlarni singdirish usullariga quyidagicha fikr bildiramiz:

- 1) “Milliy qadriyatimiz- inson ma'naviyatining muhim belgisi” – nomli darslik tashkil etish va uni fan sifatida qo'llash;
- 2) Ma'naviyat soatlarini tashkil etish;
- 3) Milliy qadriyatlarimizni asrab-avaylashga chorlovchi tadbirlar, tanlovlar tashkil etish;
- 4) Milliy qadriyatimiz hisoblangan milliy o'yinlarimizni boshlang'ich sinf o'quvchilariga o'rgatish;
- 5) Maktablarda “Milliy qadriyatlarga ehtirom” nomli burchak tashkil etish.

Boshlang'ich sinf o'qituvchisidan buyuk psixolog bo'lish ham talab etiladi.

Chunki o'quvchilarga berayotgan ma'lumotni bola tilida, sodda, ravon, tushunarli qilib yetkazib berishi kerak. Ya'ni o'zi ham bola bo'lib, turli holatlarga kirib, berilayotgan ma'lumotni o'quvchining ongida singdira olishi kerak. Xuddi shuningdek, milliy qadriyat tushunchasini, uni asrab-avaylash tuyg'usini boshlang'ich sinf o'quvchilariga yetkaza bera olishi zarurdir. O'quvchining bolalikdan milliy qadriyatlarga bo'lgan muhabbatini oshirish - kelajakda barkamol avlodlar safining kengayishida muhim ahamiyat kasb etadi. Shunday ekan, yosh avlodni tezkor zamonga mos tarzda tarbiyalab, fikrlashini kengaytirib, ma'naviy olamini boyitish yo'lida muntazam izlanmog'imiz talab etiladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning nutqlaridan.
2. Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari darsligi. 8- sinf, T., 2015.
3. OAV xabarлари.



## RUS TILI DARSLARIDA O‘QITISHNING NOSTANDART SHAKLLARI VA USULLARI

**Bekmetova Shaxnoza Saparbayevna**

Xorazm viloyati Yangiariq tumani

19 -son umumta'lim maktabining rus tili fani o'qituvchisi

**Yusupova Sanobar Ahmedovna**

Xorazm viloyati Yangiariq tumani

19 -son umumta'lim maktabining rus tili fani o'qituvchisi

**Radjapova Iqbol Shuxratovna**

Xorazm viloyati Gurlan tumani

30 -son umumta'lim maktabining rus tili fani o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada rus tili darslarini tashkillashtirish, sifat samaradorligini oshirish, shuningdek o'qitishning nostandart shakl va usullarini qo'llash lozimligi haqida so'z yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** rus tili, dars, nostandart, metod, o'qituvchi, o'quvchi, qiziqish, shakl.

Bugungi kunda hayotga yangi munosabat, shu jumladan ta'lim tizimiga yangi talablar qo'yildi. Bugungi kunda ta'limning asosiy maqsadi nafaqat o'quvchining ma'lum miqdorda bilim, ko'nikma, malakani to'plashi, balki o'quvchini ta'lim faoliyatining mustaqil mavzusi sifatida tayyorlashdir. Zamonaviy ta'limning markazida o'qituvchining faoliyati turadi. Ta'lim tizimida rus tili fani asosiy o'rinlardan birini egallaydi. Haqiqatni bilish vositasi sifatida rus tili nafaqat lingvistik bilimlarni, balki bolaning intellektual rivojlanishini ham ta'minlaydi, konseptual-kategorik apparatni shakllantiradi, mavhum fikrlash, xotira va tasavvurni rivojlantiradi. So'nggi yillarda, afsuski, o'quvchilar rus tili darslarida qiziqishning keskin pasayishi, bolalarning til ko'nikmalarini kengaytirish, savodxonlik va nutq madaniyatini oshirishga bo'lgan istagi yo'q.

Hozirgi kunda barcha o'qituvchilarni qiziqtiradigan eng muhim muammo - rus tili darsining o'quvchilarning asosiy ta'lim va tarbiya shakli sifatida samaradorligini oshirishdir. Xuddi shu shaklda o'tkazilgan darslar o'quvchini charchatadi. O'quvchi va o'qituvchi uchun darslarning monoton ekanligi o'quv faoliyatining samaradorligini pasaytiradi. Ta'lim berishga majbur qilmang, balki qiziqish uyg'oting, o'quvchida doimiy bilim olish istagini paydo qilish o'qituvchining vazifasidir.

Rus tili o'qituvchisi faqat dars uchun rasmiy talablar bilan boshqarilishi mumkin emas. Uslubiy faoliyatini takomillashtirish uchun o'qituvchi rus tili darslarining an'anaviy va noan'anaviy shakllarini, ularning tipologiyasini, ta'lim tizimida darslarning o'ziga xos xususiyatlarini bilishi kerak. Dars-o'quvchilar o'rganilayotgan materiallarni (bilim, ko'nikma, dunyoqarash va axloqiy-estetik g'oyalari) o'zlashtirish maqsadida ta'limni tashkil etish shakli. Asosiy didaktik maqsadga ko'ra, bunday darslar quyidagicha ajratiladi: yangi materiallar bilan tanishish darsi; o'rganilganlarni mustahkamlash darsi; bilim va ko'nikmalarni qo'llash darsi; umumlashtirish va bilimlarni tizimlashtirish darsi; bilim va ko'nikmalarni tekshirish va tuzatish darsi; birlashgan (aralash) dars.

Darslarni o'tkazishning asosiy usuli bo'yicha: suhbat, ma'ruza, o'quvchilarning mustaqil ishi, laboratoriya va amaliy ishlar, darslarning turli shakllarini birlashtirish.

O'quv jarayonining asosiy bosqichlari quyidagicha ajratiladi: kirish darslari; materiallar bilan dastlabki tanishish darslari; tushunchalar, qonunlar, qoidalarni o'rganish darslari; bilimlarni amalda qo'llash darslari; aralash yoki kombinatsiyalangan darslar.

Darsning asosiy tarkibiy elementlarini tanlashda turli yondashuvlar mavjud. Shu bilan birga, darsning umumiy didaktik tuzilishi uchta asosiy tarkibiy elementlar bilan ajralib turadi: avvalgi bilim va harakat usullarini yangilash; yangi bilim va harakat usullarini shakllantirish; bilimlarni qo'llash va ko'nikmalar va ko'nikmalarni shakllantirish.

Bilganingizdek, an'anaviy maktab darslariga yangi materiallarni o'rganish, bilim, malaka va ko'nikmalarni mustahkamlash, olingan bilimlarni tekshirish va hisobga olish, nazorat ishlarini tahlil qilish, o'rganilganlarni umumlashtirish va tizimlashtirish, mavzuni yoki bo'limni takrorlash kiradi. So'nggi paytlarda ushbu ta'lim shakllari bilan bir qatorda an'anaviy bo'lmagan yoki nostandart ham keng qo'llanilmoqda. Bular: tanlovlar, sayohatlar, integratsiyalashgan darslar, ertaklar, mavzuli o'yin darslari, teatr tomoshalari, “Quvnoqlar va zukkolar” tanlovlari, ekskursiyalar orqali



o‘quvchilar dasturiy materiallarni tezroq va yaxshiroq o‘rganadilar.

Nostandart dars — noan’anaviy (aniqlanmagan) tuzilishga ega bo‘lgan, birinchi navbatda, o‘quvchilarning qiziqishi, ularning ijodiy salohiyatini rivojlantirishga, ularning optimal rivojlanishi va tarbiyasiga hissa qo‘shadigan ta’lim darsi. Darslarning noan’anaviy shakllari darsda yangi materiallarni o‘rganishning turli usullarini qo‘llash orqali o‘quvchilarni uy vazifalari bilan ortiqcha yuklashni bartaraf etishda cheksiz imkoniyatlarni o‘z ichiga oladi.

Noan’anaviy darslar ga misol sifatida quyidagilarni keltiramiz: dars turlari, dars shakllari; yangi bilimlarni shakllantirish saboqlari, ko‘nikma va malakalarni o‘rgatish saboqlari, bilimlarni takrorlash va umumlashtirish darslari, ko‘nikmalarni mustahkamlash bilimlarni tekshirish va hisobga olish saboqlari-ekspeditsiya darslari (sayohat); integral darslar-ijodiy seminarlar, amaliy ishlar rol o‘ynash o‘yinlari: KVN. “Nima? Qayerda? Qachon?”, “Mo‘jizalar maydoni”, “baxtli tasodif” integratsiyalangan teatrlashtirilgan darslar; darslar-musobaqalar: test sinovlari, tanlovlar. Bolalar dars-muloqot, dars-konsert, dars-sahna, dars-ekskursiya, dars-sayohat, dars-o‘yin kabi darslarni juda yaxshi ko‘radilar.

Integratsiya, bir tomondan, o‘quvchilarga “butun dunyo” ni ko‘rsatish imkonini beradi. Ta’limga integratsiyalashgan yondashuvning uslubiy asoslari atrof-muhit va uning butun qonunlari haqidagi bilimlarni shakllantirish, shuningdek, fan asoslarini o‘zlashtirishda fan va predmetlararo aloqalarni o‘rnatishdir.

O‘quv jarayonining samaradorligi asosan o‘qituvchining darsni to‘g‘ri tashkil etish va darsning muayyan shaklini to‘g‘ri tanlash qobiliyatiga bog‘liq. Darslarni o‘tkazishning noan’anaviy shakllari nafaqat o‘quvchilarning o‘rganilayotgan mavzuga qiziqishini oshirish, balki ularning ijodiy mustaqilligini rivojlantirish, turli bilim manbalari bilan ishlashni o‘rgatish imkonini beradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Babkina N. V. O‘quv jarayonida rivojlanayotgan o‘yinlar va mashqlardan foydalanish // Boshlang‘ich maktab-1998.
2. Barinova E.A va boshq. Rus tili metodologiyasi. M., 1974.
3. Bondarenko S. M. Maktabda rus tilini o‘qitish metodikasi. M., 1979.
4. Vlasenkov A. I. Rus tilini o‘qitishni rivojlantirish. M., 1983.
5. Granik G. G. Maktabda rus tili. M., 1972.



## TEKNOLOGIYA DARSLARIDA PEDAGOGIK TEKNOLOGIYALARNING O'RNI VA AHAMIYATI

**Berdiyeva Gulnora Zayniddinovna.**  
Buxoro viloyati Buxoro tuman 11-maktab  
texnologiya fani o'qituvchisi.

**Annotatsiya:** ushbu maqolada texnologiya fanini o'qitishda qo'llaniladigan interfaol ta'lim metodlari haqida bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** kasb-hunar, o'quvchi, yoshlar, texnologiya.

Texnologiya fani o'qituvchisi o'quvchining politexnik dunyoqarashini shakllantirishi, materiallarni qayta ishlashning yangi zamonaviy texnika va texnologiyalari to'g'risida tasavvur uyg'otishi, kasb-hunarlar haqida ma'lumot berishi, kasb tanlashga, ilk maktab yoshidan mehnatga ijodiy yondashishga, mustaqil ishlashga, tejamkorlikka o'rgatishi hamda estetik madaniyatini rivojlantirishi lozim. Fanni o'qish orqali o'quvchilar kundalik hayotida zarur bo'ladigan uy-ro'zg'or ishlarini texnologiya asosida bajarishni o'rganadi, qobiliyati va qiziqishiga mos kasb-hunar tanlaydi, oila budjetiga hissa qo'shadi, bo'sh vaqtdan unumli foydalanadi, o'zgaralar mehnatini qadrlashga hamda o'z mehnatidan zavqlanishga odatlanadi, ustoz-shogird an'analari ahamiyatini, milliy urf-odatlar, qadriyatlarini qadrlashni, hunarli kishining rizqi butun bo'lishini tushunib yetadi. Texnologiya mashg'ulotlari samaradorligini oshirish uchun o'qituvchi darsga ijodiy izlanib tayyorgarlik ko'rishi lozim. Har bir o'qituvchi o'z ustida ishlashi, ta'lim portallaridan turli buyumlarni tayyorlash texnologiyalarini o'rganishi, dizayn loyihalaridan namunalar olgan holda ijodiy yondashib foydalanishi lozim. O'qituvchi kasbiy kompetentligini oshirishda mustaqil ta'limning o'rni katta. Kasbiga doir kerakli ma'lumotlarni egallashi va muntazam ravishda ta'lim sohasidagi modernizatsiyalash jarayonlari bilan tanishib borishi hamda yangiliklarni dars jarayoniga tatbiq etishi o'qituvchining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantiradi.

Quyidagi pedagogik texnologiyalarni texnologiya darslarida qo'llash yaxshi natija beradi:

- izohli — illustratsiya materiallaridan foydalanib dars jarayoni tashkil etiladi;
- reproduktiv — tafakkur faoliyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'lim jarayoni;
- produktiv — bu metod unumli daraja deb ham ataladi. Bunda oldin egallagan bilimlar asosida o'zlashtirilishi lozim bo'lgan evristik faoliyat vujudga keladi;
- ijodiy daraja — bu faoliyat baholashga tegishli bo'lib, o'quvchi egallangan bilimlari asosida yangi axborot izlab topadi va ijod qiladi.

Bu dars usullari o'quvchilarda kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarni rivojlantirib, kasbiy sifatlar hamda ma'naviy dunyoqarashni shakllantiradi. Darsda “Muloqot”, “Nazorat darsi”, “Suhbat”, “Viktorina”, “Ari uyasi”, “Texnik hujum”, “Oyda qolib ketmaylik”, “Taqdimot”, “Ijodkor kim”, “Bugungi ishni ertaga qo'yma”, “O'zing o'yla, o'zing top, o'zing yasa”, “Eng boy o'quvchi”, “Arra”, “Intellektual ring”, “Bilimlar qasriga sayohat”, “Mozaika”, “Domino”, “Zinama-zina”, “50x50”, “Zanjir kabi metod, o'yin va zamonaviy ta'lim vositalaridan foydalanish yaxshi samara beradi. Masalan, “Qo'l mehnati asosida qog'ozdan turli xil gullar tayyorlash” mavzusini o'rgatishda darsning mustahkamlash qismida “O'zing o'yla, o'zing top” o'yin mashqidan foydalanilsa, “Ijodkor kim?” o'yin mashqi va “Eng boy o'quvchi” metodi orqali integratsiyalashgan jarayonni vujudga keltirib, ingliz tilida so'zlashish muhitini paydo qilish mumkin. Yangi mavzu “Bilimlar qasriga sayohat” o'yini va “Nilufar guli” graforganayzer sxemasi asosida tayyorlangan tarqatma materiallar bo'yicha mustahkamlanadi. Uyga vazifa qilib, mavzuga oid test savollari tuzib kelishni va qo'shimcha ma'lumotlar topishni topshirish mumkin.



O‘quvchilarni darslikdan unumli foydalanishga o‘rgatish fan o‘qituvchisining vazifasidir. Bunda o‘qituvchi darslikdagi nazariy ma‘lumotlar asosida amaliy mashg‘ulotni bajarish bosqichlarini namunali tashkil etsa, o‘quvchi darslikdan ko‘rib, o‘rganib, unga ijodiy yondashgan holda mustaqil ravishda darsda va darsdan tashqari vaqtlarda, uyda ham bajarishi mumkin. Bu jarayon o‘quvchini o‘z ustida ishlashga, izlanishga, mustaqillikka o‘rgatadi. Faqat 1-sinf darsligida berilgan topshiriqni bajarishda albatta o‘qituvchi, ota-ona, aka-opalarning yordami kerak bo‘ladi.

Texnologiya amaliy fan bo‘lgani sababli o‘quvchilar bilan nafaqat dars jarayonida, balki, darsdan tashqari to‘garak mashg‘ulotlarida ham shug‘ullanish lozim. To‘garakka o‘quvchilarni jalb etish, mashg‘ulotlarni ularning qiziqishi va qobiliyatiga mos tashkil etish ta‘lim samaradorligini oshiradi. To‘garak mashg‘ulotlari yillik taqvim rejasini maktabning ichki sharoiti, hududiy moslik, urf-odatlariga ko‘ra tuzish maqsadga muvofiqdir.

Texnologiya darslarini ana shunday zamonaviy usul va metodlar yordamida olib borish o‘quvchilarning ta‘lim muassasida bilim olish bilan cheklanib qolmay, kasb-hunarga bo‘lgan qiziqishlarini orttiradi. Biz texnologiya o‘qituvchilari esa o‘quvchilarning bu qiziqishlarini amalga oshirishda bor salohiyatimiz va mehnatimizni ayamaymiz.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Muslimov N.A., SHaripov SH.S., Qo‘ysinov O.A. O‘rta maxsus, kasbhunar va oliy ta‘lim integrasiyasi. Metodik qo‘llanma. – T.: Nizomiy nomidagi TDPU. 2006.
2. “Mamlakatimiz ta‘lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirish, ilm-fan sohasi rivojini jadallashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi Prezident farmoni loyihasi.



## BOSHLANG‘ICH SINFLARDA RAQAMLASHNI O‘RGATISH USULLARI

**Bobonazarova Nargiza Mahmudjon qizi**  
**Matyakubova Nazokat Qadambayevna**  
**Madaminova Mohinur Gulmirza qizi**  
Xorazm viloyati Gurlan tumani  
30-umumiy o‘rta ta‘lim maktabining  
boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga 10 ichida raqamlashni o‘rgatish masalalari haqida so‘z yuritiladi.

**Kalit so‘zlar:** raqam, son, 10 ichida raqamlash, bosqich, taqqoslash, natija, usul.

Boshlang‘ich ta‘limni takomillashtirish hozirgi kunning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi. O‘quvchi maktabga kelgan dastlabki kunidan boshlaboq o‘qishga havas qo‘yishi, savodli o‘qishi va yozishi dastlabki amallarni to‘g‘ri bajarishga o‘rganishi kerak. Boshlang‘ich sinflarda matematikani muvoffaqqiyatli o‘rganish ko‘p jihatdan o‘quvchilarning 10 ichida sonlarni raqamlash va arifmetik amallarni o‘zlashtirish sifatiga bog‘liq bo‘ladi. Birinchidan, 10 gacha bo‘lgan sanoq, sanoqning keyingi bosqichi asosi hisoblanadi, ya‘ni bir o‘nlikdan o‘n o‘nlikkacha yoki bir yuzlikdan o‘n yuzlikkacha va h.k. oddiy birliklar kabi sanaladi. Ikkinchidan, 10 ichida qo‘shish jadvalini mustahkam bilmasdan ko‘p xonali sonlar ustida amallar bajarish mumkin emas.

Doimiy kuzatuvlar nazorat ishlari o‘tkazish natijalari shuni ko‘rsatadiki, birinchi sinflarda 10 ichida sonlarni raqamlashni o‘zlashtirishda ayrim kamchiliklar uchraydi 10-14% o‘quvchilar 10 ichida ongli sanash malakasiga ega emas. Ular bilimi mexanik sanash bilangina chegaralangan, ya‘ni sonlarning natural qatori ketma-ketligini hamma vaqt ham to‘g‘ri ayta olmaydilar masalan, o‘quvchi “Uchta” so‘zini ifodalashda ba‘zan uchinchi narsani to‘g‘ri ko‘rsata olmaydi. O‘quvchilar hisoblash maqsadini tushunmaydilar. O‘qitishning dastlabki ikki oyida o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajalari turlicha bo‘ladi. Bunga asosiy sabab, ularning rivojlanish darajasi va maktabga tayyorlanish sharoitlarining turli-tumanligidir. O‘zlashtirmovchilar bilan ishlashning turli shakllarini qo‘llash kerak: individual mashg‘ulotlar va topshiriqlar, ayrim o‘quvchilarni sinchiklab nazorat qilish va ularning xatolarini sistemali ravishda tuzatish, differensial yondashish o‘quvchilarning bilim darajasini hisobga olib, topshiriqlar berish, yangi materialni dars so‘ngida yoki o‘sha paytda qayta tushuntirish, teskari aloqaning turli vositalarini qo‘llash.

Darsda ko‘p og‘zaki topshiriqlar berish ham o‘quvchilar diqqatiga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi bunda ko‘proq tayyorgarlikka ega o‘quvchilar ishtrok etadilar. Bundan tashqari dastlabki oylarda, ba‘zi o‘qituvchilar o‘quvchilarni darslik bilan ishlashga o‘rgatmaydilar va darslikdagi barcha topshiriqlarni o‘zlari o‘qiydilar yoki yozuv taxtasiga yozadilar.

Dastlabki 10 ichida sonlarni o‘rganish darslari bolalarning maktabgacha bo‘lgan davrdagi rivojlanishi va tayyorgarligini hisobga olgan holda tashkil etilishi maqsadga muvofiqdir shu sababli, dastlabki darslardan oq bolalarning mavjud matematik tushunchalari va bilimlarini aniqlash zarur. Tayyorgarlik davrida raqamlashni o‘rganish uchun zarur bo‘ladigan (sanash, ko‘p, kam, katta, kichik, tartib, munosabatiga doir va h.k.) bilimlarni sistemalashtirish muhimdir. Ayniqsa, sanoq malakasini egallash muhim, buning uchun narsalar sanog‘iga doir mashqlarni har bir darsga kiritish lozim. Natijada o‘quvchilar, narsalar soni uning tartibiga bog‘liq emasligini tushunsinlar bunday mashqlar davomida imkoniyatiga qarab, har bir o‘quvchi o‘zlari sanayotgan narsani tegishli son bilan mos qo‘yish malakasiga ega bo‘lishi kerak. Bu davrda bolalar turli narsalar to‘plamini taqqoslash, soni teng bo‘lmagan narsalarni tenglashtirishni o‘rganib oladilar.

Dastlabki 10 ichida sonlarni raqamlashni o‘rganishga doir ko‘rgazmali qurollar va didaktik materiallarni oldindan tayyorlab qo‘yish kerak. Ayrim narsalarni o‘quvchilar ham to‘plashlari mumkin. Masalan, cho‘plar, barglar va h.k.

Mavzuni o‘rganishda asosiy diqqat-e‘tibor quyidagilarga qaratiladi:

1. Har bir yangi sonning hosil bo‘lishi. Yangi sonni sanoq materialidan yoki darslikdagi namunadan foydalanib hosil qilish sanoqda chegaradan chiqmaslik. O‘rganilayotgan sonni ilgari o‘rganilgan son bilan taqqoslash. Raqam bilan tanishtirish va raqamni yozishga o‘rgatish.

2. Sonlar qatoridagi qo‘shni sonlar orasidagi moslikni aniqlashtirish ya‘ni sonlarni taqqoslashni o‘rgatish. Sonlarni taqqoslash dastlab ko‘rgazmali qurollarga tayangan holda so‘ngra esa hisoblash



jarayonida amalga oshiriladi. Masalan, 5 va 6 sonlarini taqqoslash va h.k.

3. Har bir sonning tarkibi va ularni yodlashni o'zlashtirish. Bunda asosiy e'tibor: sonlarning ikkita qo'shiluvchidan tashkil topishi; sonni ikkita qo'shiluvchiga ajratilishi, masalan, 5 ta olmani ikkita bolaga qanday ajratish mumkin; sonning ikkita qo'shiluvchidan iborat tarkibini yaxshi o'zlashtirish keyinchalik 10 ichida qo'shish va ayirishni muvoffaqiyatli o'rganishga yordam beradi.

4. Mashqlar bajarish, masalan: 7 dan keyin keladigan sonni yozing ( ayting ); 6 dan oldin qaysi son kelishini yozing ( ayting ); 5 ni bitta orttiring va uni yozing ( ayting ); 7 soni bitta kamaytirilsa, qanday son hosil bo'ladi? Qaysi son 8 dan bitta ko'p? ( kam ); O'ylangan songa birni qo'shib, 7 hosil qilindi. Qanday son o'ylangan? Har bir son o'zidan keyingi sondan nechta kam? 6 va 8 sonlari orasida qanday son keladi? 3 dan 8 gacha bo'lgan sonlarni yozing.

5. Kesmalarni taqqoslash va chizish. Bu mashqlar o'quvchilarning og'zaki va yozma raqamlashni o'zlashtirishiga yordam beradi.

6. Mashqlarning yechimini taqqoslash.

4+1      7-1

5+1      6-1

Qaysi misolning javobi katta nima uchun? Raqamlar yozilishini tekshirish.

Masalan: qo'limda nechta cho'p turibdi? O'quvchi tegishli raqamni ( ko'rsatadi-yoki aytadi )

8. Taxtada yozish 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8, 9. Bu yerda yana qanday raqam yo'q?

Siz hammasi bo'lib nechta raqamni bilasiz?

Bu mashqlarni o'qituvchi mustaqil ishlar matematik diktantlar yoki og'zaki usulda bajarsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Xulosa qilib aytganda birinchi sinfda o'quvchilarning bilimi qanchalik mustahkam bo'lsa keyingi sinflarda materialni o'zlashtirishi oson kechadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. E.Jumayev Z.G'. Tadjiyeva. Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi. Toshkent -2015.

2. A.X.Juraqo'lova. Matematika fanidan ma'ruzalar matni. T. 2013.



---

ISSUES ON METHODOLOGY FOR TEACHING READING AT SCHOOL

**Davletova Muborak Baxram qizi**

Xiva shahar 1-son maktab o'qituvchisi

Telefon: +998 (9) 663 12 29

davletovamuborak\_1school@inbox.uz

**Abstract:** Almost every year, methodologists and psychologists come up with additions to existing teaching methods and pass them off as scientific innovations, but in general there are two main, fundamentally opposite methods of teaching reading. One is called the whole word method, the other phonological. In this article we deal with the issues based on teaching reading at school.

**Key words:** teaching reading, communicative and cognitive activity, school.

Reading is one of the most important types of communicative and cognitive activity, which is aimed at extracting information from a written text. Since the reading is carried out on a written fixed text, this makes it possible to return to it in case of misunderstanding and allows more attention to be paid to the disclosure of the content.

As well as, it is considered in the school methodology as a goal and as a means of teaching a foreign language.

In mastering reading, students face a variety of mental and linguistic challenges. As for teaching the reading technique, this is primarily reading aloud, reading for others. Reading technique is a measure of reading comprehension. There are different approaches to teaching reading techniques.

There are also approaches to classifying reading with information extraction. The level of understanding depends on the level of the reader's baggage. The selection and organization of texts for reading is important both in terms of their content and linguistic form. There are certain requirements for texts.

Difficulties in teaching a foreign language are associated with the fact that when teaching a foreign language reading in the speech memory of students there are no sufficiently strong auditory-speech-motor images of linguistic material, which are available, for example, in younger schoolchildren when teaching reading in their native language. It is believed that this difficulty can be overcome if the so-called oral anticipation is carried out.

Proponents of another method, whole words, argue that reading is possible without knowing the alphabet. In the experiment, we used cards with pictures and words that the children memorized. As a result, it turned out that children recognize words only on those cards with which they learned. Acquaintance with the alphabet is necessary for the development of abstract thinking in a child. When teaching almost any foreign language, a general approach can be distinguished: start learning by understanding sounds, correlating them with letters. In some languages, the relationship between letters and phonemes is very complex. In English, many words are read differently than they are spelled. The reading rules depend on the closed or open syllable, on the order of the letters and on the combination of syllables. Some sounds can influence the pronunciation of others.

Today, the school's English language curriculum addresses the compulsory teaching of phonetics.

A few decades ago, the technique was the same: first, children learned the names of letters, then sounds, and then connected the letters into syllables.

However, in recent years, the principle of warehouses - phonemes - has been successfully used. There are not many warehouses in the Russian language, and it is convenient to manipulate them. Especially if they are placed on cubes, which means that you can touch and turn them in your hands. Zaitsev's cubes, which use the principle of warehouses, agree very well with the structure of the Russian language.

So, we found out that the child needs to know phonetics. But this does not mean that the kid has to cram boring rules and distinguish qualitative reduction from quantitative. The main thing to maintain is an interest in learning. And the rule here is one: the child is interested as long as his capabilities coincide with the tasks set.

It is necessary to make sure that the child succeeds, so that his successes are obvious. For example, to learn the names of objects, flowers, toys that are in the classroom, i.e. in the child's reach.



Further training will be effective only against the background of positive emotions.

For full immersion of children, you can use the full reading method - read as much as possible to children in the target language. Moreover, the texts should surpass the language level of the child in their vocabulary. In addition, correct reading, according to experts, involves pauses, unfinished thoughts, difficult questions that require reflection.

So, despite the ongoing debate about how to teach reading, a mandatory element is defined that does not depend on a particular language: mastering the correspondences between letters and sounds.

Thus, the reading process is complicated by the need to master the system of graphic signs, other than the graphic signs of the native language, and the formation of skills to correlate them with foreign language sounds. Significant difficulty arises when unfamiliar lexical, and at the middle and senior levels of education, and individual grammatical phenomena are encountered in the texts.

#### **References:**

1. Rogova G.V., Vereshchagina I.N. “Methods of teaching English at the initial stage in secondary school”; A guide for the teacher. - M.: Education, 1991. 224 p.
2. Georgian I.A. “Methods of Teaching English in Secondary School”; Tutorial. -6th ed. - M.: 1999. - 223 p.
3. Galskova N.D., Gez N.I. Theory of teaching foreign languages: Linguodidactics and methodology: Textbook. manual for stud. lingual high fur boots and fak. in. lang. higher. ped. study. institutions. - M.: Publishing Center “Academy”. 2004.
4. Kolker Ya. M. Practical methods of teaching a foreign language. - Academy. 2000.



## BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARINING OG‘ZAKI NUTQINI O‘STIRISHDA XALQ OG‘ZAKI IJODIDN FOYDALANISH

**Sadullayeva Dilnoza Azimovna**  
Urganch shahridagi 18-son umumiy  
o‘rta ta‘lim maktabining  
boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi  
Telefon: +998 919192111

**Annotatsiya:** *Bu maqolada o‘quvchilarning og‘zaki nutqini o‘stirish ko‘zda tutiladi. Avvalam bor biz o‘quvchilarning og‘zaki nutqini o‘stirishimiz lozim. Bunda biz ko‘proq xalq og‘zaki nutqidan foydalanamiz.*

**Kalit so‘zlar:** kitob o‘qish, samarali o‘qish va axborot texnologiyasi, *ijodiy fikrlash*, tanqidiy fikrlash.

Nutq insonning asosiy muloqot vositalaridan biridir. Nutqning tashqi va ichki, og‘zaki va yozma turlari bor. Shulardan og‘zaki nutq haqida fikr yuritsak. O‘quvchilarning og‘zaki nutqi ravon bo‘lsa, u o‘z fikrlarini aniq va lo‘nda qilib yetkazib bera oladi. Bu borada ularning so‘z boyligini, lug‘atini boyitish lozimdir. Bolaning so‘z boyligi qanchalik ko‘p bo‘lsa, u shunchalik ravon gapiradigan bo‘ladi. Xalq og‘zaki ijodidan foydalanish o‘quvchilarning og‘zaki nutqini o‘stirishda muhim omilligi haqida ham fikr yuritiladi. Barcha fanlarni o‘qitish orqali o‘quvchilarning nutq madaniyati, nutq ko‘nikmalarini shakllantirish, ijodiy qobiliyatlarini taraqqiy ettirish kabi masalalarga e‘tibor beriladi. Boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilarning og‘zaki nutqini rivojlantirishdagi yana bir muhim omillardan biri bu xalq og‘zaki ijodidir. Shu jumladan birinchi va ikkinchi sinf o‘qish kitoblarida “Ertaklar yaxshilikka yetaklar”, 3-sinf o‘qish kitobida esa “Xalq og‘zaki ijodi” kabi bo‘limlar berilgan. Ularga kiritilgan ertaklar o‘quvchilarni odob-axloqqa o‘rgatish, ma‘naviy jihatdan rivojlanishi bilan ahamiyatlidir. Masalan, “Zumrad va Qimmat”, “Ur to‘qmoq” kabi ertaklardagi obrazlar, Zumrad va Qimmat, dehqon va boy obrazlari o‘quvchilar ongida yaxshidan quvonish va yomondan nafratlanish, undan yiroqlashish kerakligi haqida tasavvur hosil qiladi. Darslarda o‘quvchilar ertak bilan tanishgandan so‘ng, ularga ikkita jadval tuzishni taklif qilaman.

Birinchi yaxshi fazilatlar: mehribon, saxiy, yoqimli, shirinso‘z, mehnatkash, go‘zal, chiroyli, e‘tiborli, kamtar kabilarni topadilar va yozadilar.

Ikkinchisi, uning aksi yomon, xunuk, qo‘pol, yolg‘onchi, ayyor, xasis, qizg‘anchiq, qizg‘anchiq, odobsiz kabi so‘zlarni aytadilar va yozadilar. Bu ikkalasining farqini solishtirib biladilar. Yaxshi fazilatlarini o‘zlarida mujassam qilishga harakat qiladilar. Qolaversa xalq og‘zaki ijodidan nafaqat o‘qish darslarida, balki ona tili, matematika, tabiatshunoslik, rus tili, odobnoma, xullas barcha fanlarda o‘rinli foydalansak foydadan holi bo‘lmaydi. Bu bilan dars mobaynida o‘quvchilar faolligi oshishi bilan birga ularning og‘zaki nutqi ham rivojlanadi.

Masalan, matematika darslarida matematik maqollar, matematik topishmoqlar, ez aytishlardan keng foydalanamiz. Matematik maqollar:

Sanamay sakkiz dema. Yetti o‘lcnab bir kes.

Yigit kishiga yetmish xil hunar ham oz. Birni kessang, mingni ek.

Yer haydasang kuz hayda, kuz haydamasang yuz hayda kabi maqollardan foydalanamiz.

Matematik topishmoqlar:

To‘rt tomonim bor mening, Yana to‘rttala burchak.

Viqorimga qarab bil, Nomim mening ... ( to‘rtburchak )

Kelib ketar bir yilda, To‘rt og‘ayni har xilda. ( fasllar )

Ikki yaproq bir tanda, Kezar u go‘zal chamanda. ( kapalak )

Shoxda turar 5 ta qush,

Kelib qo‘ndi 4 ta qush,

Qani topgin Nodira,

Qushlar bo‘ldi nechta? ( 9 ta )

Bunday topishmoqlar o‘quvchilar zehni o‘tkir qilish bilan birga, fikrlashga undaydi. Ularni o‘z fikrini mustaqil bayon qilishga, og‘zaki nutqini o‘stirishga yordam beradi. Ba‘zan o‘quvchilar o‘zlari ham mustaqil ravishda anashunday qiziqarli matematik topishmoqlar tuzib keladilar. Bu esa ularning ijodiy qobiliyatlarini ham rivojlanishiga olib keladi.

Shu jumladan tez aytishlar ham o‘quvchilarni tezkor, hozirjavob va epchil, chaqqon bo‘lishga



chorlaydi. Tez aytishlar:

Bir tup tut, to'rt tup turp.

Boqi beshta buzoq boqdi.

Tohir tog'a tunov kuni tog'da to'rtta tulki tutdi.

Nutq bu fikrni ifodalovchi vositasi bo'lib, u orqali inson o'z fikrini, qarashlarini bayon etadi.

Shunday ekan biz tarbiyalayotgan o'g'il-qizlar o'z fikrlarini ravon, aniq va tushunarli bayon qila olsinlar. O'quvchilar nutqini o'stirishga maktab yoshidanoq alohida ahamiyat beraylik. Zero, o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqi ularning ma'naviy yetuklik belgisidir.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Boshlang'ich ta'lim. Boshlang'ich sinflarda o'quvchilar nutqini o'stirish. 2013-y

2. "Til va adabiyot ta'limi" ilmiy-metodik jurnali 6/2015 O'quvchining og'zaki va yozma nutqi 7-8 b

3. Boshlang'ich ta'lim. 2015 iyun.



## О‘QUVCHILARINING MUSTAQIL O‘QISH KO‘NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHDA BADIY ASARLARNING O‘RNI

Djumaniyozova Shaxnoza Yeldoshevna

Xorazm viloyati Urganch shahar

22-sonli maktabining boshlang'ich sinf o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining mustaqil o'qish ko'nikmalarini shakllantirishda badiiy asarlarni o'rni haqida so'z yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** kitob, badiiy asar, o'quvchi, mustaqil o'qish, malaka, kitobxonlik.

Boshlang'ich sinflarda o'qitilayotgan Ona tili va o'qish darslari yuqori sinflarda o'tiladigan adabiyot fanining tarkibiy qismi hisoblanadi. O'qish darslarida o'tkaziladigan mashg'ulotlar mazmuni, o'quvchilarni to'g'ri, ravon, ma'lum darajadagi tezlik bilan ifodali o'qishga o'rganishi, bolaning ona Vatan, uning tabiati kishilar mehnatidagi qahramonlik, jasurlik, milliy istiqloq g'oyalarini ular ongiga singdirilishi kabi bilimlarini boyitish orqali o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalari kengaytiriladi, shakllanadi va mustahkamlanadi.

Boshlang'ich sinflarda savod o'rgatishning asosiy bosqich yakunida kichik yoshdagi o'quvchilar faol kitobxon uchun zarur bo'lgan yaxshi o'qish ko'nikma va malakalarini egallashlari, eng muhimi, ularning kitob hamda mustaqil o'qishni yaxshi ko'rishlariga erishish juda muhimdir. Bunda quyidagilarga e'tibor qaratish lozim:

1. **Kitobni targ'ib qilish.** Sinfdan tashqari o'qishga tavsiya qilinadigan asarlar ro'yxati sinfga yoki maktabning maxsus joyiga osib qo'yiladi, ular vaqti-vaqti bilan yangilab turiladi, to'ldiriladi, ko'rgazmalar tashkil qilinadi. O'qituvchi maxsus suhbatlar uyushtiradi.

2. **Yakka tartibdagi yordam va kundalik tekshiruv.** O'quvchilarning o'qigan kitoblari yuzasidan suhbat uyushtiriladi, o'qilgan kitoblar hisobga olinadi. Shaxsiy fikrlar aniqlanadi, uy kutubxonalari bilan tanishiladi, ota-onalar bilan suhbat o'tkaziladi.

3. **Sinfдан tashqari o'qish yuzasidan ommaviy ishlar.** Adabiy ertaklar, viktorinalar, yozuvchilar bilan uchrashuvlar, adabiy ekskursiyalar uyushtiriladi, ular uchun maxsus tayyorgarlik ko'riladi.

4. **Kutubxonaga yozilish.** 1-sinf o'quvchilari o'qituvchining tavsiyasi bilan kutubxonaga a'zo bo'ladi. Bu jarayonda o'qituvchi va kutubxonachi hamkorlikda ish olib borishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

5. **O'quvchilarning o'qiganlarini hisobga olish.** Bunda ularning kitobxonlik kundaligidan foydalaniladi. 1-sinf o'quvchilari 2-yarim yillikdan boshlab kitobxonlik kundaligiga yozuvchining ismi, familiyasi va kitob nomini, 2-sinfda esa unga nashr etilgan joyi va yilini qo'shib yozadilar. 3-4-sinflarda o'qigan kitobining qisqacha mazmunini yozib, unga taqriz va o'z mulohazalarini ham qo'shishlari mumkin.

Mustaqil o'qilgan asarlar asosida o'quvchilarning badiiy asarni tahlil qilish kompetensiyalarini ham shakllantirib boramiz.

A1 standart darajaga ko'ra:

matndagi so'z va gaplarning ma'nolarini tushuna oladi;

asar mazmunidan ta'sirlana oladi;

xalq og'zaki ijodi namunalarini (ertak, topishmoq, maqol, masal, tez aytishni) farqlay oladi;

o'rganilgan asarlarning nomi, muallifi, mazmuni va qahramonlarini ajrata oladi;

asar qahramonlariga munosabat bildira oladi;

o'qilgan asar mazmuniga doir savol va topshiriqlarga javob bera oladi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, o'quvchining mustaqil o'qish ko'nikmalarini shakllantirishda o'quvchi yoqtirgan badiiy asarning janri ham muhim ahamiyat kasb etishini unutmasligimiz darkor. Chunki bola yoqtirgan badiiy asar janri hikoya, ertak, she'r, rivoyat, masal bo'lishidan qat'iy nazar unda mustaqil o'qish ko'nikmalarini rivojlantirish va kompetensiyalarini shakllantirish imkoniyati yuza keladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. K.Qosimova va boshq. Ona tili o'qitish metodikasi. T.: NOSIR 2009y.
2. D.Olimova. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining mustaqil o'qish ko'nikmalarini shakllantirishda badiiy asarlarning o'rni.
3. www.tadqiqot.uz



## BILIM OLIISH QOBILIYATLARNI O‘STIRISHDA MATEMATIKA FANINING AHAMIYATI

**Durdiyeva Umida, Otaxonova Muyassar**  
Yangiariq tumani 23-son umumiy o'rta ta'lim maktabining matematika fani o'qituvchilari

**Annotatsiya:** ushbu maqolada o'quvchilar fikrlash qobiliyatlarini o'stirishda matematika fanidan foydalanish va uning ahamiyati tahlil etilgan.

**Kalit so'zlar:** o'quvchi, fikrlash, mashq, matematika, masala, mashq, son.

O'quvchilar fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishda masala yechishga o'rgatish, berilgan va izlanayotgan sonlar orasidagi bog'lanishni aniqlashni va buning asosida arifmetik amallarni tanlash hamda ularni bajarishni o'rgatishdan iboratdir. Masalalar yechish davrida o'quvchilar egallashi lozim bo'lgan sonlar va izlanayotgan son orasidagi bog'lanishni o'zlashtiradilar. O'quvchilarni masalalar yecha olishlari bu o'quv darslarini qanchalik o'zlashtirganligiga bog'liq. Matematikada yechilishi berilgan sonlarni va nomalumlar orasidagi bir xil bog'lanishlarga asoslangan. Aniq mazmunni va sonli berilganlari bilan esa farq qiluvchi masalalar guruppasi bilan ish ko'riladi. Masalalar ustida ishlash o'quvchilarni avval bir turdagi masalalarni echishga so'ngra boshqa turdagi masalalarni yechishga o'rgatish lozim. O'quvchilarni sonlar bilan va sonlar orasidagi bog'lanish o'rgatiladi. Bularga erishish uchun bir necha bosqichlar ko'zda tutish lozim bo'ladi. 1-bosqichda o'qituvchi ko'rilayotgan turdagi masalalarni yechishga tayyorgarlik ishini olib boradi. Bu bosqichda o'quvchilar masalalarni yozishdan tegishli amallarni tanlash uchun asos bo'ladigan bog'lanishlarni o'zlashtirishlari kerak bo'ladi. 2-bosqichda o'qituvchi ko'rilayotgan turdagi masalalarni yechishi bilan o'quvchilarni tanishtiradi, bunda o'quvchilar berilgan sonlar va nomalum son orasidagi bog'lanishni aniqlaydilar. Buning asosida arifmetik amallarni tanlashni o'rganadilar, ya'ni masalada ifodalangan aniq vaziyatdan tegishli arifmetik amalni tanlashga o'tishni o'rganadilar. Bu ishlarni olib borish natijasida o'quvchilarni masalalarni yechishini va qanday amallarni, tanlashni o'rganadilar. 3-bosqichda o'qituvchi ko'rilayotgan turdagi masalalarni yechish uquvini shakllantiradi. O'quvchilar bu bosqichda ko'rilayotgan turdagi istalgan masalani uning aniq mazmunidan qat'iy nazar echishini o'rganishlari lozim. Ya'ni bu turdagi masalalarni echish usullari umumlashtirishlari kerak bo'ladi.

1. Bir kvadratning yuzi 36 kv dm, ikkinchisi esa undan ikki marta ortiq. Ikkinchi kvadratning yuzini toping.

*Yechish:*  $36 \cdot 2 = 72$  kv dm ga teng. Javob: ikkinchi kvadratning yuzi 72 kv dm ga teng. 2. Birinchi issiq xonada 9480 dona, ikkinchi issiq xonada birinchiga qaraganda uch marta kam atirgul etishtiriladi. Birinchi issiq xonada ikkinchi issiq xonaga qaraganda nechta ortiq atirgul yetishtirilgan? *Yechish:*  $9480 : 3 = 3160$  dona,  $9480 - 3160 = 6320$  Javob: birinchi issiq xonada ikkinchiga qaraganda 6320 ta ko'p atirgul etishtirildi.

3. Gulhayoda 1800 so'm pul bor. Agar u o'z pulini yarmini Maftunaga bersa, ularning pullari teng bo'ladi. Maftunada necha so'm pul bor? *Yechish:*  $1800 : 2 = 900$  so'm. Javob: Karimada 900 so'm pul bor.

**Og'zaki masalalar.** Oldingi qilingan ishlar ko'rsatma materialsiz masala (og'zaki masala) tuzishga o'tish uchun imkoniyat yaratadi. Og'zaki masala tuzishiga shoshilmaslik kerak. Bolalar odatda masala sxemasini oson o'zlashtirib oladilar. Unga ergashib darhol hayotdagi haqiqatni noto'g'ri ifodalaydilar bunda masalaning asosi hisoblangan miqdoriy munosabatlar mantiqini tushunmaydilar. Bajarilishi lozim bo'lgan harakatning mazmunini yaxshi o'zlashtirib olgandan keyin bolalar o'z tajribalari asosida tuzulgan masalalarni ham yecha oladilar. Xilma-xil mazmundagi masalalar tevarak-atrof haqidagi bilimlarni aniqlash va mustahkamlashga yordam beradi, ularni bog'lanishi va munosabatlarni aniq o'tashga, yani hodisalarni o'zaro bog'lanish va o'zaro bog'liqlari bilan idrok etishga o'rgatadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ishmuhammedov R va boshqalar. “Ta’limda innovatsion texnologiyalardan foydalanish”. Toshkent. 2008 y

2. Ziyomuhammadov B., Abdullaeva Sh. Ilg'or pedagogik - texnologiyalar. -Toshkent: Abu Ali Ibn Sino.



## BOSHLANG‘ICH TA‘LIMDA KOMPETENSIYAVIY YONDASHUVLI ZAMONAVIY VA QIZIQARLI USULLAR VA O‘YINLAR

**Duysenbayeva Aruxan, Jaqsibayeva Saule**

Navoiy viloyati, Zarafshon shahar  
9-maktab boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari

**Turmanova Janash Kuanishovna**

Navoiy viloyati, Uchquduq tumani  
5-maktab boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu uslubiy tavsiyada boshlang‘ich sinflarda kompetensiyaviy yondashuvli zamonaviy va qiziqarli usullar va o‘yinlar yoritilgan.


**Kalit so‘zlar:** zamonaviy yondashuvlar, kim chaqqon, topqir, ertak, didaktik o‘yin

O‘qitishda zamonaviy yondashuvlar va innovatsiyalar har bir fan o‘qituvchilari malakasini oshirishga, boshlang‘ich sinf o‘qituvchilariga ta‘limda zamonaviy yondashuvlar va innovatsiyalarning mazmun va mohiyatini ochib beradi. Ushbu metodik tavsiyada ham boshlang‘ich sinf o‘qituvchilariga darslarini o‘tishda qo‘llaniladigan yangi usul va qiziqarli o‘yinlar o‘rin olgan.

**“Kompetentsiya” tushunchasi va uning turlari.**

Kompetentsiya-bilim, ko‘nikma, malaka, qarashlar, individning qadriyati va shaxsiy sifatlari, kvalifikatsiyaning namoyon bo‘lishi yoki ta’sir ko‘rsatish qobiliyati.

### Kompetentsiya turlari



**Kasbiy kompetentsiya:** pedagogika va psixologiyaga doir bilimlarga ega bo‘lish;

- O‘z ustida ishlash;
- Ta‘lim jarayonini rejalashtirish, baholash va qayta aloqani o‘rnata olish;
- O‘quvchilar ehtiyojini anglay olishi;
- O‘quvchilarda motivatsiyani shakllantirish;
- AKTni bilishi;
- Ta‘lim muhitiga yangilik kiritishi;
- O‘z fanini mukammal bilishi;
- Xorijiy tillardan birini bilishi.



## “ERTAKNING NOMINI TOPING” O‘YINI. BUNDA O‘QUVCHILARGA ERTAK RASMLARI KO‘RSATILADI VA ULARGA JAVOB TOPILADI.



Boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilar faolligi va qiziqishlarini oshirish uchun taqdim etiladigan ilg‘or pedagogik texnologiyaning turli usul va uslublardan, didaktik tarqatma materiallardan, slaydlar asosida tashkil etilgan darslardan foydalanish maqsadga muvofiq.

### Didaktik kompetensiya.

- O‘qitish muhitini yaratish.
- Mavzu mazmunini yoritishni rejalashtirish
- O‘quv jarayoni boshqarish
- O‘quvchilarning yutuqlari va rivojlanishlarini baholash
- O‘quvchilarga motivatsiya berish va yordam ko‘rsatish
- O‘quvchilar bilimini anglash va ularni rivojlantirish.



“Kim chempion” o‘yini. Bu o‘yin orqali boshlang‘ich sinf darslari sport bilan bog‘lanadi. Bunda o‘quvchilarga darsda bergan to‘liq javobi uchun “Oltin medal”, o‘rtacha berilgan javob uchun “Kumush medal” hamda qoniqarli javob uchun “Bronza medali” bilan taqdirlanadi.

**“Kim chaqqon” usuli.**  
**Noto‘g‘ri yechilgan misolni toping?**

63 126	:	7	=	9018
35 133	:	7	=	519
50 600	:	8	=	6 325
90 470	:	5	=	1 894



**“Chigil yozdi” metodi.** Dars boshlanishida bu usul darsga o‘quvchilarni ruhiy tayyorlash va dars yarmida o‘quvchilar diqqatini darsning keyingi bosqichiga chorlash uchun qo‘llaniladi. O‘qituvchi she’rlardan parcha aytishi, hazil savollar berishi, mashqlar bajarishi, ko‘pincha qiziqarli o‘yinlar tashkil etishi mumkin.

Xullas, boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchi va o‘quvchilarning hamkorlikdagi faoliyati bo‘lib, shu jarayonda shaxsning taraqqiyoti, uning ma’lumoti va tarbiyasi ham amalga oshadi. Darslarda o‘qituvchi o‘z bilimi, ko‘nikma va malakalarini mashg‘ulotlar vositasida o‘quvchilarga yetkazadi, o‘quvchilar esa uni o‘zlashtirib borishi natijasida undan foydalanish qobiliyatiga ega bo‘ladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Piraxunova F.N., Nazirov A.X. O‘qitishning yangi pedagogik texnologiyalari. Uslubiy qo‘llanma.
2. Internet saytlari: -ZiyoNet .uz, - kitob.uz.



## ТА’ЛИМДА INNOVATSION PEDAGOGIK FAOLIYATNING ZARURIYATI

**Hamidullayeva Guljahon Nayim qizi**

Navoiy viloyati Zarafshon kasb -hunar maktabi  
ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

**Hamidullayev Maqsud Nayim o'gli**

Navoiy viloyati Qiziltepa tumani  
31-umumiy o'rta ta'lim maktabining fizika fani o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada hozirgi zamonaviy ta'lim tizimi yangicha o'qitish uslublari, innovatsion ta'lim tizimidagi yangicha pedagogik yondashuvlar va faoliyatning zarurligi haqida mulohaza yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** ta'lim, innovatsion ta'lim, metod, pedagogik yondashuv, pedagogik faoliyat, tarbiya, g'oya.

Bilim kishining shaxsiy e'tikodiga o'z-o'zidan aylanmaydi, uni shakllantirish ham kerak. Buning uchun ta'lim va tarbiya jarayonida istiqbolli yosh kadrlar shaxsning aql-idrokiga, his-tuyg'usiga va xohish-irodasiga muayyan maqsadlarni singdirish ham, ularni belgilab berish ham darkor. Shu bois yosh kadrlarga yetkazilayotgan g'oyalar ular tomonidan teran tushunib olinishi va aql-idrok mulkiga aylanishi darkor. Shundagina ular bo'lajak yosh kadrlar ongda o'z izini qoldirishi mumkin. Buning uchun sub'ektlarda mustaqil fikrlashni rivojlantirish darkor.

“Innovatsion ta'lim” deganda odatda o'quv jarayoniga yangi (foydali) elementlar olib kirish tushuniladi. Shuning uchun ta'limda innovatsiya tizimidagi o'zgarishlar bilan bevosita bog'liq. Bunday o'zgarishlar ta'lim tizimining:

- maqsadiga, mazmuniga, metod, texnologiyasiga, tashkil etish shakli va boshqaruv tizimiga;
- pedagogik faoliyatdagi o'ziga xoslik va o'quv-bilish jarayonini tashkil etishga;
- ta'lim darajalarini nazorat qilish va baholash tizimiga;
- o'quv-metodik ta'minotga;
- tarbiyaviy ishlar tizimiga;
- o'quv reja va o'quv dasturlariga;
- o'quvchi va pedagog faoliyatiga bog'liq.

Jadal zamonaviy rivojlanish sharoitlarida jamiyat, madaniyat va ta'limning innovatsion pedagogik faoliyatning zarurligi qator omillar bilan belgilanadi:

- ta'lim tizimidagi tub o'zgarishlarni taqazo etuvchi ijtimoiy -iqtisodiy o'zgarishlar, ta'lim tizimida yangilanishlar, turli o'quv muassasalarida o'quv-tarbiya jarayonini tashkil etishda metodika va texnologiyalardan foydalanishning zarurligi. Pedagoglar faoliyatining innovatsion yo'naltirilganligi ta'lim siyosatining yangilanish vositasi sifatida namoyon bo'ladi;

- ta'lim mazmunida o'quv fanlari miqdori va tarkibidagi o'zgarishlar orqali insonparvarlik g'oyalarining kuchayishi; ta'lim va tarbiya tizimida muntazam tashkiliy yangiliklarni taqazo qiluvchi yangi o'quv predmetlarini kiritish orqali. Bunday vaziyatda o'qituvchilar orasida pedagogik bilim va mavqeyi oshadi, pedagoglarning kasbiy mahorati sezilarli ravishda ortadi.

- pedagoglar tomonidan yangiliklarni qo'llashga va o'zlashtirishga nisbatan yondashuvning o'zgarishi. Ta'lim –tarbiya jarayonlari qat'iy vaqt me'yorlariga rioya etish talab qilinadigan sharoitlarda pedagoglar nafaqat dastur va darsliklarni ixtiyoriy tanlash, balki o'zlarining pedagogik faoliyatlarida usul va vositalarni tanlashda ham ma'lum chegaralar mavjud edi.

Bugungi innovatsion pedagogik faoliyat tanlash va tadqiqotchilik xarakteriga ega ekanligi bilan ham e'tiborga loyiqdir. Shuning uchun ham pedagogik jamoalar rahbarlari, ilmiy tadqiqot institutlarining metodik xizmatchilari faoliyatining muhim yo'nalishi o'qituvchilar tomonidan yaratilayotgan innovatsiyalarning tahlili va baholanishi, ularning samaradorlarini yaratish va qo'llash uchun zaruriy sharoitlarni yaratishdan iborat. Agar sodda qilib bayon etadigan bo'lsak, innovatsion faoliyatga murojaat etishga majbur qilayotgan asosiy sabab, ta'lim xizmatlarini amalga oshiruvchi barcha tashkilotlar jamoasi duch kelayotgan keskin raqobat sharoitidir.

Bugungi kunda pedagogik jamoalar mustaqil ravishda ta'lim tizimida raqobatbardoshlikni amalga oshirish, ya'ni vaziyatni kuzatish va bashoratlash, asosiy raqobatdoshlar faoliyat yo'nalishini kuzatib borish, ilmiy va texnologik yangiliklarni ish faoliyatida qo'llash va boshqalardan oldinroqqa intilishni mustaqil ravishda amalga oshirishlari zarur.



Innovatsiyaning maqsadi - sarflangan mablag' yoki kuch evaziga yuqori natijaga erishishdan iborat. Boshqa turli - tuman o'z-o'zidan paydo bo'ladigan yangiliklardan farqli o'laroq innovatsiya boshqariluvchi va nazorat qilinuvchi o'zgarishlar mexanizmini tashkil etadi.

Ta'lim innovatsiyalari – ta'lim sohasi yoki o'quv jarayonida mavjud muammoni yangicha yondoshuv asosida yechish maqsadida qo'llanilib, avvalgidan ancha samarali natijani kafolatlay oladigan shakl, metod va texnologiyalar. Ta'lim tizimida yoki o'quv faoliyatida innovatsiyalarni qo'llashda sarflangan mablag' va kuchdan imkon qadar eng yuqori natijani olish maqsadi ko'zlanadi. Innovatsiyalarning har qanday yangilikdan farqi shundaki, u boshqarish va nazorat qilish. Shunday qilib, zamonaviy ta'limda innovatsiya, yanada aniqrog'i, pedagogik hamda ta'lim innovatsiyalaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Binobarin, globalashuv hamda jamiyatning axborotlashuvi ta'lim jarayonini noan'anaviy shakllarda samarali metod va vositalarni qo'llashni taqozo etish bilan birga, o'quv materiallarini shakllantirish va ulardan amalda foydalanishga nisbatan ham innovatsion yondoshishni taqozo etmoqda.

Pedagogik innovatsiyalar pedagogik tizimning ichki tuzilishini o'zgartiradi. Pedagoglarning kasbiy faoliyatga innovatsion yondasha olishlari ko'zlangan maqsadga erishishni kafolatlash bilan birga ta'lim sifati va samaradorligini oshirishga, talabalarda bilish faolligini kuchaytirishga yordam beradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. O'zbekiston Respublikasining “Ta'lim to'g'risida”gi Qonuni. [www.Lex.uz](http://www.Lex.uz)
2. O'zbekiston Respublikasining “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” [www.Lex.uz](http://www.Lex.uz)
3. Moreva N. A. "Texnologii professionalnogo obrazovaniya. Uchebnoe posobie dlya vuzov", Visshee professionalnoe obrazovanie Izdatelstvo: Academia. 2017.
4. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz) - ta'lim portali.
5. [www.conferences.uz](http://www.conferences.uz) sayti.



**МАКТАБДА ОНА ТИЛИ ДАРSLARIDA "QARAMA-QARSHI MUNOSABAT"  
METODIDAN FOYDALANISHDA METODIK TAVSIYALAR**

**Jumaniyazova Dinora Shuxratovna.  
Ro‘zmetova Saodatjon Madrimovna**

Xiva tumanidagi 6-son umumiy o‘rta ta‘lim maktabi  
Ona tili va adabiyoti fan o‘qituvchilari.

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada hozirgi kunda ta'lim tizimida qo'llaniladigan innovatsion pedagogik texnologiyalar va metodlar haqida fikr yuritilgan. Ona tili darslarining samaradorligini oshirishdagi ahamiyati haqida to'xtalib o'tilgan.

**Kalit so‘zlar:** Ona tili, interfaol, alternativ, metod, texnologik diktant.

Ta'lim tizimini yanada rivojlantirish, xorijiy mamlakatlarning tajribasini chuqur o'rgangan holda zamonaviy metodlar va texnologiyalar asosida o'qitish masalalariga hukumatimiz tomonidan berilayotgan e'tibor juda katta bo'lmoqda. Innovatsion va pedagogik texnologiyalarning mamlakatimiz ta'lim sohasiga kirib kelishi - bu ta'limda tub burulish davri bo'ldi deb aytsak mubolag'a bo'lmaydi. Innovatsion texnologiya va metodlar bu o'quv jarayonida asosiy boshqaruvchi -o'qituvchi, boshqariluvchi - o'quvchifaoliyati birgalkda yo'naltiriladi va bu jarayonda o'qituvchidan ham o'quvchidan ham mustaqillik va ijodkorlik sifatlarini talab etadi. Har bir o'qituvchi dars o'tishdan oldin darsda qo'llaydigan innovatsion pedagogik texnologiyalarning har bir elementigacha puxta o'rganishi va tadqiq qilishi lozim.

Bunday natijaga erishish amaliyotda o'quv jarayonida innovatsion va axborot texnologiyalarini qo'llashni taqozo etadi. Ular juda xilma-xildir. Hozirgi zamonaviy metodlar yoki o'qitishning samarasini oshirishga yordam beruvchi texnologik darslar o'quvchilarda mantiqiy, aqliy, ijobiy, tanqidiy, mustaqil fikrlashni shakllantirishga, ijobiy fazilatlarini tarbiyalashga va ularning qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi.

Metod o‘z mohiyatiga qo‘ra o‘zlashtirilgan bilimlarni tahlil va sintez qilish asosida asosiy hamda ikkinchi darajali ma‘lumotlar sifatida guruhlarga ajratish imkonini beradi. Metodni qo‘llashda quyidagi harakatlar amalga oshiriladi:

- mavzuning umumiy mazmuni yodga olinib, uning ahamiyatini yorituvchi tayanch tushunchalar aniqlanadi;
- ular muayyan ketma-ketlikda qayd etiladi;
- tushunchalar shaxsiy yondashuv asosida muhim va u qadar muhim bo‘lmagan tushunchalar tarzida guruhlanadi;
- jadval yaratilib, uning 1-ustuniga muhim bo‘lgan, 2-ustuniga muhim bo‘lmagan tushunchalar yoziladi;
- kichik guruhlar asosida shaxsiy yondashuvlar muhokama qilinadi;
- jamoaning umumiy fikriga ko‘ra yakuniy xulosani ifoda etuvchi jadval yaratiladi. O‘quvchilar faoliyatining samaradorligini ta‘minlash uchun ularning e‘tiborlariga quyidagi jadvallarni taqdim etish maqsadga muvofiq:

**1. Yakka tartibda ishlash jarayonida foydalanish uchun**

**1-jadval**

Mavzuning ahamiyati			
№	Muhim tushunchalar	№	Muhim bo‘lmagan tushunchalar
1.		1.	
2.		2.	
3.		3.	
4.		4.	
5.		5.	
...		...	



Har bir o`quvchi shu jadvalga o`tilgan dars uchun muhim bo`lgan yoki muhim bo`lmagan tushunchalarni yozib boradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar royxati.**

1. Ishmuhammedov R va boshqalar. “Ta’lim-tarbiya jarayonlarida innovatsion texnologiyalardan foydalanish”. Toshkent. 2010 yil.
2. K. Qosimova, S. Matchonov, X. G 'ulomova, Sh. Yo‘ldosheva, Sh. Sariyev "Ona tili o‘qitish metodikasi", Toshkent "Nosir" nashriyoti 2009.



## DARSLARDA MULTIMEDIYALARDAN FOYDALANISH VA ULAR ORQALI DARS SAMARADORLIGINI OSHIRISH

**Jumaniyazova Kumuri Allaberganovna**

Xorazm viloyati Urganch tumani

43 - son maktabning

Ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

**Boboxonova Saodatjon Xamrobek qizi**

Xorazm viloyati Urganch tumani

43 - son maktabning

Nemis tili fani o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada darslarda multimediya vositalaridan foydalanish imkoniyatlari, ulardan foydalanish asosida o'qituvchi va o'quvchilarning imkoniyatlari haqida so'z yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** dars, matematika, multimediya, kompyuter, axborot-kommunikatsion texnologiya, elektron, dars, qo'llanma.

Bugungi kunda Kadrlar tayyorlash Milliy dasturining asosiy talablaridan biri axborot texnologiyalarini ta'lim jarayoniga keng tatbiq etib, o'quvchilarni mustaqil bilim olishga, erkin fikrlashga o'rgatishdan iboratdir. Shu maqsadda maktablarning moddiy-texnika bazasi mustahkamlandi, maktablar kompyuter va boshqa texnika vositalari bilan ta'minlandi. Bularning barchasi ta'lim samaradorligini oshirishga qaratilgandir.

Hozirgi vaqtda pedagog kadrlarni axborot-kommunikatsion texnologiyalar bo'yicha malakalarini oshirish ishlari keng yo'lga qo'yilgan. Har bir pedagog o'z kasbiy faoliyatida kompyuter imkoniyatlaridan erkin va faol foydalanishni, dars jarayonida tatbiq qilishini nazarda tutadi. Pedagoglarning axborot-kommunikatsion texnologiyalardan foydalanish bo'yicha tayyorgarligi bir necha komponentlarni o'z ichiga oladi. Ulardan biri axborot-kommunikatsion texnologiyalardan foydalanish asoslari va ularni kasbiy faoliyatda qo'llash metodikasini egallash hisoblanadi.

Tovushlar va multimediyalar bilan ishlash multimediya vositalari deb ataladigan maxsus texnik va uskunaviy asboblardan yordamida amalga oshiriladi, "Multimediya" atamasi "ko'p tarmoqli muhit", "multimuhit" ma'nolarini anglatadi. Multimediya deganda, turli shakldagi ma'lumotlarni qayta ishlovchi vositalar majmuasi tushuniladi. Elektron qo'llanma eng birinchi navbatda bu – yangi o'quv ma'lumotlarni namoyish etish, an'anaviy ta'lim usulida chop etilgan qo'llanmalarni mazmunan to'ldiruvchi, ko'rgazmali vositalarga animatsiya beruvchi, mavzuni audiovizual (ko'rish va eshitish) to'ldiruvchi, egallangan bilim va ko'nikmalarni tekshirib ko'rishga imkon beruvchi kompyuter-informatsion dasturiy vosita bo'lib, unda multimediya imkoniyatlaridan keng foydalaniladi. Deyarli har bir ta'lim muassasasi kutubxonalarida multimediya prinsiplariga asoslangan elektron ma'lumotnomalar, ensiklopediyalar, tarjimonlar va lug'atlar mavjud. O'qituvchilar elektron ensiklopediyalardan ochiq darslar davomida samarali foydalanishlari kerak.

Dars jarayonida quyidagi turdagi axborot-kommunikatsion texnologiyalardan foydalanishga e'tibor beriladi:

- yangi mavzuni bayon etish yoki mustahkamlash uchun slaydlar;
- ayrim mavzularni bayon qilish uchun har biri 5–10 minutli bo'lgan multimediyalar;
- deyarli barcha mavzularni bayon qilish uchun har biri 5–10 minutli bo'lgan multimediyalar;
- turli mashqlarni, amaliy topshiriqlarni bajarishga mo'ljallangan o'yinli multimediyalar.

Bulardan tashqari, o'quvchilar mustaqil shug'ullanishlari uchun elektron darsliklar yaratish ko'zda tutiladi. Elektron darslikda ayrim muhim mavzular yoki deyarli barcha mavzular bayoni, undagi mashqlar, topshiriqlar, testlar multimediya orqali beriladi. Unda turli mashqlar, topshiriqlar va testlar o'yinli multimediyalardan iborat bo'ladi.

Elektron darsliklar o'quvchilarni bilim olishga qiziqtiradi, o'zlari ustida mustaqil ishlashga o'rgatadi, bo'sh vaqtlarini mazmunli va foydali o'tkazishga yordam beradi.

Ta'lim jarayonida multimediyadan foydalanish o'qituvchiga:

- darsni zamonaviy tarzda modellashtirish;
- bilimlarini chuqurlashtirish uchun qo'shimcha ma'lumot va axborotlarga ega bo'lish;



– nazariy va mustaqil ishlashni tayyorlash imkonini beradi.

Ta’lim jarayonida multimediyadan foydalanish o`quvchilarga:

– fanga qiziqish uyg`otish, o`z bilimlarini nazorat qilish va mustahkamlash;

– ensiklopedik ko`rinishdagi axborotlarni tezkor olish;

– mavzuni o`rganishda o`zi uchun qulay bo`lgan tezlik va o`zlashtirish darajasini tanlash;

– zamonaviy axborot-kommunikatsion texnologiyalarga jalb qilish, uni egallash va unga doimiy ishlashga bo`lgan ehtiyojni shakllantirish imkoniyatlarni beradi.

Multimediyaga asoslangan dars ishlanmalarini markazlashtirilgan holda tayyorlash axborot-kommunikatsion texnologiyalarni biladigan, ya’ni multimediyani tayyorlay oladigan mutaxassislar bilan shu o`quv fanining mutaxassislari birgalikda amalga oshirilishi kerak. Buning uchun fan mutaxassisi axborot-kommunikatsion texnologiyalardan, multimediyani tayyorlash texnologiyasidan yetarli daraja xabardor bo`lishi kerak. Bunda fan mutaxassisi tegishli dars uchun multimediyaga asoslangan dars ishlanmasining ssenariysini tuzib berishi, multimediyani tayyorlash jarayonida bevosita ishtirok etishi kerak.

Multimediyaga ovoz berish uchun ham maxsus mutaxassislar jalb qilinishi, ovoz ravon va tushunarli tarzda berilishi, o`quvchilarning diqqatini jalb qila oladigan darajada bo`lishi zarur.

O`quv topshiriqlarini multimediyali vositalar yordamida o`quvchilarga taqdim etish bir qadar qulayliklar tug`diradi. Chunki multimediyali vositalar o`quvchilarning mustaqil faoliyat ko`rsatishlarini ta`minlashga xizmat qiladi. Har bir o`quvchini o`qituvchi hamda sinfdoshlari bilan muloqotga kirishish, hamkorlik qilishga undaydi. Bunday vaziyatlarda multimediyali vositalar alohida didaktik funksiyani bajaradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Kenjaboev O. Zamonaviy axborot texnologiyalari. T. 1999

2. Avliyaqulov N., Musaeva N. Pedagogik texnologiyalar. T., 2008 y.

3. Tolipov O’.No’monova N.Ta’lim-tarbiya jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalar. G’G’ Xalq ta’limi. -Toshkent, 2002.



## BIOLOGIYA FANINI O`QITISHDA “QARORLAR SHAJARASI” METODIDAN FOYDALANISH

**Karimova Nodira Yormatovna**

Gurlan tumani 43-son XT va AFCHO'DIMI  
biologiya fani o`qituvchisi

**Annotatsiya:** Bu maqolada o`quvchilarga biologiya fanidan ta`lim berishda kasbiy mahoratini, iste`dodi, tajribasi va madaniyati pedagogik texnologiyalarini qo`llashi haqida ma`lumotlar keltirilgan.

**Kalit so`z:** interfaol, ta`lim, kasbiy, pedagog, texnologiya, o`quvchi, til.

“Interaktiv” inglizcha “Interactive” so`zidan olingan bo`lib, “o`zaro harakat va ta`sirlanish” degan ma`noni anglatadi. Interaktiv metod biror faoliyat yoki muammoni o`zaro muloqotda, o`zaro bahs-munozarada fikrlash asnosida, hamjihatlik bilan hal etishdir. Bu usulning afzalligi shundaki, butun faoliyat o`quvchi-talabani mustaqil fikrlashga o`rgatib, mustaqil hayotga tayyorlaydi.

“Qarorlar shajarasi” metodi muayyan fan asoslari borasidagi bir qadar murakkab mavzularni o`zlashtirish, ma`lum masalalarda har tomonlama, puxta tahlil etish asosida ular yuzasidan muayyan xulosalarga kelish, bir muammo xususida bildirilayotgan bir necha xulosalar orasidan eng maqbul hamda to`g`risini topishga yo`naltirilgan texnik yondashuvlar. Ushbu metod, shuningdek, avvalgi vaziyatlarda qabul qilingan qaror (xulosa) lar mohiyatini yana bir bora tahlil etish va uni mukammal tushunishga xizmat qiladi. Guruh o`quvchi-talabalari ishtirokida qo`llaniladigan “Qarorlar shajarasi” bir necha o`n nafar o`quvchi-talabalarining bilimlari darajasini aniqlash, ularning fikrlarini jamlash va baholash imkonini beradi. Ta`lim jarayonida mazkur metodning qo`llanilishi muayyan muammo yuzasidan oqilona qaror qabul qilish (xulosaga kelish)da o`quvchi-talabalar tomonidan bildirilayotgan har bir variant, ularning maqbul hamda nomaqbul jihatlari mufassal tahlil etish imkoniyatini yaratadi. Mashg`ulot jarayonida o`quvchi-talabalar quyidagi chizma asosida tuzilgan jadvalni to`ldiradilar (yoki ushbu tartibdagi faoliyatni olib borishda yozuv taxtasidan foydalanadilar):

“Qarorlar shajarasi” metodi quyidagi shartlar asosida qo`llaniladi:

1. O`qituvchi mashg`ulot boshlanishidan oldin munozara, tahlil uchun mavzuga oid biror muammoni belgilaydi. Guruhlar tomonidan qabul qilingan xulosa (qaror)larni yozish uchun plakatlarni tayyorlaydi.

2. O`qituvchi o`quvchi-talabalarni 4 yoki 6 nafardan iborat guruhlariga ajratadi. Muammoning hal etilishi va bu borada eng maqbul qaror qabul qilinishi uchun muayyan vaqt belgilanadi.

3. Qarorni qabul qilish jarayonida guruhlarining har bir a`zosi tomonidan bildirilayotgan variantlarning maqbullik hamda nomaqbullik darajalari batafsil muhokama qilinadi. Har bir variantning afzallik va afzal bo`lmagan jihatlari yozib boriladi. Bildirilgan variantlar asosida muammoni ijobiy hal etishga xizmat qiluvchi usul xususida guruh a`zolari bir to`xtamga kelib oladilar.

4. Munozara uchun ajratilgan vaqt nihoyasiga yetgach, har bir guruh a`zolari o`z guruhi qarori borasida axborot beradilar. Zarur hollarda o`qituvchi rahbarligida barcha o`quvchi-talabalar bildirilgan xulosa (qaror)larni bir-biri bilan qiyoslaydilar.

Muammoga oid tegishli qarorlar borasida savollar yuzaga kelsa ularga tegishli javob qaytariladi, noaniqliklarga aniqlik kiritiladi. Agar barcha guruhlar tomonidan muammo yuzasidan bir xil qarorga kelingan bo`lsa, o`qituvchi buning sababini izohlaydi.

“Qarorlar shajarasi” metodining o`ziga xos jihati shundan iboratki, bu metod bevosita ma`lum loyiha asosida qo`llaniladi. Mazkur loyiha quyidagi ko`rinishga ega:



<i>UMUMIY MUAMMO</i>					
<i>Yerda hayotning paydo bo'lishi</i>					
<i>1-qaror varianti</i>		<i>2-qaror varianti</i>		<i>3-qaror varianti</i>	
<i>Afzalligi</i>	<i>Kamchiligi</i>	<i>Afzalligi</i>	<i>Kamchiligi</i>	<i>Afzalligi</i>	<i>Kamchiligi</i>
<i>Qaror:</i>					

**Foydalanilgan adabiyotlar.**

1.J. O. Tolipova. “Pedagogik kvalimetriya”. T.: 2015.

2.Azizxo'jayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. T., 2003.

**BOSHLANG‘ICH TA‘LIMDA MATEMATIKA FANINI O‘QITISH USULLARI**

**Kurambayeva Mavluda Egamberganovna**  
**Nurumova Fazilat Madrimovna**  
**Matniyazova Ro‘za Quralovna**  
Xorazm viloyati Gurlan tumani  
30-umumiy o‘rta ta‘lim maktabining  
boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada boshlang‘ich sinflarda matematika fanini o‘qitish usullari va darslarda masalalar yechish metodikasi haqida mulohaza yuritilgan.

**Kalit so‘zlar:** boshlang‘ich, matematika, masala, masala yechish, malaka, usul.

Mamlakatimizda yuz berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar, xalq ta‘limi tizimida bo‘layotgan o‘zgarishlar „Ta‘lim to‘g‘risida“gi Qonunda hamda „Kadrlar tayyorlash milliy dasturi“da ko‘rsatib o‘tilganidek, har bir boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi oldiga muhim vazifalar qo‘ymoqda.

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining metodik-matematik tayyorgarligi deyilganda biz uni ilmiy dunyoqarash asosida matematika o‘qitish metodikasi bo‘yicha umumiy psixologik-pedagogik va matematik tayyorgarlik bilan uzviy bog‘lanishda tayyorlanishini tushunamiz. Metodik-matematik tayyorgarlik boshlang‘ich sinflar o‘qituvchisini tayyorlashning tarkibiy qismi bo‘lib, unga ta‘limiy-tarbiyaviy faoliyatdan ajralgan holda qarash mumkin emas. Ikkinchi tomondan, boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitish birinchi bosqichdir, ya‘ni bolalarni navbatdagi maktab matematika kursini o‘zlashtirishga tayyorlash bosqichidir yoki matematikadan tayyorligidir.

Matematikadan boshlang‘ich ta‘limning bu ikki jihati (boshlang‘ich ta‘limning tarkibiy qismi va matematik tayyorgarligi) o‘qitish metodikasida o‘zining munosib aksini topishi lozim. Masalalar yechish orqali o‘quvchilarda ushbu malakalar tarkib topmog‘i lozim. Sodda va murakkab masalalar bolalarning fikrlash qobiliyatlarini rejalashtirishning foydali vositasi bo‘lib, odatda, o‘z ichiga “yashirin informatsiyani” oladi. Bu informatsiyani qidirish, masala yechuvchidan analiz va sintezga mustaqil murojaat qilish, faktlarni taqqoslash, umumlashtirish va hokazolarni talab qiladi. Bilishning bu usullarini o‘rgatish matematika o‘qitishning muhim maqsadlaridan biri hisoblanadi. 1. **Masalani tinglashni o‘rganish va uni mustaqil o‘qiy olish.** Masala ustida ishlash uning mazmunini o‘zlashtirishdan boshlanadi. O‘quvchilar hali o‘qish malakasiga ega bo‘lmagan dastlabki vaqtlarda ularni o‘qituvchi o‘qib beradigan masala matnini tinglashga, shartining muhim elementlarini tovush chiqarib ajratishga o‘rgatish kerak. Shundan keyin masala shartini yaxshiroq o‘zlashtirish maqsadida, har bir o‘quvchi masala matnini tinglabgina qolmay, balki masalani mustaqil o‘qib chiqishi zarur. Masala matni o‘qituvchi yoki o‘quvchilar tomonidan bir-ikki marta o‘qiladi, ammo bunda bolalarni masala matnini bir marta o‘qishdayoq uning mazmunini tushunib olishga asta-sekin o‘rgata borish kerak.

2. **Masalani dastlabki analiz qilish** (ma‘lumni noma‘lumdan ajarata olish malakasi). Ma‘lumni noma‘lumdan, muhimni nomuhimdan ajratish, masalada berilganlar bilan izlanayotganlar orasidagi bog‘lanishni ochish bu eng muhim malakalardan biri. Bunday malakaga ega bo‘lmay turib, masalalarni mustaqil yechishga o‘rganib bo‘lmaydi.

3. **Masalani qisqa yozish malakasi.** Masala matni ustida og‘zaki ishlagandan keyin uning mazmunini matematik atamalar tiliga o‘tkazish va qisqa yozuv shaklidagi matematik strukturasi belgilash kerak (rasmlar, chizmalar, sxemalar, jadvallar). Shuni nazarda tutish kerakki, barcha hollarda ham qisqa yozuvni bajarish bilan bir vaqtda masala shartining tahlili ham amalga oshiriladi. Aslini aytganda, qisqa yozuvning vazifasi shundan iborat. Haqiqatan ham masala shartining qisqa yozuvi o‘quvchilar xotirasiga tayanch bo‘lib, son ma‘lumotlarni tushunish va ajratish imkonini beradi, shu bilan birga ularning ratsional yozilishi masalada nima berilgan va nimani izlash kerakligini bayoniy tushuntirish imkonini yaratadi.

4. **Sodda masalalarni yechishda amal tanlashni asoslab berish va murakkab masala tahlilini amalga oshirish, so‘ngra yechish rejasini tuzish malakasi.** Oldin sodda masalani yechishda amal tanlash masalasini qarab chiqishga to‘xtalamiz. Bu malaka birinchi sinfdan boshlab tarkib topa boshlaydi, ikkinchi va uchinchi o‘quv yillarida yanada rivoj toptiriladi, ya‘ni ba‘zi tanish masalalarga nisbatan amal tanlash ishini bajarish asosi o‘zgartiriladi.



5. **Yechimni bajarish, uni o‘qituvchi talabiga mos qilib rasmiylashtirish va masala savoliga javob berish malakasi.** Sodda masalalardan boshlaymiz. Sodda masalani arifmetik usul bilan ham, algebraik usul bilan ham yechish mumkin. Bu o‘rinda masalalarni arifmetik usul bilan yechish haqidagina so‘z boradi, masalani turli usulda yechish haqida keyinroq alohida qaraladi.

6. **Masala yechimini tekshira olish malakasi.** Masala yechimini tekshirish quyidagi usullarda qo‘llaniladi: olingan javob bilan masala sharti o‘rtasida moslik o‘rnatish; teskari masala tuzish va yechish; masalani boshqa usullar bilan yechish: javobning chegaralarini aniqlash (javobni chamalash); grafik tekshirish.

**Masalalar ustida ishlashda ma’lum sistemani belgilash va uni joriy qilish malakasi.** Masalalar ustida ishlash rejasini:

1. Masalani o‘qib chiqing, masalada nima haqida gap borayotganini o‘zingiz tasavvur qiling.
2. Masalada nima ma’lum va nimani topish kerakligini aniqlab oling. Agar masala matnini tushunib olish qiyin bo‘lsa, uni qisqa yozing (yoki masalaga oid chizma tayyorlang).
3. Qisqa yozuv bo‘yicha har bir son nimani ko‘rsatishini tushuntiring va masala savolini takrorlang.
4. O‘ylab ko‘ring, masala savoliga birdaniga javob berish mumkinmi, agar mumkin bo‘lmasa, nega? Oldin nimani, keyin nimani bilish mumkin? Masalani yechish rejasini tuzing.
5. Yechishni bajaring va javobini yozing.
6. O‘z yechimingizning to‘g‘riligini tekshirib ko‘ring.
7. O‘zingizga qiziqarli savollar bering va ularga javob bering.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Bikbayeva N.U. “Boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitish metodikasi”. Toshkent, “O‘qituvchi”, 1996 yil.
2. Ahmedov M, Mirzamuhammedova D. ”Masalalar yechish metodikasi”. ”Boshlang‘ich ta’lim” N:6 2004 yil.



**МАТЕМАТИКА ФАНИНИ О'QITISHDA «DARCHALARNI TO'LDIR» DIDAKTIK O'YINI**

**Madaminova Nasiba Sa'dulla qizi.**

Xonqa tumani 24 -son maktabning  
Iqtisodiy bilm asoslari va matematika fani o'qituvchilari

**Annotatsiya:** Bu maqolada o'quvchilarga matematika fanidan pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etishga yordam berish maqsadida yozildi. Unda matematika darslarida o'quvchilar bilan ishlash usullari bayon etilgan.

**Kalit so'z:** interfaol, didaktik, ijodiy, qobiliyat, texnologiya, o'quvchi, son.

Didaktik o'yinlarning asosiy turlari intellektual ( aqliy ) va harakatli hamda aralash o'yinlardan iborat. Bu o'yinlar ishtirokchilarda aqliy – jismoniy, axloqiy, psixologik, estetik, badiiy tadbirkorlik, mehnat va boshqa ko'nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi. Ta'lim tarbiya jarayonida asosan o'quvchilarda ta'lim olish motivlarini ularning turli yo'nalishdagi qobiliyat va qiziqishlarini oshiradigan biror kasbga moyilliklarini ko'rsatadigan didaktik o'yinlardan foydalaniladi. Didaktik o'yinlar nazariy, amaliy, jismoniy, ro'lli, ishchanlik va boshqa yo'nalishlar bo'yicha turlarga ajratiladi. Hozirda kompyuter vositasidagi didaktik o'yinlardan foydalaniladi va alohida o'ringa ega bo'lib bormoqda. Umumiy o'yinlar nazariyasiga ko'ra mavjud barcha o'yin turlarini tasniflashda ularni funksional mavzuli konstruktiv, didaktik, sport va harbiy o'yinlarga ishlatiladi. Bularning orasida didaktik o'yinlar ta'lim – tarbiya vazifalarini amalga oshirish imkoniyatini borishi bilan alohida o'ringa ega. O'yinlar maktabgacha yoshdagi bolalarning asosiy faoliyat shakllari hisoblanadi. Bu esa pedagog va psixolog olimlar tomonidan shu yosh davridagi o'yinlarning ta'lim – tarbiyaviy ahamiyatini o'rganish va yanada oshirish bo'yicha tadqiqot olib borishiga asos bo'ldi.

Didaktik topshiriq: O'quvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyatini o'stirish.

O'yin topshirig'i: O'yin jarayonida bolalarning matematik og'zaki hisoblash qobiliyatini takomillashtirish.

O'yin bayoni: Uyning tartib raqami va yoshini aniqlash.

O'yin bayoni: har bir o'quvchining soniga teng ko'rgazma tayyorlanadi, orasiga qo'yilgan varaqqa misollar yozilgan bo'ladi. Bu varaqlarni tez-tez almashtirib turish uchun qulay qilib tayyorlash lozim. O'qituvchi o'yinning sharti bilan tanishtiradi va hamma o'quvchilarga o'tilgan mavzu asosida yozilgan ko'rgazma tarqatiladi. So'ng bu perfokartochkadagi misollarning javobi qanday bajarilishi tushuntiriladi.

800 +	( )	= 875
( )	50	= 650
81:	( )	= 9

Masalan: birinchi qo'shiluvchi 800 bo'lsa, ikkinchi qo'shiluvchi noma'lum bo'lsa, yig'indi 875 bo'lar ekan. Siz ikkinchi qo'shiluvchini qanday qilib topasiz? Buni toping va topgan 75 sonini darchaga yozib qo'ying. Yoki qaysi sondan 50 ni ayirsang, 650 hosil bo'ladi. Demak 700 dan 50 ni ayirsak 650 hosil bo'ladi. Shu bois darchaga 700 deb yozib qo'yamiz. 81 ni qaysi songa bo'lsak 9 hosil bo'ladi: 81 ni 9 ga bo'lsak 9 hosil bo'ladi, darchaning ichiga 9 soni yoziladi. Darcha ichiga yozayotgan raqamlarimizni oddiy qora qalam bilan yozsak, o'chirib tashlashga qulay bo'ladi. Bu o'yinni hamma amallar bilan og'zaki savol-javob orqali o'tkazish mumkin. Masalan, men bir son o'yladim. Shu o'ylangan songa 7 ni qo'shib 97 hosil qiling. O'ylangan sonni toping. 90. Men bir son o'yladim, o'ylangan sondan 100 ni ayirgan edim 69 hosil bo'ldi. O'ylangan sonni toping. 169. Shunday o'yinlar o'quvchilarni fikrlashga, mehnat qilishga va ularning o'tkir zehnliligi bo'lishiga,



tezkorlikka, topqirlikka undaydi.

**Foydalanilgan adabiyotlar.**

- 1.J. O. Tolipova. “Pedagogik kvalimetriya”. T.: 2015.
- 2.Azizxo’jayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. T., 2003.
- 3.Piraxunova F.N., Nazirov A.X. O’qitishning yangi pedagogik texnologiyalari. Uslubiy qo‘llanma. –T.: “IQTISOD-MOLIYA”. 2008, 3-48 bet.



## JISMONIY TARBIYA VA SPORT DARSLARIDA O'YINLAR VA MASHQLAR

**Madaminova Nigora Gulimmat qizi**

Boshlang'ich talim va sport fani o'qituvchisi

**Ismolilov Alibek Soburjonovich**

Jismoniy tarbiya fani o'qituvchisi

Xorazm viloyati Gurlan tumani 42-AFCHO'I maktab

**Annotatsiya:** ushbu maqolada boshlang'ich talim va sport va jismoniy tarbiya darslarida o'yinlar va mashqlar haqida mulohazalar yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** Jismoniy tarbiya, sport, uslub, pedagog, dars, texnologiya.

Jismoniy tarbiya va sport darslarida o'qitish uslublarini mujassamlashtirgan holda, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash samaradorligini oshirish metodi va vositalari. Hozirgi kunda barcha pedagoglar singari jismoniy tarbiya o'qituvchilariga ham darslarni zamonaviy pedagogik talablar asosida tashkil etish, darsga innovatsion yondashuvni, o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatishni dars davomida shakllantirish kabi ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalanishni talab etadi.

**Nina, ip va tuguncha o'yinga tayyorlanish.** O'ynovchilar qo'l ushlab, aylana hosil qilib turadilar. Uchta o'ynovchi aylanadan tashqarida ketma-ket turadi. Bularning oldingisi «nina», ikkinchisi «ip» va uchinchi «tuguncha» bo'ladi.

**Oyinning tavsifi.** Nina har tomonga yugurib yuradi. Ip bilan tuguncha ham uning ketidan ergashib yurishadi. Agar ip cliigallashib (boshqa tomonga ketib) qolsa yoki uni tuguncha ushlasa, o'yin qaytadan boshlanadi va yangi nina, ip hamda tuguncha tayinlanadi.

**Oyinning qoidalari.** O'ynovchilar qo'llarini ko'tarib, nina, ip va tugunchaga yo'l ochib turishlari lozim.

**Pedagogik ahamiyati.** O'yin bolalarda intizomni, diqqatni, sezgirlikni rivojlantirishga yordam beradi.

**Metodik ko'rsatmalar.** Eng ephil va ziyrak o'quvchilar nina qilib tayinlanishi kerak. Nina, ip va tuguncha qilib tayinlangan o'quvchilar uzoq vaqtgacha xato qilmay yugurib yuraversalar, boshqa o'yinchilarni ham o'yinda faol qatnashtirish maqsadida ularni almashtirish mumkin.

**«Lanka» o'yini o'yinga tayyorlanish.** Qo'y yoki echki terisidan qirqib olib, tagiga og'irroq narsa yoki qo'rg'oshin yopishtirib, lanka yasash mumkin.

**O'yin tavsifi.** O'yinchilar juft-juft bo'lib yoki guruh-guruh bo'lib o'ynashlari mumkin. 5—10 ta oddiy tepishdan so'ngra 5—10 sach, 5—10 lurdan boshlanishi kerak. Bular hammasini tushirmasdan bajarib bo'lgandan keyin keyingi o'yin boshlanadi. Agarda o'yinchi qo'yilgan vazifani oxirigacha yetkaza olmasa, o'yinni navbatdagi o'yinchi boshlashi mumkin. Berilgan vazifalarni to'liq va aniq bajargan o'yinchilar g'olib chiqadi. Bu o'yin ephil, chaqqonlik, tezkorlik, chidamlilik, sakrovchanlik sifatlarini tarbiyalashga yordam beradi.

**O'yin qoidalari.** 1. Har bir harakat ketma-ketlikda bajariladi.

2. O'yinda dam olib yoki ilib olish bilan bajarish man etiladi.

3. Yutqazgan o'yinchilar esa she'r yoki ashula aytib berishlari, raqsga tushishlari mumkin. O'yinning pedagogik ahamiyati. O'yin bolalarda jasurlik, botirlikni, koordinatsion harakatlanishni tarbiyalaydi. O'yin sakrovchanlik, chaqqonlik va chidamlilikni rivojlantirishga yordam beradi.

**«Podsho va Vazir» o'yini** - Bunda 4 ta kichik qog'ozga podsho, vazir, askar, o'g'ri deb yoziladi. Ular buklab yerga sohib yuboriladi. Uni 4 ta o'yinchi oladi. Kimga nima tushsa, sezdirmay o'zi o'qiydi. Podsho yozuvi tushgan o'yinchi vazir o'g'rini topsin deb buyruq qiladi. Vazir o'g'rini topsa, askar o'g'riga jazo beradi. Agar topmasa o'g'ri oladigan jazoni vazir oladi. Shu tariqa o'yin davom etadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Piraxunova F.N., Nazirov A.X. O'qitishning yangi pedagogik texnologiyalari. Uslubiy qo'llanma. –T.: “IQTISOD-MOLIYA”. 2008, 3-48 bet.

2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000 yil 16 oktyabrdagi “Oliy va o'rta maxsus ta'lim davlat standartlarini tasdiqlash to'g'risida”gi qarori. 3. Селевко Г. Современные образовательные технологии: Учеб. пособ. –М. 1998 год



## BIOLOGIYA FANINI O`QITISHDA «TEATR» DIDAKTIK O`YININING SAMARASI

**Madyorova Gulrux Ergashevna**  
Beruniy tuman 1-son kasb hunar maktab  
**Matrasulova Durdona Hamid qizi**  
Urganch tuman 48- maktab  
Biologiya fani o`qituvchilari

**Annotatsiya:** Bu maqolada o`quvchilarga biologiya fanidan ta`lim berishda “Teatr” didaktik o`yinining amalga oshirish, qo`llashi haqida ma`lumotlar keltirilgan va metodik tavsiyalar berilgan.

**Kalit so`z:** interfaol, qush, artist, pedagog, texnologiya, o`quvchi, o`qituvchi.

Darslardagi interaktiv faoliyat o`zaro tushunishga, hamkorlikda faoliyat yuritishga, umumiy, lekin har bir ishtirokchi uchun ahamiyatli masalalarni birgalikda yechishga olib keladigan diologli aloqani tashkil etish va rivojlantirishni ko`zda tutadi.

Didaktik topshiriq: Qushlar sinfini tarkibini mustahkamlash.

O`yin topshirig'i: rasmlarda ko`rsatilgan qushlar nomini eslab qolish, ularni solishtirib ko`rish, joylar almashgandan keyin yuz bergan o`zgarishni topib ko`rsatish.

O`qituvchi o`yin boshlangunga qadar o`quvchilar bilan qushlar sinfi mavzusini takrorlaydi. Undan so`ng o`yin shartlarini tushuntirishga o`tadi:

— Hozir men sizlarga teatr ko`rsataman. Sizlar yaxshilab qarab, «sahna»da «artist»lar qanday qushlar ko`rinishdagi holatini eslab qolishing kerak. O`qituvchi qushlarni rasmlarini bir qatorga tizib qo`yib, pardani ochadi. O`quvchilar diqqat bilan qarab turishadi. — Xo`sh, Yo`ldosh, — deydi o`qituvchi, — «artist»larimiz qanday holatda turibdilar? — Bir qatorga bittadan bo`lib tizilib olishibdi, — javob beradi Yo`ldosh. — Sahnada nechta «artist» bor? — Beshta. — Endi ular, — deb davom etadi o`qituvchi, — o`z joylarini o`zgartiradilar. Sizlar nima o`zgarganini aytasiz? Parda tushirilib, ochiladi. — Xo`sh, o`quvchilar, — deydi o`qituvchi, — nima o`zgaribdi? — Dastlab katta qushlar, — deydi Sharif, — bir safga tizilgan edi, endi esa bu yerda to`rtta, mana bu yerda bitta qush turibdi. — To`g`ri,- — deya Sharifning javobini ma`qullaydi o`qituvchi, — bu qush — ashula boshlovchi, shuning uchun u alohida turibdi. Endi doirachalari xuddi mana shu qushlardek joylashtirilgan jadvalni topib, o`quvchilarga ko`rsat. Sharif o`sha jadvalni topib, o`quvchilarga ko`rsatadi. Parda yana tushiriladi. O`qituvchi qushlarning joyini o`z- gartirib, Nazokatni doskaga chaqiradi. «Sahna»ga diqqat bilan qarab turgan Nazokat shunday deydi. — Hali bu yerda bitta, manavi yerda esa to`rtta qush bor edi. Endi bo`lsa, bu yerda uchta, o`ng tomonda ikkita bo`lib qolibdi. — Bu o`zgarish, — qanday yuz berdi? — deb so`raydi o`qituvchi. — Ashula boshlovchining yoniga yana bitta «artist» kelib qo`shilgan va ular ikkita bo`lib qolgan. — Xo`sh, — deydi o`qituvchi, — shunda natija nima bo`ldi? Chap tomondagi «artist»lardan bittasi kamayib uchta bo`lib qoldi deydi va qushlar nomini ayta boshlaydi. — To`g`ri, endi jadvaldan ko`rsat, — deydi o`qituvchi. Nazokat jadvaldan topib beradi. O`quvchilar shodlikdan qarsak chalib yuboradilar. Parda tushiriladi. O`qituvchi butun sinfga murojaat qilib: Qanday qilib «artist» larimizni boshqacha joylashtirish mumkin? Kimda-kim boshqacha joylashtirishni o`ylab topsa, o`sha «artist»larni o`zi joylashtiradi va pardani ochadi, — deydi. Qariyb hamma o`quvchilar qo`l ko`tarishadi. Doskaga chaqirilgan o`quvchi qushlarni 2, 2, 1 tartibida joylashtirishni taklif etadi va o`quvchilarga xuddi shunday jadvalni ko`rsatadi. O`yin o`quvchilarning qushlar mavzusini puxta o`zlashtirib olishlariga yordam beradi. Agar o`yin boshlangunga qadar faqat 10—12 o`quvchi qushlar haqida to`liq ma`lumotlar aytib bera olgan bo`lsa, «Teatr» o`yini o`tkazilgandan keyin qushlar haqida to`liq ma`lumotlarni 30 — 32 o`quvchi aytib bera oladi. Qushlarning tashqi ko`rinishi, ularning joylarini almashtirib turish, qolgan 5 — 6 o`quvchiga son tarkibidagi o`zgarishlarni tushunib, eslab olishiga yordam berganligi aniqlanadi (buning uchun «artist»larning qanday turganini esla» deyishning o`zi kifoya, o`quvchilar o`sha zahotiy oq savollarga javob beraveradilar). Bu o`yinni boshqa xayvonlarning boshqa sinflarini o`rganish bilan takrorlash mumkin.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1.J.O. Tolipova, A.T. G'ofurov. Biologiya ta`limi texnologiyalari. — T.: O`qituvchi, 2002.



## INTEGRATSIYA VA UNI BOSHLANG'ICH SINIF MATEMATIKA DARSLARIDA QO'LLASH

**Mamatova Nargiza Axtamovna**  
**Maxmasoliyeva Nilufar Achiltashevna**  
Navoiy viloyati Uchquduq tumani  
3-IDUM boshlang'ich sinf o'qituvchilari

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada fanlararo integratsiyaning ahamiyati, integratsiyalashgan ta'limning afzalliklari, matematika darslarida sonlar va matematik tushunchalarni o'rganishda fanlarni integratsiyalash usullari keltirib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** matematika, integratsiya, boshlang'ich sinf, son, o'quvchi, o'qituvchi, dunyoqarash, tasavvur.

Fanlararo integratsiya – bir necha o'quv predmetning bir-biriga taalluqli sohalarini ko'rsatish emas, balki integratsiyalab o'qitish orqali o'quvchilarga atrofimizdagi dunyoning yaxlitligi haqida tasavvur berishdir. Olimlarning ta'kidlashicha, integratsiya o'quvchi dunyoqarashini shakllantirishni tezlashtiradi. Integratsiyalab o'qitish o'quvchi shaxsida mustaqil ishlash, ijodiy qobiliyatlarni shakllantirish, darslarda faol ishtirokning yuzaga kelishi orqali bilim, ko'nikma va malakalarni egallaydi.

Integratsiya asosi etib, bir darsning mazmuni va uni o'tkazish strukturasi olinadi, uni boyitish uchun boshqa fanlarni ham jalb qilishimiz mumkin. Integratsiya ta'lim maqsadi sifatida olam tizimining alohida qismlari bog'liqligini ko'rsatuvchi bilimlarni berishi emas, bolani barcha elementlari bir-biriga bog'liq yaxlit olamni tasavvur qilishga birinchi qadamlarida o'rgatishi kerak. Bu maqsadni boshlang'ich sinf darslaridayoq amalga oshirishi kerak.

Bugungi maktablarda o'qituvchilar bolalar nutqini o'stirish uchun o'qish, ona tili va matematika darslaridan foydalanadilar. Matematikaning o'quv fanlari bilan integratsiyalashgani ta'minlangan holda o'quv jarayonini tashkil etish o'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirishiga ta'sir etadigan o'quv vositalarining ta'sirchanligini kuchaytiradi. Ta'lim mazmunining izchilligi- o'qituvchilar va o'quvchilar faoliyati, ularning izlanuvchanlik ko'nikmasi o'quv –biluv jaryonida shakllanadi.

Boshlang'ich maktab ta'lim va tarbiyasini integratsiyalash muammosi nazariya uchun ham amaliyot uchun ham muhim va dolzarbdir. Ta'limni integratsiyalashning asosiy maqsadi- boshlang'ich sinfdayoq tabiat va jamiyat haqida yaxshi tasavvur asoslarini qo'yishi va ularning rivojlanish qonunlariga o'z munosabatlarini shakllantirishdir.

Matematikaning boshqa fanlar bilan integratsiyalashgani alohida ahamiyatga ega. Bolaning yosh psixologiyasini hisobga olgan holda matematika darsida ertaklardan rivoyatlardan foydalanish, buyuk ajdodlarimiz haqida bilib borishlariga xizmat qiladi. Hozirgi kunda bolalar o'qish, yozishni, hisoblashni bog'cha yoshidayoq o'rganib olmoqdalar. Ayrimlari darsliklar bilan ham tanish. Ularni darsga qiziqtirish ustozdan katta mahorat talab etadi. Shunday ekan, matematika darslari jarayonida turli xil vositalardan foydalanishimiz mumkin. Masalan: 1 sonini o'rganish mavzusida Pushkinning “Oltin baliq” ertagidan parcha va sahna ko'rinishi o'tkazish mumkin. O'qituvchilar sahna ko'rinishidan ko'proq o'qish darsida foydalanishadi. Matematikada ham qo'llash yaxshi samara beradi. Siz qaysi ertakni boshlasangiz, o'quvchi aktyor bo'lishga tayyor, chunki uni multfilmlarda ko'rgan yoki ertakni o'qigan, eshitgan. Natijada sahna ko'rinish tayyor bo'ladi. Shunda mavzu haqida o'quvchining o'zi xulosa chiqara oladi. Masalan quyidagi ertaklar misolida ko'rish mumkin:

1 sonini o'rganishda “Oltin baliq” ertagi misolida ertakda qaysi qahramonlar bittadan ekanligi so'rab olinadi. Bunda o'quvchilar chol, kampir, uy, teshik tog'ora, to'r, oltin baliq, chelak, to'nka bittadan ekanligini aytishadi. Ularning og'zaki nutqi ham rivojlanadi.

2 sonini o'rganishda “Aka- uka” ertagini aytish, bolalarda oilaviy qadriyatlar, halollik, inoqlik, rostgo'ylik kabi insoniy fazilatlar singdirib boriladi.

3 sonini o'rganishda Ibn Sino bobomizning fikrlarini aytish sahna ko'rinishi tashkil etiladi. Bu bilan biz kasal bo'lganda tez tuzalish uchun bola nimalarga e'tibor berishi kerakligini ham uqtiramiz, bola tarbiyasiga ham ta'sir etamiz. Ibn Sino bobomiz bemorlarga shunday deydi: “Biz uch kishimiz –men, sen va kasallik. Agar sen men tomonga o'tsang, kasallikni tez yengamiz, agar kasallik tomonga o'tsang ikkalangizni yengishim qiyin”.



O'qituvchi har bir darsni xilma-xil kiyimlardan foydalansa o'quvchi kiyinish, sahnada rol bajarish uchun harakat qilishadi. 4 sonini o'rganishda fasllar haqida ma'lumot berish yoki ularni tabiat qo'yniga olib chiqish kerak, matematika darslarida tabiat qo'ynida amaliy mashg'ulotlar o'tkazish kerak. Shu orqali “oldinda, orqasida, juftmi, toqmi, birinchi, ikkinchi ... tushunchalari o'rgatiladi. Ekologik tarbiya ham beriladi. Bu jarayonda “Sholg'om” ertagidan foydalanish ham mumkin. Ertak asosida kuch birlikda ekanligini bilib oladilar matematik tushunchalar singdirib boriladi.

Matematika darslarida sonlarni o'rgatishda turli xil geometrik shakllardan ham foydalanishimiz mumkin, shuningdek ularni chizish, bo'yash, yasash va qirqish ishlarini ham olib mumkin, bunda biz matematika, tasviriy san'at va texnologiya darslarining integratsiyasini ko'rishimiz mumkin.

Xulosa qilib aytsak fanlarni integratsiyalab o'tish orqali biz ustozlar o'quvchilarni ta'lim olishga bo'lgan qiziqishini oshirishimiz va ta'lim sifatini oshirishimiz mumkin. Shunday ekan iloji boricha fanlarni bir biriga bog'lagan holda o'tishimiz kerak. Boshlang'ich sinflarda ko'pchilik fanlarni bir o'qituvchi o'tadi va shuning uchun ham bunda fanlarni integratsiyalash oson bo'ladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Eshmuxammedov R. O'quv jarayonida interfaol uslublar va pedagogik texnologiyalarni qo'llash uslubiyati. – T.: RBIMM, 2017.
2. Jumayev M.E. “Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi”. -Toshkent, “Fan va texnologiya”2016-yil.
3. Yangi pedagogik texnologiyalar. Ma'ruza matnlari. - GulDU. 2018 yil.
4. Internet malumotlari.



## CHET TILLARINI O`QITISHDA SEZGI VA IDROK FE`LLARINING LEKSIK SEMANTIK XUSUSIYATLARI

**Matkarimova Gulira`no Abdullayevna,**  
UrDU Lingvistika(ingliz tili) 2-kurs magistranti.

**Annotatsiya:** Ushbu ish xorijiy tillarni o`qitishda sezgi va idrok fe`llarining leksik semantik xususiyatlari haqida o`rganadi. Barcha tillarda sezgi va idrok fe`llari mavjud bo`lib, bunday fe`llar har bir tilda ular o`zining grammatik, leksik semantik xususiyatiga egadir.

**Tayanch so`zlar:** sezgi, idrok, leksik semantik, chet tili, sinonimiya.

Mustaqillik sharofati bilan respublikamiz hayotida juda katta o`zgarishlar sodir bo`ldi. Siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy o`zgarishlar bilan bir qatorda, xorijiy davlatlar bilan aloqalar rivojlandi va bu ayni paytda chet tillarini o`rganishga bo`lgan talabni oshirdi. Mamlakatimizda minglab tilshunos olimlarning yetishib chiqishida va o`zbek xalqining boy folklor namunalari butun dunyoga namoyish etishda tilning o`rni beqiyosdir. O`zbekiston Respublikasining birinchi prezidenti I.A. Karimovning 2012-yil 10-dekabrda 1875-son qaroriga muvofiq chet tillarni o`qitishning kompleks tizimi, ya`ni uyg`un kamol topgan, o`qimishli, zamonaviy fikrlovchi yosh avlodni shakllantirishga, respublikaning jahon hamjamiyatiga yanada integratsiyalashuviga yo`naltirilgan tizim yaratildi.

Chet tili muallimligini kasb-u kor sifatida tanlaganlar zimmasiga ushbu tilni o`qitish nazariyasidan mukammal xabardor bo`lishdek vazifa yuklanadi. O`qitish ilmini metodika fani yoritadi, „metodika“ so`zi yunoncha bo`lib, „biror ishni maqsadga muvofiq bajarish usullari majmuyi“ ma`nosini bildiradi.

Chet tilida so`zlarni turli nuqtayi nazardan tasnif etganda: leksikgrammatik toifada (so`z turkumlari), so`z yasash usullariga ko`ra (sodda, qo`shma, yasama), vazifasiga binoan (mustaqil va yordamchi), mavzu va terminlar guruhi, semantik doirasi kabilar hisobga olinadi.

Ushbu maqolada biz bilish jarayoni ikki bosqichda amalga oshiriladi degan taxmindan kelib chiqamiz. U ketma-ketlikda tafakkurdan tafakkurga, keyin esa amaliyotga o`tadi. Tafakkur his-tuyg`u, ko`rish va quloqni idrok etish kabi shakllarda amalga oshiriladigan tuyg`u-imtixon faoliyati davrini taqdim etadi. Ingliz tilida sezgi idrokining turlarini ko`rsatadigan beshta asosiy fe`l mavjud – see-ko`rmoq, feel- his qilmoq, hear- eshitmoq, smell- hidlamoq, taste-tatib ko`rmoq.

So`zlarning leksik ma`no turlari o`zlarini ierarxiya tizimiga ega bo`lib, unda ma`nolarning mustaqillik darajasi va qo`llanish doirasi so`zning "ob'ektlar" bilan bog`lanish xususiyatiga va shakllanadigan so`zlarga va uning doimiy semantik kontekstiga bog`liq. Ba`zi tilshunoslar so`z ma`nosini asosiy omillar bilan belgilaydi, degan xulosaga kelishadi: 1) ma`lum tovush majmuasiga bog`langan mantiqiy-ob`yektiv ma`no; 2) tilning grammatik vositalarining qonuniyatlari va o`ziga xosligi, ular yordamida mantiqiy-ob`yektiv ma`no shakllantiriladi, amalga oshiriladi va takrorlanadi; 3) so`zning lug`atning barcha semantik tizimi bilan korrelyativ bog`lanishlari, majburiy elementi aynan shu ma`nodir. So`zning lingvistik tuzilishini adekvat aniqlash faqat so`zni tovush va ma`no birligi sifatida ko`rib chiqish mumkin.

Tashqi dunyo ob`ektlari bir-biri bilan tabiiy ravishda bog`langan juda ko`p xususiyatlarga ega. Ob`ektlar xususiyatlarining chambarchas bog`liqligi idrokning turli organlari, shu jumladan sezgi idrokining hamkorligi bilan bog`liq. Sezgi organlari tomonidan ob`ekt to`g`risida ma`lumot olgandan so`ng, uni tahlil qilish va davolash, xulosalar chiqarish va keyin mavhumlik bilan xususiyatlar bilan ishlashni boshlash mumkin. Bu leksik birliklarning semantik tuzilishini ochib berish, ularning leksikosemantik variantlarining ichki tafovutlar tizimini ochib beradi, ular turli konnotatsiyalarga qaramay, haligacha semantik birligini saqlab qoladi. Farqlar konnotativ ma`noning o`ziga xos xususiyatlari natijasida olinadi.

Binobarin, ma`noli idrok fe`llari aqliy faoliyat fe`llari bilan sinonimik munosabatda bo`lib, «tushunmoq, nimanidir o`rganmoq, bilmoq» ma`nolari bilan birlashishi aniq. Sezgi idrok fe`llari ma`nolarining mos kelishi ularning aqliy faoliyat sohasiga kirishi natijasi bo`lishi mumkin. Bunda tezis tekshirilayotgan “see-ko`rmoq, hear-eshitmoq” fe`llarining periferik ma`nolari “understand-tushunmoq” fe`lining bosh (asosiy) ma`nosi bilan mos kelishi bilan tasdiqlanadi ammo bir xil emas. Masalan:

**- I don't see how you can deny that...**



Buni qanday inkor etishingizni tushunmayapman ...

**- I hear that you had a long talk with Roy last week about Edward Driffild .**

O'tgan hafta Roy bilan Edvard Driffild haqida uzoq gaplashganingizni eshitdim.

Ko'rib chiqilayotgan leksemalar harakat qiluvchi shaxs bilan ob'ektiv olamning qandaydir aniq fakti o'rtasidagi munosabatlarning belgisi xolos. O'rganilayotgan his qilmoq, eshitmoq fe'llarining ma'nosini quyidagicha izohlash mumkin: “see-ko'rmoq” fe'li o'zining ko'chma ma'nosiga ko'ra “tushunmoq” fe'lining bosh ma'nosiga mos keladi, bundan tashqari, semantik tuzilishiga ko'ra u o'zgaruvchan komponent, ya'ni "ko'rilgan narsani tushunish" o'z ichiga oladi.

**-I see that woman downstairs has a couple of sailors sitting there.**

Qarasam, pastdagi ayol bir-ikkita dengizchi bilan o'tiribdi.

**-He felt he would breathe more freely when the ship had sailed.**

Kema suzib ketgach, u yanada erkin nafas olishini angladi.

**-Davidson started nervously when he heard it but said nothing.**

Buni eshitgan Devidson asabiylasha boshladi, lekin hech narsa demadi.

Periferik ma'noga kelsak, bu fe'llar harakatning o'zini emas, balki harakatning natijasini (natijasini) ifodalaydi. Aynan shu sababga ko'ra, ularni "tushunish" umumiy ma'nosi bilan sinonimik guruhga birlashtirish mumkin. Quyidagi almashtirishdagi fe'llarning mos kelishi bu xulosaning isbotidir:

**-Suddenly he heard, someone running down the stairs.**

To'satdan u eshitdi, kimdir zinapoyadan yugurib tushdi.

**- Suddenly he felt someone running down the stairs.**

Birdan u zinadan kimdir yugurib tushayotganini sezdi.

Ko'rib chiqilayotgan fe'llar o'rtasida sinonimiya munosabatlarning mavjudligi ularning semantik tomonlarini yanada ko'proq birlashtiradi. Bir tomondan, fe'llarning bu guruhi bir xil semantik oqibat munosabati natijasida birlashadi va keyinchalik fe'llar sinfini o'z ma'no-tushunchasiga ko'ra bir jinsli qiladi. Boshqa tomondan, ular bir-biri bilan bu fe'llarning asosiy ma'nolariga xos bo'lmagan bevosita semantik yaqinlik bilan bog'lanadi. Shuning uchun bu fe'llarning semantik xususiyatlarini o'rganish quyidagi xulosalar chiqarishga imkon beradi: Birinchidan, periferik ma'noning mustahkamlanishiga olib keladigan semantik siljish (har bir fe'lda mos ravishda) "sabab - natija" assotsiativ bog'lanishiga tayangan. chunki periferik ma'no sezgi idrokining oldingi ta'siri natijasidir. Bu tadqiqotchiga markaziy (asosiy) va periferik ma'nolar o'rtasidagi bog'lanishni oqibatning semantik munosabatlari sifatida aniqlash imkonini beradi. Ikkinchidan, yangi ma'no tilda barqarorlashadi va o'ziga xos xususiyatlarga ega yangi taqsimot modellarini shakllantiradi. Uchinchidan, ko'rib chiqilayotgan fe'llarning asosiy ma'nosi ularni nutqda o'zlarining periferik ma'nolarida qo'llashda doimo bevosita mavjud bo'ladi. Bu holat shuni ko'rsatadiki, bu fe'llar boshqa polisemantik so'zlarga nisbatan tilda alohida, alohida o'rin egallaydi. Semantik idrok fe'llari o'zining yangi semantik sifati bilan harakatni nomlashni to'xtatib, harakatni bajaruvchi va voqelik ob'ektlari o'rtasidagi munosabatlarni ifodalay boshlaydi. Sezgi idrok fe'llarida periferik ma'noning paydo bo'lishi ularni "tushunish" ma'nosi bilan birlashtirilgan sinonimik shakllanishlar sifatida ko'rishga imkon beradi.

Xulosa qilib aytganda, sezgi idrok fe'llarining semantik tomoni leksikosemantik variantlarning ma'lum ko'p qirraliligi bilan tavsiflanadi. Ular asosiy (to'g'ridan-to'g'ri) ma'noda ham, periferik ma'noda ham qo'llanilishi mumkin. Har qanday his idrok fe'lining leksik va kontekstual ma'nosini farqlash kerak.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

- 1) Law of the Republic of Uzbekistan on Education // Harmoniously developed generation - the basis of development of Uzbekistan. –T.: O'zbekiston, 1997.-142 p.
- 2) Begmatov E. Lexical layers of modern Uzbek literary language. T.: 1985.- 199b.
- 3) Muhamedova S. Semantics and valence of action verbs in Uzbek language .T.: 2005. -114p.



## XALQ TA'LIMI TIZIMIGA YANGICHA YONDASHUVLAR

**Matkurbonova Munira Maxsudovna**

Xorazm viloyati Yangibozor tumani

25-umumiy o'rta ta'lim maktabi tarix fani o'qituvchisi

**Safayeva Karomat Jumaboyevna**

Xorazm viloyati Yangibozor tumani

25-umumiy o'rta ta'lim maktabi

boshlang'ich sinf o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ta'lim sifatini oshirishda yangicha yondashuvlar, O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi sohasida o'tkazilayotgan tub islohotlarning mazmuni, zamonaviy ta'limning eng muhim unsurlari, ta'lim sifatini shakllantirishga ta'sir etuvchi omillar, o'quvchilarni keyingi hayotga tayyorlash bo'yicha qilinayotgan ishlar muhokama qilingan.

**Kalit so'zlar:** xalq ta'limi, ilm-fan, kasb, mehnat, milliy dastur, markaz, qaror, qonun, maktab, baholash.

Zamonaviy hayotni bugun ilm-ma'rifat va ta'limning taraqqiyotisiz tasavvur etib bo'lmaydi, insoniyat fan o'qi atrofida aylanayotgandek go'yo. Jahonning yetakchi davlatlarida ta'limni rivojlantirish birinchi galdagi vazifa sifatida belgilanishi ham bejiz emas. Negaki, mamlakatning kelgusi ravnaqi aynan shu sohada qo'lga kiritgan yutuqlari bilan chambarchas bog'liqdir. Shu qatorda ijtimoiy sohaning asosi hisoblangan ta'lim tizimida ham bir qator yuksalishlar kuzatilmoqda.

Amalga oshirilayotgan islohotlarning avvalo maktab ta'limi va tarbiya sohasidan boshlanishi globallashuv jarayonida bolalar tarbiyasida eng asosiy bo'g'in hisoblangan maktab ta'lim tizimining jamiyatimiz hayotidagi o'rni va ahamiyati beqiyosligini nazarda tutadi. Maktab ta'limini tubdan yaxshilash va ta'lim sifatini oshirish, o'quvchilarga munosib sharoit yaratish borasidagi islohotlar jadal davom etmoqda. Mamlakatimizda so'nggi yillarda ta'lim tizimining barcha bosqichlarini zamonaviy talablar asosida tashkil etish bo'yicha amaliy ishlar hal qiluvchi bosqichga kirdi.

Prezidentimiz ta'kidlaganidek: *“Farzandlarimiz maktabdan qanchalik bilimli bo'lib chiqsa, yuqori texnologiyalarga asoslangan iqtisodiyot tarmoqlari shuncha tez rivojlanadi, ko'plab ijtimoiy muammolarni yechish imkoni tug'iladi. Shunday ekan, Yangi O'zbekiston ostonasi maktabdan boshlanadi desam, o'ylaymanki, butun xalqimiz bu fikrni qo'llab-quvvatlaydi”*.

O'zbekiston Respublikasining ta'lim to'g'risidagi qonuni Kadrlar tayyorlash milliy dasturi 2030-yilgacha mo'ljallangan konsepsiya va ta'lim to'g'risidagi bir qancha qaror va qonunlarning qabul qilinishi yoshlarimizning kelajagini o'ylab, davlatimiz rivojini o'ylab amalga oshirilayotgani bejiz emas.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022-2026 yillarda xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida”dagi Farmoni, “Xalq ta'limini rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi Qaroriga muvofiq o'quvchilarning qiziqishi va qobiliyatlarini aniqlash bo'yicha yagona elektron platforma yaratiladi hamda har bir 5-11-sinf o'quvchisi uchun elektron “Ish daftari” joriy etiladi.

Shuningdek, o'quvchilarning qiziqish va qobiliyatlaridan kelib chiqqan holda ular kasbga yo'naltiriladi va o'qitiladi.

2022/2023 o'quv yilidan boshlab, boshlang'ich sinf o'quvchilariga o'quv rejaga kiritilgan fanlar doirasida mehnat bozorida mavjud bo'lgan turli kasblar to'g'risida tushunchalar berib boriladi.

Kasb egalarining mehnat faoliyati bilan yaqindan tanishish maqsadida 5-7-sinf o'quvchilari uchun turli uchrashuv va sayyor darslar tashkil etiladi.

7-9-sinf o'quvchilarining kasbga moyilligini aniqlash bo'yicha tashxislar o'tkazib boriladi hamda natijalaridan kelib chiqib, ishlab chiqarish korxonalarini, hunarmandchilik markazlari va boshqa tashkilotlarga ekskursiyalar tashkil qilinadi.

Hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy salohiyati va o'sish nuqtalariga muvofiq maktab o'quvchilari uchun ustuvor kasblar belgilanadi hamda 10- va 11-sinf o'quvchilarini ushbu kasblarga, shu jumladan, kasb-hunarga o'qitish markazlari, mahalla aholisini kasb-hunarga o'qitish maskanlari, qisqa muddatli kurslar ochilgan ta'lim muassasalarida o'qitish choralari ko'riladi.

O'quvchilarni kasb-hunarga tayyorlash 2022-2023 o'quv yilidan boshlab 9-11-sinflarda, 2023-2024 o'quv yilidan esa 11-sinf o'quvchilarida tashkil etiladi.



Shu maqsadda 2022-2023 o‘quv yilidan boshlab, umumta’lim maktablarining 10- va 11-sinf o‘quvchilariga "Ishga marhamat" monomarkazlari, kasb-hunarga o‘qitish markazlari, mahalla aholisini kasb-hunarga o‘qitish maskanlari, qisqa muddatli kurslar ochilgan ta’lim muassasalarida kasb o‘rgatiladi.

Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish va bu borada maktab direktori, ota-onalar va mahalla raislari mas’uliyatini kuchaytirish maqsadida 2022 yil 1 sentabrdan boshlab respublikaning barcha tuman (shahar)lari kesimida namunali maktablar reytingi shakllantiriladi va e’lon qilib boriladi.

Reyting doirasida har o‘quv yili yakunida umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida olib borilayotgan ma’naviy-ma’rifiy ishlar holati Xalq ta’limi vazirligi tomonidan tasdiqlangan mezonlar bo‘yicha baholab boriladi.

Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida olib borilayotgan ma’naviy-ma’rifiy ishlar holatini baholash va reytingni yuritish uchun tuman (shahar) xalq ta’limi bo‘limlari boshliqlari rahbarligida maxsus komissiyalar tuziladi.

Ayni vaqtda Xalq ta’limi tizimida hududlardagi o‘sish nuqtalari (“drayver” sohalari), mehnat bozoridagi ishchi kasblarga bo‘lgan ehtiyojlardan kelib chiqib, umumta’lim maktab o‘quvchilarini o‘qitishga ehtiyoj mavjud bo‘lgan 62 ta kasblar ro‘yxati shakllantirildi hamda Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi bilan hamkorlikda 62 ta kasblar ro‘yxati asosida kasb-hunarga tayyorlashga qo‘yiladigan malaka talablari, o‘quv-metodik hujjatlari, o‘quv rejalari va o‘quv dasturlari ishlab chiqilmoqda.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Sh.M. Mirziyoyevning O‘qituvchi va murabbiylar kuniga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqidan.
2. Tolipov U.K., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot. – T.: Fan, 2005
3. <https://www.uzedu.uz> Xalq ta’limi vazirligi web sayti
4. OAV va internet materiallari.



## ONA TILI DARSLARIDA SAVOXONLIKNI OSHRISHDA METODIK TAVSIYALAR BERISH

**Matqurbonova Gulnoza, Abdullayeva Zumrad**

Yangiariq tumani 23-son umumiy o'rta ta'lim maktabining boshlang'ich sinf o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ona tili mashg'ulotlarida ot so'z turkumining o'tilishi va u orqali so'z ustida ishlash, o'quvchilarning lug'at boyligini oshirish, so'zdan to'g'ri va o'rinli foydalanish malakalarini takomillashtirish, ot so'z turkumini o'rganish orqali o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini o'stirish, ot so'z turkumining ma'no xususiyati, turlari, grammatik xususiyatlari, gapdagi vazifasi haqida ma'lumot beriladi.

**Kalit so'zlar:** ona tili, ot so'z turkumi, egalik, kelishik, og'zaki va yozma nutq.

Maktabda ona tili fanining maqsadi o'quvchilarining nutqiy faoliyatini rivojlantirishga qaratiladi. Ona tili mashg'ulotlarida nutqning asosiy xom-ashyosi so'z ustida ishlash, o'quvchilarning lug'at boyligini oshirish, so'zdan to'g'ri va o'rinli foydalanish malakalarini takomillashtirish – ta'limimiz oldida turgan muhim vazifadir. Ot so'z turkumini o'rgatish orqali o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini o'stirishdir. Ot mavzusini o'rganish tizimi maqsadga yo'naltirilgan jarayon bo'lib, bunda shu so'z turkumining umumlashirilgan ma'nosi va grammatik belgilari aniq izchillikda, bir-biri bilan ilmiy asoslangan bog'liqlikda o'rganiladi, shuningdek, otdan nutqda to'g'ri foydalanish va to'g'ri yozish malakasini shakllantirish maqsadida bajariladigan mashqlar asta murakkablashtira boriladi. Ot shaxs, narsa ma'nolarini, shuningdek, joy nomlarini bildirib, kim?, nima?, qayer? so'roqlariga javob bo'ladigan so'zlar. Ma'no xususiyati: otlar kishi nomlarini: Ahmad Nilufar, Shavkat, Alisher, Xolida kabi; o'rin-joy nomlari: Farg'ona, Qo'qon, Beshariq, Qashqadaryo, Zomin, maktab, qishloq, shahar kabi; narsa-buyum: kosa, cho'mich, qoshiq, piyola kabi; vaqtfasl nomlari: qish, yoz, kuz, bahor, tun daqiqa, lahza, soniya, may, mart, iyun kabi; voqea-hodisa nomlarini: yer, yuproq, tog', tosh, yulduz kabi hamda mavhum tushunchalarni: sevgi, tinchlik, sadoqat, ma'rifat, orzu kabilarni bildiradi. Kim? so'rog'i shaxsni bildiruvchi so'zlarga, qayer? so'rog'i joy nomini bildiruvchi so'zlarga beriladi. Shunga ko'ra, otlar shaxs otlari, narsabuyum otlari va o'rin-joy nomlariga bo'linadi.

1) Son (birlik va ko'plik son) ma'nosini bildiradi: kitob birlik sonda, kitoblar ko'plik sonda; 2) Kelishik ma'nosini bildiradi: kitob, kitobning, kitobni, kitobga, kitobda, kitobdan kabi; 3) Egalik ma'nosini bildiradi: kitobim, ruchkam, kitobing, ruchkang, kitobi, ruchkasi kabi; 4) Kichraytirish, erkalash shakllariga ega: onajon, qo'zichoq, kitobcha, qizaloq, bolakay kabi; 5) Yasalish tizimiga ega: gulchi, paxtakor, qisqich, to'shak, to'plam, ko'rik kabi.

Otlar: 1) barcha mustaqil so'zlar bilan munosabatga kirisha oladi: Ot + ot: atlas ko'ylak, maktab bog'i, onamga sovg'a; sifat + ot: shirin taom, qizil gul, ozoda xona, baland bino; son + ot: uchta daftar, beshinchi sinf, o'ntacha bola; olmosh + ot: shu kitob, o'sha qiz, barcha bolalar, har qaysi inson; fe'l + ot: o'qigan qiz, kelayotgan mehmon, pishirilgan taom; ravish + ot: ko'p uylar, bir talay qushlar, ancha yillar.

2) barcha sintaktik vazifalarni bajara oladi: Ega: kitob aql chirog'idir.

Undalma: Kitob, sen mening do'stimsan.

Ot kesim: Mening eng yaqin do'stim kitobdir.

Aniqlovchi: Kitobning qadriga yetish kerak, chunki u hayot darsidan saboq beradi.

To'ldiruvchi: Mashqni kitobdan daftarga ko'chirdim.

Hol: Bahorda butun tabiat uyg'onadi.

Otyaxlit holda o'rgatiladi va uni o'rganish o'quvchilar shu so'z turkumining belgilarini, vazifasini o'zlashtirishga, shuningdek, ularda kelishik qo'shimchalarini to'g'ri yozish ko'nikmalarini shakllantirishga qaratiladi.

### Foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abdullayeva Q. va boshqalar. 2-sinfda o'qish darslari. -Toshkent: "O'qituvchi", 2004.

2. Ishmuhammedov R va boshqalar. "Ta'limda innovatsion texnologiyalardan foydalanish". Toshkent. 2008 y.



## BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARIGA MA’NODOSH SO‘ZLARNI O‘RGATISH

**Matrasulova Nigora Ibragimovna**

Xiva shahar 1-son maktab o‘qituvchisi

Telefon: +998 (88) 858 73 61

nigora.ibragimovna\_1scool@inbox.uz

**Ibragimova Shaxista Bakturdiyevna**

Xiva shahar 1-son maktab o‘qituvchisi

Telefon: + 998 (91) 427 35 22

ibragimovashaxista\_1sh@inbox.uz

**Annotatsiya:** Ushbu maqola boshlang‘ich ta’limda ona tili darslarining ahamiyati va ma’nodosh so‘zlar imlosi haqida.

**Kalit so‘zlar:** Ma’nodosh so‘z, imlo, tafakkur, emotsional bo‘yoq.

Ma’nodosh so‘zlar talaffuzi, yozilishi har xil bo‘lgan bir umumiy tushuncha (ma’no) ifodalaydigan so‘zlardir. Sinonimlar bir-biridan qo‘shimcha ma’no qirrasini, emotsional bo‘yog‘i, qo‘llanilishi jihatidan o‘zaro farqlanadi. Katta, ulug‘, buyuk, zo‘r, azim, ulkan, bahaybat, haybatli, yirik, gigantsinonimik qatorini tashkil qilgan so‘zlardan katta so‘zi keng tushunchani anglatib, aniq tushunchaga nisbatan ham, mavhum tushunchaga nisbatan ham ishlatilaveradi. Ulug‘, buyuk, zo‘r, azim, ulkan so‘zlari hajmi ancha katta bo‘lgan narsalarga, bahaybat, haybatli so‘zlari esa o‘lchovi juda katta bo‘lgan narsalarga nisbatan ishlatiladi. Yirik kam ishlatiladi. Gigant kitobiy uslubga xos bo‘lib, asosan joy, qurilishga nisbatan qo‘llanadi.

Sinonimlar tilni leksik tomondan boyitadi, shuning uchun bunday so‘zlar bilan ishlash juda muhim. Kishi lug‘atida sinonimlar qancha ko‘p bo‘lsa, uning til ifodaliligi shuncha ortadi.

Ma’lumki, o‘zbek tili sinonimlarga boy til. «O‘zbek tili sinonimlarining izohli lug‘ati» da katta so‘zining 11 ta, marta so‘zining 13 ta sinonimi berilgan.

Boshlang‘ich sinflarda sinonim haqida nazariy ma’lumot berilmaydi, ammo sinonimlar haqidagi tushuncha amaliy mashq yordamida shakllantiriladi. Sinonimlar bilan ishlash elementar tarzda

1-sinfdan boshlanadi: o‘quvchilar berilgan so‘zning sinonimini topishga, boshqacha qilib qanday aytish mumkinligini tushuntirishga, 2-3-sinflarda esa berilgan so‘zning 2-3 ta sinonimini topib aytishga o‘rgatiladi.

Boshlang‘ich sinflarda ma’nodosh so‘zlarga oid quyidagicha mashqlardan foydalanish mumkin:

1. Berilgan ma’nodosh so‘zlarni guruhlash. Bunda bir so‘z turkumiga oid ikki sinonimik qatordagi so‘zlar ichiga bir-ikkita boshqa so‘z kiritib beriladi. O‘quvchilar sinonimlarni ikki guruhga ajratib aytadilar. Buning uchun so‘zlar quyidagi kabi berilishi mumkin: vatan, maqsad, diyor, niyat, mamlakat, murod, yurt.

2. Berilgan so‘zga sinonim tanlash. O‘qituvchi o‘z o‘tganda osmon, sifatni o‘tganda mazali, fe’lni o‘tganda ko‘nikmoq so‘zlarini aytadi. O‘quvchilar bu so‘zlarga sinonim tanlaydilar: osmon - ko‘k, samo, falak; mazali - lazzatli, laziz, totli; ko‘nikmoq - o‘rganmoq, odatlanmoq, odat qilmoq.

3. Tushirib qoldirilgan sinonim so‘zlarni o‘z o‘rniga qo‘yib, matnini ko‘chirish. Bunda yozilishi kerak bo‘lgan sinonim so‘zlar ro‘yxati tekshirish uchun beriladi. O‘quvchilar sinonimlarni o‘rniga qo‘yib, ularning qo‘llanilishidagi farqni tushuntiradilar.

4. Ma’nodosh so‘zlardan mosini qo‘yib gaplarni ko‘chirish. Buning uchun sinonim so‘zlar qatori qavs ichida beriladi, o‘quvchi gapning mazmuniga mosini tanlab gapni ko‘chiradi: Daryo suvini (bahor, ko‘klam) toshirar, odam qadrini (mehnat, ish) oshirar. Oltin (o‘t, olov, alanga)da, odam (ish, mehnat)da bilinadi. Birlashgan (yov, dushman) ni qaytarar.

5. Sinonim so‘zlar qatoridan foydalanib didaktik material tuzish va u bilan mashq ishlash. Buning uchun to‘rtta sinonimik qatordagi so‘zlar tanlanadi va 16 katakka aralash joylashtiriladi. O‘qituvchishu katakchalardagi bir so‘zni aytadi. Masalan, chiroyli. O‘quvchilar shu so‘zga yaqin ma’noli so‘z (sinonim)ni katakchalardan topib aytadilar: go‘zal, dilbar, sohibjamol, husndor. Sinonim so‘zlar qatori bilan so‘z birikmasi tuzadilar: chiroyli shahar, go‘zal manzara, sohibjamol malika va hok.

Qarama-qarshi, zid ma’no bildiradigan so‘zlar zid ma’noli so‘zlar (zid ma’noli so‘zlarlar) deyiladi. Zid ma’noli so‘zlar belgi bildiradigan so‘zlarda ko‘p uchraydi. Zid ma’nolilik munosabat so‘z bilan frazeologik birlik (ibora) orasida ham bo‘ladi (yalqov - yuragida o‘ti bor kabi).



Boshlang'ich sinf o'quvchilari zid ma'noli so'zlarlar bilan amaliy tanishtiriladi. Zid ma'noli so'zlarlar ustida ishlash matndan zid ma'noli so'zlarni topishdan boshlanadi, keyin maxsus mashqlar ishlatiladi:

**1. Berilgan so'zlarga zid ma'noli so'zlar tanlash.** Otni o'tganda: azob - ..., do'stlik - ..., oq - ..., yoshlik - ..., sifatni o'tganda: dangasa - ..., anqov - ..., rostgo'y - ..., dono - ..., kasal - ..., fe'lni o'tganda: kasallandi - ..., yondi - ..., boshladi - ... kabi beriladi. O'quvchilar berilgan otga rohat, dushmanlik, qora, qarilik; sifatga mehnatkash, hushyor, yolg'onchi, nodon, sog'; fe'lga sog'aydi, o'chdi, tugatdi zid ma'noli so'zlarlarini tanlab, jufti bilan yozadilar.

**2. Zid ma'noli so'zlarni qatnashtirib gap tuzish.** Bunda o'qituvchi zid ma'noli so'zlar tanlab gap tuzish uchun so'z beradi, o'quvchilar berilgan so'zga zid ma'noli so'zlar tanlaydilar va ularni qatnashtirib gaplar tuzadilar.

**3. Berilgan gapga zid ma'noli so'zlar topib qo'yish.** O'qituvchi “To'g'ri odam ... so'zdan or qilur. Yosh kelsa ishga, ... kelsa oshga. Yaxshi gap - moy, ... gap - loy. Gapni oz so'zla, ishni ... ko'zla” kabi gaplar beradi, o'quvchilar gap mazmuniga mos zid ma'noli so'zlar topib, gapni o'qiydilar (yoki yozadilar).

Umuman olganda, o'quvchilar lug'atini ma'nodosh va zid ma'noli so'zlar bilan boyitish o'z fikrini aniq, ravon va ifodali bayon etishga yordam beradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:**

1. Mirtojdiyev M. Hozirgi o'zbek adabiy tili. I jild. O'zMU, T.: 2004.
2. Ne'matov H., Bozorov O. Til va nutq. “O'qituvchi”, T.: 1993.



## ТО’ГАРАKLARDA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISH.

**Maxanbetova Sabira Besenbayevna**

Otegenova Gulyash Abdirasilovna

Navoiy viloyati Uchquduq tumani

4 – maktab boshlang’ich sinf o’qituvchilari

**Annotatsiya:** ushbu maqolada boshlang’ich sinflarda to’garaklarda interfaol usullardan foydalanish metodlari haqida yoritilgan.

**Kalit so’zlar:** texnik ijodkorlik, jihozlarni konstruksiyalash, fan texnika.

Umumta’lim maktablari va maktabdan tashqari muassasalarning bolalar, o’smirlar ijodiyoti saroylari, uylari, klublari va markazlari darsdan tashqari ishlarda o’quvchilarning texnik ijodkorligi rivojlantirish faoliyati o’zining shakli, mazmuniga ko’ra xilma-xildir. Shunday bo’lsa ham keyingi o’n yillar ichida ana shu faoliyatning quyidagi asosiy yo’nalishlari aniqlandi:

1-4 sinflarda o’quvchilar texnik ijodkorlik bilan bog’liq mehnatga qiziqish va jamoa mehnatiga ishtiyoq uyg’otish, ana shu yoshlar guruhidagi o’quvchilarni yasama texnik o’yinchoqlar, modellar va turli jihozlarni konstruksiyalash bilan bog’liq faol texnik o’yinlar, musoboqalar va konkursarga qatnashtirish, tabiatni muhofaza qilish faoliyatiga va tajribachilik ishining eng oddiy shakllariga jalb etish, bolalarda texnika, sanoat va qishloq xo’jalik ishlab chiqarishi sohalaridagi texnik havaskorlik, ijodkorlik va tajribachilikka intilishni tarbiyalash.

O’quvchilarni maktablar va maktabdan tashqari muassasalardagi texnik ijodkorlik jarayonida ommaviy ishchi ijodkorliklariga yo’naltirish.

O’quvchilarning u yoki bu turdagi amaliy faoliyatga qiziqishlarini aniqlash va rivojlantirishning dastlabki pog’onasida o’qituvchi individual ish olib boradi, suhbatlashadi, adabiyotlarni tavsiya etadi, o’quvchini to’lqinlantirgan ishni muhokama qiladi, qiziqarli fan va texnika kechalarini, fan va texnika tarixidagi atoqli kunlarga bag’ishlangan kechalarni tayyorlash va hokozolar bo’yicha individual topshiriqlar beradi. Shundan keyin, o’qituvchi ana shu o’quvchilarni to’garakka birlashtiradi. Bunda ular jamoa topshiriqlarini ham bajara oladilar.

Kichik maktab yoshidagi o’quvchilar to’garaklarida Rahbar bilan o’quvchilarning didaktik o’zaro hamkorligi o’yin faoliyati shaklida tashkil qilinadi.

Konstruktorlik to’garaklarida o’rta maktab yoshidagi o’quvchilar bilan ishlashda bu hamkorlik vujudga kelgan amaliy vazifalarni (masalan, texnika to’garaklarida texnik vazifalarni bajarishda, qandaydir texnik qurilmani, model, maket, tajriba namunasini ishlab chiqish va tayyorlashda) bosqichma-bosqich hal qilish jarayonida tashkil etiladi.

- Ijodiy vazifalar
- Kichik guruhlarda ishlash
- O’yinlar (rolli o’yinlar, imitatsiya, ishchanlik o’yinlari va ta’limiy o’yinlar)
- Ijtimoiy resurslardan foydalanish (mutaxassislarni jalb etish, ekskursiya)
- Ijtimoiy proektlar va boshqa turdagi auditoriyadan tashqaridagi ta’limiy
- metodlar (tanlovlar, radio va OAV, filmlar, spektakllar, ko’rgazmalar, namoyishlar, qo’shiq va ertaklar)
- Jismoniy va intellektual mashqlar
- Yangi materialni o’rganish va mustahkamlash (interaktiv lektsiya, ko’rgazmali qurollar, video-audiomateriallar, «talaba o’qituvchi rolida», «har kim boshqaga o’rgata oladi», mozaika, savol-javoblar, Suqrot dialogi)
- Murakkab va bahsli muammo va masalalarni muhokama qilish




Zamonaviy pedagogikada interfaol usullardan ba’zilari:





Hozirgi kunda maktablar va maktabdan tashqari muassasalar faoliyatida o'quvchilar texnik ijodkorligi to'garaklarining quyidagi turlari vujudga kelgan:

1. Tayyorlov texnika to'garaklari (kichik maktab yoshidagi o'quvchilar uchun). Ularda o'quvchilar jonli va oson shaklda texnika elementlari hamda eng oddiy texnologik jarayonlar bilan tanishadilar, qog'oz, plastmassa, metall va boshqa materiallarga ishlov berish bo'yicha olgan boshlang'ich ko'nikmalarini rivojlantiradilar. O'quvchilar texnik o'yinchoqlar, mashina va mexanizmlarning sodda modellarini, eng oddiy avtomatik qurilmalar, o'quv ko'rgazmali qo'llanmalar, maktab hamda uy-ro'zg'or buyumlari va hokazolarni tayyorlaydilar.

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilar uchun tayyorlov texnika to'garaklari orasida ko'pincha boshlang'ich texnik modellashtirish to'garaklari, elektrlashtirilgan o'yinchoqlar to'garaklari, transport texnikasini boshlang'ich modellashtirish to'garaklari tashkil qilinmoqda.

2. Predmet (fan-texnika) to'garaklari: fizika, fizika-texnika, ximiya, ximiya-texnologiya, agroximiya, astronomiya va boshqa to'garaklar. Bunday to'garaklar o'quvchilarning maktab o'quv rejasidagi turli predmetlar bo'yicha olgan bilimlarini chuqurlashtirish va amaliy ko'nikmalarini mustaqamlash, ta'lim xonalarini to'ldirish uchun asbob-uskunalar yasash va shu asosda o'quvchilarning texnik ijodkorligini rivojlantirish maqsadlarida tashkil qilinadi.

3. Sport-texnika to'garaklari maktablarda, ko'proq maktabdan tashqari muassasalarda faoliyat ko'rsatadi. Bular aviamodel, raketa-kosmik modellashtirish, avtomobil modelchiligi, kema modelchiligi, temir yo'l modelchiligi, radio boshqarish, suv-motor va boshqa to'garaklar.

O'quvchilar sport-texnika to'garaklarida tegishli texnika tarmo-g'ining tarixi, uning xalq xo'jaligida va mamlakatimiz mudofaasida qo'llanishgai bilan, Vatanimizdagi havo yo'llari transportlari samolyotlar, avtomobillar, suv yo'llari transporti, radio apparatlari va boshqa texnikalar bo'yicha buyuk konstruktorlar texnik tafakko'rining xususiyatlari bilan tanishadilar.

Yuqoridagi to'garaklardan tashqari metallchilar, duradgor konstruktorlar, texnolog ixtirochilar, shuningdek, elektrotexnika, radiotexnika, elektron avtomatika, texnika, kibernetika, rabotexnika, kichik o'lchamli qishloq xo'jalik texnikasini konstruksiyalash, texnikani jihozlash va o'lchov texnikasi klublari keng tarqalgan.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Almetov N.Sh. O'quv-tarbiya jarayonida xalq pedagogikasining imkoniyatlaridan foydalanish. Chimkent. 1993.-89b.

2. Amaliy psixologning ish kitobi. g'g' U.A.Yo'ldoshev, M.Po'latova, Z.Koraev, I.Aripov. Navoiy. 2000. - M.: 1987. - 18 s.



## HUSNIXAT VA UNI O'QITISH METODIKASINING PREDMETI, MAQSADI VA VAZIFALARI

**Mirzayeva Intizor Bahodirovna**

Xorazm viloyati Urganch shahar

22-sonli maktabning boshlang'ich sinf o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarini husnixatga o'rgatish haqida, husnixat fanining predmeti, maqsadi va vazifalari keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** husnixat, yozuv, chiroyli va tez yozish, maqsad, vazifa.

Inson o'z fikrini boshqa kishilarga og'zaki va yozma shaklda yetkazishi mumkin. Nutqning bu ikki shaklining o'xshash va farqli tomonlari mavjud bo'lib, ular o'z o'rnida afzalliklarga ega. Og'zaki nutq tovush chiqarib aytiladi va eshitisilish uchun mo'ljallanadi. U kishilarning nutq jarayoni vaqtidagi aloqa vositasi bo'lib xizmat qiladi. Yozma nutq esa tosh, yog'och, teri, metall, qog'oz kabilarga ko'rish asosida idrok qilinadigan doimiy belgilar orqali yozib qo'yiladi. Yozuv kishilarning o'zaro fikr almashishi va bilimlarni egallashning qudratli vositasi hisoblanadi. Yozma nutq avlodlarni bir-biriga bog'laydi, uzoq davrlar mobaynida saqlanadi. Yozuv tufayli kishilar fikri, insoniyat qo'lga kiritgan bilimlar avloddan-avlodga yetib boradi, abadiy yashaydi.

Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarni husnixatga o'rgatish ehtiyoji yuqoridagi talablar asosida yuzaga keladi. Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarni husnixat bilan yozishga o'rgatish metodikasi ularda aniq, chiroyli va tez yozish imkonini hosil qilishi lozim. Bu kabi vazifalarni amalga oshirish uchun dastur mazmunini va uning talablarini, o'qitish usullarini, yozuviga o'rgatishning gigiyenik shartlarini, o'quvchilarning yozuvidagi individual kamchiliklarini tahlil qilish, kamchiliklarning yuzaga kelish sabablarini aniqlash va tuzatish usullarini ishlab chiqish zarur. Demak, yozuv kishi hayotida pedagogik va ijtimoiy ahamiyatga ega. Yuqoridagi talab asosida yozishga o'rgatish boshlang'ich sinflardan boshlanadi. 1-4-sinf o'quvchilarini chiroyli yozishga o'rgatish uchun o'qituvchining o'zi husnixat bilan yozishi, shu bilan birga o'quvchilarni chiroyli yozishga o'rgata olishi kerak.

Husnixat va uni o'qitish fani amaliy fan bo'lib u chiroyli yozishga o'rgatish bilan bir qatorda ta'lim berish, tarbiyalash, vazifalarini ham bajaradi.

Boshqa fanlar kabi husnixat va uni o'qitish metodikasining o'z predmeti bor. Bu fanning predmeti ta'lim berish jarayonida chiroyli yozuvni egallash, grafik jihatdan to'g'ri va chiroyli yozishga o'rgatish hisoblanadi.

Husnixat va uni o'rgatish metodikasi fani o'z oldiga quyidagi vazifalarni qo'yadi: o'quvchilarga chiroyli yozuv haqida nazariy bilim berish; o'z dastxatlari ustida ishlash yuzasidan malakalar hosil qilish; boshlang'ich sinflarda husnixat darslarini rejalashtirish va tashkil etishga o'rgatish; boshlang'ich sinflar uchun husnixat materiallarini tanlay olish tamoyillari bilan tanishtirish.

Birinchidan, husnixat bilan yozish o'quvchilarda mehnat madaniyatini tarbiyalaydi. Topshiriqlarni toza, aniq va madaniyat bilan bajarish ko'nikmasini hosil qiladi. Ikkinchidan, dastxatga palapartish va be'e'tibor munosabatda bo'lish o'quvchilarning imloviy savodsizligini keltirib chiqaradi. Natijada o'quvchilar qiladigan ishlarini o'ylab o'tirmay bajaraveradilar, o'z xato va kamchiliklarini ham o'ylab ko'rmaydigan bo'lib qoladilar. Uchinchidan, husnixat bilan to'g'ri yozish ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lib turli rasmiy hujjatlarni yuritishda kishilar unga ehtiyoj sezadi. Husnixat bilan yozilmagan, to'ldirilmagan hujjatlarni o'qishga kitobxonning ko'p vaqt sarflashiga to'g'ri keladi. Vaholanki, maktabda har kuni o'qituvchi 30 talab o'quvchilar daftarini tekshiradi. O'qib bo'lmaydigan dastxat bilan yozilgan xat o'qituvchining ko'p vaqtini sarf bo'lishiga olib keladi. Aniq va ravon qilib yozilgan dastxat o'qituvchining ishini yengillashtiradi, keyingi ta'limiy maqsadlarini amalga oshirishlari uchun imkoniyat yaratadi.

Pedagogik fanlar qatorida husnixat darslari ham ta'lim- tarbiya berish vazifasini ham bajaradi. Husnixat darslarida barkamol shaxs tushunchasi ichiga tozalik, tartiblilik tarbiyasi kiradi. Husnixat va uni o'qitish metodikasi ham pedagogikaning ta'lim-tarbiya birligi tamoyiliga amal qiladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. X.G'ulomova va boshqalar. Husnixat va uni o'qitish metodikasi.
2. Gaffarova T. va boshqalar. 1-sinfda o'qish darslari.
3. Safarova R. va boshqalar. Savod o'rgatish.



## БОШЛАНҒИЧ ТАЪЛИМДА ЎҚУВЧИЛАРДА ТАЯНЧ КОМПЕТЕНЦИЯЛАРНИ ШАКЛЛАНТИРИШНИНГ НАЗАРИЙ АСОСЛАРИ.

Эгамберган Худойназаров Мадрахимович –

Урганч давлат университети “Бошланғич таълим методикаси” кафедраси доценти,

Дўсчанова Мохинур Максудовна –

Урганч давлат университети “Таълим назарияси ва методикаси” (бошланғич таълим) мутахассислиги магистри,

### Аннотация

Ушбу мақолада эвристик метод ёрдамида бошланғич синф ўқувчилари ўқув фаоллигини шакллантириш методлари ва уларнинг ўзига хос хусусиятлари таҳлил қилинган, ҳамда муаллифларнинг шахсий фикрлари хулоса ўрнида келтирилган.

**Калит сўзлар :** метод. Евристик метод, еврика, фаоллик, ўқув фаоллик, компетенция, кўникма, билим.

Бугунги кунда таълим жараёнини компетенциявий ёндашув асосида ташкил этишга алоҳида эътибор қартилмоқда. Бу эса таълим жараёнини амалий фаолиятга йўналтириш имкониятларини кенгайтирмоқда. Таълимда амалий-технологик йўналишнинг зарурлиги ўқув предметининг мантикий, мажмуавий, тизимли, ўқув фанлариаро характерга эгаллигидан келиб чиқади. Компетенциявий ёндашув ўқув фанлариаро тизимли таҳлил ҳамда уни амалга оширишнинг яхлит моделини шакллантиришни тақозо қилади.

Компетенциявий ёндашув таълим натижасини умумий, интеграциялашган хулқ-атвор ходисаси сифатида аниқлайди. Унинг таркибини мотивли-кадриятли, когнитив, интерфаол ҳамда эмпирик сифатлар мажмуи ташкил қилади.

Инсон олдида янги талаблар қўйилаётган бугунги кунда таълим жараёнида шахсда алоҳида сифатларни шакллантириш тақозо қилинмоқда. Улар:

1. Сиёсий, экологик, маданиятлараро муаммоларни ечиш лаёқатига эга бўлган шахсларни шакллантириш.

2. Маданий, этник, диний кадриятлар ва фарқлар, ижтимоий турли-туманликларни ҳисобга олган ҳолда кадриятшунослик соҳасидаги муаммоларни ечишга лаёқатли шахсларни шакллантириш. Шунингдек, миллатлараро мулоқот воситалари ва усулларини ўзлаштириш учун қулай дидактик вазиятларни яратиш.

3. Ўқувчиларни ижтимоий ҳаётдаги турли ролларни, чунончи, фуқаро, сайловчи, ота-она, оила аъзоси кабиларни бажаришга тайёрлаш.

4. Ахборотларни излаш, таҳлил қилиш имконини берадиган умумий кўникмаларни ҳосил қилиш.

5. Кўпвариантли вазиятлар шароитида қарорлар қабул қилиш лаёқатини шакллантириш; шу билан бир қаторда ноаниқ вазиятларда қабул қилган қарорлари учун масъулиятни зиммасига олиш, жамоада ишлаш ва жамоа фаолиятини ташкил этиш кўникмаларини шакллантириш.

6. Узлуксиз таълим олиш лаёқатига эга бўлиш, билиш фаолиятининг ривожланишини таъминлаш кабилар.

Юқорида кўрсатиб ўтилган компетенцияларни шакллантиришга қўйиладиган талаблар таълим мазмунида бир туркумдаги фанлар интеграциясини таъминлаш асосида ўз ифодасини топиши керак. Чунончи:

- Ижтимоий фаол фуқаролик компетенцияси; унинг таркибига сиёсий ҳамда ижтимоий билимдонлик, шахснинг масъулиятли бўлиши, гуруҳ ичидаги зиддиятларни куч ишлатмасдан бартараф этиш лаёқатини эгаллаш имкониятлари киради.

- Миллий ва умуммаданий компетенция; ушбу компетенция доирасида кўпмаданийли жамиятда ҳаёт кечириш учун зарур бўлган билимлар, толерантлик муҳитини ривожлантириш, бошқа дин ва миллат вакиллари билан жамиятда биргаликда яшаш ва меҳнат қилиш лаёқатига эга бўлиш кабиларнинг шакллантирилиши назарда тутилади.

- Коммуникатив компетенция; мазкур компетенция доирасида бир ва ундан ортиқ тилда ёзма ва оғзаки мулоқот қила олиш кўникмалари шакллантирилади.



- Ахборотлар билан ишлаш компетенцияси; ушбу компетенция доирасида жамиятдаги ахборотларни ўзлаштириш билан боғлиқ билимлар, ахборот технологияларини ўзлаштириш, уларнинг имкониятлари ва қўллашдаги тўсиқларни англаб етиш, ахборотларга нисбатан танқидий-таҳлилий муносабатда бўлиш, тарғибот-ташвиқот воситаларини оммавий тарзда ёйиш кўникмалари шакллантирилади.

- Ўз-ўзини ривожлантириш компетенцияси; мазкур компетенция доирасида ўқувчиларни жадал тарзда ўзгараётган технологиялар муҳитига мослаштириш, ижтимоий касбий соҳада муваффақият қозониш учун имконият яратиш кўзда тутилади.

Кўрсатиб ўтилган таянч компетенцияларни шакллантириш натижасида ўқувчиларни ижтимоий ҳаёт ва истиқболдаги меҳнат фаолиятига жадал тайёрлаш амалга оширилиб, у шахснинг ҳар қандай фаолият соҳасида муваффақият қозонишини таъминлайди. Шунинг учун ҳам ўқувчиларда таянч компетенцияларни шакллантиришда ностандарт масалалардан фойдаланиш шахсга йўналтирилган таълим шароитида алоҳида долзарблик касб этмоқда.

Таълимнинг сифати ва самарадорлигини таъминлаш учун унга таъсир кўрсатадиган муайян омилларни ўрганиш лозим. Бу омиллар ривожланган мамлакатлар ва Ўзбекистон таълим тизимининг ўзига хос хусусиятларини акс эттириб, баркамол авлодни шакллантиришга бўлган янги эҳтиёжлар ва талабларни ўзида мужассамлаштиради.

### **Фойдаланилган адабиётлар рўйхати**

1. Khudoynazarov E.M. Didactic possibilities of oral exercises in forming initial classes pupils' mathematical thinking activity// Eastern European Scientific Journal. – Ausgabe – Germany.1-2019. P. 249-253.

2. Валихонова О.А. Формирование информационно-математической компетентности студентов инженерных вузов в обучении математике с использованием комплекса прикладных задач: дис. ... канд. Пед. Наук / О.А. Валиханова. – Красноярск, 2008. – 183 с.

3. Петровская Л.А. Общение – компетентность – тренинг. Избранные труды – Издательства: Смысл. – 2007. 387 с.



## BOSHLANG'ICH SINFLARDA PIRLS TADQIQOTLARI

**Ne'matova Dildora Naimovna**

Buxoro viloyat Vobkent tuman

26-maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada boshlang'ich sinflarda PIRLS xalqaro baholash tadqiqotidan foydalanish haqida fikr mulohazalar bildiriladi.

**Kalit so'zlar:** PIRLS, matn, tajriba, o'qish, savodxonlik, xalqaro, test, usul.

Prezidentimiz SH.Mirziyoevning yosh avlodni bilimli komil inson qilib tarbiyalash to'g'risidagi, kelajak yosh avlod qo'lida ekanligi ular bi necha jihatga ega bo'lish lozimligini ta'kidlaydi, ya'ni: "... o'z haq-huquqini taniydigan bo'lsin, buning uchun kurashsin; - o'z kuchi va inkoniyatlariga tayanadigan bo'lsin, imkoniyatlarini ishga solib, samarasini ko'rsin..."[1].

2017-2018 o'quv yillarida maktab yoshidagi bolalarni o'qishga tortish 97%ni, boshlang'ich sinf yoshidagi bolalarni maktabga jalb qilish 100%ni tashkil qilgani holda jahonning Xalqaro ta'limni nazorat qilish tashkilotlarida mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ta'limning sifati xususidagi ma'lumotlarning yo'qligi quvonarli holat emas.

O'tgan yili Xalqaro YuNISEF ta'lim sohasi vakillari mamlakatimiz 4-sinf o'quvchilari ta'lim sifatini oshirish masalasi yuzasidan saylanma nazorat ishlarini amalga oshirdilar. 4-sinflarda o'tkazilgan tajribalar o'quvchilarning 42,9 foizi o'qiganlarini tushunishlari, uy vazifalarini bajarishlari uchun 30–60 minut vaqt sarflashlarini aniqlash imkonini berdi. Mazkur holat boshqa mamlakatlar bilan taqqoslanganda bir qator nomuvofiqliklar, tafovutlarning mavjudligini ko'rsatib berdi [2].

Xalqaro testlarga murojaat qilishning sabablari nimalar bilan izohlanadi?

1. Agar biz milliy ta'limimiz jahon standartlari talablariga javob berishini istasak, demak dunyo pedagogikasi rivojlanish qonuniyatlarini o'rganishimiz talab qilinadi, aks holda ta'lim –tarbiya jarayoni past darajadagicha qolib ketaveradi. Har qanday vosita ma'lum vaqtdan so'ng mahnan eskiradi. SHu bois ta'lim natijalarini baholashning eng ilg'or usullarini qo'llashda PIRLS tajribasi bizga qo'l keladi. Chunki

PIRLS xalqaro ekspertlar hamjamiyati tomonidan endi ta'limga qadam qo'ygan o'quvchilar o'qish savodxonligini tekshirishning dunyo miqyosida tan olingan dasturi hisoblanadi.

2. Ikkinchi sabab pragmatik ahamiyatga molik bo'lib, ta'lim amaliyotida ilmiy natijalardan foydalanish ko'nikmalariga taalluqlidir. PIRLS testlari—to'rtinchi sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligi xalqaro monitoringini amalga oshiradi. Mazkur dasturning ishtirokchilari 2001 yildan buyon har 5 yilda ta'lim natijalari kimga va nimaga bog'liq ekanligi, bu borada aynan qanday nostandart yechimga kelish kerakligi to'g'risida muhim ma'lumotlarni to'plab kelmoqda.

Nima uchun ta'lim tizimi samaradorligi markaziy ko'rsatkichi o'qish savodxonligi deb ehtirol etiladi? Chunki aynan matnlarni o'qish orqali orttiriladigan axborotlarni o'zlashtirish va ulardan foydalanish ko'nikmalari har bir inson taqdiri va mamlakat ravnaqiga o'z tahsirini ko'rsatadi:

- yuqori o'qish savodxonligiga ega bo'lgan o'n besh yoshli bola katta ehtimol bilan o'qishni tamomlaydi, ta'limning keyingi bosqichini davom ettira oladi;\_\_

- o'qish savodxonligi darajasi mamlakat iqtisodi ravnaqini tahminlashda boshqa har qanday ta'lim natijalariga nisbatan ustuvorlikka ega.

Nega aynan 4-sinfni bitirayotgan o'quvchi bolalarning o'qish savodxonligi? Sababi, aynan shu yoshda rus olimi Leontevning ehtirolficha, asta-sekinlik bilan o'qish ta'limidan ta'lim olish uchun o'qish bosqichiga o'tiladi.

PIRLS testlari predmeti keng tushunchani ifodalaydi. Millis Martin: "O'qish savodxonligi –jamiyat yoki muayyan bir shaxs uchun qadrlil bo'lgan turli yozma nutq shakllarini tushunish va foydalanish qobiliyatlari. O'quvchi ko'plab matnlarga murojaat qilish asosida o'z xususiy tushunchalarini loyihalashtiradi. Ular ta'lim olish, maktab ijtimoiy hayotida faol ishtirok etish, kitobdan zavq olish uchun o'qiydilar,"-deb ta'kidlaydi.

Mazkur e'tirof mohiyatan yozma nutqdan foydalanish hamda matnlardan foydalanish asosida o'z xususiy his-tuyg'ularini yozma shaklda ifodalash ko'nikmalarini anglatadi. PIRLS testlari nazariy doirasi jihatdan to'rt xil asosiy o'qish ko'nikmalarini aniqlash imkonini beradi:

- matnda ochiq-oydin ifodalangan axborotni topish;



- uning asosida oddiy aqliy xulosalar chiqarish;
- matndagi g’oya va axborotlarni sharhlash, integratsiyalash;
- matn shakl va mazmunini baholash.

Mazkur to’rt o’qish ko’nikmalari har bir matn yuzasidan test savollarini tuzishda asos vazifasini o’taydi. PIRLS ochiq matnlaridan foydalangan holda sanab o’tilgan o’qish ko’nikmalarining har biriga to’xtalib o’tamiz. Test materiallari va natijalarini tahlil qilishda ifodalanayotgan o’qish ko’nikmalari orasidagi chegaraning nisbiy ekanligiga e’tibor qaratish kerak bo’ladi. Matn o’qishda ular yaxlit holda amalga oshiriladi, o’qish bilan bog’liq har qanday vazifani amalga oshirish o’quvchidan mavjud barcha ko’nikmalari safarbarligini taqozo qiladi.

Biz ko’rib chiqayotgan PIRLS testlari 12 ta matn (shulardan 6 tasi badiiy va 6 tasi axborot shaklida) hamda 175 ta savolni qamrab olgan. Matn va savollarni ishlab chiqishda PIRLSga ahzo davlatlarning yetakchi mutaxassislaridan iborat ekspert kengashi har bir matn yuzasidan beriladigan savollarga javob berishda o’quvchilarning aynan qaysi bir o’qish ko’nikmalari talab qilinishi bilan bog’liq murakkab vazifalarni hal qilishlariga to’g’ri keladi [4].

Xulosa sifatida aytish mumkinki, mamlakatimiz ta’lim jarayoniga Xalqaro PIRLS testlarini joriy qilish bitiruvchi sinf o’quvchilarining tafakkur faoliyatini rivojlantirish, mustaqil va ijodiy fikrlashini rivojlantirish, nostandart qarorlar qabul qilish va kreativ fikrlashlarida muhim ahamiyat kasb etadi.

#### **Adabiyot**

1. Mirziyoev SH.M. O’zbekiston ijodkor ziyolilari vakillari bilan uchrashuvdagi mahruzasi. Toshkent, 03.08.2017.
2. TSukerman G.A. i d. CHitatelg’skie umeniya rossiyskix chetveroklassnikov: uroki ‘IRLS. - M.: 2016.



## BOSHLANG'ICH SINFLARDA YANGI INOVOTSION TEXNOLOGIYALARNING O'RNI

**Normetova Zaynabjon Masharipovna  
Boyjanova Umida**

Yangiariq tumani 23-maktabning  
boshlang'ich sinf o'qituvchilari

**Annotatsiya:** Ushbu maqola boshlang'ich sinflarda fanlarning o'qitilishi, pedagogik texnologiyalardan o'rinni va mahorat bilan qo'llash, o'quv jarayonida o'zlashtirishning yuqori ko'rsatkichlariga erishish imkonini yaratadigan multimedia ilovalari, o'qitishning o'yinli shakllari va mediatexnikalar bilan ishlash haqida ma'lumot beriladi.

**Kalit so'zlar:** o'qish fani, pedagogik texnologiyalar, DTS, kompetensiya.

O'quvchilarning jismoniy va psixologik rivojlanishida boshlang'ich ta'lim davri muhim rol o'ynaydi. Shuning uchun ham, mamlakatimiz ta'lim tizimida boshlang'ich ta'lim sifatini oshirish, ta'lim standartlari, o'quv dasturlari, darslik va o'quv qo'llanmalarni takomillashirish dolzarb vazifalardan biridir. Bugungi kun talablaridan kelib chiqqan holda o'qish fanini o'qitishning sifat va samaradorligini oshirish maqsadida kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan DTS va o'quv dasturlari asosida 4-sinf o'qituvchilari uchun hamkorlik, didaktik o'yin texnologiyalari va integratsiyalashgan ta'lim mazmunini ochib berishga qaratilgan qo'llanmalar yaratilmoqda. Shuningdek, multimedia ilovalari o'qitishning o'yinli shakllari va mediatexnikalar bilan ishlash, pedagogik texnologiyalardan o'rinni va mahorat bilan o'quv jarayonida o'zlashtirishning yuqori ko'rsatkichlariga erishish imkonini yaratadi. O'quv darslarida kompetensiyaviy yondashuvni joriy etish axborot va ilg'or pedagogik texnologiyalaridan foydalanish ta'lim mazmunida o'ziga xos va hamda o'quvchi shaxsida o'ziga mos kompetensiyani shakllantiradi.

Boshlang'ich ta'lim bosqichida kompetensiyadan foydalanish darslarning xilma-xil shakllari "O'qish" fanini o'qitishni takomillashuviga ta'sir ko'rsatadi. Darslarni "Bumerang" texnologiyasi, "Arra", "O'z o'ringni top", "FSMU", "Nima uchun?", "Ikki qismli kundalik" metodlari, "Pinbord" usuli, "She'rni tikla" kabi mashqlaridan foydalanib o'tish dars samaradorligini yanada oshiradi.

**"FSMU" metodi** – 4 bosqichli yozilgan qog'oz varaqlarini tarqatadi va yakka tarkibda qo'llaniladi. O'zlashtirilgan bilimlar asosida tashkil qilinadi va har bir o'quvchi 4 bosqichlari asosida fikr mulohaza bildiradi: Bunda:

**F** – fikringizni bayon eting; **S** – fikringiz bayoniga ta'sir ko'rsating; **M** – ko'rsatgan sababingizni asoslovchi misol keltiring; **U** – fikringizni umumlashtiring.

**Maqsadi:** o'quvchilar mashg'ulotda o'rganilayotgan mavzuning muhokamasi jarayonida unga doir masalalar bo'yicha o'z fikrini bayon qilish, shu fikrlarni asoslovchi sabablarni ko'rsatish, ularni tasdiqlovchi misollarni keltirish va umumlashtiruvchi xulosalar chiqarishga o'rgatish.

**Vazifasi:** o'quvchilarni erkin fikrlash, o'z fikrini himoya qilish, boshqalarga fikrini o'tkazish, ochiq holda baxslashish va bahs-munozara madaniyatiga o'rgatadi. Masalan, N.A. Samarqandiyning "Sulton Mahmud va Beruniy" rivoyatida qo'llanilgan.

**"O'z o'ringni top metodi".** Mavzu bo'yicha bahs-munozarali vazoyatlarda muammoning yechimini topishga yo'naltirilgan. Bunda o'quvchilar o'z fikrini bayon qilishi, muloqot ko'nikmalarini qaytadan tuzatishga imkoniyatlar mavjud bo'ladi va dars so'ngida o'qituvchi tomonidan mavzuni o'zlashtirish darajasini baholash aniq amalga oshiriladi.

**Maqsadi:** o'quvchilarda o'z fikrini bayon qilish, erkin, mustaqil, mantiqiy fikrlashga o'rgatish.

### Foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxati:

1. G'afforova T va boshqalar, «1-sinfda savod o'rgatish», T-1997
2. G'ulomov M «Yozuv daftari», T-2010
3. Boshlang'ich ta'lim bo'yicha yangi tahrirdagi davlat ta'lim standarti, T-2005.
4. Boshlang'ich ta'lim bo'yichak yangi tahrirdagi o'quv dasturi. «Boshlang'ich ta'lim», 2005 yil, 5-son



## BOSHLANG'ICH SINFDA MATEMATIKA DARSLARIDA FOYDALANILADIGAN DIDAKTIK O'YINLARNING MAZMUNI VA ULARDAN FOYDALANISH

**Masharipova Oliyajon Ro'zmatovna**  
Xorazm viloyati Urganch shahar  
18-son umumiy o'rta ta'lim maktabining  
Boshlang'ich sinf o'qituvchisi

**Annotatsiya:** *Ushbu maqola boshlang'ich sinf o'qituvchilariga matematika darslarini pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etishga yordam berish maqsadida yozildi.*

**Kalit so'zlar:** *Didaktik o'yin, ob'yektiv voqelik, geometrik shakllar, psixologik ahamiyati, kvadratlar.*

Didaktik o'yinlar boshlang'ich sinflarda ta'limning samarali bo'lishiga, o'quvchilarning uquv-bilish faoliyatini muvaffaqiyatli boshqarishga, matematikadan nazariy bilimlarni oson egallashlariga, ularning bilim olishga bo'lgan qiziqishlarini orttiradi.

O'yin — bolalarning ongi, qalbiga singib ketgan faoliyatdir, ularning bu faoliyati, o'yin turlariga qarab, ob'yektiv voqelikni, hayotni muayyan darajada o'zida aks ettiradi.

O'yin sinfda o'tilgan o'quv faoliyatining ma'lum darajada davomi va mustahkamlanishidir.

Didaktik o'yin — ta'lim beruvchi usul bo'lib, bu usul muayyan ta'limiy maqsadlarga erishuvga, ya'ni o'tilgan o'quv materialini aniqlashga, mustahkamlashga va uni chuqurlashtirishga qaratilgan bo'ladi. Har bir didaktik o'yinni o'tkazishda muayyan bir vazifa maqsad qilib olinadi. Masalan, «Teatr» o'yiniga qo'yiladigan didaktik topshiriq bolalarning oldingi darslarda tanishgan soni haqidagi tushunchalarini mustahkamlashdan iborat. «Doiraviy misollar» o'yinida esa ikkinchi o'nlik ichida hisoblash malakalarini mustahkamlashdan iborat bo'lgan didaktik topshiriq qo'yiladi.

Didaktik topshiriq darsga qo'yiladigan umumiy maqsadning bir qismini tashkil qiladi.

Har bir didaktik o'yinning ham har qanday o'yindagi singari qoidalari bo'ladi. O'sha qoidalarga amal qilinmasa, o'yinning o'yin sifatidagi ahamiyati, binobarin, o'yinning ta'lim-tarbiyaviy va psixologik ahamiyati yo'qoladi. O'yin qoidalari o'yin topshirig'iga kiritiladi.

### **Didaktik o'yin: «Ko'rganni eslab qolish»**

Didaktik topshiriq: qo'shib sanash yo'li bilan geometrik shakllar miqdori bilan bog'liq ravishda son qatorini tuzish.

O'yin topshirig'i: o'qituvchi tomonidan ko'rsatilgan namunaga 3 — 4 daqiqa davomida diqqat bilan qarab olib, geometrik shakllarning soni va qanday joylashganini aniqlash hamda ularni o'zining daftariga to'g'ri yozish. Foydalaniladigan buyumlar:

- 1) 6 ta qizil doiracha va 6 ta ko'k kvadrat solingan individual konvert;
- 2) o'rtasidan qizil chiziq tortilgan qalin oq qog'oz;
- 3) o'qituvchining qo'lida geometrik shakllar yopishtirilgan namunalar.

Bolalar tezlik bilan ko'k kvadratlarni yoyadilar. Oradan bir oz vaqt o'tgach, eng ziyrak o'quvchilar qo'llarini ko'taradilar. 15—18 nafar bola 30 — 50 sekund mobaynida topshiriqni bajaradi. Ba'zi bir bolalar beparvo va befarq bo'ladi. Masalan, bolalardan biri uyga o'xshash shaklni teradi. (Bu yerda shakllarning nomlari bolalarga oldindan o'rgatilganligi nazarda tutiladi.) O'yinning borishi: o'qituvchi o'quvchilarga geometrik shakllar rasmi solingan konvertlarni tarqatadi. Bolalar konvertlarni ko'zdan kechiradilar. O'qituvchi konvertlar bilan birga oq qog'oz ham tarqatadi. — Bolalar, — deydi o'qituvchi, — hamma shakllarni bir yerga to'plab, partaning chetiga qo'yinglar. O'yinni mana bunday tartibda o'ynaymiz: men sizlarga kvadratlar yoki doiralar shakllari solingan qog'oz namunasini ko'rsataman (ko'rsatadi). Sizlar esa sanab, qog'ozda qancha shakllar borligi va ular qanday joylashganligini eslab qolinglar. Uchgacha sanayman, undan so'ng namunani olib qo'yaman, sizlar esa qo'lingizdagi qizil chizikli oq qog'ozlarga shakllarni xuddi namunadagidek joylashtirishingiz lozim.

Dastlab o'qituvchi eng oddiy usulni (kamroq shakllar rasmi solingan bir xil shakllarni) tanlaydi. — Diqqat! — deydi o'qituvchi, — ko'rsata boshlayman bir, ikki, uch! To'rt nafar bola esa barcha kvadratlarni qatorasiga terib qo'ydi. Uch nafari doirachalarni bir chiziqqa tizishdi. O'qituvchi bolalarga o'z- o'zlarini tekshirish imkonini berish maqsadida namunani ikkinchi marta ko'rsatadi va topshiriqning to'g'ri yoki noto'g'ri bajarilganligini tekshirib chiqishni taklif qiladi. Oradan 5—10 sekund o'tgach, namunani olib qo'yadi. — Endi, bolalar, — deydi o'qituvchi, — aytinglar-chi,



qancha kvadrat qo'ydingizlar? — Beshta. — Barakalla, hammangiz ham g'olib bo'ldingiz. Endi men sizlarga qiyin namunani ko'rsataman. Sizlar diqqat bilan qarab turing. Diqqat: bir, ikki, uch!

O'qituvchi ikkinchi namunani ko'rsatadi. Ko'pchilik bolalar birdaniga kvadratlarni qo'llariga oladilar. O'qituvchi ularni ogohlantirib: «Sanab chiqishni unutmadingizlarmi?» — deydi. 3 — 4 nafar bola ko'zini kvadratlardan olib, namunaga diqqat bilan qaraydi va sanay boshlaydi. Shundan so'ng o'qituvchi namunani olib qo'yadi. Ikkinchi marta navbat kelganda bolalar shakllarni birinчисiga qaraganda tezroq joylashtiradilar. O'yin uchinchi marta jonliroq o'tadi.

Shunday qilib, o'yin paytida bolalar sanashni, shakllarni bir chiziqqa joylashtirishni ham bilib oladilar. Buning natijasida shakl nomlari mustahkamlanadi va o'yin yaxshi o'zlashtiriladi. O'qituvchi esa o'yin natijasida bolalar xotirasi qanchalik rivojlanganligini aniqlab oladi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Jumayev.M.E. Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi. Fan va texnologiya 2005.

2. Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasida interfaol metodlardan foydalanish. Ismoilova Habibaxon G'aniyevna. "Science and Education" Scientific Journal August 2020 / Volume 1 Issue 5



## TEKNOLOGIYA DARSLARIDA ZAMONAVIY TEKNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

**O'sarova Muhabbat Bosimovna**

Sirdaryo viloyati Sardoba tumani  
4-maktab texnologiya fani o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada texnologiya darslari haqida umumiy tushunchalar haqida fikr yuritiladi. Bundan tashqari, texnologiya darslarini hayotimizda tutgan o'rni va texnologiya darslarida zamonaviy texnologiyalardan foydalanish maqolaning asosiy mazmunini tashkil qiladi.

**Kalit so'zlar:** texnologiya darslari, innovatsion texnologiya, pedagogik texnologiya, dizayn

“Texnologiya” darsligi insonlar hayotida muhim o‘rin tutuvchi amaliy mehnat faoliyatiga tayyorgarlik ko‘rishda muhim o‘rin tutadi. Voyaga yetib, qaysi kasbni egallamang, kim bo‘lmang, “Texnologiya” fanidan olgan bilim va ko‘nikmalaringiz sizga hayotda, albatta, naf keltiradi. “Texnologiya” darslarida materialshunoslik, asbob-uskunalar, moslamalar va ulardan foydalanishga oid bilimlarni o‘zlashtirasiz. Mahsulot ishlab chiqarish va uy ro‘zg‘or buyumlarini ta‘mirlashga oid ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lasiz. Bu maqolada o‘quvchilarning turli materiallarga ishlov berish usullarini egallashida kerak bo‘ldigan qobiliyatlar va ularni shakllantirishga doir jihatlar keltirib o‘tilgan. Zero, materiallarga ishlov berish bilan bog‘liq umummehnat ko‘nikmalari har bir inson hayotida muhim o‘rin tutadi. Jamiyatimizning har bir a‘zosining bilim va salohiyatini to‘la ro‘yobga chiqarishga qaratilgan bozor munosabatlarining rivojlanib borayotganligi bu ko‘nikmalarning zaruratini yanada oshirmoqda. Ijodkorlik – bu yangi g‘oyaga asoslangan moddiy va ma‘naviy boyliklarni yaratishdir. Ijodiy faoliyat tufayli hayotimiz yanada qulay va qiziqarli bo‘lib bormoqda. Sizni o‘rab turgan barcha buyumlar, jihoz va uskunalar ijodkor insonlar tomonidan yaratilgan texnik vosita va texnologiyalarning mahsuli hisoblanadi. Ular mehnati natijasida ulkan samolyotlar, zamonaviy avtomobillar, katta imkoniyatlarga ega kompyuterlar va biz uchun qadrli boshqa ne‘matlar yaratilgan. Siz ham kelajakda voyaga yetib, tanlagan kasbingizni mukammal egallab, bu taraqqiyotga o‘z hissangizni qo‘shasiz deb umid qilamiz. Bu vazifalarni uddalashingizda muvaffaqiyatlar tilaymiz.

Asosiy qism: Texnologiya darslarida zamonaviy (innovatsion, pedagogik va axborot) texnologiyalarini qo‘llashning asosiy bo‘limlari «Texnologiya va dizayn», «Servis xizmati» hamda «Qishloq xo‘jalik asoslari» yo‘nalishlari berilgan. Siz ulardan birini to‘liq o‘rganasiz. Shuni e‘tiborga olish kerakki, «Texnologiya va dizayn» yo‘nalishi uchun darslikda «Elektrotexnika ishlari» hamda «Uy-ro‘zg‘or buyumlarini ta‘mirlash» nomli boblar berilgan. Bu boblarni «Qishloq xo‘jalik asoslari» yo‘nalishlarini o‘rganayotgan o‘quvchilar ham o‘rganadilar. Siz mashg‘ulotlar va uyushtiriladigan sayohatlar davomida ko‘plab sohalarga oid kasb hunar turlari bilan tanishasiz. Kelajak hayotingizda shu kabi kasb-hunarlardan birini egallab, o‘z sohasining mohir ustasi bo‘lib yetishasiz. Bu bilan siz jamiyatimiz ravnaqi uchun o‘z hissangizni qo‘shasiz. Ta‘lim sohasidagi ilmiy-pedagogik adabiyotlarda texnologiya, pedagogik texnologiya, texnologik yondoshuv, ta‘limni texnologiyalastirish, texnologik tayyorgarlik haqida so‘z yuritilib, ularga turlicha talqin va ta‘riflar beriladi. Menimcha, avvalo «texnologiya» so‘zining ma‘nosini bilish maqsadga muvofiq. «Texnologiya» so‘zining grek t ilidan tarjimasini tayyor mahsulot, buyumlar olish maqsadida ishlab chiqarishning mos keladigan qurilma va jihozlari bilan xom-ashyo va materiallarini ishlov berish usullari majmuasini tizimlashtiruvchi fanni anglatadi. Shuning uchun bo‘lsa kerak, ba‘zida uni «texno» - hunar yoki san‘at, «logos» - fan deb, buyum olish uchun xom-ashyolarga ishlov berish san‘ati haqidagi fan sifatida e‘tirof etishadi. Shu nuqtai nazardan bo‘lsa kerak, Yevropa mamlakatlarida, jumladan Germaniya va Rossiya maktablarida «Mehnat ta‘limi» o‘quv predmetini «Texnologiya» yoki «Texnologik ta‘lim» deb yuritilishi maqsadga muvofiq hisoblayman. Bundan tashqari, o‘quvchilarni texnologiya darslarida texnik ijodkorlikni, qobiliyatini, tafakkurini rivojlantirish, dars jarayonida turli va tabiiy hamda metall va metallmas materiallarga texnologiya asosida ishlov berish usullarini o‘rgatish orqali kasb-hunarga yo‘naltirishni yanada kuchaytirish, xalq hunarmandchiligi asoslari, ro‘zg‘orshunoslik, elektrotexnika ishlarini bajarishda kasb-hunarga yo‘llash bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakalarni egallash hamda ularni hayotda qo‘llay olish layoqatini shakllantirish ko‘zda tutilgan. Umumiy o‘rta ta‘lim muassasalarida texnologiya o‘quv fanini o‘qitishning asosiy maqsadi -



o‘quvchilarda texnik-texnologik hamda texnologik jarayon davomida bajariladigan operatsiyalar yuzasidan olgan bilim, ko‘nikma va malakalarini mustaqil amaliy faoliyatida qo‘llash, kasb-hunar tanlash, milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida ijtimoiy munosabatlarga kirisha olish kompetensiyalarini shakllantirishdan iborat. Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida texnologiya o‘quv fanini o‘qitishning asosiy vazifalari: materiallar va ularning xossalari, xususiyatlari hamda texnik obyekt va texnologik jarayonlarga oid ma’lumotlarni o‘rganish; texnik obyekt hamda texnologik jarayonlarda maxsus va umummehnat operatsiyalarini bilish; texnologik jarayonlarni boshqarish, maxsus va umummehnat operatsiyalarini amaliyotda qo‘llay olish; texnik va kreativ fikrlashni, intellectual qobiliyatlarini shakllantirish; texnologik jarayon va tayyorlangan mahsulotlarni bajarish ketma-ketligi hamda mahsulot sifatini tahlil qila olish; buyum va jarayonlarni bajarishga oid xulosalar chiqarish hamda mehnat operatsiyalarini, mahsulot sifatini baholay olish; ongli ravishda kasb t anlashga tayyorlash ishlarini amalga oshirishda tayanch va texnologiya faniga oid kompetensiyalarni shakllantirish hamda rivojlantirishdan iborat. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida texnologiya fani boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishida umumlashgan holda, 5-9-sinflarda “Texnologiya va dizayn”, “Servis xizmati” yo‘nalishlarida o‘qitiladi.

#### **Foydanilgan adabiyotlar**

1. Sanaqulov X.R., Xodiyeva D.P. Satbayeva «Mehnat va uni o‘qitish metodikasi». Darslik. T.: TDPU. 2015-yil.
2. Mavlonova R. A., Sanaqulov X.R., Xodiyeva D.P. Mehnat va uni o‘qitish metodikasi. O‘quv qo‘llanma. T.; TDPU. 2007-yil.
3. Sanaqulov X.R., Xodiyeva D.P., Sanaqulova A.K. “Texnologiya” 2-sinf darsligi. T. “Sharq” . 2018-yil
4. Sanaqulov X.R., Xodiyeva D.P., Sanaqulova A.K. Mehnat ta’limi 3-sinf darsligi. T. “Sharq” . 2016-yil



**BOSHLANG'ICH SINIF “ONA TILI VA O'QISH SAVODXONLIGI” DARSLARINI  
YANGICHA YONDASHUV ASOSIDA TASHKIL ETISH USULLARI**

**Otajanova Oysha Ko'palovna**

18-son maktabning boshlang'ich

ta'lim fani o'qituvchisi

Tel: + 998 97 516 34 60

**Annotatsiya:** Maqolada ona tili va o'qish savodxonligi darslarida o'quvchilar matnни yodlab olish, she'rlarni takrorlash bilan cheklanmasdan, matnни tushunish, anglash, munosabat bildira olish ko'nikmalarini shakllantirish borasida mulohazalar bayon qilinadi.

**Kalit so'zlar:** o'qish savodxonligi, matn, kommunikativ yondashuv, konstruktiv jarayon.

Kichik o'quvchilar ma'naviyatini sog'lomlashtirishda o'qish darslarining o'rni muhim ahamiyatga molik hisoblansa-da, afsuski uzoq yillar mobaynida bu amalari noto'g'ri bajarilib kelindi. O'qish darslarida o'quvchilar matnни yodlab olish, she'rlarni takrorlash bilan cheklandilar. Yodakilik va takrorlash asosida tashkil etilgan darslar o'quvchilarga hech narza bermasligi bugungu kundagi xato va kamchiiklarimiz misolida ham ko'rinib turibdi. Boshlang'ich ta'limning o'rni to'g'ri anglansa, o'qituvchi tomonidan o'qish kitobidagi asarlarni to'g'ri idrok etishga yo'naltirilgan o'quvchi mustaqil ishlashga, uqib o'qishga, o'zgalarning fikrlarini ilg'ashga, o'zi va boshqalarning tuyg'ular olamini kuzatishga, o'zgani tuyishga o'rgana boradi. Olamni, Odamni va O'zligini kashf qiladi. O'z ichki “men”ning shakllanishida o'zi bevosita ishtirok etadi. Undan tashqari kuzatishlar asnosida ma'lum bo'ldiki, boshlang'ich sinflar “O'qish kitobi” darsliklarining barchasida keragidan ortiq material to'plangani bilan, muhim talablarga yetarlicha javob bera olmasdi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida insoniy sifatlarni shakllantirishda bolalarning kuchi, aqli va imkoniyatlaridan unumli foydalanilmagan. Darsliklarda o'rganish uchun taqdim etilgan o'quv materiallarining katta qismi mantiqsiz, jo'n, hayotiy haqiqatdan uzoq manbalar bilan to'ldirilgan edi. Ma'lumki, yosh avlodni milliy qadriyatlar asosida ma'nan sog'lom qilib tarbiyalashda, shaxsni shakllantirishda badiiy adabiyotning o'rni beqiyos. O'qituvchi o'zida yo'q narsani o'quvchisiga berolmaydi. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 sentyabrdagi "Xalq ta'limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5538-son Farmoni ijrosi yuzasidan ishlab chiqilgan umumiy doidalarda mavjud darsliklarning eskirganligi, yangi avlod darsliklarini yaratish lozimligi borasida ko'rsatma beriladi. Darsliklarni yaratish tizimida xilma-xillikning yo'qligi ularni yaratish va nashr qilishni monopollashtirishga omil bo'lib qolmoqda hamda ularning mazmuni, metodikasi va nashr sifatiga salbiy ta'sir etayotganligi, davlat ta'lim standartlari kompetensiyaviy yondashuvga asoslanganligiga qaramasdan, o'qitish va baholash metodlari, shuningdek darsliklar va boshqa o'quv materiallarini asosan axborotni yodlash va bayon qilishga qaratilgan bo'lib, tanqidiy fikrlash, axborotni mustaqil izlash va tahlil qilish ko'nikmalari va boshqa malakalarni rivojlantirishga to'sqinlik qilayotganligi ta'kidlab o'tiladi. Shuningdek, foydalanilayotgan darsliklar sifatini oshirish, xorijiy o'quv qo'llanmalarini qo'shimcha yoki muqobil o'quv materiallari sifatida qo'llash amaliyotini yo'lga qo'yish fursati kelganligi ham ta'kidlab o'tiladi. 2021-yil sentabrdan birinchi va ikkinchi sinflariga qo'llanilishi boshlangan Ona tili va o'qish savodxonligi darsligi ushbu talabni bajarish uchun tashlangan qadamdan biri bo'ldi. Ona tili va o'qish savodxonligi fanini o'qitishda asosiy e'tibor o'quvchida tilga doir to'rt ko'nikma: o'qib tushunish, tinglab tushunish, nutq so'zlash va yozish hamda grammatik savodxonlikni shakllantirishga qaratiladi. Ona tili va o'qish savodxonligi fani ushbu maqsadlarni amalga oshirishga xizmat qiladi. O'qish savodxonligini o'rgatishda kommunikativ yondashuv, ya'ni tilning muloqot vazifasi birlamchi hisoblanib, integrativ, faoliyatga yo'naltirilgan, onglik, kashfiyotchilik, farqli va tanqidiy yondashuvlar e'tiborda bo'lishi lozimligi ta'kidlanadi. O'qish savodxonligi – jamiyat tomonidan talab qilinadigan va inson tomonidan qadrlanadigan yozma tilning shakllarini idrok etish va amaliyotda qo'llay olish qobiliyatidir. O'qish savodxonligi jamiyat tomonidan talab qilinadigan va inson tomonidan qadrlanadigan yozma til shakllarini tushunish va ulardan foydalanish, shuningdek, matnlardan turli shakllarda ma'no hosil qila olish qobiliyati hamdir. Ushbu nuqtayi nazar o'quvchilarning o'qishdan olingan ma'lumotlardan foydalanish qobiliyatiga tobora ko'proq e'tibor qaratadigan zamonaviy jamiyatda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Xalqaro tadqiqotlarda matnни tushunish to'rtta jarayonga asoslanib baholanadi.



XULOSA. Badiiy adabiyotning kuchi shundaki, u tasvirlagan voqealar, harakatlar va oqibatlar o‘quvchilarga haqiqiy hayotni yoritibgina qolmay, tasavvur qilishlari mumkin bo‘lgan vaziyatlarni bilvosita his qilish va aks ettirishga imkon beradi. Adabiyot namunalarini tushunish orqali o‘quvchi ongosti uzvlaridagi strukturalarni o‘zgartira oladi. Anglashlar asnosida harakterlar o‘zgaradi, yaxshi fe‘l-atvor, olijanob qarashlar shakllanadi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta‘limi tiziminin 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 sentyabrdagi "Xalq ta‘limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida"gi PF5538-son Farmoni ijrosi yuzasidan ishlab chiqilgan umumiy doidalar (3-sahifa).

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Xalq ta‘limi tizimida ta‘lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2018-yil 8-dekabrda 997-son qarori.

3. Asaqarova M. “Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida o‘qish va matnni tushunish ko‘nikmalarini rivojlantirish” Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. Namangan.-2020. 15-sahifa.



**TASVIRIY SAN'AT VA CHIZMACHILIK FANINI O'QITISHDA “TEKNOLOGIK DIKTANT” METODIDAN FOYDALANISH.**

**O‘zabayeva Barchinoy Taxirovna**

Gurlan tumani 41-AFCHO'I maktabi

**Maratova Norjonoy Beknazar qizi**

Xorazm viloyati Qòshkopir tumani

49- son umumiy òrta ta'lim maktabining

Tasviriy san'at va Chizmachilik fani òqituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ta'lim tizimiga shiddat bilan kun sayin kirib kelayotgan yangi metodlar, pedagogik texnologiyalar, innovatsiyalar zamonaviy o'qituvchilar tomonidan dars jarayonida qanday qo'llanishiga doir qimmatli fikrlar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** Innovatsiya, interfaol, alternativ, tarjimon, texnologik diktant.

Interfaol — so'zi inglizcha so'z bo'lib, «inter» — o'zaro va «act» — harakat qilmoq ma'nolarini bildirib, ularning umumiy mazmuni interfaol — ya'ni o'zaro harakat qilmoq ma'nosini anglatadi.

Bunday o'zaro harakat turlariga “o'quvchi — o'qituvchi” va “o'quvchi-o'quvchi”ning maqsadli harakatlarini kiritish mumkin. Interfaol o'qitishda o'qituvchi o'quv faoliyatining faol tashkilotchisi bo'lib, o'quvchi bu faoliyatning sub'ekti sifatida namoyon bo'ladi. Interfaol o'qitish bu bilish faoliyatini rivojlantirishning maxsus tashkiliy shakli bo'lib, interfaol o'qitish jarayonida ta'lim oluvchi o'qitishning ob'ektidan o'zaro hamkorlikning sub'ektiga aylanishi, o'quv jarayonida faol ishtirok etishi bilan tavsiflanadi.

Interfaol usullar asosan bosqichlarga ajratilgan dars jarayonida qo'llaniladi va har birida o'qituvchi o'quvchilarga tegishli topshiriqlar beradi. Bu metodlar va usullar o'quvchida kommunikativ qobiliyatning o'sishiga, o'quvchilar orasida o'zaro aloqa o'rnatilishiga, muammoli vaziyatlar yechimiga, guruhda ishlashni, qolganlarning fikrini tinglay olishni va o'z fikrini mustaqil bayon etishni o'rganibgina qolmasdan, unda o'ziga ishonch, bilimiga tayana olish, qiziqishlarining kuchayishiga, keng fikrlashga olib keladi

Har qanday fan rivojlanishi uchun yangi va zamonaviy metodlar zarur. Shu ma'noda texnologiya hamda tasviriy san'at va chizmachilik fanlarining takomillashishida ham interfaol usullar muhim ahamiyatga egadir.

“Texnologik diktant”-Bunda o'quvchilarga bir necha gapdan iborat matn taqdim etiladi. Har bir gapda bittadan so'z tushirib qoldiriladi. O'quvchi gapdagi tushirib qoldirilgan so'zni topishi kerak.

Masalan: 1. Natyurmort fransuzcha - “j...z tabiat” degan ma'noni bildiradi.

2. Natyurmortda g...lar, m...lar, sa...otlar, uy-ro'zg'or buyumlari, qush va kichik hayvon tulumlari tasvirlanadi.

3. Kompozitsiya – l...cha so'zdan olingan bo'lib, asarning qurilishi, g'oyasi, t...ishi, harakteri ma'nolarini bildiradi.

4. Rahim Ahmedov – O'zbekiston x..q r...omi, tasviriy san'atning portret, manzara va natyurmort janrlarida salmoqli asarlar yaratgan.

5. Tunukani ... po'lat plitada bajariladi.

6. Tunukani qaychi bilan qirqayotganda uning pichoqlari oralig'i ...oshmasligi kerak.

7. Tunukani bukish tiskida maxsus ..... va uskunalar yordamida bajariladi.

8. Qalin sim sandonda ..... yordamida to'g'rilanadi.

t/r	Tasviriy san'at va chizmachilik	t/r	Texnologiya
1	jonsiz	5	To'g'rilash
2	Gullar, mevalar,sabzavotlar	6	0,1mmdan.
3	lotinch	7	Opravkalar.
4	Xalq rassomi	8	Bolg'a

Interfaol metodlarning afzallik tomonlari o'quvchi berilgan mavzu yuzasidan izlanadi, takrorlaydi, o'tilgan mavzuni eslaydi. O'quvchining faolligi oshadi, eslab qolish qobiliyati kuchayadi, egallagan bilimi mustahkamlanadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1.S.Abdirasilov.,N.Tolipov. Dasgohli rangtasvir. “Iqtisod-moliya” T.: 2010

2.Хонбобоев, X. O. Tasviriy san'atni o'qitishda interfaol metodlardan foydalanish / X. O. Хонбобоев, Ф. У. Полатов, М. Х. Икромов. — Текст : непосредственный // Молодой ученый. — 2016. — № 3.1 (107.1). — С. 22-23.



KIMYO DARSLARIDA INTERAKTIV METODLAR

Saidova Mo'tabar Rustamovna

Urganch shahar 11-son umumta'lim maktabining kimyo fani o'qituvchisi.


**Annotatsiya:** ushbu maqolada kimyo darslarida interaktiv metodlardan foydalanish usullari haqida yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** Interaktiv metodlar, kuzatuvchanlik sinovi, bilimlar xovuzchasi.

Pedagogik texnologiyalarning bugungi kunda eng ommaviylashgan turlaridan biri-bu interaktiv metodlardir. Interaktiv metodlar o'quvchi va o'qituvchining birgalikdagi faoliyati bo'lib, asosan o'quvchilarni fikrlarga undaydi. Kerakli xulosalarga kelishni, ular o'zini tahlil qilishni va amaliyotda qo'llashni o'rgatadi. O'qituvchining asosiy vazifasi bu erda o'quvchilarga yo'l ko'rsatish, yo'nalish berish, eng to'g'ri xulosani ayitishdan iborat.

Interaktiv usullar yana shunisi bilan ham ahamiyatli, o'qituvchi o'quvchining fikrini xech qachon keskin rad etmaydi, faqatgina vaqti bilan to'g'ri xulosani aytib o'tib ketadi. Natijada o'quvchi xatosini o'zi tushunib oladi. Bu esa ularni tushkunlikka tushish, fikrlashda tormozlanish kabi xolatlarining oldini oladi. Interaktiv metodlar o'quvchi va o'qituvchi o'rtasidagi o'zaro hurmatga asoslanadi. O'qituvchi qanday bo'lmasin o'quvchining fikrini tinglaydi va hurmat bilan qarashini bildiradi, shu bilan birga o'quvchilarni bir-birlarini tinglashga o'rgatadi. e'tirozlar, qo'shimchalar ham "hurmatli", "sizning fikringizga qo'shilgan holda", "bizning ham ayrim fikrlarimiz bor edi" kabi so'zlar orqali bildiriladi.


**“Kuzatuvchanlik sinovi”:** bu usulni kimyoviy elementlar, atom tuzilishi, davriy sistema va barcha mavzularda qo'shimcha so'rov o'tkazishda qo'llash mumkin. Ushbu usulni qo'llash uchun quyidagi ko'rgazmadan foydalanamiz (1-rasm), yani katta plakatga 60-80 ta kimyoviy elementlar belgisini kattaroq qilib, har bir element ustiga kichkina qilib (darrov ko'zga tashlanmaydigan qilib) tartib raqamini qo'yib chizib chiqamiz. Kimyoviy elementlar D.I. Mendeleevning davriy jadvalidan ketma-ket tartib raqami bilan plakatning kattaligiga qarab tanlanadi, lekin plakatga chizgan paytda kimyoviy elementlar betartib joylashtiriladi va plakat ustiga “Kuzatuvchanlik sinovi” deb yozib qo'yiladi. Bu usul o'yin tarzida yuqorida ko'rsatilgan mavzularda, guruhlar ichida guruh sardorlari ichida yoki har bir darsda o'quvchilarni davriy jadvalga ko'nikma hosil qilish maqsadida qo'llash mumkin. Bunda 1 ta o'quvchi doskaga chiqib 1 minut vaqt ichida kimyoviy elementlarning tartib raqamiga qarab birin- ketin nomlashi shart, vaqt tugagach 1-o'quvchi tugatgan joydan 2-o'quvchi tartib raqamlarni adashtirmasdan kema- ket topadi, qolgan o'quvchilar o'z guruhiga raqamlar ichidagi ketma-ketlikni topishda elementlar nomini aytib yordam berishlari mumkin. Agar 1-minut vaqt mobaynida qaysi o'quvchi eng ko'p elementni topa olsa shu o'quvchi yuqori o'rin yoki ball bilan baholanadi. Bu usul bilan o'qituvchi o'quvchilarni doimo davriy jadval bilan muloqatda bo'lishlarini va kimyoviy elementlar belgisini yodlashni qiziqarli tarzda olib borilishini ta'minlaydi.



1-rasm



“**Bilimlar xovuzchasi**” : bu usuldan umumlashtiruvchi darslarda yoki o‘tilgan 2-3 ta mavzuni mustahkamlash maqsadida qo‘llash mumkin. Ushbu usulni qo‘llash uchun quyidagi ko‘rgazmadan foydalanamiz(2-rasm),yani katta plakatni teng bo‘lib(eni 30 sm, bo‘yi 50 sm) 5 ta cho‘ntakcha joylab chiqamiz, chontaklar 1tasi o‘rtada qolgan 4 tasi 4 tomonga teng taqsimlanadi. O‘rtadagi chontakni konvert shaklida yasab ichiga 20 ta kartochka joylashtiriladi. Agar ko‘rgazmani “Anorganik birikmalrning eng muhim sinflari “ mavzusini mustahkamlashda qo‘llasangiz, 4 ta chontakcha ustiga 1 tasiga oksid, 2-ga asos,3-ga kislota,4-ga tuzlar deb yoziladi va o‘rtadagi konvertga shu mavzularga doir formulalar yoki qoidalar aralash holda joylashtiriladi va ustiga “Bilimlar xovuzchasi” deb yoziladi.( Bu usulni guruhlar ichida qo‘llash yanada qiziqarli o‘tadi.) Keyin guruhdagi o‘quvchilarga konvertdagi kartochkalarni olib har birini mavzusiga qarab joylashtirishlari kerakligi aytiladi. Har bir cho‘ntak ichida 5 tadan kartochka to‘gri solinganligiga qarab baholanadi.Korgazmani bunday nomlanishiga sabab, o‘rtadagi konvert ramziy ma‘noda “xovuzcha” hisoblanib, o‘quvchilar bu “xovuzdan baliqlarni turlariga qarab chelaklarga joylashtirishi kerak”-degan ma‘noda tushuntiriladi. Bunda o‘quvchilar darsga yanada qiziqish bilan qaraydilar. Bu usuldan bir bobni tugatganda, chorak oxirida, yil oxirida mavzularni takrorlash maqsadida foydalanish mumkin.



2-rasm

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Сербин А. Г. и др. Медицинская ботаника. Учебник для студентов вузов. —Харьков: Изд-во НФаУ: Золотые страницы, 2003. — С. 147.
2. Андреева И. И., Родман Л. С. Ботаника. — 3-е изд., перераб. и доп. — М.: Колос, 2005. — С. 409



TARIX FANINI O‘QITISHDA ILMIY PEDAGOGIKANING O‘RNI

Sapayeva Shohista Mohmudovna  
Xorazm viloyati Urganch shahar  
4- son umumta’lim maktabning  
tarix fani o‘qituvchisi

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada tarix fanini o‘qitishning o‘ziga hos xususiyatlari va bu fanni o‘rgatishda ilmiy pedagogikaning o‘rnini ko‘rib chiqiladi. Shuningdek ilmiy pedagogikaning turli metodlari va zamonaviy metodlari tahlil qilinadi.

**Kalit so‘zlar:** pedagogika, ilmiy pedagogika, gipoteza, innovasion, g‘oya, mafkura, kuzatish metodi, gipoteza qilish usuli, o‘zlashtirish, qo‘llanilish usuli.

O‘zbekistonning davlat mustaqilligini qo‘lga kiritishi tufayli xalqimizning asriy orzusi ushaldi, o‘z taqdiri va kelajagini o‘zi yaratadigan bo‘ldi. Tarixan qisqa davrda jamiyatimiz ijtimoiy siyosiy hayotining barcha sohalarida keskin burilish yasaldi. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish, faol demokratik yangilanishlarni amalga oshirish bilan bog‘liq qator islohotlar o‘tkazildi. Jumladan, ana shu buyuk o‘zgarishlarni asrlar davomida orzu qilgan xalqimizning ko‘hna tarixiga bo‘lgan munosabati tubdan o‘zgardi. Ayniqsa, bugungi murakkab globallashuv davrida ma’naviyat sohasida vujudga kelayotgan dolzarb muammolar, xalqimiz ma’naviyatini asrash va yanada yuksaltirish, yosh avlodning qalbi va ongini turli zararli g‘oya va mafkuralar ta’siridan saqlash va himoya qilishda Vatan tarixini har tomonlama va chuqur tadqiq etish, birlamchi manbalarga tayanib talqin etish, kelajak avlodga haqiqiy tariximizni o‘qitish orqali ularni yuksak ma’naviyatli shaxslar etib tarbiyalash dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Tarixni o‘qitishda ilmiy pedagogik usuldan foydalanish tushunish va ishtirok etish qobiliyatini rivojlantiradi. Har o‘quv yili boshida men o‘quvchilarimdan: “Nega biz tarixni o‘rganamiz?” degan savol bilan yuzlanaman. Javob odatda “Biz o‘tmishdagi xatolarni takrorlamasligimiz uchun” degan javob olaman. Tarixiy voqealarning axloqiy, siyosiy va ijtimoiy murakkabliklarini tushunish – bu jamiyatni hozirgi vaqtda yaxshiroq qaror qabul qilishimizga yordam beradi. Lekin qanday qilib biz o‘z sinfimizda real hayotda bunday ta’limni targ‘ib qila olamiz? Tarixiy so‘rovlaridan foydalanish, xuddi ilmiy uslub singari, tushunish va jalb qilishni yaxshilaydi. Tarix fanini o‘qitishda bir nechta pedagogik metodlardan foydalanish dars samaradorligini oshiradi. Ushbu metodlar quyidagilardan tashkil topgan:

**Bashorat qilish usuli.** Biz tez-tez gipoteza so‘zi faqat fan darsida ishlatiladi deb o‘ylaymiz, lekin tarixchilar ham bashorat qilishadi. Tarix darsini tezis bilan boshlashning o‘rniga, tarixiy gipoteza bilan tadqiqot faoliyatini boshlang. Savol- javobni sinf uchun tuzgandan so‘ng, har bir o‘quvchi individual gipotezani yozadi. Biz yaqinda Fuqarolar urushi bo‘limini tugatganimiz sababli, ko‘plab o‘quvchilar: “Qayta qurishni ma’qullaydigan shimoliy shtatlar ko‘proq yodgorliklar yaratdilar, chunki ular urushda g‘alaba qozonganlarini eslashni xohlashdi”, deb taxmin qilishdi. Ba’zi o‘quvchilar o‘z bashoratlarini Sharlottesvildagi tartibsizliklar haqidagi bizning hozirgi voqeamiz bilan bog‘lab, shunday taxmin qilishdi: “Qayta tiklanishni ma’qullamagan janubiy shtatlar o‘z yodgorliklarini yaratdilar, chunki ular halok bo‘lgan askarlarini ulug‘lashni xohlashdi. Shimoliy shtatlar ko‘p yodgorliklar qurishni xohlamaydilar, chunki Shimoliy urushda g‘alabani nishonlashdan ko‘ra, mamlakatni birlashtirishga e’tibor qaratmoqchi edi”.

Bashorat qilish o‘quvchilarni tarixiy empatiyani o‘rganishga undaydi. Turli odamlar tarixiy voqeani qanday qabul qilishdi? Nima uchun? O‘quvchilar dalilni isbotlovchi ma’lumotni topishga urinishning o‘rniga, faraz yaratib, dalillar ularga nima deydi, deb hayron bo‘lishadi: Ma’lumotlar mening bashoratimga to‘g‘ri keladimi yoki menga oldindan aytmagan narsani ko‘rsatadimi? O‘quvchilarning dalil topishga bo‘lgan faolligini oshirish uchun o‘qituvchilar o‘quvchilardan o‘z manbalarini topishni so‘rashlari mumkin. Masalan, mening sinfimdagi o‘quvchilar guruhi fuqarolar urushi yodgorliklari qayerda joylashganligini tushunishga dalil topdilar. Ma’lumot yig‘ish o‘quvchilarga manbalar bilan shug‘ullanish va o‘z farazlari bilan bog‘liqlikni ko‘rish imkonini beradi. Bu so‘rovga asoslangan ssenariyda javob sir bo‘lib qoladi va o‘quvchilar eski xulosalarni takrorlash o‘rniga yangi xulosalar chiqarishga sarmoya kiritadilar.

**Ma’lumotlarni tahlil qilish va xulosalarni ishlab chiqish usuli.** Tarix o‘qituvchilari sifatida biz o‘quvchilarni manbalarni tahlil qilishga va manba tahlilini tarixiy kontekst bilan bog‘lashga



ko'nikamiz. Men o'z o'quvchilarim bilan ma'lumotlarni tahlil qilish iborasini ishlatishni yaxshi ko'raman, chunki bu ularni ma'ruzada aytganlarimni takrorlashga xalaqit beradi va ularni tarixchilarga aylantiradi, ular haqiqiy tarixiy tadqiqot deb hisoblaydi. Masalan, mening ko'plab o'quvchilarim shtatlar fuqarolar urushi yodgorliklari qurilgan bir vaqtda Jim Krou qonunlarini qonuniylashtirganini bilishdi. Tarixni o'rgatish uchun ilmiy-pedagogik usuldan foydalanish - moslashuvchan, takrorlanadigan yondashuv. Bu o'quvchilarni tanqidiy fikrlash va baholashga jalb qilgani uchun, bu usul tarix darsining yakuniy natijasi esda qoladigan narsa emas, balki nima qilish kerakligi haqiqatini mustahkamlaydi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:**

1. Karimov I.A. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. T.7. –T.:O'zbekiston, 1999.
2. Oblomurodov N., va boshqalar. O'zbekiston tarixi. O'quv qo'llanma. –T.: Yangi asr avlodi, 2011.
3. Usmovov Q. va boshqalar. O'zbekiston tarixi. Darslik. –T.: Sharq, 2007.



## TEKNOLOGIYA FANINI O‘QITISHDA TA’LIM-TARBIYA JARAYONINI MULTIMEDIA VOSITALARI ORQALI RIVOJLANTIRISH

**Mayliyev Umidbek Bozorboy o‘g‘li**

Xorazm viloyati Urganch shahar

4- son umumta’lim maktabining  
texnologiya fani o‘qituvchisi

**Annotatsiya:** Zamonaviy ta’lim texnologiyalari o‘qitishning turli usullarini qo‘llashga, shu jumladan axborot kommunikatsion texnologiyalardan foydalanishga katta xizmat qiladi. Bugungi kunda o‘quvchilarga texnologiya fanining sir-sinoatlarini o‘rgatishda va o‘g‘il-qizlarni hayotga tayyorlashda darslarni multimedia vositalaridan foydalangan holda tashkil qilish ijobiy samara beradi.

**Kalit so‘zlar:** Mustaqillik, islohotlar, ta’lim-tarbiya, axborot kommunikatsiya texnologiyalari, multimedia, komputer texnologiyasi, matn, grafika, rasm, tovush, animatsiya, video, multimedia mahsuloti, multimedia texnologiyasi, nutq, rasm, chizma, tasvir, musiqa, raqam va harflar, o‘qituvchi, o‘quvchi, INTERNET, “ommaviy madaniyat”, globallashuv,

Mustaqillik yillarida amalga oshirilayotgan islohotlar har bir sohada o‘zining mahsulini bera boshladi. Shu jumladan, ta’lim-tarbiya sohasida ham qator o‘zgarishlar sodir bo‘ldi. Bu o‘zgarishlar davlat tomonidan isloh qilinayotgan qonunlar, qarorlar natijasidir. Hozirgi zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalari ildamlab borayotgan bir vaqtda fanni o‘qitishda, o‘quvchilarga ta’lim-tarbiyani shakllantirib, rivojlanishiga ijobiy xizmat qilishga multimedia vositalarining o‘rni beqiyosdir.

Multimedia (multimedia-ko‘p muhitlilik) – bu komputer texnologiyasining turli xil fizik ko‘rinishiga ega bo‘lgan (matn, grafika, rasm, tovush, animatsiya, video va hokazo) va turli xil tashuvchilarda mavjud bo‘lgan magnit va (optik disklar, audio va video lentalar va hokazo) axborotdan foydalanish bilan bog‘liq sohasidir.

Multimedia-komputerda axborotning turli xil ko‘rinishlari: rangli grafika, matn va grafikda dinamik effektlar, ovozlarning chiqishi va sintezlangan musiqalar, animatsiya, shuningdek to‘laqonli videokliplar hamda videofilmlar bilan ishlashdir.

**Multimedia mahsuloti**-tarkibida musiqa taraladigan, videokliplar, animatsiya, rasmlar va slaydlar galeriyasi, turli ma’lumotlar bazalari va boshqalar kirishi mumkin bo‘lgan interfaol, komputerda ishlangan mahsulotdir.

**Multimedia texnologiyasi** axborotni bir vaqtning o‘zida insonga tushunarli, ko‘p shakllar (jumladan, nutq, rasm, chizma, tasvir, musiqa, raqam va harflar) kombinatsiyasida havola qila oladi. Bu texnologiya axborotni yaxlit computer tizimiga birlashtirish imkonini yaratadi.

Multimedia tizimlarining jadallik bilan rivojlanishiga shaxsiy komputerlarning imkoniyatlarini kengayganligi va texnik, dasturiy vositalarining rivojlanishi sabab bo‘ldi.

Texnologiya darslarida multimediadan foydalanilganda bir qancha afzalliklarga erishiladi:

- O‘qituvchi asosan, nazoratchi vazifasini o‘taydi;
- O‘qituvchining quvvati tejaladi;
- O‘quvchilar eshitgandan ko‘ra ko‘rgan jarayonlarini ko‘proq esda saqlaydilar;
- Turli xil rangli tasvirlar, ijodkorlik o‘quvchini o‘ziga jalb qiladi;
- O‘qituvchini ham, o‘quvchini ham interfaolligi oshadi;
- Ovozli videotasmalar o‘quvchilar diqqatini o‘ziga tortadi;
- O‘quvchi multimedia orqali ko‘rgan jarayonini amaliyotda yaxshiroq bajara oladi;
- O‘quvchida axborotlarni o‘zlashtirishi samarali bo‘ladi;
- O‘quvchida o‘z-o‘zini rivojlantirish kompetentligi rivojlanadi;
- O‘quvchi yoshlarni hayotga tayyorlashda yuqori samaradorlikka erishiladi.

Hozirgi davrda INTERNET saytlaridan foydalanish avj olgan bir pallada, bundan tashqari “ommaviy madaniyat” globallashuv darajasiga yetgan vaqtda o‘quvchi yoshlarning ta’lim va tarbiyasiga katta ahamiyat berib, ularni to‘g‘ri yo‘lga yo‘naltirishda pedagoglarning o‘rni beqiyosdir.

Texnologiya fanini o‘qitishda multimedia vositalari orqali o‘g‘il bolalarga -metallga ishlov berish, yog‘ochga ishlov berish, o‘ymakorlik, duradgorlik, uy-ro‘zg‘or buyumlarini tuzatish, turli



texnik vositalarni yasash va boshqa ro‘zg‘orni yuritish qoidalarini o‘rgatish mumkin.

Qizlarga esa tikuvchilikning sir-asrorlarini, dizayn san’atining turli yo‘nalishlarini, pazandachilikning turli tarmoqlarini, uy-ro‘zg‘or ishlarini, oilani anjomlarini qanday asrab-avaylash kerakligini va boshqa muhim jarayonlarni o‘rgatishga multimedia vositalari ijobiy xizmat qiladi.

O‘quvchi yoshlar dars jarayonida multimedia vositalari yordamida o‘rganganlarini darsning o‘zida o‘qituvchi boshchiligida birgalikda muhokama qilib, tahlil qilib, o‘zaro fikr almashib, ta’lim va tarbiyalari tobora shakllanib, rivojlanib boradi. Bu jarayondan ko‘rgan va o‘rganganlarini uyga borganda amalda sinab ko‘rishga harakat qiladilar. Shunday qilib, ularda ta’lim va tarbiyaning elementlari rivojlanib, boyib boradi.

Shunday ekan, texnologiya fanini o‘qitishda multimedia vositalaridan foydalanib, darsni samarali tashkil qilishga, yoshlar ongini ijodkor g‘oyalar bilan to‘ldirishga, ularni mehnatsevarlikka, adolatli bo‘lishga, chin inson bo‘lib yetishishlariga imkon qadar harakat qilmog‘imiz kerak. Zero kelajak yoshlar qo‘lidadir.

#### **Adabiyotlar:**

1. Tursunov S.Q. “Ta’limda axborot kommunikatsiya texnologiyalarlar”. Toshkent. 2017
2. Internet saytlari
3. Ishmuhammedov R. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta’lim samaradorligini oshirish yo‘llari. – T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2009 y.



## KIMYO FANIDA YANGI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYA ASOSIDA DARSLARNI TASHKIL ETISH METODIKASI

**Raximova O'g'iljon Kurbanovna**

Urganch shahar 4-son umumta'lim maktabining  
kimyo fani o'qituvchisi.

**Annotatsiya:** Maqolada kimyo fanini o'qitishda yangi metodlarning usul va uslubari, o'ziga xos samaradorligi keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** tibbiyot, sanoat, texnika va texnologiya, qishloq xo'jaligi, laboratoriya.

Kimyo fani insoniyat taraqqiyotida katta o'rin tutadi. Tibbiyot, qishloq xo'jaligi, yengil sanoat, umuman, barcha sohalar rivojida mazkur fan olamida erishilgan yutuqlar yotadi. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida kimyo fanini o'qitishdan asosiy maqsad esa o'quvchilarda fan va texnikani o'rganishga qiziqish uyg'otish, pirovardida, intellektual salohiyatli avlodni voyaga yetirishdan iboratdir.

Hozirgi kunda o'qitish jarayonida ilg'or, zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanib darslarni tashkil etish maqsadga muvofiq. Xususan, mahoratli o'qituvchilar tajribasi asosida o'quv -laboratoriya jihozlaridan samarali foydalanish, amaliy mashg'ulotlar o'tkazish, to'garak ishlari sifatini oshirish davr talabidir.

Kimyo fani ta'limida yuqori samaradorlikka erishish, fan yo'nalishidagi yangiliklarni izlab topish va ta'lim jarayoniga tatbiq etish, o'quvchilarning fanga qiziqishini oshirib, hozirgi zamon fan va texnikasini o'rganishga intilishlarini o'stirish o'qituvchi zimmasiga katta mas'uliyat yuklaydi. Shu bois 2021-2022-o'quv yili oldidan o'tkaziladigan an'anaviy avgust kengashi sho'ba yig'ilishlarida qatnashchilar quyidagilar haqida fikr almashishlari maqsadga muvofiq:

– kimyoga oid nazariy bilimlarni tajribalar orqali isbotlash, sinfar kesimida har bir mavzu asosida keltirilgan laboratoriya mashg'ulotlarini talab darajasida o'tkazish;

– kimyo darslarida zamonaviy o'quv-laboratoriya jihozlaridan samarali foydalanish, tugab qolgan kimyoviy moddalar va yaroqsiz holga kelgan jihozlarning o'rnini qayta to'ldirishga buyurtmalar berish tartibi;

– hududlarda tashkil etilgan “Mahorat maktablari” o'qituvchilari tomonidan zamonaviy pedagogik, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (elektron darsliklar, elektron qo'llanmalar, o'quv filmlar, virtual laboratoriya ishlari va animatsion ko'rgazmali tajribalar, videodars lavhalari), plakatlar to'plamlaridan foydalanib, ko'rgazma-namoyishli darslarni o'tkazish;

– murakkab mavzularni o'rgatish hamda masalalar yechishning turli usullari yuzasidan tavsiyalar berish .

O'quvchilarga davlat ta'lim standartlari talablariga javob beradigan darajada bilim va ko'nikmalarni shakllantirish uchun zamonaviy texnologiyalari usullaridan keng va samarali foydalanish zarurati kundan kunga oshib bormoqda Bu esa har bir o'qituvchidan o'z ustida tinimsiz ishlashini , ta'lim berishning barcha usul va metodlarini muvafaqiyatli o'zlashtirib olishga intilishi kerakligini taqozo etadi.

Dars jarayonlarida yuqori samaradorlikka erishish uchun quyidagi metod va usullardan foydalanish mumkin:

1. Bahslar. O'quv guruhni ikki komandaga bo'lgan holda , biror mavzu bo'yicha o'zaro bahs , fikr almashinuv tarzida o'tkaziladi.

2. O'yinlar. Ishbilarmonlik yoki vaziyatli o'yinlar – muammoli vazifaning bir turidir. Faqat bu o'rinda matnli material o'rniga o'quvchilar tomonidan rollar o'ynaladigan hayotiy vaziyat saxnalashtiriladi.

3. Kitob bilan ishlash. Ushbu usul ta'lim oluvchining o'quv materialini mustaqil o'zlashtirishini o'z-o'zini tekshiruv malakalarini , berilgan matnning mazmunini to'liq va ongli ravishda bayon etishga qaratilgan usuldir.

4. Individual (amaliy) usul. Ta'lim oluvchining faoliyatida olingan bilimlarini amaliy vazifani yechishga qaratadilar. Bu usul nazariy olingan bilimlarni amaliyotda tadbiq qilishdir.

5. Davra suhbat. Ta'lim oluvchilar davra stolid o'tirib ,bir-birlarining savollariga konvert orqali javob yozadilar.

“Aqliy hujum”, “muammoli vaziyat “, bahs-munozara, tadqiqot, davra suhbat, kichik



guruhlarda ishlash, ajurli arra, kitob bilan ishlash usullari bunga misol bo`ladi. Yuqoridagi ta`lim vositalari o`qituvch uchun o`quvchi uchun hamda dars o`tkazish uchun alohida variantlarni to`gri tanlash muhim ahamiyatga ega .

O`qituvchi uchun vositalar: o`quv predmetini o`qitish metodikasi bo`yicha qo`llanmalar, shaxsiy metodika murakkab masalalar bo`yicha metodik tavsiyalar, o`qituvchilar tomonidan tayyorlangan metodik ishlanmalar. Aqliy hujum qiyin vaziyatlardan qutilish choralarini topishga , muammoni ko`rish chegarasini kengaytirishga, fikrlash bir xilligini yo`qotishga va keng doirada tafakkurlashga imkon beradi. Eng asosiysi, muammoni yechish jarayonida kurashish muhitidan ijodiy hamkorlik faoliyatiga o`tadi va guruhi yanada ahillashadi. Qo`llash maqsadiga ko`ra bu metod universal hisoblanib tadqiqotchilarda (yangi muammoni yechishga imkon yaratadi). O`qitish jarayonida (o`quv materiallarini tezkor o`zlashtirishga qaratiladi) rivojlantirishda ( o`z – o`zini birmuncha samarali boshqarishda asosida faol fikrlash shakllantiriladi) asqotadi .

**Alkanlar mavzusini o`qitishda aqliy hujum usuli.** Aqliy hujum usulini organik kimyo kursida qo`llash biroz keyingi mavzularda mos keladi, chunki o`quvchilar organik birikmalar to`g`risidagi dastlabki tushunchalarga ega bo`lishlari kerak. Shunday bo`lsada uni soddaroq o`yinlar ko`rinishida tashkil qilish mumkin.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:**

1. Kimyo metodikasi .TDPU 2011
2. Kimyo va biologiya texnologiyalari metodlari2 SAMDU 2006
3. 10 sinf Organik kimyo fani 2019



**TEKNOLOGIYA FANINI O‘QITISHDA AXBOROT KOMMUNIKATSIYA  
TEKNOLOGIYALARIDAN SAMARALI FOYDALANISH**

**Ibraximova Sevara Ataxanovna**

Xorazm viloyati Urganch shahar

4- son umumta’lim maktabining

texnologiya fani o‘qituvchisi

**Annotatsiya:** maqolada yangi innovatsion yangiliklar, o‘quvchilarga inovatsion dars berishning samarasi, texnologiya fanida inovatsiyalar.

**Kalit so‘zlar:** pedagogik yangiliklar, texnologiyalar, innovatsion faoliyat, sotsial-ijtimoiy birlik, innovatsion maqsad, innovatsion muhit.

Ta’lim to‘g‘risidagi va Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi qonunlarida pedagogik texnologiyalarni joriy qilish va o‘zlashtirish zarurligi ko‘p karra takrorlanadi. Jumladan, Ta’lim to‘g‘risidagi Qonunining 26-moddasida ta’limni boshqarish bo‘yicha maxsus vakolat berilgan davlat organlarining xuquq doirasiga “ o‘qitishning ilg‘or shakllari va yangi pedagogik texnologiyalarni, ta’limning texnik va axborot vositalarini o‘quv jarayoniga joriy etish” masalasi kiritilgan bo‘lsa, Kadrlar tayyorlash milliy dasturida esa “ ta’lim berishning ilg‘or pedagogik texnologiyalarini, zamonaviy o‘quv uslubiy majmualarni yaratish va o‘quv-tarbiya jarayonini didaktik jihatdan ta’minlash” zarur ekanligi belgilab qo‘yilgan.

O‘z-o‘zidan savol tug‘iladi: Pedagogik texnologiyalarning o‘zi nima va u an’anaviy ta’lim metodlaridan nimasi bilan farqlanadi?

Hozirgi kunda pedagogik adabiyot, ta’lim muammolariga oid ma’ruzalar, rasmiy hujjatlarda Yangi pedagogik texnologiya, Ilg‘or pedagogik texnologiya, Zamonaviy pedagogik texnologiya” iboralari keng qo‘llanilmoqda. Ammo Pedagogik texnologiya tushunchasi hali ham bir qolipga tushirilmagan, qomuslarda izohlanganicha yo‘q, uning mazmunini yagona talqini ishlab chiqilmagan va shuning uchun iboraning bir-biridan farqlanuvchi ko‘pgina ta’rifari mavjud. Bularning orasida e’tiborga loyiqrog‘i YUNESKO ta’rifidir: “Pedagogik texnologiya – bu ta’lim shakllarini optimallashtirish masalasini qo‘yuvchi, texnik va insoniy imkoniyatlarni va ularning o‘zaro munosabatlarini hisobga olib o‘qitish va bilimlarni o‘zlashtirish butun jarayonini yaratish, qo‘llash va belgilashga sistemali yondashishidir”.

Pedagog o‘z oldiga qo‘ygan maqsadga erishganligini qanday biladi?

Pedagogik maqsadlarga erishganlik yoki erishmaganlikni bilishning aniq vositalari bo‘lgandagina, pedagog o‘zining mehnati samarali ekanligiga va tanlagan uslublari maqsadga muvofiqligiga yoki, aksincha, samarasiz ekanligiga ishonch hosil qilishi mumkin. Odatdagi o‘qitish uslubini tadqiq qilishda pedagogik texnologiya tarafdorlari aynan shu narsani nazarda tutishgan edi.

O‘quvchilarda kompetensiyalarni shakllantirishda pedagogik texnologiyani qaysi tomondan tahlil qilmaylik, uning asosi ta’lim samaradorligini oshirishga, ya’ni kam vaqt sarfab, ko‘proq sifatli natijaga erishishga qaratilgandir.

Qo‘llanadigan pedagogik texnologiya natijasi esa, pedagogning mahoratiga, pedagogik klassifikatsiya turlaridan mohir foydalana olishiga, ilmiy-kasbiy shaxsiy xususiyat hamda insoniy fazilatlariga bog‘liqdir.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda quyidagi pedagogik texnologiyaning asosiy tarkibiy qismlariga oid slaydlarni keltirmoqchimiz.

Texnologiya faniga axborot kommunikatsiya texnologiyalarini tadbiq etish orqali ta’lim samaradorligini oshirishda elektron axborot-ta’lim resurslari katta ahamiyatga ega hisoblanadi.

Elektron axborot-ta’lim resursi – o‘rganish va ta’lim berish uchun qulay tarzda shakllantirilgan, ilmiy jihatdan tizimlashtirilgan, turli yoshdagi va ta’lim olis darajasidagi o‘quvchi va o‘qituvchilarga mo‘jallangan, ma’lum bir fanni o‘rganish uchun mantiqiy ketma-ketlikda shakllantirilgan elektron axborot manbalari majmuasidir.

O‘quvchilar texnologiya fani jarayonida materialshunoslik, asbob-uskunalar, moslamalar va ulardan foydalanishga oid bilimlarni o‘zlashtiradilar.

Mahsulot ishlab chiqarish va uy-ro‘zg‘or buyumlarini ta’minlashga oid ko‘nikma va malakalarga ega bo‘ladilar.

Ijodkorlik – bu yangi g‘oyaga asoslangan moddiy va ma’naviy boyliklarni yaratishdir. Ijodiy



faoliyat tufayli insoniyat madaniyati rivojlanib, taraqqiy etib, hayotimiz yanada qulay va qiziqarli bo‘lib bormoqda. Sizni o‘rab turgan barcha buyumlar, jihoz va uskunalar ijodkor insonlar tomonidan yaratilgan texnik vosita vatexnologiyalarning mahsuli hisoblanadi. Ular mehnati natijasida ulkan samolyotlar zamonaviy avtomobillar, katta imkoniyatlarga ega kompyuterlar va biz uchun qadrliboshqa ne‘matlar yaratilgan. O‘quvchilarimiz ham kelajakda voyaga yetib, tanlagankasbini mukammal egallab, bu taraqqiyotga o‘z hissanlarini qo‘shadilar.

Texnologiya fanining — Texnologiya va dizayn va Servis xizmati yo‘nalishlarining turli mavzulari bo‘yicha murakkabroq ishlarni bajaradilar. Bundan men o‘z darslarimda foydalanishga harakat qilaman va Dizayn yo‘nalishini tanlasam o‘quvchilarga dizaynning yangi usullaridan foydalanib dars o‘tishni o‘z oldimga maqsad qilib qo‘yganman.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. Karimov I.A. Yuksak ma‘naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma‘naviyat, 2008. – 176 b.
2. Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi. Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.: Sharq, 1998 y.
3. Ta‘lim to‘g‘risidagi Qonun. Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.: Sharq, 1998 y.
4. Ishmuhamedov R. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta‘lim samaradorligini oshirish yo‘llari. – T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2009 y.



## FAN TO‘GARAKLARI ORQALI O‘QUVCHILARNI MUSTAQIL FIKRLASHGA O‘RGATISH VA MASHG‘ULOTLARINI TASHKIL ETISH USULLARI BO‘YICHA USLUBIY TAVSIYALAR

**Kobilova Madina Kamolitdin qizi,**  
Navoiy shahar 5-IDUM rus tili  
fani o‘qituvchisi  
**Djumayeva Marjona Rustamovna**  
boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada o‘quvchilarni bo‘sh vaqtlarini mazmunli tashkil etishda to‘garaklarning o‘rni, mashg‘ulotlarni tashkil etishda foydalaniladigan usullar bo‘yicha uslubiy tavsiyalar ko‘rsatib o‘tilgan.

**Kalit so‘zlar:** fan to‘garaklari, badiiy to‘garaklar, besh tashabbus,, mustaqil fikrlash, tasavvur...

Har qanday davlatning tarixiy taraqqiyot yo‘lidan ma’lumki, yurtning jadal rivojlanishi, muayyan yutuqlarga erishishi, xalqning farovon bo‘lishi o‘sha davlatda yoshlar ta’lim-tarbiyasi va kelajagiga beriladigan e’tibor darajasiga bog‘liq. Shu ma’noda, O‘zbekistonda yoshlar masalasi davlat siyosatining eng ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Ma’lumki, o‘quvchilarning asosiy vaqti maktablarda ta’lim-tarbiya olish bilan o‘tadi. Kelajakka qadam ham aynan maktab davridan boshlanadi. Agar biz maktabda har bir o‘quvchini bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etilishida ko‘makdosh bo‘lsak, ota-ona bilan bu borada birlashsak, oqil-u dono, yurt koriga yaraydigan yoshlar – kelajak bunyodkorlari taqdiriga dahldor bo‘lamiz. Sinfdan tashqari ishlar shaxsni har tomonlama kamol toptirish va uni hayotga, aktiv faoliyatga tayyorlash uchun keng imkoniyatdir.



Mana shu jarayonda davlat rahbari tomonidan tarixiy ahamiyatga ega bo‘lgan tashabbus, ya’ni ijtimoiy, ma’naviy-ma’rifiy sohalaridagi ishlarni yangi tizim asosida yo‘lga qo‘yish bo‘yicha 5 ta muhim tashabbus ilgari surildi. Birinchi tashabbus yoshlarning musiqa, rassomchilik, adabiyot, teatr va san’atning boshqa turlariga qiziqishlarini o‘shishiga, iste’dodini yuzaga chiqarishiga, farzandlarimizni san’atga oshno qilib, yuksak did sohibi etib tarbiyalashga xizmat qiladi. Kamolotga yetaklovchi ushbu tashabbus doirasida maktablarda tashkil etilgan to‘garaklar — o‘quvchi yoshlarni birlashtirishga undash bilan birga mustaqil fikrlashlari uchun ham eng katta maktab vazifasini o‘taydi.

Bizning fikrimizcha, to‘garaklarda o‘quvchini erkin fikrlashi, erkin muloqot qilishi, o‘z mahoratini shakllantirishi uchun shart-sharoit yaratish lozim. ”Bu nimalarda namoyon bo‘ladi?” - degan savolga javob topish kerak. Savolning javobi esa, noan’anaviy materiallar va texnikalar yordamida mashg‘ulotlarni tashkil etishda namoyon bo‘lishidadir. Masalan, o‘quvchida o‘ziga bo‘lgan ishonchni yuzaga keltirish uchun ”Zinama-zina” usuli samarali usul deb o‘ylaymiz. Imloiy savodxonlikni o‘rgatuvchi to‘garak mashg‘ulotlarida bu usuldan foydalanish ”oddiydan



murakkabga” qadam tashlash kabi tashkillashtiriladi. Bunda o‘quvchilar kichik guruhlariga bo‘linib, dastlab yozilishi va aytilishi bir xil so‘zlarni, so‘ng esa aytilishi va yozilishi bir-biridan farq qiluvchi so‘zlarni yozish malakalarini shakllantirish bo‘yicha bahslashishadi.

O‘quvchi nutqini shakllantirish, o‘zi uchun mavhum bo‘lgan tushunchalarni tengdoshlari va o‘qituvchi ko‘magida o‘rganib olish imkoniyatini yaratuvchi jarayon fan to‘garaklari bo‘lib, mashg‘ulotlar jarayonida **“Zararli odatlar muzeyi”, “Qora quti”, “Yumaloqlangan qor o‘yini”** usullaridan foydalanish ham mustaqil fikrlash va erkin fikrini bayon era olishga undaydi. **“Zararli odatlar muzeyi”** usulida o‘quvchilar kichik guruhlariga bo‘linib, “Direktor”, “O‘qituvchi”, “O‘quvchi”, “Ota-ona” guruhlariga ajratiladi. Har bir guruh o‘zlari tanlagan obrazlariga xos bo‘lgan zararli odatlarni qog‘ozga yozish yoki rasmda tasvirlash orqali ko‘rsatib, muzeyga topshirishadi. Masalan: ta’lim-tarbiya olishlarida ota-ona e’tiborsizligi, o‘qituvchilarning munosabati, o‘quvchi sifatida nimalarga e’tibor bermayotganliklari. Shundan so‘ng, o‘qituvchi bu illatlardan qutilish o‘z qo‘llarida ekanligi xususida trening tashkil etsa ham maqsadga muvofiq bo‘ladi.

**“Qora quti” usuli** o‘quvchilarga mavzuni o‘zlashtirishi uchun juda samarali usuldir. Ushbu usul vositasida juftlik asosida quyidagi harakatlar tashkil etiladi: o‘quvchilar navbat bilan boshqaruvchi rolini bajaradilar. Sinf taxtasiga mashg‘ulotda o‘rganilgan mavzu yuzasidan savollar yoziladi, dastlab boshqaruvchi rolini bajarayotgan o‘quvchi qayd etilgan savollarga asosiy tushunchalar kiritilganligini tekshiradi. So‘ngra o‘quvchilardan sinf taxtasida yozilgan savollarga javob so‘raydi, to‘g‘ri javob bera olgan o‘quvchi boshqaruvchi lavozimimi bajaradi. O‘quvchilarda boshqaruvchilik qobiliyatini oshirish va sinfda boshqaruvchi bo‘lish uchun qora qutiga tushmaslik, ya’ni, savollarga to‘liq javob berishga intilish, mavzuni diqqat bilan tinglash va mustaqil ishlash ko‘nikmalarini shakllantirish ushun bu usul samaralidir.

**“Yumaloqlangan qor o‘yini”** usuli ham mavzuni o‘rganish uchun ma’qul usul. Bunda o‘quvchilar kichik guruhlariga bo‘linib, raqamlangan va yumaloqlangan qor shaklidagi tarqatmalardan birini tanlashadi va raqib guruhga uzatishadi. Raqib guruh a’zolari savollarga javob topa olsa, ikkincha yumaloq qor shaklidagi savolni birinchi jamoaga taqdim etishadi. O‘yin shu tarzda davom ettiriladi.

O‘quvchi nutqini shakllantirish, mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlanirish, o‘zi uchun mavhum bo‘lgan tushunchalarni tengdoshlari va o‘qituvchi ko‘magida o‘rganib olish imkoniyatini yaratuvchi mashg‘ulotlar, albatta, mustaqil fikrlaydigan, zamon bilan hamnafas yoshlarni tarbiyalashimizda bizga ko‘makchi bo‘ladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. “Fan to‘garaklarini tashkil eish konsepsiyasi” Toshkent, 1996.
2. Xasanova M. Maktabda imlo o‘qitish metodikasi. Toshkent 2004.
3. Kitob.uz va telegram materiallaridan foydalanildi



## МАКТАБГАЧА ТАРБИЯ МУАССАСАЛАРИДА НУТҚ О‘СТИРИШ

**Ozodahon Qodirova Ochildinovna**

Namangan viloyati Norin tuman

1-sonli DMTT 3-katta guruh tarbiyachisi

911865265. ozodaqodirova@gmail.com

**Annotatsiya:** Ushbu maqola maktabgacha ta’lim muassasalarida nutq o’stirish uchun kerakli ma’lumotlar berilgan bo’lib, u maktabgacha ta’lim muassasalari tarbiyachilari uchun metodik qo’llanma sifatida foydalanish tavsiya etiladi.

**Kalit so’zlar:** maktabgacha ta’lim muassasalari, nutq, rivojlanish jarayon, aqliy zaif, farqlash, bolalar, faollashtirish,

Bugungi kunda O‘zbekistonda maxsus ta’limga o‘zgartirishlar kiritilishi milliy va umuminsoniy qadriyatlarga, rivojlangan mamlakatlar tajribasiga asoslanib, maxsus uyushtirilgan ta’lim-tarbiya orqali aqli zaif bolalarning nutqini o‘stirish, ularni ijtimoiy hayotga moslashtirish, faollashtirish imkoniyatini yaratadi. Aqli zaif bola nutqini egallashning o‘ziga xosliklarini tekshirish, ular bilan ishlash mazmuni va usullarini aynan maktabgacha yoshda, ya’ni nutqini egallash uchun eng ma’qul boigan davrda o‘rganish muhimdir. Rivojlanishida nuqsonga ega bolalar bilan me’yorida rivojlanayotgan tengdoshlari orasidagi xarakterli farqlardan biri—ruhiy jarayonlarning yetarli rivojlanmasligi hisoblanadi. Rivojlanishida orqada qolgan bolalarning umumiy tavsifi uning verbal imkoniyatlari doimo past ekanligini ko‘rsatadi. Shuningdek, bola nutqining rivojlanish darajalari va uning intellekti orasida o‘zaro murakkab munosabatlar hukm suradi. Rivojlanishida nuqsonga ega va me’yoridagi bolalar asosiy nutqiy o‘shish bosqichlarini turli yosh davrlarida o‘tadilar. Nutqning orqada qolishi bola rivojlanishida qator kamchiliklarning yuzaga kelishiga zamin yaratadi. Maktabgacha tarbiya yoshidagi aqli zaif bolalarda nutq o‘stirish muammosiga bag‘ishlangan ko‘pgina ilmiy tadqiqotlarda ko‘rsatilishicha, bu xildagi nuqsonga ega bolalarda dastlabki nutqiy ko‘rinishlar guvurlash davrining boimasligi yoki kechikishi (bu keyinchalik nutqni egallash uchun zarurdir); dastlabki so‘zlarning kechikib hosil bo‘lishi; so‘z birikmalarini egallash davrining sekin va qiyinchilik bilan kechishi; so‘zlardan sodda gaplarni tuzish uchun uzoq vaqt talab etilishi; nutqiy ijodiyotda mustaqillikning yetishmasligi; fonetik kamchiliklarning uchrashi; nutqiy faollik darajasining pastligi; nutqiy muloqot kambag‘alligi kuzatiladi. Nutqning bunday kech paydo bolish sabablarini qayd etgan ko‘pgina tadqiqotchilar aqli zaif bolalarda ruhiy jarayonlarning umumiy rivojlanmasligi va aqliy rivojlanishning kechikishi xos xususiyat ekanligini ta’kidlaganlar. Buning natijasida tovushlarni idrok etish hamda ularni o‘zaro farqlash kabi murakkab psixik faoliyat, ya’ni fonematik eshituv rivojlanmaganligi ko‘rsatiladi. Fonematik eshituvning rivojlanmasligi tovushlarning ko‘pincha buzib talaffuz etilishi va nutqning kechikib rivojlanishiga olib keladi. Aqli zaif bolalar nutqini o‘stirish qiyin kechsa-da, ta’lim-tarbiya jarayonida nutq hamisha diqqat markazida turishi lozim. Nutq tarbiyasi ta’lim asosini tashkil qiladi. Shuning uchun ham aqli zaif bolalar nutqini o‘rganish dolzarb masalalardan biridir. Bolalarda nutqning o‘shishiga yordam beradigan vositalarni yoki uni orqada qolish sababini aniqlash bu jarayonga muvofiq pedagogik ta’simi tashkil etishning kaliti bo‘lib xizmat qiladi. Bolalar nutqidagi kamchiliklar ularning bog‘lanishli nutqini shakllantirishda bir qator muammolarni keltirib chiqaradi. Materialning ma’nosini anglash qiyinchiliklari, hodisalarning mantiqini tushuna olmaslik, vaqt haqidagi tasavurlarning yetishmasligi, avzudan chalg‘ib ketish, shuningdek, tevarak-atrofdagi predmet va hodisalar haqidagi yetarli ma’lumotga ega emasliklari oqibatida ularning so‘z boyliklari kambag‘allashadi va muloqotga kirishishni qiyinlashtiradi. Umumiy va maxsus pedagogikadagi mavjud ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, me’yorida rivojlanayotgan bolalarning kamolot bosqichi davrlarini, nuqsonga ega bo‘lgan tengdoshlari ham, albatta bosib o‘tadilar, lekin bu jarayonlar ularda kechikibroq kechadi. Bu bolaning nutqiga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. Kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, aqli zaif bolalar nutqining fonetik tom onidan rivojlanishi sezilarli darajada orqada qoladi, nutq ma’no tomonidan o‘ziga xos shakllanadi, gaplar tuzishda grammatik jihatdan xatolarga yo‘l qo‘yadilar. Maktabgacha tarbiya muassasalarining oldida bolalar nutqini o‘stirish vazifasi turadi. Bunda aqli zaif bolalarga o‘z fikrini, istakorzusini, hissiyotini aniq ifoda etish, ona tilida kishilar bilan aloqa o‘rnatishda, hayotga o‘rganish jarayonida foydalanishga o‘rgatish, aqliy jihatdan kamchiliklarini bartaraf etish, ijtimoiy hayotga moslashtirish, hamda



yordamchi maktab ta'limiga tayyorlashdan iborat. Nutq o'qitish kursi aqli zaif bolalarni ma'lum bilim va malakalarni o'zlashtirib olishlarinigina emas, balki idrok, xotira, tafakkur, tasavur kabi bilish qobiliyatlarini rivojlantirishni ham nazarda tutadi. Bu yo'nalishda olib boriladigan ish ularga aqliy faoliyatining muhim usullarini o'rgatish, analiz, sintez, taqqoslash, umumlashtirish, konkretlashtirish kabi aqliy operatsiyalarni bajarishga imkon beradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. Maktabgacha tarbiya maxsus metodikasi M.P Xamidova , M.Y Ayupova Toshkent -2009
2. Maktabgacha ta'limda metodika fanlarini o'qitish N.N. Djamilova Toshkent -2018
3. www.ziyonet



**BIOLOGIYA DARSLARIDA KO`RGAZMALI QUOLLARDAN SAMARALI FOYDALANISH**

**Qosimova Dilfro'z. Komiljonovna**

Xorazm viloyati Urganch shahar

9-sonli umumiy o`rta ta'lim maktabi

Biologiya fani o`qituvchisi.

Tel: 998-99-563-81-24

**Annotatsiya:** Biologiya darslarida ko`rgazmali qurollardan foydalanish metodidan dars mavzusi ko`proq fiziologik, bioximik, ekologik mazmunga ega bo`lgan paytlarda foydalaniladi. Ko`rgazmali metodda o`quvchilar yangi o`rganadigan mavzuni ko`rgazmali qurollarni ko`rish, idrok etish vositasida o`rganmadi. Bunday metod qo`llanilganda o`qituvchilarni so`zi, tushuntirishda yordamchi vosit vazifasini o`taydi. Ko`rgazmali metod tasviriy, tabiiy vositalar, tajribalar namoyishi kabi turdosh metodlarni o`z ichiga oladi.

**Kalit so`zlar:** Ko`rgazmali metod, tabiiy vositalar, o`quv jadvallari, mikroskop, biologik qonuniyatlar Tasviriy vositalar ko`rgazmasi mavzuni o`rganishda turli vositalar, o`quv jadvallari, o`quv filmlari, kodopozitivlar, o`quv televideniyasidan foydalanish kabilarni o`z ichiga oladi.

Biologiya darslarida o`quv jadvallari muhim ahamiyat kasb etadi. Jadvallarda turli organizmlarni tabiiy rangi, ularni muhit sharoiti va boshqa organizmlar bilan aloqalari, hayotiy jarayonlarni aks etishi o`quvchilarda o`rganilayotgan o`simlik va hayvon haqida atroflicha tassavur hosil bo`lishiga xizmat qiladi. O`quv filmlarini qisqa, to`la metrajli kabi xillari bo`ladi. Kinofilmlar darsda 5 – 20 min davom etishi hisobiga olinsa, kinodan o`quv jarayonida foydalanish katta ahamiyatga ega bo`ladi. O`qituvchi darsda o`quv filmdan foydalanishda quyidagilarga e`tibor beradi:

1. O`quv filmining darsdagi o`rnini belgilaydi.

2. O`quv film mazmuni bilan avval o`zi tanishib chiqadi. Diktor matnini o`rganadi, filmga o`quvchilar e`tibor berishi lozim bo`lgan eng asosiy lavhalar belgilanadi.

3. O`quv filmi mazmuniga bog`langan savollar tuziladi. Savollarni film boshlanishdan avval o`quvchilarga yozdirib, bu savollarga filmdan javob topish topshiriladi.

4. O`quv filmi namoyishidan so`ng savollarga javoblar olinadi, qisqa xulosalar chiqariladi. Ko`rgazma qurollariga tirik o`simlik, hayvonlar, ularning gerbariy va kolleksiylari, ayrim organlarning ho`l yoki – quruq saqlanayotgan preparatlari kabilar kiradi. Ko`rgazma qurollar o`quvchilarni organizmlar haqidagi bilimlarini boyitadi. Ular o`rganilishi lozim bo`lgan organizmlarni rangi, shakli, o`lchamlari, xatti – harakatlarini ko`rib, puxta bilim olishadi. Ko`rgazma qurollaridan ko`proq laboratoriya mashg`ulotlaridan foydalanish yaxshi natija beradi, biroq ko`rgazmali metodda ham o`quvchilar tabiiy vositalarni ko`rish orqali dars mavzusini yaxshi idrok etishadi. Tabiiy ko`rgazma qurollaridan foydalanishda o`qituvchi quyidagilarga amal qiladi. Tabiiy ko`rgazma qurollarini darsdagi o`rnini belgilaydi. Ko`rgazma qurollardan o`quvchilar nimalarni ko`rishi lozimligini aniqlaydi. Ko`rgazma qurollari qanday qo`shimcha vositalar (lupa, mikroskop, jadvallar, rasmlar, darslikdagi topshiriqlar) yordamida o`rganish kerakligini hisobga oladi. Tabiiy vositalar tuzilishida ularni yashash joyiga moslanishi belgilarini topishga harakat qilinadi. Tirik hayvonlarni o`lchalmlariga bog`liq holda namoyish etish yo`llarini aniqlash kabilarga e`tibor berish lozim. Tajribalar – ko`proq fiziologik mazmundagi darslarda foydalaniladi. Botanikadan ildizni tuproqdagi suv shimib olishi, bargda yorug`likda karbonat angidrid yuti kislorod chiqishi, organik modda hosil bo`lishi, zoologiyadan gidra, yomg`ir chuvalchening ta`sirlanishi, odam va uning salomatligi predmetida baqa ustida, so`lak va oshqozon osti bezining oziq, mahsulotlar ta`siri ostida o`zgarishlari ustidagi tajribalar, umumiy biologiyadan hujayradagi plazmoliz va deplazmoliz, organizmlarning tashqi ta`sirlar vositasida o`zgaruvchanligi kabilar o`quvchilarni puxta bilim olishlariga xizmat qiladi. Ko`rgazmali metod qo`llanilganda o`quvchilar o`quv materiallarini eshitish, va eng muhim sezgilari orqali o`rganganligi sababli bunday darslar qiziqarli o`tishi bilan puxta bo`ladi. Tasviriy vositalar ko`rgazmasi metodi qo`llanilganda o`quvchilar dars mazmunini o`qituvchi namoyish etadigan turli tasviriy vositalarni ko`rish, ularni idrok etish orqali o`rganishadi. Tasviriy vositalar turli biologik obyektlar, hodisalarni o`quv jadval, o`quv diafilmlari, filmlar shaklidagi jihozlarni o`z ichiga oladi. Undan tashqari tasviriy vositalarga modellar, maketlar, olimlarning portretlari, tayanch belgilar, applikatsiya materiallari



ham kiradi. Xullas, tasviriy vositalar ta'limda o'rganiladigan tirik organizmlar, ularning yashash muhitiga mos ravishda tashqi tuzilishi, ichki tuzilish belgilari, xayotiy jarayonlarini turli o'quv jadvallar, rasmlar, filmlari kabi tasvirlari hisoblanadi. Tasviriy vositalar ichida o'qituvchilar doimo foydalanadigan material o'quv jadvallaridir. Ta'limda o'quv jadvallaridagi foydalanishning o'zni beqiyosdir. Avvalo o'quv jadvallardan foydalanish didaktikaning ta'limning ko'rgazmali bo'lishi kerakligi haqidagi talabini bajaradi, biroq biologiya darsida qo'llaniladigan tasviriy vositalar talabiga darsning ko'rgazmali talabini bajarishga xizmat qiladi. Chunki birinchidan obyektlarning tasvirlari faqatgina o'quvchiga shu organizmlar haqidagina tasavvur bermaydi. U o'quvchilarni mavjud mavzularda ilm olishlari tarbiyalanishlari, rivojlanishlari ham ta'sir ko'rsatadi. Biologiya ta'limida doimo foydalanib kelinadigan o'quv jadvallar haqida to'xtalamiz. O'quv jadvallari fabrikada tayyorlangan, yasama bo'lishi mumkin. Albatta ta'limda fabrikada tayyorlangan o'quv jadvallar g'oyat muhim axborot vositasi hisoblanadi. Biologiya darsida ko'rgazmali metodning bu xilidan foydalanish odatda dars morfologik, ekologik, fiziologik, sistematik mezonga ega bo'lgan paytlarda qo'llaniladi. O'quv jadvallari didaktik yo'nalishi bo'yicha 3 xilga bo'linadi. 1 guruh jadvallar o'quvchilarga o'simlik va hayvonlarning tashqi va ichki tuzilishi xususiyatlarini o'rgatishga xizmat qilsa ikkinchi guruh asosiy biologik qonuniyatlar, tushunchalar, nazariyalarni o'rganishga, uchinchi guruhga esa ekologik yo'nalishdagi masalalarga bag'ishlanadi. O'quv jadvallaridan yangi mavzuni o'rganish, mustahkamlash va o'quvchilarning bilim va masalalarini aniqlash, baholash paytlarida foydalaniladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

- 1, Komissarov B.D. Metodologicheskiy problemi shkolnogo biologichsskogo obrazovaniya. M. «Prosveshsheniye», 1991
- 2, Komissarov B.D. Metodologicheskiy problemi shkolnogo biologichsskogo obrazovaniya. M. «Prosveshsheniye», 1991



## YOSHLAR FAOLIYATIDA YUKSAK MA'NAVIYATNI SHAKLLANTIRISH

**Quramboyev Ulug'bek Rustamovich**

Xorazm viloyati Gurlan tumani  
28-umumiy o'rta ta'lim maktabining  
Tarbiya fani o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada bugungi kunda yoshlarning ta'lim tarbiyasiga bo'lgan e'tibor, ularga yaratilayotgan imkoniyatlar, shuningdek ularning ma'naviyatini shakllantirish masalalari haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** yoshlar, ma'naviyat, tarix, ta'lim, qonun, dunyoqarash, yosh avlod, tarbiya, faoliyat, fikr.

Mustaqillikning dastlabki kunlaridan boshlab ma'naviy sohalarida ham islohotlar olib borish zaruriyati tug'ildi. “Biz uchun, degan edi O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A. Karimov, -ma'naviyat, tarixiy va madaniy qadriyatlar, aholining ma'naviy, axloqiy holati, yosh avlodni tarbiyalash eng asosiy ustuvor vazifa bo'lishi lozim”.

Yurtimizda aholining ta'limdan tashqaridagi qatlamlari orasida ma'naviy-mafkuraviy ishlarni olib borish tizimi ham shakllandi. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov ta'kidlaganidek - “Hozirgi dunyo miqyosida aql-zakovat va fikr musobaqasi ketayotgan shiddatli bir davrda faqat mustaqil fikriga ega bo'lgan, o'zining kimligi, qanday buyuk zotlarning avlodi ekanini chuqur anglab yetgan, yon-atrofidagi voqealarga daxldorlik tuyg'usi bilan yashaydigan har tomonlama bilimli va barkamol yoshlarga o'z xalqi va Vatani shuhratini dunyoga yoyishga qodir bo'ladi”.

**Yoshlar siyosatining dolzarbligi.** Ochiqlik va shaffoflik; yoshlarning bevosita ishtiroki; yoshlar tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish; ma'naviy, axloqiy va madaniy qadriyatlarning ustuvorligi; ma'naviy mezonlarga e'tibor qaratilganligi; yoshlarning kamsitilishiga yo'l qo'yilmasligi; jamiyat hayotidagi ma'naviy o'zgarishlarda oldingi saflarda bo'lishi; ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy sohalaridagi islohotlarni amalga oshirishda faol ishtiroki va hokazo.

Yoshlarning jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy islohotlarni amalga oshirish jarayonlarida faol qatnashuvini rag'batlantirish, ularning ma'naviy-axloqiy, g'oyaviy-nazariy salohiyatlarini o'stirish uchun zarur sharoitlar yaratib berish, yoshlarning ma'naviy ruhiyatining shakllanishi va rivojlanishi qonuniyatlarini o'rganish hamda tadqiq etish asosida yoshlarga doir siyosatni amalga oshirish hozirgi kunda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasining to'rtinchisi — Ijtimoiy sohani rivojlantirishning mazmun-mohiyatida uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish; maktabgacha ta'lim muassasalari tarmog'ini kengaytirish va ushbu muassasalarda bolalarning har tomonlama intellektual, estetik va jismoniy rivojlanishi uchun shart-sharoitlarni tubdan yaxshilash; yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish natijasida jismonan sog'lom, ruhan va aqlan rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, Vatanga sodiq, qat'iy hayotiy nuqtayi nazarga ega yoshlarni tarbiyalash, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida ularning ijtimoiy faolligini oshirishdek dolzarb masalalar nazarga tutilganligi bejiz emas. Faqat milliy va umumbashariy qadriyatlar uyg'unligi zaruratini teran anglaydigan, zamonaviy bilimlarni, intellektual salohiyati va ilg'or texnologiyalarni egallagan insonlarga o'z oldiga qo'ygan strategik taraqqiyot maqsadlariga erishishlari mumkin.

Mustaqillik yoshlar kamolotiga yangicha talablar qo'ydi. Har qachongidan ko'ra ko'proq ichki va tashqi go'zallikning axloq bilan birlashuviga ahamiyat kuchaydi. Yoshlardagi faqat tashqi ko'rinish estetik madaniyatning yaxshi bo'lishiga olib kelmasligi, balki ulardan axloqan pokiza, ma'naviy dunyosi boy, sahovatli, iymonli, muomala madaniyati yuksak bo'lishi kabi umuminsoniy axloqiy qadriyatlar ham talab etila boshlandi.

O'zbekistonda islohotlarning davomiyligini ta'minlash hamda demokratik fuqarolik jamiyatini shakllantirish, yoshlarimizning ma'naviy qiyofasiga va ijtimoiy faolligiga bog'liqdir.

Ayni paytda yoshlarni yuksak ma'naviy jihatdan tarbiyalash va estetik madaniyatini oliyjanob his-tuyg'ular bilan kamol toptirib borish ma'naviy barkamollikka yetishishdagi birinchi qadamdir. “Haqiqiy axloqiy tarbiyalangan yoshlar ulug' rus yozuvchisi A. P. Chexov so'zi bilan aytganda,



har tomonlama, ya'ni o'zining qiyofasi, kiyinishi, ruhiy va fikrlari jihatidan go'zal bo'lishi kerak”. Ayni paytda yoshlarimiz hayotini axloqiy va estetik jihatdan kamol toptirib borish jamiyat a'zolarining o'z qo'lida ekanligini anglab yetish joizdir.

Mamlakatimizda olib borilayotgan komil inson tarbiyasi jismonan baquvvat, axloqan pok, ma'naviy barkamol, vatanparvar hamda insonparvar yoshlarni ozod va obod Vatan ravnaqi yo'lida faol shaxs etib voyaga yetkazishga qaratilgan. Albatta, ushbu barcha xayrli ishlarning sababchisi va rahnamosi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning ekanligini hammamiz bilamiz.

Tabiiyki, har bir davlat o'zining yoshlari bilan g'ururlanadi. Buning sabablari bor albatta. Barkamol avlodni tarbiyalash - yoshlarning ma'naviyatini, tafakkurini shakllantirish asosidir. O'zbekiston yoshlar mamlakatidir. Shu jihatdan olib qaraganda, davlatimiz kelajagi, millat taraqqiyoti bugungi yoshlarning bilimiga, g'ayrat-shijoatiga, dunyoqarashiga, vatanparvarlik tuyg'usining qanchalik yuksakligiga, komillik darajasiga bog'liq. Kelajagimiz erkin fikrlaydigan, mustaqil yurita oladigan, chet tillaridan yaxshi xabardor, yuqori texnologik tafakkurga ega bo'lgan, Vatan va xalq manfaatlarini o'z manfaatlaridan ustun qo'ya oladigan, kerak bo'lsa, Vatan uchun jonini fido qila oladigan yoshlarni talab etadi.

Bugungi kunga kelib, farzandning ota-ona oldidagi burchi, ota-onaning farzand oldidagi mas'uliyati milliy qonunchilik asosida mustahkamlab qo'yilgani O'zbekiston yoshlarining milliy an'ana va qadriyatlarimizni hurmat qilishda, ma'naviy fazilatlarni o'zida qaror toptirishda mustahkam zamin vazifasini o'taydi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Elboyeva Sh. Yoshlarda yuksak ma'naviyatni shakllantirishning dolzarbligi
2. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining tarbiya fani darsliklari.
3. Internet malumotlari.



## ТАЪЛИМ-ТАРБИЯ СИФАТИНИ ОШИРИШДА УСТОЗ-ШОГИРД АНЪАНАЛАРИ

**Раджабова Шахноза,**

Навоий вилоят Хатирчи тумани 4-умутаълим мактаб

Рус тили фани ўқитувчиси

**Ўринова Сабоҳат,**

Навоий вилоят Хатирчи тумани 4-умутаълим мактаб

Бошланғич таълим ўқитувчиси

Ўзбекистон жамиятини янгилаш, «2017-2021 йилларда ривожланишнинг бешта устувор йўналиши бўйича ҳаракатлар стратегияси»ни амалга ошириш; олдинга силжиш барчамиз, айниқса, ёш авлоддан–бугунги ва эртанги куннинг ҳал қилувчи кучидан фаоллик талаб қилади. Ёшларда касбий маҳоратни тарбиялаш, уларнинг маънавий-маърифий салоҳиятини ошириш, изланиш, ижод қилиш, бир сўз билан айтганда ҳар томонлама етук шахсни шакллантиришда ўзига хос тарбиявий таъсир кўрсатиш мавжудлиги билан “устоз-шогирд” анъаналари катта аҳамият касб этади. “Устоз-шогирд” анъаналарининг яна бир характерли жиҳати шундаки, унда шогирднинг ўз имкониятларига ишонч, вазиятни тўғри баҳолаш ҳамда иродавий сифатлари шаклланади, энг асосийси унинг ижтимоий фаоллиги устозлар назоратида бўлади. Устознинг энг буюк бурчи–юрт равнақида ўзининг муносиб ҳиссасини қўша оладиган, ақл-идрокли, фаҳм-фаросатли ва қобилиятли шогирдлар тайёрлашдан иборат.

Устоз яхши шогирд тайёрлаш учун аввало унинг ўзи касбий салоҳиятли, маънавий баркамол, кенг дунёқараш ва соғлом фикрга эга бўлмоғи лозим. Қадимдан “устоз-шогирд” анъаналарида устоз нафақат шогирдига йўл йўриқ, кўрсатма берибгина қолмай, ўз навбатида уларни мустақил фаолиятга тайёрлаган ҳамда ўзидан кейин иш тажрибаси, билим ва маҳоратини авлоддан авлодга ўтишига имконият яратган. “Устоз-шогирд” муносабатлари муайян дастур, режа асосида олиб борилиши мақсадга мувофиқ. Бу борада шогирд билан олиб бориладиган иш шаклларида устоз қуйидагиларга риоя қилиши лозим:

- шогирдига тарбиявий таъсир кўрсатишда уларни замон талабларига, жамият қонунқоидаларига мос билимлар билан қуроллантириш;
- ягона мақсад сари интилишга, ишнинг натижасини кўра билишга ўргатиш;
- шогирднинг руҳияти, маънавиятига ижобий таъсир кўрсата олиш ва ўз ўрнида талабчан бўлиш;
- ўзини ва ўзгаларни ҳурмат қилишга одатлантириш;
- муваффақиятни кўзлаган ҳолда олға одимлаш;
- ижобий қайтувчан алоқани ўрнатиш;
- тарбияда турли хил усуллардан фойдаланишга эътибор қаратиш;
- тарбия жараёнида устознинг ҳар томонлама: маънавий, ахлоқий, касбий жиҳатдан намуна бўлиши;
- бурч, масъулият, жавобгарлик ҳиссини шакллантириб бориш ва ҳоказо.

Юқори малакали ҳар томонлама етук мутахассис кадрлар тайёрлашга қаратилган “устоз-шогирд” анъаналарида қуйидаги педагогик тамойиллар муҳим аҳамият касб этади:

- онглилик ва фаоллик, яъни эгаллаётган у ёки бу фаолиятнинг ўзига хос жиҳатлари, моҳиятини онгли тарзда тўлиқ англаб етиш, унинг истикболи ва равнақида фаоллик билан ҳаракат қилиш;
- таълим-тарбиянинг турмуш, ҳаёт билан чамбарчас боғлиқлигини инобатга олиш;
- ўқитиш, тарбиялаш мазмуни ва шогирдлик босқичлари изчиллик билан белгилаб қўйилган аниқ мантиқий тартибга эга бўлиши;
- илм-фаннинг сир-асрорларини эгаллашда пухталиқ;
- шогирднинг ёши ва ўзига хос хусусиятларини ҳисобга олиш;
- мустақилликка, ижодий изланишга йўналтириб боришда назарий билимларнинг амалиёт билан боғлиқлигини ҳисобга олиш;

Юқорида таъкидланганидек таълим-тарбия тизимида “устоз-шогирд” муносабатларини шакллантириш ва ривожлантириш таълим-тарбиянинг янада самарадорлигини ошишига ёрдам беради, юқори малакали шогирд тайёрлашдан кўзланган самарани беради.

Педагогик таълимот ғояларига кўра амалий кўникма ва малакалар бевосита



машқлантириш, яъни муайян фаолиятни амалга бевосита бажариш орқали шаклланади.

“Устоз-шогирд” анъанаси эса талаба-ёшларда бевосита ишлаш, уларнинг индивидуал хусусиятларини инобатга олган ҳолда ёндашиш, мавжуд иқтидорларини янада ривожлантириш учун қулай шарт-шароитни яратиши билан аҳамиятлидир.

Бу каби ҳолатлар ёшларни нафақат меҳнат ва ишлаб чиқариш фаолиятига масъулият билан ёндашиш, балки ўзгалар меҳнатини кадрлаш, ҳалол меҳнат қилиш, меҳнат самарадорлигидан ғурурланиш каби маънавий-ахлоқий сифатларни ҳам тарбиялайди. Фарзанд тарбиясида шарқона, қадимий аجدодлар урф-одатлари, анъаналари, ахлоқ-одоб қоидаларига амал қилишда халқимизнинг миллий тарбия тизимидан унумли фойдаланишга алоҳида эътибор бериш ва бу борада устозлар ўз кучи, ақл-заковотини аямасликлари лозим.

Юқоридаги фикрлардан кўринадики, ҳозирги кенг қамровли демократик ислоҳотлар муҳитида келажак авлоднинг ватан равнақиға ўз хиссаларини қўша оладиган юқори малакали кадрлар қилиб тарбиялаш давр талабига айланди. Бу борада таълим-тарбия тизимида “Устозшогирд” анъаналари имкониятларидан унумли фойдаланиш муҳим аҳамият касб этади.

Таълим-тарбия сифатини оширишда «Устоз-шогирд» анъаналаридан унумли фойдалана олсак, ўз мақсадимизга эришган бўламиз.



## МАКТАБГАЧА YOSHIDAGI BOLALARNING MIQDORIY TASAVVURINI SHAKLLANTIRISH

**Muazzamxon Rafiqova Yusufjonovna**

Namangan viloyati Norin tuman

3-sonlili Maktabgacha Ta'lim Tashkiloti tarbiyachisi

996032979 muazzamxon@gmail.com

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyalanuvchilarining maktab yoshidagi bolalarning miqdoriy tasavvurini shakllantirish haqida keng ma'lumotlar yozilgan bo'lib u maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyachilariga metodik qo'llanma sifatida foydalanish tavsiya etiladi.

**Kalit so'zlar:** tarbiya, matematika, kasbiy tayyorgarlik, atrof-muhit, vazifalar, borliqni his qilish.

Bugungi kunda maktabgacha ta'lim muassasalariga bo'lgan e'tibor va bugungi talab daraja shiddat bilan o'sib bormoqda. Maktabgacha tarbiya muassasalari sharoitida matematika o'qitishning umum ta'limiy, korreksion-tarbiyaviy va amaliy vazifalarini hal qilish defektologning kasbiy tayyorgarligiga bog'liq. Matematika o'qitish bolalarning ma'lum bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirib olishlarinigina emas, balki ularning psixik jarayonlarini korreksiyalash uchun ham imkoniyat yaratadi. Bu hol ularda mavhum umumlantirishga, atrof-muhitdagi narsalar va voqealar o'rtasidagi aloqa hamda bog'liqlikni belgilay olmaslikka, tahlil va sintez qilishga qobiliyat yo'qligida ifodalanadi. Bolaning tafakkuri yaqqol-obrazli xarakterda bo'ladi va bir qancha o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'ladi. Bolalarning matematikani muvaffaqiyatli o'zlashtirishlari ko'pincha bir tomondan, ularning matematik bilimlarni o'zlashtirish xususiyatlariga va qiyinchiliklarni hisobga olishga, ikkinchi tomondan bolalarning mavjud imkoniyatlarini hisobga olishga, shuningdek, matematika o'qitishni to'g'ri rejalashtirish va tashkil qilishga bog'liq. Bu bo'limda quyidagi masalalar hal qilib boriladi:

— maktabgacha ta'lim muassasasid har bir guruhida elementar matematik tasavurlarni rivojlantirishga oid ishlarni tashkil qilish;

— maktabgacha ta'lim muassasasida mashg'ulotlarni rejalashtirish va tashkil qilish;

— matematika mashg'ulotlariga qo'yiladigan didaktik talablar;

— elementar matematik tasavurlarni shakllantirish usullari. Bu bo'limda maktabgacha ta'lim muassasa sharoitida matematika o'qitishning tashkiliy masalalari ochib berilgan. Maktabgacha yoshdagi bolalarga ushbu o'quv yilida bir turdagi, keyinchalik esa har xil turdagi buyumlar ichidan taqlid qilish, namunaga qarab, so'z instruksiyasi bo'yicha bitta va ko'p buyumlarni ajratishga o'rgatishdan ish boshlanadi. Bir xil va har xil turdagi buyumlar ichidan ikkita va uchta buyumni ajratib, «qancha?» degan savolga javob berishga o'rgatiladi. 1, 2, 3 ta buyumni barmoqlar soniga moslashtirish bo'yicha mashqlar bajartiriladi. Maktabgacha yoshdagi bolalar 3 ichida buyumlar guruhini ustma-ust qo'yish yoki yonma-yon qo'yish usulidan foydalanib taqqoslaydilar. 3 ichida buyumlarni sanash va «hammasi nechta?» degan savolga javob berishga o'rgatiladi. Kattaligi bo'yicha keskin farq qiluvchi buyumlarni taqqoslash, geometrik jismlardan shar, kub (kubik), uchburchakli prizma (tom), parallelepiped (brusok), geometrik shakllardan kvadrat, doira, to'g'ri to'rtburchaklarni nomlamasdan farqlashga o'rgatiladi. Kichik guruhda sutkaning keskin farq qiluvchi bo'laklari (kun va tun) bilan tanishtiriladi. Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan ishni tashkil qilishda didaktik materiallar bilan ishlashi, vazifalarni ma'lum tartibda bajara olishi katta ahamiyatga ega. Mashg'ulotga tayyorlanayotgan material bola uchun amaliy-hayotiy ahamiyatga ega bo'lishi kerak. Maktabgacha yoshdagi bolalar mashg'ulotda o'zlashtirayotgan bilimlar o'yin va amaliy faoliyatda, kundalik turmushda zarurligini anglab yetishlari lozim. Matematika o'qitishda defektolog suhbat, ekskursiya, kuzatish, taqqoslash usullari bilan bir qatorda, mo'yoqalamda aylantirib chiqib yelimplash, plastilindan berilgan miqdorda sharchalar, kubiklar yasash kabi amaliy ishlarni va didaktik o'yinlarni keng qo'llaydi. O'qitish jarayonida didaktik o'yinlarning ahamiyati shundan iboratki, ular o'rgatish maqsadlarida o'ylab topiladi, bolalarni o'qitish, tarbiyalash va rivojlantirishga xizmat qiladi. O'yinlar vaqtida paydo bo'ladigan ijobiy tuyg'ular bolalar faoliyatini faollashtiradi. O'yinda bolalar o'zlari payqamagan holda



matematik tushunchalami o‘zlashtirib boradilar. O‘rta guruhda ko‘p buyumlar ichidan taqlid qilish, namunaga qarab so‘z instruksiyasi bo‘yicha 4 ta buyumni ajratish, uni sanash, sanalgan buyumlarning natijasini aytish (masalan, hammasi 4 ta quyuncha), 4 ichidagi buyumlar sonini barmoqlar soniga mos keltirishga o‘rgatib boriladi. Rasmda turli joyda tasvirlangan buyumlarni idrok etib, miqdorini aytish bo‘yicha mashqlar olib boriladi. 4 ichida ikkita guruh buyumlarni yonma-yon va ustma-ust qo‘yish usuli orqali taqqoslash malakalari shakllantiriladi. Buyumlarning miqdori, ularning fazoda joylashishi, rangi, shakli, kattaligiga bog‘liq emasligini bolalarga misollar asosida tushuntiriladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. Maktabgacha tarbiya maxsus metodikasi M.P Xamidova , M.Y Ayupova Toshkent -2009
2. Maktabgacha ta’limda metodika fanlarni o‘qitish N.N. Djamilova Toshkent -2018
3. www.ziyonet



**PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH TARAQQIYOT GAROVI**

**Raimova Hilola Narimonovna**

Xorazm viloyati Urganch tumani

4-son maktabning matematika fani o'qituvchisi

**Iskandarova Dilbar Shokir qizi**

Xorazm viloyati Urganch tumani

4-son maktabning informatika fani o'qituvchisi

**Annotatsiya:** ushbu maqolada pedagogik texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati va bu jarayonda ta'limning sifat samaradorligi oshishi masalalari haqida to'xtalib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** pedagogik texnologiya, o'qituvchi, ta'lim, tarbiya, dars, metod, mafkura, kasb, zamon.

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interfaol metodlar va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish kundan-kunga ortib bormoqda. Bunday bo'lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o'quvchilar faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish esa ularni egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topish, mustaqil o'rganish va fikrlash, tahlil qilish, hatto yakuniy xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishga o'rgatadi.

Har tomonlama barkamol insonni shakllantirish bugungi jamiyatimiz oldida tutgan dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Hozirgi maktab o'rindiqlarida o'tirgan yosh avlod ertaga bizning yo'limizdan, ishimizni oladigan, hayotimizni davom ettirib, o'zidan keyingi avlodga yetkazuvchi vorislarimiz, O'zbekiston buyuk kelajagining egalaridir! Shu sababli Prezidentimiz, butun mamlakatimiz diqqat e'tiborini barkamol avlod tarbiyasiga qaratmoqda. Shuningdek o'quv jarayoniga yangi axborot va pedagogik texnologiyalarni keng joriy etish, farzandlarimizni komil inson etib tarbiyalashda jonbozlik ko'rsatadigan o'qituvchi va murabbiylarga e'tiborimizni yanada oshirish, qisqacha aytganda ta'lim-tarbiya tizimini sifat jihatdan butunlay yangi bosqichga ko'tarish diqqat markazimizda bo'lishi darkor dedilar. Shu sababli zamon talablariga to'liq javob bera oladigan pedagogik texnologiyalarni boshlang'ich sinf darslaridan boshlab joriy qilish ishlari hozirgi davr talabidir.

Ta'lim-tarbiya tizimini va shu asosda ongni o'zgartirmasdan turib, ma'naviyatni rivojlantirib bo'lmaydi. Shuni unutmasligimiz kerakki, kelajagimiz poydevori bilim dargohlarida yaratiladi, boshqacha aytganda xalqimizning ertangi kuni qanday bo'lishi farzandlarimizning bugungi kunda qanday ta'lim va tarbiya olishiga bog'liq. Buning uchun har bir ota-ona, ustoz va murabbiy, har bir bola timsolida avvalo shaxsni ko'rishi zarur. Ana shunday oddiy talabdan kelib chiqqan holda, farzandlarimizni mustaqil va keng fikrlash qobiliyatiga ega bo'lgan, ongli yashaydigan komil insonlar etib voyaga yetkazish ta'lim-tarbiya sohasining asosiy maqsadi, vazifasi bo'lishi lozim, deb qabul qilishimiz kerak.

Hozirgi kunda darslarda pedagogik texnologiyalarni qo'llashning nazariy hamda amaliy asoslarini yaratish zarurdir. Hozirda o'quvchilarning yuqori kasbiy tayyorgarlikka, pedagogik mahoratga, yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarga mafkura borasida chuqur bilimlarga ega bo'lishi, ta'lim-tarbiya ishlarida zamonaviy pedagogik texnologiyalar, interfaol usullardan samarali foydalanishi davr talabi hisoblanadi.

Har bir maktabda ta'lim-tarbiya samaradorligini oshirish jiddiy vazifa bo'lib turibdi. Buning uchun har bir o'qituvchi o'z fanini o'qitishning eng samarali zamonaviy pedagogik texnologiyalarni puxta bilishi va bu sohadagi yangiliklarni uzluksiz olib borishi orqali o'z kasbiy mahoratini muntazam oshirib borishi talab qilinadi.

Ta'lim-kelajakdagi muvafaqqiyatlar kaliti ekan, uning mahsuli sifati bugungi o'quvchi kelajakda huquqiy-demokratik jamiyat a'zosi sifatida bu jamiyat hayotida to'laqonli ishtirok eta olishi, zamonning bozor iqtisodiyotiga qo'yayotgan talablariga to'la javob bera olishlari kerak. Axborot oqimi keskin ortgan, turli yangiliklar hayotimizga shitob bilan kirib kelayotgan davrda, mustaqil tanqidiy fikrlash ko'nikmalariga ega bo'lgan, yangilikni o'rganishga doim tayyor bo'lgan, hamkorlikdan cho'chimaydigan, muloqotga erkin kirisha oladigan shaxsni tarbiyalash ta'lim-tarbiya jarayonining asosiy maqsadi bo'lishi kerak va bu borada ta'limda yangi texnologiyalarning qo'llanishiga yo'l ochilishi maqsadga erishish yo'lidagi to'g'ri qadamdir. Umumiy o'rta ta'lim



jarayonining sifat va samaradorligini oshirish uchun, jumladan pedagogik sohasida uzluksiz ta'lim tizimida matematik tajribani o'rganish va yozish, zamonaviy pedagogik texnologiyalarning nazariy hamda amaliy asoslarini yaratish zarurdir.

Bugungi kunda darslarda nafaqat o'quvchilarga ma'lum bilimlarni o'rgatish, balki dars jarayonida o'quvchi shaxsining ayrim jihatlarini shakllantirish yoki rivojlantira olishlari darkor. Ushbu maqsadda o'qituvchilar uchun interfaol usullarda dars o'tish samarali natija bermoqda. Interfaol usuli yaratilishidan maqsad:

- o'qituvchi va o'quvchi, o'quvchi va o'qituvchi hamkorligini shakllantirish;
- o'quvchilarga zarur bo'lgan bilim, ko'nikma, malakalarini interfaol usullar orqali yetkazish;
- o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'z fikrlarini mustaqil asoslay olishiga imkon yaratish;

Xulosa qilib aytsak darslarda pedagogik texnologiyalardan foydalanib, barcha metod va vositalar yordamida ta'lim sifatini yaxshilash kerak. Pedagogik texnologiyalar o'quvchilarni o'z yo'nalishini tanlash va mustaqil hayotga tayyorgarlik ko'nikmalarini shakllantirishdek mas'uliyatli vazifani bajarishda ularning yaqin ko'makchilardan biriga aylanadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. O'zbekiston Respublikasining Ta'lim to'g'risidagi qonuni.
2. G'oziev E. Pedagogik texnologiyaning psixologik asoslari. T., «Xalq ta'limi», 1999.
3. Zunnunov A., Maxkamov U., Didaktika (Ta'lim nazariyasi). O.O'Yu uchun qo'llanma.T., Sharq, 2006y.
4. Mavlonova R. , Vohidova N. , Rahmonqulova N. Pedagogika nazariyasi va tarixi. „Fan-texnologiya“ T., 2010y.



## ЭВРИСТИК МЕТОД ЁРДАМИДА БОШЛАНҒИЧ СИНФ ЎҚУВЧИЛАРИ ЎҚУВ ФАОЛЛИГИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ МЕТОДЛАРИ

**Эгамберган Худойназаров Мадрахимович**  
Урганч давлат университети “Бошланғич таълим методикаси” кафедраси доценти,  
**Ражабова Саида Матназаровна**  
Урганч давлат университети  
“Таълим назарияси ва методикаси”  
(бошланғич таълим) мутахасислиги магистранти

### Аннотация

Ушбу мақолада эвристик метод ёрдамида бошланғич синф ўқувчилари ўқув фаоллигини шакллантириш методлари ва уларнинг ўзига хос хусусиятлари таҳлил қилинган, ҳамда муаллифларнинг шахсий фикрлари хулоса ўрнида келтирилган.

**Калит сўзлар :** метод. Евристик метод, еврика, фаоллик, ўқув фаоллик, компетенция, кўникма, билим.

Бугунги кунда Ўзбекистон жамиятида ижодкор, фаол фуқароларга бўлган эҳтиёж кучаймоқда. Улар, биринчи навбатда, билимларни мустақил эгаллашга лаёқатли, билишнинг унумли методлари билан қуролланган бўлишлари лозим. Бундай сифатларга эга бўлган шахсни шакллантириш бошланғич синфлардан бошлаб, ўқувчиларга комплекс таъсир кўрсатиш натижасида амалга ошади. Мазкур вазифани ечишнинг асосий йўналишларидан бири ўқувчиларда эвристик фаолиятни шакллантиришдан иборат.

Эвристик фаолият тушунчаси доирасида муайян руҳий жараёнлар тушунилиб, унинг натижасида муаммоларга ечим топилади, янги стратегиялар ишлаб чиқилади, бир қатор янгиликлар кўлга киритилади. “Эвристик фаолият” тушунчаси “Ижодий тафаккур”, “Маҳсулдор тафаккур” тушунчалари билан тенг имкониятларга эга. Шунга кўра, эвристик фаолият инсон тафаккурининг ранг-баранг ифодаси ҳисобланади. Бундай фаолият натижасида янги ҳаркатлар тизими вужудга келади ёки инсонни ўраб турган объектлар ҳақида илгари маълум бўлмаган қонуниятлар кашф этилади. Эвристик фаолиятни шакллантириш муаммоси кўпқиррали муаммолар сирасига кириб, эвристик фаолият ўқув жараёнининг кўп жиҳатлари билан бевосита боғланади. У айти бир вақтнинг ўзида шахсни шакллантириш нуктаи назаридан режа, натижа, ўқувчиларнинг ўқув фаолиятини ташкил этиш ва фаоллаштириш йўли, ўқув жараёни самарадорлигини ошириш воситаси сифатида намоён бўлади.

Эвристик фаолият ёки ижодий тафаккурни шакллантириш жараёнини ташкил этишнинг педагогик-психологик йўналишлари Р.Г.Сафарова, Б.А.Дизов, Г.Нажмиддинова, Э.Ғозиев, Х.П.Назарова, Б.Г.Ананьев, Е.А.Александров, С.С.Бакулевская, Г.Армстронг, Н.В.Бугорскаяларнинг илмий ишларида ўз аксини топган. Ўқувчиларда эвристик тафаккурни шакллантириш имконини берадиган педагогик шарт-шароитлар сифатида куйидагиларни кўрсатиш мумкин.

Улар:

- мустақил ишларнинг мавжудлиги;
- ўқувчиларда ўқув-билув фаолиятига нисбатан юқори даражадаги қизиқишни ҳосил қилиш;
- ўқишга нисбатан ижобий майлларни шакллантириш;
- ўқитишнинг фаол методларидан фойдаланиш;
- ўқувчиларнинг мавжуд лаёқатларини ривожлантириш кабилар.

Таълимнинг бир босқичидан иккинчи босқичига ўтиш жараёнида ўқувчиларнинг ривожланиши диққат ва интеллектнинг ўзаро таъсири натижасида кучаяди. Бу жараёнда асосан ўқувчиларда креатив, эвристик тафаккурни ривожлантириш муҳим аҳамиятга эга. Шуни алоҳида таъкидлаш керакки, ижодий лаёқатлар, яратувчилик сифатлари ҳар бир ўқувчида мавжуд. Бу сифатлар ўзида идрок, ҳозиржавоблик, фаол ҳаракатлар ҳамда мулоқотни мужассамлаштиради. Ижодий тафаккурга эга бўлган ўқувчилар ўзгалар билан мулоқот қилиш, ўзлигини намоён этишга эҳтиёж сезадилар.



О.О.Макарычеванинг [2] таъбири билан айтганда, бошланғич синф ўқувчиларининг ижодкорлик лаёқати уларнинг муаммоларни тез идрок этишларидан бошланади. Бунинг натижасида улар муаммоларни билимлар, турли ахборотлар билан уйғунлаштирган ҳолда англаб етадилар. Ўқувчиларнинг ижодий тафаккурлари ўқитувчи томонидан рағбатлантирилиши керак. Бунда улар 5 та принципга таяниши лозим. Улар:

- ноодатий саволларга нисбатан эътиборли муносабатда бўлиш;
- муайян, ноодатий ғояларга нисбатан хурмат билан қарашлари;
- ўқувчиларга ўз ғояларининг аҳамиятли эканлигини аңлатиш;
- ўқувчиларнинг мустақил билим олишларини рағбатлантириш;
- режалаштирилмаган амалий машғулотлар ва ўқув жараёни учун муайян вақт ажратиш.

Ишчан ўйинларнинг тўлақонлилиги қабул қилинадиган ечимлар доирасида ўқув, касбий фаолиятни уйғунлаштириш имконини беради. Эвристик бошланғич синф ўқувчиларини мулоқот ва изланишга ундаш, уларни самарали ижтимоийлаштиришда муҳим педагогик восита бўлиб хизмат қилади. ўқитиш методининг саамарали шакли сифатида ишчан ўйинлар

#### ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ

1. Ўзбекистон Республикасининг 2020 йил 29 октябрдаги “Илм-фанни 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида”ги ПФ-6097-сон фармони. <https://lex.uz>
2. Макарычева О.О. Эвристические задачи как педагогическое средство развития умственной самостоятельной учащихся: Автореф. дисс. ... канд. пед. наук. – СПб, 1996. – 17 с.
3. Педагогика. Энциклопедия. III жилд. жамоа // Тошкент: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, 2017. – 400 б.
4. Кларин М.В. Педагогическая технология в учебном процессе. 7-е изд. М.: Садовое кольцо, 2006.-198 с.



## YOSH AVLODNI TARBIYALASHDA MAKTAB, OILA, HAMKORLIGINI OSHIRISH

**Raximova Fazilat Rajabbayevna**

Xorazm viloyat Xiva tuman

10-son maktabning boshlang'ich sinf o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada o'quvchilarni yoshlikda qiziqishlari bo'yicha kasbga yo'naltrish hamda kasbiy tayyorgarlik haqida fikr mulohazalar bildiriladi.

**Kalit so'zlar:** Maktab, oila, mahalla, xalq xo'jaligi ehtiyojlari, Ibn Sino

Maktab, oila mahalla va ishlab chiqarishning hamdo'stligi yosh avlodni yangi ruhda tarbiyalashning asosiy prinsipi hisoblanadi. O'quvchilarda professional qiziqishlarini rivojlantirish va tarkib toptirish, sanoat, qurilish, qishloq xo'jaligi xizmat ko'rsatish sohasi ishchi kasblariga ijtimoiy e'tiborning ortishi, xayot yo'lining ongli ravishda tanlash ishining muvaffaqiyati maktab, oila, mahalla va ishlab chiqarishning birgalikda olib borilgan samarali ishlariga bog'liq.

Shaxsni tarbiyalash asoslari oiladan boshlanadi, ya'ni o'quvchilar ba'zi kasblar bilan, xususan o'z ota-onalari, akalari, opalari, qarindosh urug'larining kasblari bilan oilada tanisha boshlaydilar bu esa o'quvchilar professional qiziqishlarining rivojlanishiga hal qiluvchi ta'sir ko'rsatadi.

O'quvchilarning hamma ota-onalarini (ularni o'z bolalari bilan oilaviy kasb tanlashga yo'llash ishlarida aktiv ishtirok etish darajasiga qarab) taxminan 4 katoriyaga bo'lish mumkin.

1. Ota-onalar bolalarining o'yinlari va mehnatini kuzatadilar, uyda bolaalri qiziqqan har qanday ish bilan mashg'ul bo'lishlari uchun sharoit yaratib beradilar; bolalari bilan korxonada, kallektivning mehnati haqida, o'z ishlab chiqarish muvaffaqiyatlari to'g'risida suhbatlashadilar; ularning qiziqishlari va qobiliyatlari va xalq xo'jaligi ehtiyojlarini hisobga olgan holda aniq maslahatlar beradilar.

2. Ota-onalar bolalari bilan kasb tanlash haqida suhbatlashadilar, lekin aktiv ta'sir ko'rsatmaydilar, o'z bolalarining individual hususiyatlarini har doim ham hisobga olavermaydilar.

3. Ota-onalar bolalarining rejalari haqida deb aralashaveradilar, ularning qiziqishlari, istak va imkoniyatlarini hisobga olmaydilar, yeasbning moddiy va obroli tamonlaridan kelib chiqib o'zlari tanlagan ihtisosni egallashga majbur qiladilar.

4. Ota-onalar o'z balolarining kelajagiga passiv va sovuqqonlik bilan qaraydilar, ularga kasbtanlashga yordam bermaydilar, bu muammodan o'zlarining behabarligi va noto'g'ri maslag'at berib qo'yishlaridan cho'chib, "o'zing ko'r", "qaysi biri yaxshi bo'lsa shuni tanla" va hokozalar qabilida ish tutib, o'zlarni chetga tortadilar.

Ko'pchilik ota-onalar kasb tanlashga yo'llash masalalari bo'yicha maslahatlariga muhtojdirlar. Ular bunday yordamni suhbat, konsul'tatsiya va boshqa tadbirlar formasida maktab pedagogika jamoasi, vrach, psixolog, korxonada mutaxassislaridan olish mumkin.

Maktab o'zining rejalashtirgan tadbirlariga muvofiq ravishda ota-onalar kanferensiyasini uyushtirish va o'tkazish kerak. Bu konfrensiyalarda korxonada kadrlar bo'limlari, mehnat resurslaridan foydalanish bo'yicha bo'limlarning, viloyat xodimlari, turli xil kasblarning, vakillari va o'quv yurtlarining rahbarlari hamda ota-onalar so'zga chiqishlari mumkin bo'ladi. Ular o'z kasblarining mazmuni haqida muvofaqiyatli mehnat qilishi uchun qo'llaniladigan zarur bilim va malakalar hamda boshqa narsalar to'g'risida bu kasbni qayyerdan va qanday egallash va shu hususida qanday mahoratli bo'lish haqida; yoshlar duch keladigan qiyinchiliklar haqida va o'quvchilar bilan oilaviy suhbatlar uchun tavsiyalar haqida gapirib berishlari kerak.

Buyuk mutafakkir olim Abu Ali Ibn Sino - Odamning yashashi uchun eng zarur narsa bu foydali mehnat jangi deb ta'kidlaydi. Uning fikricha, ota-onalar o'z bolalariga yoshligidan ma'lum bir kasb-hunar o'rgatishlari lozim. Bola kasb-hunarni ma'lum darajada o'zlashtirib bo'lgandan so'ng uni kasb-hunaridan foydalanishga, ya'ni halol mehnat bilan mustaqil hayot kechirishga o'rgatish kerak. Mutafakkir bu ishning bolalar uchun ikki xil tarbiyaviy ahamiyatiga ega ekanligini ta'kidlaydi:

1. Bola o'z kasb-hunari tufayli mustaqil turmush kechirib, uning dastlabki manfaatini ko'rgandan keyin, o'z hunariga yanada mahkam bog'lanib, unga nisbatan muhabbat orttiradi va uni takomillashtirishga intiladi.

2. Yashash takomili o'z zimmasiga yuklatilgandan keyin o'z kasb-hunariga odat hosil qiladi.

Demak, Ibn Sinoning ta'lim berishicha, ilm-ma'rifat va kasb-hunar egallashda kishi har qanday



mushkulni dadillik bilan yengadi va u hunari tufayli hech ham xor bo‘lmaydi. Shuning uchun ham: «Yoshlarga ilm bera borib, - degan edi ulug‘ olim Ibn Sino, - ularga hunar o‘rgatmoq muhim ma‘suliyatli ishdur. Hunar o‘rganish birga yoshlar har qanday nojo‘ya xatti-harakatlardan xoli bo‘ladilar, - deb ta‘kidlaydi.

Xulosa qilib aytganda o‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish milliy hunarmanchilik Sharq xalqlarining qadimiy qadriyati bo‘lib, u asrlar davomida ma‘naviyati, uy-xayollari, orzu-istaklarini o‘zida ifodalab kelayotgan san‘at hisoblanadi. Uning o‘ziga xos milliylik xususiyatlari, ta‘limiy-tarbiyaviy imkoniyatlari, usta-shogird an‘analari o‘rtasidagi axloq-odob me‘zoni, madaniyati, yoshavlodda hunarmandchilik kasbi gamehr-muhabbatini o‘stirishda muhim ahamiyatga egadir.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Oliy ta‘limning davlat ta‘lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida: O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001-yil 16-avgustdagi 343-sonli qarori Ma‘rifat gazetasi. – 17.08.2001. – №121.
2. Qodirov B. «Ta‘lim tizimidagi islohotlar maqsad va yo‘nalishlar». T. «O‘zbekiston» - 2000 y.



## BOSHLANG'ICH SINFLARDA O'QITISHNING ZAMONAVIY AXBOROT TEKNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH AFZALLIKLARI

**Rustamova Shahnoza Abdirahmonovna**  
**Mizrobova Go'zaloy Shavkat qizi**  
Buxoro viloyati G'ijduvon tumani 46-maktab  
boshlang'ich ta'lim o'qituvchilari

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada umumta'lim maktablarining boshlang'ich sinf darslarida zamonaviy axborot texnologiyalari imkoniyatlaridan foydalanish afzalliklari yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** Boshlang'ich ta'lim, axborot texnologiyalari, kompyuter, dars.

Hozirgi davr o'qituvchi va o'quvchi oldiga katta talablar qo'ymoqda, bu talablarning eng asosiysi - darsning samaradorligi, uning sifatligi, o'quvchilarning bilim va ko'nikmalariga, maktablardagi turli xil o'quv mashg'ulotlari, ularni tashkil qilinishi va u orqali o'quvchilarni turli bilim va ko'nikmalarni egallab olishidir. Bugungi kunda ta'lim jarayonini to'g'ri va samarali tashkil qilishda innovatsion texnologiyalar, texnik vositalarning, jumladan, zamonaviy kompyuterlarning o'rni beqiyosdir. Dars mavzusiga oid multimediya, animatsiya, grafika, diafilm va videofilmlardan foydalanish dars jarayonini yana-da qiziqarli bo'lishiga ko'mak beradi, buning uchun esa o'qituvchi o'z ustida ishlashi va har bir darsga «men bugungi dars jarayoniga qanday yangilik bilan kirib, darsni qiziqarli tashkil qila olaman» deya o'ziga savol berishi ya'ni, an'anaviy ta'limdan qochib, no'anaviy ta'lim berishga intilishi lozim.

Ma'lumki, ta'lim bu o'qituvchi va o'quvchilarning hamkorligidagi faoliyat turi bo'lib, dars orqali o'qituvchi o'z bilimi, ko'nikma va malakalarini mashg'ulotlar vositasida o'quvchilarga yetkazadi, o'quvchilar esa uni o'zlashtirib olishi natijasida undan foydalanish kompetensiyalariga ega bo'ladi. Yangi bilimlarni o'rganish jarayonida esa o'quvchilar o'zlashtirishning turli ko'rinishlaridan foydalanishlari tabiiy hol masalan, ma'lumotlarni qabul qilish, ularni qayta ishlash hamda amaliyotga tatbiq etish kabi jarayonlarda amalga oshadi. Hozirgi kunda umumta'lim maktablarida zamonaviy kompyuter texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlarini takomillashtirish, ta'lim jarayonida zamonaviy texnologiyalar imkoniyatlaridan to'laqonli foydalanish eng muhim ko'rsatkichlaridan biri ekanligi yetuk pedagog olimlar tomonidan e'tirof etilganligi xech kimga sir emas. Jumladan, U.Sh.Begimkulov ta'lim jarayonida hozirgi zamon talablariga javob bera oladigan kompyuter axborot muhitini yaratish hamda ta'lim jarayonida multimedia, o'qitishda immitatsiya, zarur axborotlarni kompyuter texnikasi yordamida kiritish, tizimlashtirish, saqlash va foydalanish uchun tavsiya qilinadigan ma'lumotlar bazasini yaratishni taklif etadi. Mamlakatimizdagi deyarli barcha umumta'lim maktablari zamonaviy kompyuter va telekommunikatsiya texnologiyalari bilan jihozlangan. Bu esa, o'z navbatida, boshlang'ich sinf o'qituvchilarning o'z mehnat faoliyatlariga yangicha yondashuvlarini talab etadi. Boshlang'ich sinf darslari o'quv jarayoniga yangi texnologiyalarni joriy etilishi, o'qituvchini texnik vositalar tomonidan siqib chiqishiga emas, balki yangicha yondashuv orqali uning vazifasi va rolini o'zgartirib, o'qituvchilik faoliyatini yana-da serqirra, ijodiy va kreativ yondashuvga asoslangan kasbga aylantiradi.

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interfaol metodlar va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish kundan-kunga ortib bormoqda. Bunday bo'lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o'quvchilar faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish esa ularni egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topish, mustaqil o'rganish va fikrlash, tahlil qilish, hatto yakuniy xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishga o'rgatadi. O'qituvchi bu jarayonda shaxs rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik funksiyasini bajaradi. Boshlang'ich ta'limga zamonaviy axborotlar texnologiyalarini tatbiq etish o'quv mashg'ulotlarining samaradorligini oshiribgina qolmay, ilm-fan yutuqlarini amaliyotda qo'llash orqali mustaqil va mantiqiy fikrlaydigan, har tomonlama barkamol yuksak ma'naviyatli shaxsni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich sinflarda zamonaviy axborotkommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish o'quvchilarni mustaqil fikrlashga, ijodiy izlanish va mantiqiy fikrlashlarini kengaytirish bilan birga ularni darslarda o'rganganlarini hayot bilan bog'lash



hamda darsga qiziqishlarini oshirishga yordam beradi. O‘qituvchilarning bunday zamonaviy talablar asosida yaratilgan sharoitlardan samarali foydalanib, darslarni ilg‘or pedagogik hamda axborot kommunikatsiya texnologiyalari asosida tashkil etilishi ta‘lim-tarbiya jarayonini sifatini kafolatlaydi. Aytish joizki, multimedia ilovalarini har bir darsda qo‘llash natijasida o‘quvchilarda mustaqil, ijodiy fikrlash yana-da rivojlanadi.

So‘zimiz yakunida aytish mumkinki, axborot kommunikativ vositalarining boshlang‘ich sinf darslarida qo‘llanilishi va darsning sifati va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 sentyabrdagi “Xalq ta‘limi tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi № PQ-3931-sonli Qarori.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29- apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta‘limi tizimini 2030- yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni. 3. Tolipov U.K., Sharipov Sh.S. O‘quvchi shaxsi ijodkorlik faoliyatini rivojlantirishning pedagogik asoslari. – T., Fan, 2012



**ONA TILI DARSLARIDA INNOVATSION PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR**

**Sabirova Dilorom Egamberganovna**  
**Xudayberganova Soxiba Kadirovna**  
 Gurlan tumani 42-AFCHO'I maktab  
 ona tili fani o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Bu maqolada ona tili darslarini o'tishda innovatsion texnologiyalarni qo'llash bo'yicha metodik tavsiya berib o'tilgan. Maktab o'quvchilarida innovatsiya bilan ishlash yaxshi samara beradi. O'quvchilarning darslarda texnologiyadan foydalanish madaniyatini o'stiradi. Ularning fikrlashini, dunyoqarashini oshirib shakllantirishi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

**Kalit so'z:** Ona tili, pedagogik texnologiya, metod, innovatsiya, kesim.

Innovatsion texnologiyalarni ona tili darslarida joriy etishning eng ahamiyatli jihatlaridan biri - bu o'quvchilarning o'z fikr va g'oyalarini bayon qilishga yonaltirilgan harakatlarning rag'batlantirilib borilishidir.

Masalan, ona tili darslari aniq fan bo'lganligi uchun o'qituvchilarda fikr va g'oyalar muamoli vaziyatlar orqali turmushda uchraydigan muommoli holatlar va undan chiqib ketishning maqbul yo'llarini topishga yo'naltirilgan bo'lishi kerak. Kundalik hayotdagi istimoliy munosabatlarni, tabiat va tabiiy hodisalarning o'rtasidagi aloqalarni badiiy ko'rinishi tarzda yoritish asosida vujudga keltirilgan muomolarni hamkorlikda, ro'lli o'yinlar orqali hal etishi mumkin.

Ona tili darslarida innovatsion texnologiyalardan foydalanishning yuzdan ortiq turi mavjud bo'lib, ularning ayrimlari tajriba-sinovdan o'tib, yaxshi natija ko'rsatgan. Keng qo'llaniladigan usullar –“Klaster”, “Aqliy hujum”, “Davom ettir”, “Taqdimot”, “Blits-so'rov”, “Muammoli vaziyat” kabilardan foydalanib, darsda keng ko'lamlil natijalarga erishish mumkin. Darsning o'tilgan mavzuni so'rash jarayonida “Sinkveyn”, “Teskari test”, “Aql charxi” uslublarini, yangi mavzuni tushuntirish vaqtida “Insert”, “Pinbord”, “Zinama-zina”, “Bumerang” texnologiyalarini, mavzuni mustahkamlash jarayonida “Venn diagrammasi”, “Baliq skeleti”, “Nima uchun?”, “Qanday?”, “Konseptual jadval”, “Nilufar guli” kabi grafik tashkil yetuvchilar hamda “Tushunchalar tahlili”, “T-jadval”.

“Kesim” mavzusi bo'yicha FSMU texnologiyasi qo'llanganda taxminan quyidagi fikrlar umumlashishi kerak:

FSMU texnologiyasi	
<b>F</b>	Gapning mazmuniy markazini tashkil etib, boshqa bo'laklarni o'z atrofida birlashtiruvchi, tasdiq-inkor, shaxs-son, zamon, mayl ma'nolarini ifodalovchi, turli turkumlar orqali kelishi mumkin bo'lgan bosh bo'lak kesim deb ataladi.
<b>S</b>	Kesim gapning mazmuniy markazini tashkil etganligi uchun boshqa bo'laklar qatnashmasdan ham kesim orqali gap hosil qilish mumkin.
<b>M</b>	O'qiyapmiz, uxlabdilar, ketgan.
<b>U</b>	Gapda kesim qatnashmasa gap mazmunan tugallanmaydi, tugalangan fikrni ifodalamaydi. Kesim gapning mazmuniy markazidir.

Ona tili fanidan "Gapning ikkinchi darajali bo'laklari mavzusi o'rganilgandan so'ng o'quvchilarga "Guruhlarda ishlash texnologiyasi" yordamida "Men aniqlovchiman!" mavzusida ijodiy matn tuzish beriladi. Ushbu metod yakka tarzda, kichik yoki katta guruhlar tomonidan ham amalga oshishi ham mumkin. Mavzu borasidan matn o'quvchilar yordamida taqdim etiladi. Bu texnologiya yordamida o'quvchilarning jamoada ishlash malakalari shakllantiriladi, xotirasi mustahkamlanadi, yozma yoki og'zaki savodxonligi o'stirilib, ijodiy matn yaratish ko'nikmasi yanada mustahkamlanadi. Ona tili darslarida o'quvchilarning yozma nutqi va imloviy savodxonligini mustahkamlash niyatida matn yaratish borasidan ko'pgina qiziqarli topshiriqlar taqdim etish mumkin. Shuningdek, ona tili fanining boshqa mavzularida ham bu texnologiyadan foydalanish mumkin. Bugungi kunda innovatsion texnologiyalardan foydalanish sohasidagi muhim yo'nalishlardan biri interfaol ta'lim va tarbiya metodlarini joriy etishdan iborat.

**Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. K. Qosimova, S. Matchonov, X. G'ulomova, SH. Yo'ldosheva, SH. Sariev “Ona tili o'qitish metodikasi”. T. “Noshir”. 2009 .



## O‘QUVCHILARNI IJODIY FIKRLASHGA YO‘NALTIRISHDA “SINKVEYN” METODINING AHAMIYATI

**Sabirova Gulchexra O'ktamovna**

Xorazm viloyati Urganch shahar

22-sonli maktabning boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada boshlang‘ich sinflarda interfaol metodlarni qo‘llashning ahamiyati, o‘qish darslarida “Sinkveyn” metodini qo‘llash orqali ijodiy fikrlashga yo‘naltirish va integratsiya jarayonini yuzaga keltirish imkoniyatlari ko‘rsatib o‘tilgan.

**Kalit so‘zlar:** metod, Sinkveyn, mavzu, ijodiy fikr, mustaqil ish, kompetensiya.

Ma'lumki, ta'limda ilg‘or pedagogik va yangi axborotlar texnologiyalarini tatbiq etish o‘quv mashg‘ulotlarining samaradorligini oshiribgina qolmay, ilm-fan yutuqlarini amaliyotda qo‘llash orqali mustaqil va mantiqiy fikrlaydigan, har tomonlama barkamol yuksak ma'naviyatli shaxsni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Boshlang‘ich sinflarda dars samaradorligini oshirishda interfaol metodlar o‘ziga xos o‘rin tutadi, shu bois quyida “Sinkveyn” metodidan foydalanish imkoniyatlariga to‘xtalamiz.

Sinkveyn usuli (5 qator yoki qofiyasiz she‘r)

Sinkveyn- fransuz tilida “5 qator” ma‘nosini bildiradi. .

Sinkveyn tuzish qoidalari:

1-qator: Mavzu bir so‘z bilan ifodalanadi ( odatda ot tanlanadi).

2-qator: Mavzu ikkita sifat bilan ifodalanadi (2 ta sifat yoziladi).

3-qator: Mavzu doirasidagi harakatni uchta so‘z bilan ifodalanadi.(3 ta fe‘l yoki ravishdosh yoziladi).

4-qator: Mavzuga nisbatan munosabatni anglatuvchi va to‘rtta so‘zdan iborat bo‘lgan fikr yoziladi. (4 ta so‘zdan iborat jumla (gap) yoziladi).

5-qator: Mavzu mohiyatini takrorlaydigan, ma‘nosi unga yaqin bo‘lgan bitta so‘z yoziladi (mavzuga ma‘nodosh (sinonim) so‘z yoziladi).

Masalan: 1-sinf “O‘qish” fanidan “Suv-shifo” mavzusini mustaqil o‘qish va u asosda sinkveyn tuzish so‘raladi:

Suv

Zilol, tiniq.

Oqadi, mavjlanadi, jilvalanadi.

Ariqlarda zilol suv oqyapti.

Obi hayot.

Bu bilan bir qatorda har bir sinfda mustaqil o‘qish ko‘nikmalarini shakllantirishda mustaqil ish jarayonini tashkil etgan holda sinkveynlar tuzdirishimiz mumkin, bunda e‘tibor ma‘nodoshi bor so‘zga qaratilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Kuzga oid mavzular doirasida “Paxta” so‘ziga,

Paxta.

Oppoq, momiq.

Ekiladi, sug‘oriladi, teriladi.

Dalalarda oppoq paxta ochildi.

Oq oltin

“Quyosh” so‘ziga qiyidagicha tuzish mumkin:

Quyosh

Issiq, katta.

Isitadi, qizdiradi, yoritadi.

Tongda quyosh charaqlab chiqdi.

Oftob.

Mavzular asosida vatan, yer, tabiat hodisalariga oid ham sinkveynlar tuzish mumkin.

Xulosa shuki, “Sinkveyn” metodi asosida o‘qish va ona tili darslari integratsiyasini ham yuzaga keltirishimiz mumkin.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. G‘afforova T va b. 1-sinf o‘qish darsligi T-2019.

2. G.Boymurodova va boshq. O‘qish “1-sinf o‘qituvchilari uchun ilg‘or pedagogik va axborot kommunikatsiya texnologiyalarini amaliyotga joriy etish bo‘yicha metodik qo‘llanma T-2014.

3. F.Mo‘minova. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ijodiy fikrlashga yo‘naltirishda “sinkveyn” metodidan foydalanish yo‘llari.





**QOZOQ TILI DARSLARIDA SO‘Z BIRIKMASINI INTERFAOL USULLAR ORQALI O‘RGATISH BO‘YICHA TAVSIYALAR**

**Sadirxanova Aynur Bakitovna**  
**Beknazarova Munira Nurmurzayevna**  
 Navoiy viloyati, Tomdi tumani  
 16-maktab qozoq tili fani o‘qituvchilari

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada qozoq tili darslarida so‘z birikmasini interfaol usullar orqali o‘rgatish bo‘yicha tavsiyalar yoritilgan.

**Kalit so‘z:** so‘z birikmasi, grammatika, jadval, sintaktik xususiyat, eslab qolish...

Jamiyatimizdagi ko‘pchilik insonlar o‘qituvchilarni kunlar, haftalar va oylar davomida o‘qitiladigan fan bo‘yicha asta-sekinlik bilan turli xil ko‘rsatma va topshiriqlar beradigan hamda bir maromda qandaydir bilimlar majmuasini o‘quvchilarga singdiradigan zerikarli mutaxassislar sifatida tushunadilar. Lekin ularning qanday ko‘rsatma va topshiriqlar berishlari hamda bunday usullar qanday samara berishini ko‘pchilik bilmaydi yoki tushunmaydi. Shuning uchun ham, yillar davomida ta‘lim berishning bir qancha usullari va uslubiyati vujudga keldiki, ularning jamiyatdagi o‘rni, ahamiyati beqiyosdir. Quyida o‘quvchilariga “**So‘z birikmasi**” mavzusini qo‘shimcha materiallar asosida va o‘zbek tili va qozoq tili grammatikasini solishtirgan holda interfaol usullar orqali o‘rgatish bo‘yicha so‘z yuritmoqchimiz.





Ba’zi bir ta’lim berish uslublari yosh bolalarning bilim olish jarayonini o’rganish asosida tashkil etilgan bo’lsa, boshqalari dars berish jarayonida ro’y beradigan muammolarni hisobga olgan holda tashkil etilgan. Bugungi kunda interfaol usullardan foydalanish darsni jonli tashkil etishni ta’minlaydi. Shu bilan bir qatorda, avvalgi bilimlar va yangi axborotlar o’rtasida bog’lanish hosil qilib, berilgan materialni to’la tushunishga zamin yaratadi.

Ushbu jadvalni o’zbek va qozoq tillarida tayyorlagan holda o’quvchilarga o’rgatish bilan ularda eslab qolish qobiliyatini kuchayishiga erishamiz.

t/r	So’z birikmalari	boshqaruv	moslashuv	bitishuv
1	<b>Maktabdan kelmoq</b>			
2	<b>Suveren davlat</b>			
3	<b>Teng huquqli</b>			
4	<b>Maktab bog’i</b>			
5	<b>Mening Vatanim</b>			

Qozoq tilining **sintaktik xususiyatlari**: 4 xil sintaktik aloqa turi (moslashuv, munosabatlashuv, boshqaruv, bitishuv), **qozoq tili darsliklarida** esa, 5 ga bo’lib o’rganiladi. 4 xil gap turi (darak, so’roq, buyruq va undov) farqlanadi. Gap bo’laklari tasnifi va tavsifi, gapda so’zlar tartibi umumturkiy qonuniyatlarga asoslanadi. Shu tartibda qozoq tilidagi jadval bilan ishlagan holda qoidalarimizni mustahkamlab olamiz.

Мысалдар	Қыысу	Меңгеру	Матасу	Қабысу	Жанасу
Мен ўйрендим					
Ўткiрдiң жузи, Кестенiң бизi					
Ерте туып, кеш қалған					
Темiр күрек					
Үйдi көрдiм					

Bunday o’qitish o’quvchilarda eslab qolish, fanga qiziqish va xotirani mustahkamlashni shakllantiradi.

**“Ma’lumotnoma” usuli. Bunda o’quvchilar rasm asosida so’z birikmasi tuzadilar va bog’lanishiga ko’ra aytadilar.**



- Yashash joyi:
- Yashash tarzi:
- Oziqlanishi:



- Yashash joyi:
- Yashash tarzi:
- Oziqlanishi:

Xullas, interfaol usuldagi o’quv jarayonida yakka tartibda, juft bo’lib ishlash, guruhlarda ishlash, izlanishga asoslangan loyihalar, rolli o’yinlar, hujjatlar bilan ishlash, ijodiy ishlash kabi



metodlardan foydalanish mumkin. Bu, ayniqsa, muayyan iqtidor sohibi bo‘lgan o‘quvchilarning qirralarini yaxshiroq ochishga uning ijodkorligini rivojlantirishga imkon beradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Til ta‘limining xalqaro kompetensiyaviy joriy etishga doir mulohazalar T., 2015.
2. Internet saytlari: [www. ziyo.net](http://www.ziyo.net), [www. edu.uz](http://www. edu.uz), [www. kitob.uz](http://www. kitob.uz).



## TEKNOLIGIYA FANINI INTERFAOL METODLAR YORDAMIDA TASHKIL QILISH

**Sadullayeva Aziza Qahramon qizi, Xasanova Maxbuba**  
Yangiariq tumani 23- maktabning texnologiya fani o'qituvchilari

**Annotatsiya:** Ushbu maqola texnologiya fanidan interfaol metodlardan foydalanib o'quvchilarni qiziqishlarini oshirish va o'qituvchilarga metodik tavsiyalar berish.

**Kalit so'zlar:** robototexnika, to'garak, zamonaviy kasblar, dasturlash.

Texnologiya ta'limining muhim jihati shundaki, texnologiya ta'limi barcha fanlarda o'quvchilarning egallagan bilimlarini amalda ifodasi sifatida namoyon bo'ladi. Bundan tashqari, texnologiya fanining asosiy vazifalaridan biri o'quvchilarga kasblar haqida to'liq ma'lumot berish va ularni kasb- hunarga yo'naltirish hisoblanadi. "Umumiy o'rta ta'limning milliy o'quv dasturi"ning ishlab chiqilishi texnologiya darsi dasturiga tub burilish bo'ldi. Bunda sinflar kesimida dasrlarning uzluksizligi ta'minlanganligi, "Mexatronika, robototexnika" bo'limlarining kiritilishi juda muhimligi bilan ajralib turadi. Texnologiya faniga yangidan kiritilgan "Mexatronika va robototexnika" bo'limlari o'quvchi yoshlarni kelajak hayotga tarbiyalashda, zamonaviy kasblarni egallashlarida muhim o'rin tutadi. O'quvchilar robototexnikani o'rganish orqali turli dasturlash tillarini o'rganadilar. Robot yasash jarayonida o'quvchilar boshqa qator fanlardan egallagan bilimlarini amaliyotda qo'llaydilar. Uni dasturlashda esa informatika fanidan egallagan bilimlarini namoyon qiladilar, boshqa dasturlash tillarini ham o'rganishlariga to'g'ri keladi. Hozirda ijtimoiy tarmoqlarsiz insonning hayotini tasavvur qilish qiyin. O'quvchilarimiz "One Million Uzbek Coders" loyihasida ishtirok etib, "Coursera" kurslarida ta'lim olib, IT sohasida ham ko'pgina yutuqlarga ega bo'lmoqdalar. Innovatsion texnologiyalar jamiyatning ajralmas qismiga aylanmoqda. Maktab o'quvchilarini hozirda dasturlash, modellashtirish, dizayn-loyihalash, robototexnika, robot dizayni sohalarini qiziqitirmoqda. Axborotni olish, qayta ishlash va amaliyotda foydalanish STEM ta'limi dasturining asosini tashkil etadi. Bunda o'quvchi bilim va izlanishlari asosida loyihalash ishlarini bajarishi kerak bo'ladi. Amaliy faoliyat jarayonida bilimlarni olish, amaliyotda foydalanish, konstruksiyalash, texnik ijodkorlik qobiliyatlarini oshirishga qaratiladi.

O'quvchilarga "Mexatronika, robototexnika" ga oid bilimlarni berish, STEAM dasturini amalga oshirish vazifalarini to'garak mashg'ulotlarida amalga oshirish mumkin. To'garak mashg'ulotlarini tashkil qilishda quyidagi jihatlarni e'tiborga olish kerak:

1. Tanlash erkinligi (O'quvchiga kichik bo'lsa ham tanlash erkinligini berishimiz kerak. Masalan, ularga bir biror narsani yasash vazifasini berib yasash uchun materialni (yog'och, karton, fomeks, tunuka) tanlash imkonini berishimiz mumkin.

2. Bajarish uchun qadamlar. Berilgan vazifani bajarishda o'quvchining qo'ygan qadamlarini tanlash imkonini beramiz. Bunda o'quvchi o'ziga bo'lgan ishonch hissini tuyadi va o'zi mustaqil harakat qilib, qobiliyatlarini namoyon qiladi.

3. Kutilmagan vaziyatlar. Amaliy ish davrida kutilmagan vaziyatlarning bo'lishi ham muhim. Masalan, tayyorlanadigan buyum uchun ketadigan xom ashyoni aniqlash vahokazo.

4. Ta'limda ochiqlik bo'lishi ham muhim. Bunda berilgan topshiriq( hamma bir xil ) bo'yicha bajarilgan mashqlarni hamma ko'rib turadi, o'quvchilar bir- birlariga ko'maklashadilar, xatolari bo'lsa tuzatadilar, bir- birlariga yordam beradilar.

Texnologiya fanidan to'garaklarni tashkil qilish muhim masala. Shunday ekan, to'garaklarni an'anaviy bo'lib qolgan mavzularda emas, balki, zamonaviy talab darajasidagi mavzularda tashkil etish maqsadga muvofiq bo'ladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. "Innovatsion texnologiyalar: nazariya va amaliyot" Toshkent 2011
2. Umumiy o'rta ta'limning milliy o'quv dasturi 2021
3. Ziyomhammadov B., Abdullaeva Sh. Ilg'or pedagogik - texnologiyalar. - Toshkent: Abu Ali Ibn Sino.



## BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING IJODIY QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH

**Abdullayeva Saida Sadullayevna**  
 Urganch shahridagi 18-son umumiy  
 o'rta ta'lim maktabining  
 boshlang'ich sinf o'qituvchisi  
 Telefon: + 998 88 600 59 55

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijtimoiy qobiliyatlarini rivojlantirish va mamlakatning ijtimoiy –iqtisodiy rivojlanishi bilan uzviy bog'liq bo'lgan yangiliklarni kiritishdir.

**Kalit so'zlar:** innovatsiya, pedagogic jarayon, o'qitish uslubi, ijodiy fikrlash, axborot texnologiya, texnik vositalar, individual rivojlanish

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, badiiy o'qish darslarida bolaning ijodiy qobiliyatini rivojlantirish bo'yicha tavsiyalar. Boshlang'ich maktab yoshidagi o'quvchilar shunday bir davrdalarki, bu vaqtda ular nafaqat jamiyatda yashash qobiliyati, balki ijodiy fikrlash ham shakllantiriladi. Ayrim boshlang'ich sinf o'quvchilaribolani o'qishga o'rgatish asosiy vazifa deb bilishadi. Albatta o'quvchilarni birma-bir o'qish ko'nikmalarini shakllantirish o'qituvchidan katta mahorat va mas'uliyat talab etadi. Biroq, yuzaga chiqmagan bolalar iste'dodli muammosi bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir. Bu masalani hal qilishda ya'ni o'quvchilar ijodiy qobiliyatlarini shakllantirishga imkon beradigan vositalardan biri badiiy o'qish darsidir. Odatda, badiiy faoliyat bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishning eng samarali yo'nalishi hisoblanadi. Bunga tasviriy san'at, texnologiya va musiqa darslari yordam beradi. Ammo, ona tili va o'qish savodxonligi, matematika va tabiiy fanlar ham o'quvchilarning ijodiy salohiyatini rivojlantirish uchun juda ko'p imkoniyatlarga ega.

Aslida, ijodiy qobiliyat qobiliyatlarning standart tushunchasidan tashqariga chiqish qobiliyatini anglatadi. Badiiy o'qish darslarida o'qituvchi tomonidan qo'yilgan maqsadga bog'liq ravishda, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish jarayoni turli yo'llar bilan amalga oshirilishi mumkin. Boshlang'ich sinflarda yozma va og'zaki nutqni rivojlantirishning innovatsion usuli sifatida turli xil o'yinlardan foydalaniladi. Shuni esda tutish kerakki, boshlang'ich sinf bolasi hali ham bunday o'yinlarga moyil bo'ladi. O'quvchilarning ichki imkoniyatlarini ochishda o'z isbotini topgan metodlarni berib o'tamiz.

Ona tili va o'qish savodxonligi darsining boshida soddalashtirilgan "Aqliy hujum" dan foydalanish. Bu esa o'quvchilar bilimlarini takrorlagan holda, o'tilgan materiallarni eslab qolishga, yangi bilimlar olishga tayyorgarlik ko'rishda yordam beradi. "Men o'zimni namoyon qilaman". Yangi adabiy tushunchalar bilan tanishishdan oldin, o'quvchilar o'zlarini eng yaxshi tomondan ko'rsatish taklif qilinadi. Ushbu uslub ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishdan tashqari, notiqlik mahoratini rivojlantirishga yordam beradi. Yaxshi rivojlangan monologga ega bo'lgan o'quvchi mantiqiy, izchil va oqilona ravishda o'z fikrlarini ifoda eta oladi, o'quv dasturidagi murakkab savollarga batafsil javob bera oladi, darsliklar, badiiy adabiyot va xalq og'zaki ijodi matni ustida mustaqil ishlay oladi. "So'zlarni taqqoslash". Bunda o'quvchilarga har xil ma'noga ega bo'lgan ikkita so'zni (qazilma va ko'pyoq) taqqoslash taklif qilinadi. "Sinonimni top". Atamashunoslikka murojaat qilmasdan, o'quvchilarni o'xhash ma'noli so'zlarni toppish taklif qilinadi. Buni ommaviy ish shaklid, balki juftlikda ham amalga oshirish mumkin.

"She'ni davom ettir". Bunda o'quvchilarga she'rdagi yo'qolgan satrlarni davom ettirish so'raladi: Quدرات Hikmatning "Bahor" she'ri misolida. {1, 105b.}

Bedapoya yam-yashil o'tloq

Chinorlarda qushlar chug'urlar.

Ko'klam ko'rkin ko'rdingmi, o'rtoq.

"Taqlid". Bu metodni o'tkazishda mavzu o'quvchilarga tushunarli bo'lishi va bolalar topshiriqni bajarish jarayonida asar qahramoniga mos harakatlar qilishi talab qilinadi. O'quvchi obrazga kirishi bilan nutq va harakatlar hamohang bo'lishi kerak. "Yozuvchi". Ushbu yoshdagi bolalar xayol qilishni yaxshi ko'radilar, uni har jihatdan rag'batlantirish kerak. Dastlab, o'quvchilar o'qilgan matn uchun boshqa sarlavha taklif qiishadi. Barcha aytilgan variantlar ijobiy baholanib,



ularning ichidan eng yaxshi g'oyalar saralanadi. O'qituvchi asar yakunini ochiq qoldiradi va o'quvchilardan matnning oxirini "yozib tugatish" so'raladi. Bu bolaga asar qahramonlarining tarixiga chuqur kirib borish uchun imkoniyat bo'ladi. Asarni yangi talqinda ixtiro qilish juda yaxshi uslubdir. "Ijodiy yengillik mashqlari bolaning tanasiga ortiqcha kuchlanishdan xalos bo'lishga, psixologik muvozanatni tiklashga va shu bilan ruhiy salomatlikni saqlashga yordam beradi" {2, 512 b}.

Xulosa qilganda, zamonaviy ta'lim barcha o'quvchilarga o'z qobiliyatlarini namoyish etish va barcha ijodiy qobiliyatlarini istisnosiz namoyish etish imkoniyatini beradi. Bugungi jamiyat quti tashqarisida o'ylaydigan, muammoli vaziyatdan chiqish yo'lini topa oladigan, nostandart qarorlar chiqaradigan va ijodiy fikrlay oladigan shaxslarga muhtoj. Buning uchun, boshlang'ich sinflardan boshlab bolalarni ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish maqsadga muvofiq.

**Adabiyotlar:**

1. Matchonov S. va boshqalar. O'qish kitobi 4-sinf – Toshkent : "Yangiyo'l poligraf servis", 2020. 105bet
2. Vigotskiy L.S. Bola rivojlanishining psixologiyasi.-Moskva: "Eksmo", 2010. 512 b.



**BIOLOGIYA DARSLARNI ZAMONAVIY METODLAR ASOSIDA TASHKIL ETISH**

**Saidov Alisher**

Yangiariq tumani 23-son umumiy  
o'rta ta'lim maktabi

**Abdullayeva Shaxlo Botirovna**

Xiva tumanidagi 23-son umumiy o'rta ta'lim  
maktabining biologiya fani o'qituvchilari

**Annotatsiya:** Ushu maqolada biologiya darslarini interfaol metodlar yordamida o'qitish haqida fikr boradi.

**Kalit so'zlar:** Zamonaviy metodlar, “Men boshlayman, sen davom ettir”, “Keyingi bo'g'inni top”, “Talaffuzda adashmang”, “Egizaklar.

Bugungi shiddat bilan rivojlanayotgan davrda barcha sohalar qatori ta'lim sohasini ham zamon ruhiga mos ravishda isloh qilish: ta'limning yangicha uslublarini soha olib kirish, maktab va ta'lim muassasalarini rivojlangan davlatlar ta'lim standarti asosida qayta qurish, ta'lim tarbiya jarayonida ta'limning yangicha metodlaridan foydalanish, o'quvchilarning dunyoqarashiga mos milliylik bilan zamonaviylikning uyg'un holda ta'lim jarayonini tashkil etish bugungi kunda har bir pedagogning ustuvor vazifalaridan biriga aylanib qolmoqda. Pedagog noan'anaviy darslarni tashkil etishda ta'limiy o'yinlarni tanlash va uni o'tkazishda o'quvchilarning yosh xususiyati, bilim saviyasi, o'yinning o'quvchilarda zaruriy bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish va rivojlantirishga qaratilganligi, dars maqsadi bilan o'yin maqsadi orasidagi uyg'unlikni ta'minlash, o'yinning ularda o'qish istagini, bilim olish va izlanish xohishini vujudga keltirishi, o'yinda ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlarning birligi kabilarni hisobga olishi kerak.

**“Men boshlayman, sen davom ettir” o'yini.** O'quvchilar ikki guruhga ajratilib, birinchi guruhdan bir so'zning birinchi qismini aytish, ikkinchi guruhdan esa shu so'zning ikkinchi qismini topish talab etiladi. (mas, dar-... o'sim -... ol-..., sham -..., ild -... v.h) Bu o'yin partadoshlar orasida ham o'tkazilishi mumkin.

Ta'lim – tarbiya jarayonida asosan o'quvchilarda ta'lim olish motivlarini, ularni turi yo'lanishlardagi qobiliyat va qiziqishlarini oshiradigan, biror kasbga moyilliklarini ko'rsatadigan, interfaollikka asoslangan didaktik o'yinlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Ular o'quvchilarda tahlil qilish, hisoblash, o'lchash, yasash, sinash, kuzatish, solishtirish, xulosa chiqarish, mustaqil qaror qaabul qilish, guruh yoki mustaqil jamoa tarkibida ishlash, nutq o'zlashtirish, til o'rgatish yangi bilimlar olish faoliyatlarini rivojlantiradi. Umumiy o'yinlar nazariyasiga ko'ra, mavjud barcha o'yin turlarini tasniflashga ularni funksional, mavzuli, konstruktiv, didaktik, sport va harbiy o'yinlarga ajratiladi.

**“Talaffuzda adashmang” o'yini.** O'qituvchi o'quvchilarga x va h yoki f-p tovushlari ishtirok etuvchi so'zlardan aytishni topshiradi. O'quvchilar ikki guruhga bo'linib, topshiriqni bajarishlari mumkin. Shunda kim so'zni noto'g'ri aytsa, o'yindan chiqadi. Mavzu asosida so'zni aytgan o'quvchi shu so'zni taxtada yozadi va imlosi bilan taqqoslanadi. Belgilangan vaqtda eng ko'p to'g'ri so'z aytgan o'quvchiga, sinfda o'quvchilar o'z qo'llari bilan yasagan o'yinchoqlardan sovg'a sifatida beriladi.

Xulosa o'rnida shuni aytish kerakki, o'quvchilarni o'qitishda e'tibor qaratishimiz lozim bo'lgan jihat mavjudki, u ham bo'lsa, endigina maktabga kelgan bolaning psixologiyasidir. Bizga ma'lumki, 6-7 yoshli bola hali o'yin faoliyatidan to'liq ajralmagan bo'ladi. Shuning uchun ham, tajribali pedagoglar tomonidan darsni tashkil etishda ana shu jihatga e'tibor qaratiladi. Yuqorida keltirgan o'yin metodlari ham bola psixologiyasi hamda samarali ta'limni tashkil etish uchun dars jarayonida qo'llash maqsadga muvofiq bo'ladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. R.A. Mavlonov, M. Arabova, G'. Saloxitdinova “Pedagogik texnologiya” T. O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi. “Fan” nashriyoti. 2008.
2. J. Yo'ldoshev, F. Yo'ldosheva, G'. Yo'ldoshev “Interfaol ta'lim sifat kafolati” T. 2008.



## МАКТАБДА BIOLOGIYA FANINI O'QITISHDA O'YINLI - QIZIQTIRUVCHI TEKNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

**Saidova Dilnoza Karimboyevna**

Urganch tumani 7- maktab

**Rakhimova Rayhon Egamberganovna**

Urganch tumani 24- maktab

Biologiya fani o'qituvchilari

**Annotatsiya:** Ta'lim muassasalarida o'quvchilarni mustaqil bilim olishiga yo'naltirilgan texnologiyalardan foydalanishga o'rgatish va doimiy ravishda faolligini oshirib borish lozim. O'quv jarayonida kompyuter texnologiyalari va axborot-kommunikasiya vositalaridan foydalangan holda ta'lim jarayonini tashkil qilish ta'lim samaradorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

**Kalit so'zlar:** biologiya, innovatsiya, metod, axborot texnologiyalari.

Bugungi kun talabi ta'limni sifat o'zgarishlariga olib keluvchi yangicha yondashuvlarni izlashga undamoqda va uni o'rganishdagi metodlar ham o'zgarmoqda. Ta'limda yangi bilimlarni amalda qo'llash natijasi innovatsiyalarga asoslangan yangi ta'lim yaratilishiga olib kelmoqda. O'quvchi o'zlashtirgan bilimni amaliyotda qo'llay bilishi uchun uni o'z vaqtida mustahkamlashi, boshqa tushunchalarni o'rganishda qo'llay bilishi va olingan bilimlarni tizimlashtirish ta'lim samaradorligini ta'minlashga olib keladi.

Biologiya o'quv predmetining asosiy vazifasi o'quvchilarni zamonaviy biologiyaning ba'zi bir umumiy g'oyalari bilan tanishtirish, biologiyaning amaliyotdagi tadbirini va kompyuterlarning zamonaviy hayotdagi rolini ochib berishdan iborat. Shunday ekan, “Biologiya” fanini o'qitish samaradorligini oshirish o'quv mashg'ulotlarini tashkil etish hamda o'tkazishda pedagogik va axborot texnologiyalaridan keng foydalanish, o'qitish mazmuniga mos dasturiy ta'minotini ishlab chiqish, ularni o'quv jarayoniga joriy etish asosiy vazifalardan hisoblanadi. Ushbu vazifalarni dolzarbligini e'tiborga olgan holda “Biologiya” fanini o'qitishda o'yinli texnologiyalardan foydalanish holatini o'rganish, tahlil etish, ulardan samarali foydalanish metodikasini, mos uslubiy tavsiyalarni ishlab chiqish zarur.

O'yinli texnologiyalardan foydalanishning asosini o'quvchilarning faollashtiruvchi va jadallashtiruvchi faoliyati tashkil etadi. O'yin olimlar tadqiqotlariga ko'ra mehnat va o'qish bilan birgalikda faoliyatning asosiy turlaridan biri hisoblanadi. O'yinlar turli maqsadlarga yo'naltirilgan bo'ladi. Ular didaktik, tarbiyaviy, faoliyatni rivojlantiruvchi va ijtimoiylashuv maqsadlarda qo'llanadi. O'yinning didaktik maqsadi bilimlar doirasi, bilish faoliyati, amaliy faoliyatida bilim, malaka va ko'nikmalarni qo'llash, umumta'lim malaka va ko'nikmalarni rivojlantirish, mehnat ko'nikmalarini rivojlantirishni kengaytirishga qaratilgan bo'ladi. O'yinning tarbiyaviy maqsadi mustaqillik, irodani tarbiyalash, muayyan yondashuvlar, nuqtai nazarlar, ma'naviy, estetik va dunyoqarashni shakllantirishdagi hamkorlikni, kollektivizmni, jamoaga kirishib keta olishni, kommunikativlikni tarbiyalashga qaratilgan bo'ladi. Didaktik tamoyillarni hisobga olgan holda, o'quvchilarga nafaqat faktlarning qat'iy ilmiy bayonini berish, balki o'qitishning turli qiziqarli metodlarini ham qo'llash lozim. Masalan, ko'pchilikka ma'lum va ommabob bo'lgan krossvord o'yini o'quvchilarda qiziqish uyg'otishi tabiiydir. Krossvord ko'rinishidagi so'rov shakli o'quvchilar uchun har doim qiziqarli va o'ziga tortadigan metoddir. Mustaqil ijodiy faoliyatning bunday shaklidan foydalanilganda darsda faqatgina kuchli o'quvchilargina emas, balki kuchsiz o'quvchilar ham faol ishtirok etadilar. Darslarda qiziqtirishdan foydalanishning boshqa shakllaridan, ya'ni rebus va boshqotirmalardan ham foydalanish yaxshi samara beradi. Ushbu qiziqtiruvchi metodlardan foydalanganda, o'qituvchi darsni maqsadli tashkil qilishni rejalashtiradi, ya'ni krossvord, rebus, boshqotirmalarni fanning mazmuniga mos tayyorlaydi. Darsning maqsadini aniqlaydi va kutilayotgan natijani loyihalaydi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. <http://shoxista.uz/archives>.
2. Ishmuhamedov R.J. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari. - T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2005.
3. Lerner I.YA. O'qitish metodlarining didaktik asoslari. M., 1991



**ONA TILI VA ADABIYOT DARSLARIDA O'QUVCHILARNING NUTQ  
MALAKASINI OSHIRISH USULLARINING AHAMIYAT**

**Saidova Sohiba**

Gurlan tumani 43-son XT va AFCHO'DIMI  
ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Maqolada ona tili va adabiyot darslarida o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini rivojlantirishda didaktik o'yinlardan foydalanish usullari ko'rsatib berilgan.

**Kalit so'zlar:** uslubiy, punktuatsion, motiv, leksik o'yinlar, davom ettir, bayon.

O'quvchilarning og'zaki va yozma nutqni egallashlarida fonetikadan olgan bilimlarining ahamiyati katta. Shu boisdan ham ona tili ta'limida fonetik o'yinlar tizimi tashkil etish o'quvchilar nutqini boyitishda muhim o'rin tutadi.

Fonetik o'yinlar tizimi o'yinlaridan ona tilidan yangi mavzuni o'rganish, mustahkamlash, takrorlash, tekshirish, umumlashtirish maqsadlarida foydalaniladi. Shuningdek, ular bolalarda orfoepik, orfografik, uslubiy, punktuatsion va shu kabi malakalar hosil qilishning yetakchi omili sanaladi. Quyida fonetik o'yinlardan namunalar va ularni o'tkazishi haida fikr yuritimiz.

**Fonetik o'yinlar.** Nutq tovushlari, unli va undosh, jarangli va jarangsiz undoshlar, bo'g'in, bo'g'in turlari (ochiq va yopiq bo'g'inlar), urg'u mavzulariga oid o'yinlar sirasiga kiradi. Misol keltiramiz. 1-topshiriq. Nuqtalar o'rniga mos tovushlarni qo'yib, so'zlarni o'qing. Arch. . . , so. . . , g'ish. . . , qan . . . , kish. . . , pish. . . balan. . . , do's. . . , pas. . . , monan. . . , pisand. . . , mush. . . , dar. . . , hunarman. . . va h.k. 2-topshiriq. O'n ikkita so'z berilgan (in, oz, es, iz, ov, il, esh, og', ig', ek, et). Ularni qanday qilib uch guruhga ajratib yozish mumkin? 2-topshiriq asosida bolalarning differensial-tabaqalashgan ishlarini tashkil etish mumkin. Bunda o'quv topshirig'i bir qancha variantlarda taklif etiladi.

I variant. Topshiriq a'lo va yaxshi baholarga o'qiydigan bolalar uchun: O'n ikkita so'zdan oldin "i" unlisi bilan, keyin "o" unlisi bilan, eng oxirida "e" unlisi bilan boshlanadigan bir bo'g'inli so'zlarni yozing, deb aytiladi.

II variant: Bu yerda uch xil topshiriq uch xil ko'rinishda, binobarin, uch xil shaklda o'rta baholarga o'qiydigan bolalarga berilishi mumkin: a) "i" unlisi bilan boshlanib, jarangli undosh bilan tugagan bir bo'g'inli so'zlarni yozing; b) "o" unlisi bilan boshlangan bir bo'g'inli so'zlarni yozing; v) "e" unlisi bilan boshlangan bir bo'g'inli so'zlarni yozing.

**Leksik o'yinlar.** O'quvchilarning so'z ma'nolari, so'zning o'z va ko'chma ma'nolari, ko'p ma'noli so'zlar, so'z va atama hamda ularning o'xshash va farqli tomonlari, antonim va sinonimlar, omonimlar bo'yicha nazariy bilimlarini mustahkamlash maqsadida leksik o'yinlardan foydalaniladi.

**“Davom ettir” o'yini** “Davom ettir” o'yinida o'qituvchi hikoyani boshlab beradi. O'quvchilar uni davom ettiradilar. Bunda o'quvchilarda ijodkorlik qobiliyati rivojlanib, bayon yoki insho kabi ijodiy ishlar yozish malakasi rivojlanadi va so'z boyligi ortadi. Bundan tashqari, ularda mustaqillik, o'z kuchiga ishonch hissi rivojlanadi. “Davom ettir” o'yinida ona tili va o'qish savodxonligi darslarida yoki darsdan tashqari mashg'ulotlarda foydalanish mumkin. 1-variant: “Umida barvaqt maktabga kelayotganida yo'lda...”. 2-variant: “Havo ilib, qorlar erib boshladi...”. 3-variant: “Biz sinfimizdagi barcha o'quvchilar, hayvonot bog'iga bordik...”.

**”Jonli hikoya” o'yini** “Jonli hikoya” o'yinida, o'qituvchi so'zlar aralash shaklda yozilgan kartochka-qog'ozlarni o'quvchilarga tarqatadi. Shundan so'ng o'qituvchi o'quvchilarga hikoya qilib beradi.

Bu o'yinni o'tkazishda darslikdagi hikoyalar yoki darslikdan tashqari hikoya va ertaklarni o'qish jarayonidan foydalanishlari mumkin. Muxtasar qilib aytganda, motivlar o'quvchilarning bilimlarini chuqur egallashlariga yordam beradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni. “Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”. 2020-yil 20-oktabr.
2. D.A. Hidoyatova. Malaka oshirish jarayonida interfaol metodlardan foydalanish.



## ОНА ТИЛИ О‘ҚИТИШ МЕТОДИКАСИ

Sayfulloyeva Ramilya Radikovna  
Abidova Nargizaxon Alimjanovna  
Navoiy tumani Uchquduq tumani  
3- IDUM boshlang'ich sinf o'qituvchilari

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada boshlang'ich sinflarda ona tili fanini o'qitish metodikasi va bugungi kunda ona tili fanining ahamiyati haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** ona tili, metodika, til, jamiyat, nutq, imlo, fikr, savod, ong, bilim.

Ma'lumki, jamiyatda til asosiy aloqa vositasi hisoblanadi. Til rivojlansa, jamiyat rivojlanadi. U orqali borliqni oqilona va mantiqiy bilish mumkin. Til birliklari yordamidagina tushunchani muhokama va xulosalash mumkin. Bilamizki, til va nutq tafakkur bilan uzviy bog'liq. Tilni o'rganish va nutqni o'stirish bilan o'quvchilarda fikrlash qobiliyati ham o'sib boradi.

Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi fanining predmeti o'quvchilarga o'zbek tilini o'rgatish yo'llari va vositalari, ona tilini egallash, ya'ni nutqni, o'qish va yozishni, grammatika va imloni o'zlashtirib olish to'g'risidagi ilmdir. O'quvchilarda, xususan boshlang'ich sinf o'quvchilarida ona tilini va savodxonlikni oshirish borasida bir necha xil metodika bor:

**1. Savod o'rgatish metodikasi,** ya'ni elementar o'qish va yozishga o'rgatish. Bolalarga savod o'rgatish pedagogika fanidagina emas, balki ijtimoiy hayotda ham juda jiddiy masala hisoblanadi. Chunki xalqning savodxonligi mustaqillik uchun, siyosiy onglik uchun, madaniyat uchun kurash qurolidir.

**2. O'qish metodikasi.** Boshlang'ich sinflarda o'qish predmetining vazifasi bolalarni to'g'ri, tez (me'yorida), ongli va ifodali o'qish malakalari bilan qurollantirish metodikasi hisoblanadi.

**3. Grammatika, fonetika, so'z yasalishini o'rganish metodikasi.** Bu bo'lim elementar to'g'ri yozuvga va husnixatga o'rgatishni, Grammatik tushunchalar, boshlang'ich imloni shakllantirishni nazarda tutadi.

**4. Nutq o'stirish metodikasi.** Bu bo'lim boshlang'ich sinflarda alohida o'rin tutadi. Bolalar birinchi navbatda tilni, nutqni o'quv predmeti sifatida anglaydilar, ular xohlagan va qiziqarli narsalarnigina emas, balki zaruriy narsa va hodisalar haqida o'ylab, rejali nutq tuzish zarurligini ham tushuna boshlaydilar. Ular o'zining grafik shakli bilangina emas, balki leksikasi, sintaktik va morfologik shakli bilan ham og'zaki nutqdan farq qiladigan yozma nutqni ham egallaydilar. Metodika bolalar nutqini boyitishi, sintaktik va boglanishili nutqini o'stirishni ham ta'minlash kerak.

Boshlang'ich ta'lim umumiy o'rta ta'lim olish uchun zarur bo'lgan savodxonlik, bilim va ko'nikma asoslarini shakllantirishga qaratilgan. Boshlang'ich sinflarda ona tilini o'qitish nafaqat ularning bilim darajasiga, savodxonligiga ta'sir qiladi, balki ularning o'z ona tilisi orqali vataniga, xalqiga bo'lgan muhabbati shakllana boshlaydi. Chunki Vatanga muhabbat, avvalo, ona allasi va ona tili orqali inson qalbiga singadi.

Darslar bugungi kunda malakali o'qituvchilar tomonidan turli o'qitish texnologiyalari orqali olib borilmoqda. Xususan, o'quvchilarga bilim berish, bilimlarini oshirishda mustaqil ishlarni uyushtirish, bilimlarni hisobga olish kabi kabi metodik tavsiyalar tizimi ishlab chiqilmoqda, texnik vositalardan unumli foydalanish, grammatik ta'limiy o'yinlarni joriy etish keng tus olmoqda. Ta'lim jarayonida test topshiriqlaridan, turli boshqotirma va jadvallardan keng foydalangan holda mashg'ulotlar uyushtirilmoqda.

**Ona tili – boshlang'ich sinflarda o'quv predmeti sifatida.** Til fikrni ifoda etuvchi asosiy qurol hisoblanadi. Til jamiyat a'zolarining bir- birini tushunishidagi asosiy vositadir. Til qanchalik takomillashsa, fikr ham shunchalik aniq va ravon bo'ladi. Maktabda ona tilini chuqur o'rganish zarurati tilning bajaradigan asosiy vazifalaridan kelib chiqadi.

K.D.Ushinskiy boshlang'ich maktab o'quv predmetlari tizimida ona tiliga katta ahamiyat berib, uni markaziy va yetakchi predmet hisoblagan. "Ajoyib o'qituvchi bo'lgan ona tili bolaga ko'p narsa o'rgatadiki, ko'p narsa bilib oladiki, 20 yil qunt bilan metodika jihatdan juda to'g'ri o'qiganda ham uning yarmicha o'rgana olmaydi. Ona tilining ulug' pedagogligi ham mana shundadir", - deydi u. Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish ularning ongli o'qishi va savodli yozishi uchun, og'zaki va yozma nutqning qonun-qoidalarini egallashi uchun kerakdir.



Boshlang'ich sinflarda ona tili mashg'ulotlari turi va mazmuni quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1. O'qish, yozuv, Grammatik materialni o'qish, kuzatishlar hamda o'quvchilarning ijtimoiy faoliyatlari bilan bog'liq holda, ularning og'zaki va yozma nutqini o'stirish.

2. Birinchi sinfga kelgan bolalarga savod o'rgatish, ya'ni ularni elementar o'qish va yozishga o'rgatish, bu ko'nikmalarni malakaga aylantirish.

3. Adabiy til me'yorlarini, ya'ni imloviy va tinish belgilariga rioya qilingan savodli yozuvni, to'g'ri talaffuzni o'rganish, nutq va uslubiy elementlarni egallash.

4. Grammatika, fonetika, leksikologiyadan nazariy materiallarni o'rganish, tildan ilmiy tushunchalarni shakllantirish.

5. O'quvchilarni o'qish va grammatika darslari orqali badiiy, ilmiy-ommabop va boshqa adabiyotlar namunasi bilan tanishtirish, ularda badiiy asarni idrok etish ko'nikmasini hosil qilish.

Bu vazifalarning hammasini boshlang'ich sinflarda ona tili predmeti hal etadi va ular ona tili dasturida aks etadi.

Xulosa qilib aytganda o'quvchilarni ona tili darslarida mustaqil, ijodiy fikrlashga o'rgatish, ular ongida ma'naviy-ma'rifiy inqilob hosil qilishga intilish lozim. Ularning ijodiy tafakkur tarzini shakllantirish, dars va mashg'ulotlarni o'quvchilarning nutqiy malakasini yuzaga kelishiga qaratish maqsad qilib olinadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Qosimova.K., Matchanov.S., Ona tili o'qitish metodikasi. Darslik.

2.Ushinskiy K.D. Tanlangan pedagogika asarlar. - Toshkent: "O'zdavnashr", 1959.

3. H.Matqosimova, Boshlang'ich sinflarda ona tilini o'qitish metodikasi.



## PEDAGOGIK MONITORING ORQALI TA'LIM SIFATINI BOSHQARISHNING NAZARIY ASOSLARI

**Sharipova Gulchehra Farxod qizi**  
Termiz davlat universiteti Pedagogika  
fakulteti, 1-bosqich magistranti

**Annotatsiya:** Ushbu maqola hozirgi kundagi yangiliklarni tatbiq etgan holda pedagogik ta'lim jarayonni ilmiy asosda tashkil etish va loyihalash yo'nalishlarini, pedagogik boshqaruvni tashkil etish va boshqarishni shuningdek, boshqaruv faoiyatlarida vujudga kelayotgan noan'anaviy muammolarni ijobiy hal etish borasida turli xil vazifalarni tahlil qiladi.

**Kalit so'zlar:** Ta'lim muassasasi rahbar-xodimlari ta'lim muassasida vujudga keladigan muammoli vaziyatlarda ham rahbarlarga xos tarzda, o'z vakolati doirasida faoliyat ko'rsatish, boshqaruvda bo'lgan sun'iy to'siq hamda muammolarni hal etishda, turli yo'nalishlarda qarorlar qabul qilishda jamoa fikrini o'rganish, boshqaruv jarayonida tarbiyaviy munosabatlar mavjudligi hamda ijtimoiy munosabatlarda "inson-inson" munosabatlarini ko'p qirrali ekanligi, boshqaruv jarayonidagi bevosita ta'sirlar mavjudligini e'tiborga olish, munosabatlar jarayoni tahlili, pedagogik tadqiqot funksiyalari.

Yurtboshimiz tashabbusi bilan Oliy, o'rta maxsus va professional ta'lim tizimida davlat boshqaruvini takomillashtirish, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi rahbariyatining shaxsiy mas'uliyati va javobgarligini oshirish hamda professional ta'lim tizimini ilg'or xorijiy tajribalar asosida rivojlantirish maqsadida oliy ta'limni rivojlantirish va boshqarishga doir muhim chora-tadbirlar amalga oshirildi. Xususan:

- Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining markaziy apparati tuzilmasida qolib, oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining professional ta'limni rivojlantirish masalalari bo'yicha o'rinbosari lavozimi joriy etildi. Professional ta'lim-o'quv metodik muvofiqlashtirish bosh boshqarmasi negizida Professional ta'lim muassasalari faoliyatini muvofiqlashtirish departamenti tashkil etildi. Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining professional ta'limni rivojlantirish masalalari bo'yicha o'rinbosari bir vaqtning o'zida Professional ta'lim muassasalari faoliyatini muvofiqlashtirish departamenti direktori hisoblanadi. Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining professional ta'limni rivojlantirish masalalari bo'yicha o'rinbosari vazirlik tizimidagi professional ta'lim muassasalari faoliyatiga rahbarlik qiladi, ularda ish samarali tashkil etilishini ta'minlaydi, yuklatilgan vazifalar va funksiyalar to'liq bajarilishi uchun shaxsan javob beradi, professional ta'lim muassasalarida mutaxassislar tayyorlash sifatini, ta'lim dasturlari mazmuni va darajasini Ta'limning xalqaro standart tasniflagichi va milliy malaka ramkalari talablariga mosligini ta'minlaydi. Professional ta'lim muassasalari uchun o'quv adabiyotlari, elektron ta'lim resurslari va metodik qo'llanmalarni tayyorlash hamda ta'lim jarayoniga joriy etish chora-tadbirlarini amalga oshiradi, professional ta'lim muassasalarida o'quv jarayoni xalqaro amaliyotga muvofiq tashkil etilishi, sohada yangi pedagogik texnologiyalar va o'qitish uslublari joriy qilinishini ta'minlaydi. Bu esa professional ta'lim muassasalarining ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish korxonalarini bilan integratsiyasini ta'minlash, sohada dual ta'lim shaklini rivojlantirish, o'quvchilar amaliyotini yuqori saviyada tashkil etish va kelgusida ularni ish bilan band qilish choralari ko'radi, professional ta'lim tizimi uchun yuqori malakali o'qituvchilar va ishlab chiqarish ta'limi ustalari tayyorlanishini ta'minlaydi, soha xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish ishlarini tashkil etadi, shuningdek, professional ta'lim sohasida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish, investitsiyalar, shu jumladan xalqaro moliya institutlari mablag'larini jalb etilishi ularning samarali ishlatilishini nazorat qiladi. Institutsional darajadagi rahbarlar faoliyati asosan uzoq istiqbolga mo'ljallangan rejalarni ishlash, maqsadlarni belgilashdan iborat. Tashkilotni muhit o'zgarishga moslashtirish, tashkilot va tashqi muhit, jamiyat o'rtasidagi munosabatlarni boshqarishdan iboratdir. Ular tashkilot uchun muhim qarorlarni qabul qilishda mas'uldirlar. Yuqori bo'g'indagi kuchli rahbarlar butun tashkilot faoliyatiga tasir etadi. Muvaffaqiyatli faoliyat yurituvchi yuqori bo'g'in rahbarlari juda qadrlanadi.



**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, 2021-yil.
2. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni. O'zbekiston, 2020-y 637-son.
3. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. Toshkent: - Ma'naviyat 2008
4. Adizova M. Boshqaruv muloqoti. Toshkent . Nizomiy nomli nashriyot. 2000.
5. Ahlidinov R.SH., Nosirova F. A., Rajabova M.R. OTM boshqaruvida ichki nazorat. Toshkent: Sharq, 1996.
7. Volkov G.N., Baubekova G.D. Etnopedagogika. - t., 2000
8. Djuraev R. X., Turg'unov. O'рта ta'lim muassasalarini boshqarishda menejmentning asosiy tushunchalari. Toshkent: Fan, 2008. .
9. Djuraev.R.X., Turg'unov S. T. Ta'lim menejmenti. T.: 2006 y.

Internet va ziyonet saytlari:

1. "Jamiyat va boshqaruv" jurnali
2. [www.arzult.academy.freenet.uz](http://www.arzult.academy.freenet.uz).
3. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz).
4. [www.edu.uz](http://www.edu.uz).



## BOSHLANG'ICH SINIF DARSLARIDA HUSNIXAT VA UNGA QO'YILADIGAN TALABLAR

**Sharipova Komila Maxmudovna**  
**Jumanazarova Nesibeli Jolmirzayevna**  
Navoiy viloyati Uchquduq tumani  
3-son maktabning boshlang'ich sinf o'qituvchilari

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada husnixat darslariga qo'yilgan talablar, yozuv materiallari, yozuv qurollari va ular bilan to'g'ri ishlash qoidalari berilgan.

**Kalit so'zlar:** yozuv qurollari, yozuv materiallari, dastur talabi, husnixat, yozuv.

Yozuvning chiroyli bo'lishi ko'p jihatdan yozuv quroli va materialiga bogliqdir. Yozuv qurollari va materiallari quyidagilar sanaladi: 1. Xattaxta. 2. «To'g'ri o'tir» plakati. 3. Alifboning yozma shakli. 4. Haflar alohida yozilgan ko'rgazma. 5. Husnixat daftari. 6. Rangli bo'rlar. 7. Ruchka. 8. Yozuv daftari.

Bola maktabga qadam qo'ygan kundanoq yozuv qurollaridan to'g'ri foydalanishga, ularni ozoda saqlashga o'rgatib boriladi. O'qituvchi o'quvchining yozuv qurollari va materiallarini muntazam tekshirib borishi muhim vazifa sanaladi. Dastur talabi boyicha 1-sinf o'quvchilari uchun yozuv yo'li 4 mm, bosh harflar uchun 8 mm bo'lgan qiya chiziqlari siyrak bo'lgan 2 chizikli daftar tavsiya etiladi. 2-4-sinflarda chiziqlari 8 mm 1 chizikli daftar tutilishi lozim. Kichik harflarning bo'yi 3 mm, bosh harflarning bo'yi 6 mm, raqamlarning bo'yi harflardan 2 marta qisqa bo'ladi. 1-2-sinfda husnixat uchun maxsus alohida darftarga, 3-4-sinflarda ona tili daftariga yozadilar. 1-2-sinflarda foydalaniladigan darftarda qiya chiziqlar orasidagi masofa 30 mm va qiya chiziqlarsiz kichik harflar yoziladigan parallel chiziqlar orasidagi masofa 4 mm ga teng bo'lgan ikki chizikli daftar tavsiya etiladi. Qiya chiziqlari siyrak bo'lgan ikki chizikli daftar yozdirib borish va mashq qildirish orqali 1-sinf o'quvchilarini mayda harflar bilan tez yozishga o'rgatib boriladi. Bunday darftarda mashq qilish o'quvchilarga harflarning eni va ular orasidagi masofani ko'z bilan chamalash, qiyaligiga rioya qilish imkoniyatini beradi.

1-sinfda husnixat predmeti 2-yarim yillikdan boshlanadi. O'quvchi daftariga sana va oy yozdiriladi. Xat boshiga amal qilishga o'rgatiladi, daftar hoshiyasi bo'lishi shart. Darftarga sarlavha yozdirilganda, sarlavha va matn orasida satr qoldirilmaydi. Daftariga xatoni to'g'irlash yo'li o'rgatiladi. Bu holda xato harfning ustidan chiziq tortib, ustiga to'g'risini yozishga odatlantiriladi. Daftar uy vazifasi berilgach, yig'ib olinadi, tekshiriladi va baholanadi.

Yozuv materialli bo'lgan daftarni yuritishga quyidagi talablar qo'yiladi:

1. Daftar toza va aniq yozish.
2. Daftar muqovasidagi yozuvlar yagona talab asosida yozilishi, daftar qaysi fan uchun tutilganligi, nechanchi sinf, maktabning nomi va nomeri, o'quvchining ismi va sharifi ko'rsatib o'tilishi zarur.
3. 1-sinf o'quvchilarining daftarlari muqovasi o'qituvchi tomonidan yoziladi.
4. Har bir darftarda hoshiya bo'lishi shart.
5. 2-sinfdan boshlab mashq tartib raqami, qayerda bajarilganligi (sinfda yoki uyda) yozib qo'yiladi.
6. Harf yoki bo'g'in hamda so'zlarning tagiga ehtiyotkorlik bilan chiroyli va tekis chiziladi.
7. Xato yozilgan harf yoki harfiy birikmalarni namuna sifatida daftar hoshiyasiga yozib ko'rsatiladi.
8. Noto'g'ri yozilgan harflarni bo'yash, o'chirish yoki qavs ichiga olib qo'yishga ruxsat etilmaydi.
9. Mashqlarni bajarishda, matn yozishda xat boshidan yozish qoidalariga amal qilish talab etiladi.

Daftar o'quvchining ko'kragingining to'g'risida o'rtada, uning o'ng burchagi chapidan yuqori bo'lishi kerak. Boshning va gavdaning o'rtacha u yoki bu tomonga burilishini ta'minlanishi uchun bir necha so'z yozilganidan so'ng chap qo'l bilan chap tomonga suriladi, chunki yozayotgan qo'l ko'krakning o'rtasidan unchalik uzoqlashib ketmasligi kerak.

Dastlabki kundanoq bolani daftarni to'g'ri va ozoda tutishga o'rgatib borish lozim. Daftar ustidagi yozuv matniga mos holda, o'rnatilgan tartibga ko'ra to'ldirilishi lozim. Daftarni



qog'oz bilan o'rash mumkin emas, chunki buklangan qog'ozning qalinligi yozishga halaqit beradi. Daftarni muqovalagandan ko'ra o'quvchini partaning ustki qavatining ozodaligiga va yozayotganda daftarning tagiga toza qog'oz varag'ini qo'yishga o'rgatib borish kerak. Ularning hammasi o'quvchining daftarni tashqi tomondan ozoda tutishini nazorat qilib borishga o'rgatadi. Daftarning tashqi ko'rinishining ozodaligi va tartibliligi hamma tomondan tarbiyaviy ahamiyatga ega.

Daftar varag'iga yozishda bolalarga quyidagilarni: tushuntirib o'tish lozim.

1. Sana yoki tartib raqami qayerga yozilishini;
2. Qatorning qayeridan so'z yozishni boshlash lozimligini;
3. Qatordagi so'zlarning oraliq masofasi qanday bo'lishi kerakligini;
4. Avvalgi va keyingi ishlar orasida qancha qator tashlanishi haqida;
5. Betni qanday yakunlash haqida tushuntirib o'tish lozim.

Ruchkadan foydalanish. Yozishga o'rgatishning ilk bosqichida ruchkani to'g'ri ushlab qoidasi o'rgatiladi. Chiroyli husnixat bilan yozishga erishishda yozuv qurolining ahamiyati katta. Hozirda yozuv quroli sifatida sharikli ruchkadan foydalanish tavsiya etiladi. Sharikli ruchka yozish uchun qulay, ingichka, yengil, barmoqlar orasida tutishga mos. Ruchka barmoq orasida tutilganda, ruchka uchi bilan barmoq oralig'i 1,5-2 smga teng bo'lishi shart. Aks holda barmoqni ruchka uchidan uzoq ushlab yoki juda yaqin tutish yozuv sifatini buzadi, harflarni xunuk yozishga olib keladi. Sharikli ruchkada maxsus siyoh bilan to'ldirilgan sterjenning bo'lishi undagi ancha vaqt foydalanish imkoniyatini yaratadi. Ruchka sterjeni siyohi faqat binafsha rangda bo'lishi talab qilinadi. O'qituvchi daftarni tekshirganda qizil pastali ruchkadan foydalanadi. Ruchka papkada maxsus penalda saqlanadi. Partada esa ruchkani qo'yish uchun maxsus joy bo'ladi. O'quvchi ruchkasidagi siyoh tugagan taqdirda, lozim bo'lganda foydalanish uchun ruchka va sterjenlar bo'lishi zarur.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. X.G'ulomova va boshqalar. Husnixat va uni o'qitish metodikasi.
2. Safarova R. va boshqalar. Savod o'rgatish.



## HIKOYA O‘QISHGA O‘RGATISH ASOSIDA OG‘ZAKI NUTQNI RIVOJLANTIRISH

**Sheripova Nafisa Jumaboyevna**

Xorazm viloyati Urganch shahar

22-sonli maktabning boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada boshlang‘ich sinflarda og‘zaki nutqni o‘stirishda hikoya o‘qishga o‘rgatishning ahamiyati ko‘rsatib o‘tilgan. Hikoyani o‘qishga o‘rgatish metodikasi yoritilgan.

**Kalit so‘zlar:** hikoya, og‘zaki nutq, izohli o‘qish, qayta hikoyalash,

Hikoya – kichik hajmli badiiy asar bo‘lib unda kishi hayotidagi ma‘lum bir voqea, hayotning muhim tomonlari umumlashtirilib tasvirlanadi. «Hikoya ko‘pincha kishi hayotida bo‘lgan bir epizodni tasvir etadi. Uning mazmuni ertakdagidan ortikroq hayotiydir»

Hikoya mazmunan boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun mos janr hisoblanadi. Kichik o‘quvchilarni qahramonning xatti-harakati, tashqi ko‘rinishi, portret tasviri, voqea-hodisalar haqidagi hikoyalar ko‘proq qiziqtiradi. Shuning uchun bolalarni badiiy asar turi bo‘lgan hikoya bilan tanishtirish uning syujetini tushuntirishga bog‘lab olib boriladi.

Boshlang‘ich sinflarda hikoyani o‘qishga bag‘ishlangan izohli o‘qish darslarida o‘qilgan hikoya mazmunini ochish, lug‘at ustida ishlash, o‘qilgan matnni qayta hikoyalash asosiy ish turlaridan hisoblanadi. Hikoya mazmunini odatda savollar asosida tahlil qilinadi. Bunday savollar qatnashuvchi shaxsning xatti-harakati va xarakterini tahlil qilishga qaratilgan bo‘ladi. So‘roqlardan ikki maqsadda:

Badiiy asarni tahlil qilishda syujetni to‘liq tushuntirishga berilib ketib, qatnashuvchilarga tavsifnoma, asar qurilishi va tilini tahlil qilish kabi ish turlari e‘tiboridan chetda qolmasligi lozim.

Savollarni odatda, o‘qituvchi beradi, ammo asar mazmuni, qatnashuvchi shaxslarning xulq-atvorini ochish yuzasidan o‘quvchilarga ham savol tuzdirish juda foydali. Bu usul bolalarga juda yoqadi va ishni jonlantiradi, asar mazmunini yaxshi tushunish, o‘z fikrini izchil bayon qilish malakasini egallash, mazmun va voqealar orasidagi bog‘lanishni to‘liq esda saqlab qolishda o‘quvchilarga yordam beradi.

Hikoyani o‘quvchilar yaxshi o‘zlashtirishlari, unda ilgari surilgan g‘oyani bilib olishlari uchun matn bilan ishlash jarayonida tanlab o‘qish, ma‘lum topshiriq bilan qayta o‘qish savollariga javob berish, hikoya qismiga o‘zlari savol tuzishi, so‘z bilan va grafik rasm chizish, reja tuzish, qayta hikoyalashning barcha turlaridan, ifodali o‘qishga tayyorlanish kabi ish turlaridan foydalaniladi.

Kichik badiiy hikoyani izohli o‘qish darsini uyushtirishda quyidagi reja varianti jadvali e‘tiborga olinadi:

- a) hikoyani o‘qishga tayyorlash;
- b) hikoyani o‘qituvchi yoki oldindan tayyorlangan o‘quvchining ifodali o‘qishi;
- v) idrok etishni tekshirish;
- g) hikoyani qayta o‘qish;
- d) hikoyaning har bir bo‘limi yuzasidan suhbat o‘tkazish, sarlavha topish, hikoya rejasini tuzish;
- e) hikoyaning ayrim bo‘limlarini ifodali o‘qish;
- i) reja asosida qayta hikoyalash;
- l) ifodali o‘qishga tayyorlanish;
- m) hikoyani ifodali o‘qish va ifodali qayta hikoyalash.

Masalan, o‘quvchilarning yozgi ta‘tilda olgan taassurotlari haqida hikoya tuzishni olib ko‘raylik. O‘quvchining o‘z ko‘rgan bilganlari to‘g‘risida hikoya tuzishni ularning og‘zaki nutqini ustirishda katta ahamiyatga ega.

Ma‘lumki, o‘quvchilar ta‘tilda ko‘rgan bilganlarini aytib berishni juda xohlaydilar. Ba‘zi bir voqealar va hatto unchalik muhim bo‘lmagan hodisalar ular uchun juda qiziqday bo‘lib ko‘rinadi. Bunday voqealar va hodisalar to‘g‘risidagi hikoyani boshqa o‘quvchilar ham zo‘r qiziqish bilan va diqqat bilan tinglaydilar. Chunki ular ham xuddi shunday voqea va hodisalarni ko‘rgan bo‘ladilar. Bunday hikoyalarning qimmatini dastavval shundaki, ularni tuzish uchun bolalar ma‘lum materiallarga egadirlar. O‘quvchi hikoya qilishdan oldin ko‘rgan bilganlarini yana bir bor ko‘z o‘ngiga keltiradi. Ba‘zan ular zarur so‘zlarni topa olmay, fikrlarini bayon qilishda qiynaladilar. Yuqorida aytganimizdek, bunday hollarda o‘qituvchi ularning hikoyasini hikoya har bir o‘quvchiga



o`z shaxsiy hikoyasini ana shu rasm asosida tuzishga ko`maklashadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. K.Qosimova va b.q. Darslik “Ona tili o`qitish metodikasi”. T-2009.
2. G. Boymurodova va b.q. O`qish “4-sinf o`qituvchilari uchun ilg`or pedagogik va axborot kommunikatsiya texnologiyalarini amaliyotga joriy etish bo`yicha metodik qo`llanma T-2017.
3. A.Zununov. Badiiy asarni tahlil qilish T."O`qituvchi" 1998.



## ОНА ТИЛИ ВА АДАБИЙОТ ФАНИНИ О‘ҚИТИШДА ФАНЛАРАРО ИНТЕГРАТСИЯ –О‘ҚУВЧИЛАРНИ ХАЛҚАРО БАХОЛАШ ДАСТУРИГА ТАЙЙORLASHNING МУНИМ ОМИЛИ

**To‘rayeva Soxibaxon Saidaxmedovna**

Norin tumani 27-maktab ona tili va  
adabiyot fani o‘qituvchisi

**ANNOTASIYA:** Ona tili va adabiyot fanini o‘qitishda fanlararo integratsiya – o‘quvchilarni xalqaro baholash dasturiga tayyorlashning muhim omili haqida fikrlar keltirilgan

**TAYANCHA SO‘ZLAR:** Raqamli iqtisodiyot, PISA, PIRLS, TIMSS, “Al-jabr” matnli topshiriqlar

Mamlakatimiz yangi innovatsiyalar, raqamli iqtisodiyot taraqqiyoti yo‘lida shiddat bilan rivojlanib borayotgan ushbu davrda O‘zbekiston kelajagi bo‘lgan yoshlarning intellektual salohiyati va fikrlash qobiliyatini har tomonlama qo‘llab -quvvatlash, ularning egallashi lozim bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarini davlat ta‘lim standari asosida shakllantirish hamda xalqaro mezon va talablar asosida baholash tizimini takomillashtirish muhim ahamiyatga egadir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947 –sonli farmoni bilan tasdiqlangan “2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strat egiyasi” doirasida O‘zbekistonda ta‘lim sifati monitoringini yangicha xalqaro baholash dasturlari yordamida aniqlash tizimi shakllantirilmoqda. Xalqaro baholash dasturlari deganda PISA, PIRLS, TIMSS kabi dasturlar tushuniladi. PISA –o‘quvchilar savodxonligini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqot dasturi hisoblanishi barchamizga ma‘lum. Dasturning asosiy maqsadi 15 yoshli o‘quvchilarning 3 yo‘nalishdagi: o‘qish, matematik va tabiiy savodxonligini aniqlashdan iborat. Topshiriq qaysi fanga oid bo‘lmasin, avvalo, uning zamirida o‘qish yo‘nalishiga alohida urg‘u beriladi. O‘qish –matn tushunish demakdir. Shuning uchun ham biz-ona tili va adabiyot fani o‘qituvchilari zimmamizdagi bu mas‘uliyatni to‘liq anglashimiz kerak. Ta‘lim sifati baholash bo‘yicha xalqaro tajribalarni o‘rganish va joriy etish jarayonida ta‘lim tizimimizda bir qancha bo‘shliqlarga duch kelinyapti. O‘quvchilarning olgan nazariy bilimlarini hayotga qo‘llay olish darajasi yaxshi emas. Xalqaro baholash dasturlari shu kabi kamchiliklarni bartaraf etgan holda dunyo bozorida raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga asos bo‘ladi. Bugungi kun o‘qituvchisi o‘quvchiga har tomonlama mukammal ta‘lim-tarbiya berish uchun universal (qomusiy) bilimga ega bo‘lmog‘i kerak. Bu esa “fanlararo integratsiya” tushunchasining nechog‘li muhim atama ekanligini ko‘rsatib bermoqda. O‘zbekiston endilikda qator xalqaro baholash dasturlariga a‘zo bo‘lib, yoshlarining intellektual va kompetentlik darajasini bilishga, kerak bo‘lsa, o‘quvchining mantiqiy fikrlashi va layoqatliligini oshirishni ko‘zlamog‘da. O‘quvchilar bilimni xalqaro baholash dasturlari sinovlarida yaxshi natijalarni qo‘lga kiritish uchun har bir darsda fanlararo integratsiyani qo‘llash muhim ahamiyat kasb etadi. Xo‘sh, ona tili va adabiyot fanida fanlararo integratsiyani qanday qo‘llash mumkin? Ona tili darsida o‘quvchilarni mantiqiy fikrlashga o‘rgatish, matn bilan ishlash ko‘nikmasini rivojlantirish va sinchkovlik talab etiladigan topshiriqlarni qo‘llash o‘quvchining hayotiy va intellektual ko‘nikmalarini oshirishga xizmat qiladi. Masalan, 7-sinf ona tili dasturida berilgan “Biriktiruv bog‘lovchilari” mavzusini o‘qitishda o‘qituvchi mavzuni mustahkamlash maqsadida darslikdan tashqari quyidagi matn asosida PISA topshiriqlari tuzishi mumkin:

“Aljabr” matni asosida mantiqiy topshiriqlar:

Riyoziyot olimi al-Xorazmiydan inson haqida so‘rashdi. Olim shunday dedi:

-Agar inson yaxshi xulq sohibi bo‘lsa, u 1 ga teng. -Agar inson husn sohibi bo‘lsa, birning yoniga nolni qo‘shamiz, 10 bo‘ladi. -Agar inson boy bo‘lsa, yana bir nolni qo‘shamiz-100 bo‘ladi. -Agar nasl-nasabli bo‘lsa, yana bir nolni qo‘shamiz-1000 bo‘ladi. -Agar 1 raqami yo‘q bo‘lib ketsa, insonning qiymati yo‘qqa chiqib, nollarning o‘zi qoladi. 1-topshiriq: Javobi tanlanadigan test Al- Xorazmiy insonning qanday fazilatini 1 ga tenglashtiradi? A. Uning nasl-nasabini B. Yaxshi xulqini S. Husn sohibi ekanligini D. Boyligini

2-topshiriq: Bir necha javobli test 3. Javobi yoziladigan test: RIYOZIYOT so‘zi hozirda qaysi fanni bildiradi? Javob: (Hozirgi matematika fani) 4-topshiriq: Lingvistik topshiriq: Matn



mazmunidan kelib chiqib, bir o‘rinda va bog‘lovchisini, yana bir o‘rinda ham bog‘lovchisini qo‘llang. Qo‘llangan bog‘lovchilar matn mazmuniga ta’sir ko‘rsatmasin. Javob: Agar inson yaxshi xulq sohibi va chiroyli bo‘lsa, uning qiymati 10 ga teng. Agar inson ham yaxshi xulq sohibi bo‘lsa, ham chiroyli bo‘lsa, uning qiymati 10 ga teng.

Ona tili darslarida bunday keng qamrovli topshiriqlarni qo‘llash matematikadan o‘rgangan nazariy bilimlarini hayotiy ko‘nikmalar asosida idrok etish imkoniyatini beradi. Ona tili ta’limida shu vaqtga qadar matn bilan ishlashga juda kam e’tibor qaratilgan. Aksincha, qoidalar-til nazariyasiga e’tibor juda yuqori edi. Shuning hisobidan o‘quvchilarda matn mazmuni bilan ishlash, matnda keltirilgan har bir so‘zning ma’nosi yuklatilgan vazifani anglash, tinglab tushunish kabi ko‘nikmalarni shakllantirish mantiqiy topshiriqlar yechimida asosiy omildir. Xulosa qilib aytganda, ona tili va adabiyot darslarida aniq fanlar, tabiiy fanlar bilan fanlararo integratsiyani qo‘llash o‘quvchilarni xalqaro baholash dasturlariga tayyorlashning muhim omili hisoblanadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Ta’lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish Milliy markazi. O‘quvchilarning savodxonligini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqot dasturi haqida qo‘llanma.- T.:2019.-6-bet.

2. N.Mahmudov, A.Nurmonov, A. Sobirov. Ona tili. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 9-sinfi uchun darslik.



## ТА’ЛИМ ЖАРAYONIDA USTOZ-SHOGIRD MUNOSABATLARI

**To’rayeva Adolat Otaxonovna**

Xorazm viloyati, Shovot tumani

1-maktab matematika fani o’qituvchisi

Telefon :+998995443105 Adolatto’rayeva@mail.com

**Shadanova Dilorom Qadamovna**

Xorazm viloyati, Shovot tumani

1-maktab biologiya fani o’qituvchisi

Telefon :+998919949088 Diloromqadamovna1@mail.com

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada darslarda o’quvchi shaxsiga yo’naltirilgan ustoz-shogird borasida ma’lumotlar keltirib o’tiladi.

**Kalit so’zlar:** komil, mehnatsevar insonni tarbiyalash, fikr yuritish ko’nikmalarini rivojlantirish, o’quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini o’stirish.

Ustoz! Shu birgina so’z zamirida olam-olam ma’no va hurmat mujassam. Ustoz bu sofdil, kamtarin, ma’naviy boy, ahloqan pok insondir. U o’z umrini, qalb qo’rini, aql-idrokini, tajribasi va bilimni sarf etadi. Shogirdining yutug’ini ko’rib quvonadi, muvaffaqiyatsizligidan gam-an-duh chekadi.

O’qituvchi bog’bonga o’xshaydi. U tarbiyalab o’stirgan nihollarning hosili qanchadan-qancha avlodlarni bahramand qiladi. Ustoz va murabbiylarning mas’uliyatli, ammo sharaffli kasblarini bir mash’alaga qiyos etish mumkin.

“Ustoz-otangdek ulug’” degan hikmatda juda ko’p ma’no bor. Hatto otani quyoshga qiyos etamiz, ko’klarga kotarib maqtaymiz. Ammo otaday ulug’ deb nisbat beriluvchi inson bor, bu ustozdir! Haqiqatdan, farzandini ota-ona voyaga yetkazadi, biz esa ularni unib-o’sishi, kamolotga erishishi, ilm-ma’rifat cho’qqilarini zabt etishida ko’maklashishimiz zarur. Donolarning aytishicha, elni ma’rifat asraydi. U elni taraqqiy ettirib, ezgu niyati va orzu-umidiga etkazadi. Demak, biz ustozlarning zimmasida kelajagi buyuk davlat uchun komil, har tomonlama barkamol, ma’naviy va ahloqiy pok vatanparvar, mehnatsevar insonlarni yetkazib berishdek yuksak vazifa turibdi. Bizning zimmamizga hayot talablariga to’la javob beradigan va o’z zamonimizga munosib kishilarni tarbiyalashdek mas’uliyatli vazifa yuklatilgan.

### G’AZZOLIY ASARLARIDA USTOZ – SHOGIRD MUNOSABATLARI.

Abu Homid G’azzoliy ta’limotida ilg’or pedagogik g’oyalari va yoshlarga qitirilishi lozim bo’lgan ma’naviy-axloqiy fikrlar ifodalangan va unda yosh avlodni arkamol shaxs qilib tarbiyalash, jamiyat taraqqiyoti uchun fidokorlik ko’rsatish, yurt tinchligi yo’lida xizmat qilish kabi tarbiyaviy g’oyalari aks ettirilgan. G’azzoliyning fikricha, yoshlarni barkamollikka yetaklovchi asosiy mezon aql-zakovat, kuchli farosat, sahovat, halollik hisoblanadi. Alloma har bir asarida farzandlar tarbiyasiga alohida urg’u beradi, yoshlarni jamiyatning kelajagini quruvchilar deb hisoblaydi. Shu bilan bir qatorda, alloma uch xil yo’nalishdagi olimlar mavjudligini ta’kidlaydi:

O’zini ham, boshqalarni ham saodatga eltuvchi olimlar.

O’zini halok qilib, boshqalarni saodatga yo’llovchi olimlar.

Allomaning ilmiy asarlarida ustozlar va murabbiylar “olimlar” deb hisoblangan, ular donishmandlarga tenglashtirilgan. G’azzoliy ta’lim oluvchilar va ta’lim beruvchi olimlar hamda muallimlar odoblari, ular orasidagi hamkorlik munosabatlariga alohida to’xtalib o’tganlar. G’azzoliyning fikricha, o’quvchi bilim egallashda quyidagi axloqiy qoidalarga rioya qilishlari kerak:

Avvalo yoshlar qalbini jirkanch xulqlar, yomon sifatlardan poklash kerak. Chunki, ilm qalb ibodati, farishtalar qo’nadigan bir uydur. Gazab, gina, hasad, kibr, manmanlik, razil sifatlari qopag’on bir itga o’xshaydi. Ilm nuri qalbgaga farishtalar vositasida kiradi.

O’quvchi ilm olib kibrlanmasligi, ustoziga qarshi chiqmasligi shart. Muallimning ko’rsatmalarini chiroyli tarzda eshitish, unga itoatda bo’lish zarur. Ilm olishni ixtiyor qilgan o’quvchi jamiyatdagi va odamlar o’rtasidagi ixtiloflardan o’zini chetda tutishi zarur.

### USTOZ – SHOGIRD – OTA-ONA HAMKORLIGI

Haqiqatdan ham allomaning ilg’or pedagogik g’oyalari, ustoz – shogird munosabatlari, o’quvchilarning axloqiy qoidalari mukammallik bilan yoritilgan. O’quvchi qachon va qanday



qilib yuqoridagi 3 qoidadagi sifatlarga ega bo'ladi, ularning shakllanishida ota – onaning ham roli bormi, o'qituvchi buning uchun nimalar qilishi zarur?

Bir qarashda bu savollar oddiygina bo'lib ko'rinishi mumkin, lekin buning ortida juda katta ma'suliyat va majburiyatlar mavjud. Nega deganda, har uchala hamkor - o'quvchi - o'qituvchi - ota-ona tenglikda, birgalikda harakat qilishimiz kerak va buni muhim deb o'layman.

O'quvchi bamisoli nihol, yosh niholni qayoqqa egsang shu yoqqa egiladi. O'qituvchi esa shu yosh niholni to'g'ri unib – o'sishida, shakllanishida payvandlovchi, parvarishlovchi bog'bon hisoblanadi. Shunday ekan, biz o'qituvchilar o'quvchilar bilan do'stona munosabatda bo'lishimiz, ularning to'g'ri shakllanishida tirgak bo'lishimiz kerak, shunday qilsakkina bu bizga, albatta, samarali natija beradi.

Har bir o'quvchi o'ziga xos fe'l-atvorga ega. Shu bois biz ular bilan iloji boricha individual tarzda ish olib borsak, ichki kechinmalarini, shaxsiy xususiyatlarini o'rgana olsak, bir so'z bilan aytganda o'quvchi ko'ngliga yo'l topa olsak, uning tarbiyasiga ijobiy ta'sir ko'rsata olamiz. Tarbiyali o'quvchi, albatta, bilimni yaxshi egallaydi va a'lo baholarga o'qiydi. Lekin hozirgi kunda hamma a'lochi o'quvchilarni ham tarbiyali deb bo'lmaydi, chunki o'quvchi fanlarni yaxshi o'zlashtirgani bilan o'zi axloqsiz bo'lishi mumkin. Bunga sabab nima bolishi mumkin? Bunga sabab, eng avvalo, ota-onalar. Bu ayblovni hamma ota-onalar ham tan olgisi kelavermaydi, chunki hech qaysi bir ota-ona farzandiga yomonlikni ravo ko'rmaydi. Farzandi uchun jonini berishga tayyor, uning ko'ngliga qaraydi, nima desa olib beradi, farzandi uchun har qanday sharoitni yaratib beradi, lekin shu ko'ngliga qarayotgan paytda ota-ona qayerdadir adashadi. Hozir kundankunga texnika juda tez suratda rivojlanib borayapti, shu sababli ko'p ota-onalar farzandlariga har xil turdagi ko'p funksiyali uyali aloqa vositalari, planshetlar olib berayapti, albatta, to'g'ri maqsadlarda foydalanish uchun. Biroq hamma ota-onalar ham, afsuski, buni nazorat qilmayapti, farzandlari tarbiyasiga loqaydlik bilan qarayapti. Shu tufayli ba'zi bir o'quvchilarning tarbiyasi, axloqi buzilib borayapti. Shunday ota-onalar ham borki, farzandining tarbiyasiz bo'lib borishida o'qituvchilarni aybdor deb hisoblaydi. Axir farzandining kelajagidan ko'proq kim manfaatdor? Ota-onami yoki o'qituvchi? Bu bilan o'qituvchining aybi yo'q, bolaning kelajagi o'qituvchiga bog'liq emas demoqchi emasman. Bolaning kelajakda qanday shaxs bo'lib yetishishi, albatta, o'qituvchining ta'lim-tarbiyasiga ham bog'liq, bolani qanday kasbni egallashi, qanday yutuqlarga erishishi har qanday o'qituvchini qiziqtiradi va yaxshi yutuqlarga erishsa farzandi uchun ota-ona qanday hursand bo'lsa, o'qituvchi ham ulardan kam hursand o'lmaydi. Afsuski, yilda bir marta farzandining bilimni tekshirish uchun maktabga kelmaydigan, hattoki “ota-onalar yigilishi”ga qatnashmaydigan ota-onalar ham bor. Ota-onalar farzandini tengdoshlari qatori yaxshi xulq, yaxshi bilim egasi bo'la olishi uchun ulardan bor mehrlarini, vaqtlarini ayamasalar, maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Shunday o'quvchilar ham borki, ilm olishga intiladi, izlanadi, ular uchun yaratilayotgan shart-sharoit va imkoniyatlardan unumli foydalana biladi, o'z kelajagini o'zi qurishga intiladi. Hozir yoshlarga har bir sohada imkoniyat eshiklari keng ochilmoqda. Jumladan, sport sohasi bo'yicha, tadbirkorlik, ijodkorlik, til o'rganish deysizmi, komputer texnologiya sohasida va hokazo. Ushbu sohalarda zo'r ishtiyoq bilan faoliyat olib borayotgan iste'dodli, iqtidorli yoshlarimiz talaygina. Yoshlarimiz qaysi sohani tanlamasin, ularni qo'llab-quvvatlash biz ustozlarning burchimizdir. Negaki, ularning yutuqlari bizning yutug'imiz, ularning muvaffaqiyatlari bizning muvaffaqiyatimizdir.

#### **Adabiyotlar:**

1. I.A.Karimov “Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch”. T.: 2008



## USING DIFFERENT TECHNIQUES TO HELP STUDENTS UNDERSTAND AND LEARN NEW WORDS

**Tosheva Gulzoda Kamol kyzy,**

English teacher of the secondary school №36,

Navai region Kyzyltepa district

Mobile phone:998906656548

Email: toshevnmurod@gmail.com

**Annotation:** This article discusses the importance of using some kind of techniques and methods to help students understand and learn new words.

**Key words:** translate, to guess meaning, existing knowledge, using a picture or a real object, different context, using mime or gesture.

There are many ways that you can help students to understand new words. You can translate words, and you can ask students to guess meanings. At first, students may find it difficult to guess the meanings of words. You can show them how to guess meaning by using their existing knowledge of English, their understanding of the other words in the lesson, and their knowledge of the world. There was his assistant on the line and I told him I had come in a wheelchair from Uzbekistan (perhaps he thought I had propelled myself all the way) to write about my travels in Uzbekistan.

Students can guess the meaning of the word «wheelchair» if they understand the words «wheel» and «chair», and by their knowledge of the world – they understand that a disabled person might use a wheelchair, and they may have seen one.

They can also make a good guess of the word «propelled» once they understand the word «wheelchair» and the topic of the lesson. They can see that it is a verb. It is used as part of the past perfect tense, and it has the ending «-ed». When they know it is a verb, they can guess that it involves movement. By understanding how a person uses a wheelchair, they can guess the exact meaning of the word.

### Pause for thought

Can you think of any other ways that you could help students to understand the words «wheelchair» and «propel»? If you can, discuss them with a colleague and note your ideas.

1. Other ways that you can help students to understand new words include:
    - Choose a lesson from your textbook. It can be any lesson, including prose or poetry. It could even be the next one you teach. If the lesson is long, choose a few paragraphs or verses.
  2. Before the lesson, select some words that you think your students won't know. If you are not familiar with some of the words, you might like to look them up in a dictionary. Practise saying the words and phrases out loud so that students can repeat them after you.
  3. Decide how you could help your students understand these words. Could you draw or mime them? Can you think of some other examples of sentences using the word? How could you explain the word in English? What questions could you ask your students to check that they understand (for example: «What is the opposite of this word?»)
  4. Before your students read the lesson, write the words on the board.
  5. Ask your students if they know what the words mean. If they don't know, help them to understand using the different techniques that you prepared.
- If they are having difficulty understanding, try another technique. Try to avoid using translation if possible; try to use it only as a last resort.

### REFERENCES:

1. Begin. Y. (1971). *Evaluative and emotional factors in learning a foreign language*. Montreal: Bellarmin.
2. Bialystok, E. and M. Frohlich. (1978). Variables of classroom achievement in second language learning. *Modern Language Journal*,



**PEDAGOGIKADA INNOVATSION TEXNOLOGIYANI TA'LIM SOHASIDA  
FOYDALANISHNING AYRIM MASALALARI**

**Vaxidova Lola,**

Navoiy viloyat Xatirchi tumani 4-umumta'lim maktab  
Ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

**Safarova Nasiba**

Navoiy viloyat Xatirchi tumani 4-umumta'lim maktab  
Informatika va AT fani o'qituvchisi

**Anotatsiya:** Ushbu maqolada zamonaviy axborot texnologiyalarini pedagogika fanlarini o'qitish jarayonlariga joriy etish mohiyati va ahamiyati yoritilgan. Uzluksiz ta'limni fanning oxirgi yutuqlaridan foydalanib tashkil etishda, innovatsion texnologiyaning mos turlarini tanlash orqali ta'lim-tarbiyani olib borish o'quvchilarda o'qitilayotgan har bir fan bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirishga qaratilgan.

**Kalit so'zlar:** *pedagogika, innovatsiya, axborot texnologiyalari, elektron darsliklar, "Tanishuv", "Charxpalak", "Bumerang", "FSMU" va boshqa shu kabi texnologiyalar hamda "Blits-so'rov" usuli shular jumlasidandir.*

Mamlakatimiz rivojlanishining muhim sharti zamonaviy iqtisodiyot fan, madaniyat, texnika va texnologiya rivoji asosida kadrlar tayyorlashning takomillashgan tizimining amal qilishiga erishishdir.

Ta'lim muassasasi o'qituvchining malakasi maxsus va pedagogik fanlar bilan yoritiladigan ikki qirraga ega bo'lishi lozim va u doimo: "Nima uchun o'qitish kerak?", "Qanday o'qitish kerak?" degan savollarga javob topishi, shuningdek, ta'lim-tarbiya xususiyatlari e'tiborga olingan bilimlarga asoslangan bo'lishi lozim.

XVII asrda yashab ijod qilgan Chex olimi Ya.A.Komenskiy o'quvchi shaxsini rivojlantirish bilan shug'ullanib: "Har bir o'qituvchini pedagogik vosita bilan qurollantirish mumkin va kerak, va shundagina uning ishi yuqori natijali bo'ladi, o'qituvchining o'rni esa quyosh ostidagi eng yaxshi joydan iborat bo'ladi",-deya orzu qilgan edi. XX asrning ikkinchi yarmida Amerikalik B.Blum, D.Krajvol, N.Gronlund, Dj.Kerall, Dj.Blok, L.Anderson va boshqa olimlar o'qituvchining pedagogik mahoratiga bog'liq bo'lmagan yuqori darajadagi natijalarga erishishni kafolatlovchi va uni istalgan vaqtda qayta yuqori darajada tashkil etish mumkin bo'lgan pedagogik texnologiya g'oyasini ilgari surdilar. Janubiy Koreyada eksperiment tariqasida 50 ta o'quvchiga ta'lim-tarbiya jarayoniga innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llash natijasida 15-20% a'lochi o'quvchilar soni 75% ga yetkazilganligi bu sohadagi muvaffaqiyatning yaqqol namunasidir.

Pedagogik texnologiya negizida XXI asrda zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalari vujudga keldi va rivojlanib borishi natijasida innovatsion texnologiya fani paydo bo'ldi. "Tanishuv", "Charxpalak", "Bumerang", "FSMU" va boshqa shu kabi texnologiyalar hamda "Blits-so'rov" usuli shular jumlasidandir. Innovatsion texnologiyani qo'llash an'anaviy darslarga qaraganda yuqori darajadagi natijalarni kafolatlaydi. Bu hayotiy haqiqat, chunki nafaqat oliy ta'lim muassasalarida, litsey, kollejlarda, balki umumiy o'rta ta'lim maktablarining boshlang'ich sinflarida ham bunga ehtiyoj sezilmoqda. Boshlang'ich ta'lim sohasida faoliyat ko'rsatayotgan har bir o'qituvchidan o'z bilimini muntazam oshirib borishni, dars jarayonini o'quvchilarning bilim darajasini hisobga olgan holda qiziqarli hamda ijodkorlik bilan tashkil etish bilan birga innovatsion pedagogik texnologiyalarni puxta o'rganib chiqishni hamda o'z faoliyati davomida qo'llashni taqozo etmoqda.

Innovatsion pedagogik texnologiyalar boshlang'ich ta'limda ta'limning yangi mazmunini shakllantiruvchi ta'lim tamoyilariga asoslanadi. Buning ma'nosi shundan iboratki, har bir ta'lim oluvchi shaxsni davlat ta'lim standartlari talablari asosida egallagan bilim va malakalaridan amaliy faoliyati va kundalik hayotida unumli foydalana oladigan qilib tarbiyalashdan iborat.

Uzluksiz ta'limni fanning oxirgi yutuqlaridan foydalanib tashkil etishda, kam vaqt va kam kuch sarflagan holda nazariy va amaliy bilimlarni chuqur o'zlashtirish imkonini beruvchi bu jarayonda o'qituvchi va o'quvchi faol subyekt sifatida qatnashadilar. Dars jarayonida o'qituvchi muammoli vaziyatlardan, didaktik o'yinlardan, darsning samarali yangi usullaridan hamda axborot va kompyuter texnologiyalaridan yetarli darajada foydalanmas ekan, o'quvchi uchun uning darsi



zerikarli bo‘lib qolaveradi.

Innovatsion pedagogik texnologiyaning bosh muammosi o‘quvchi shaxsini rivojlantirish orqali ta’lim maqsadiga erishishni ta’minlashdan iborat. Bunda o‘qituvchi darsga mos pedagogik texnologiyani to‘g‘ri tanlay olishi, qo‘llashi juda muhimdir. Butun dars davomida o‘quvchilarning faolligi va qiziquvchanligini muntazam ravishda rivojlantirib borish o‘qituvchining diqqat markazida turishi kerak. Agar dars jarayoni mukammal rejalashtirilmasa aniq qo‘yilgan maqsadga erishib bo‘lmaydi. Natijada zaif, yetarli darajada tashkil etilmagan dars samarasiz yakunlanadi. O‘quvchi zerikib keraksiz hissiyotlarga beriladi, uning bilimga chanqoqligi pasayadi va hatto matematikaga bo‘lgan qiziqishi sinadi. O‘quvchi bu fanga salbiy munosabatda bo‘la boshlaydi. Shuning uchun o‘qituvchi innovatsion pedagogik texnologiyalarni dars jarayoniga tatbiq qilar ekan, o‘quvchilarda fanga va mavzuga qiziqishni uyg‘ota olishni o‘z rejasidan chetda qoldirmaslik kerak.

O‘qituvchilar o‘quvchilarning bilimlarini xolisona baholash mexanizmlarini bilishlari va ularni mukammal ravishda reyting nazoratda qo‘llay olishlari hamda standart tekshiruv ishlarini, standart testlarni yarata olish bilan birga uni dars jarayonining turli holatlarida qo‘llash mahoratini egallashlari lozim.

Binobarin, o‘quvchi va o‘qituvchi orasidagi munosabat insonparvarlik tamoyiliga asoslangan bo‘lishi kerak, shundagina ro‘y berishi mumkin bo‘lgan noxush holatlar, hissiyotlar bartaraf etiladi. Agar o‘qituvchi o‘z faoliyatida innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo‘llab yuqori natijalarga, ya’ni muvaffaqiyatlarga erishsa, o‘quvchilarning o‘qituvchiga bo‘lgan muhabbati ortadi va bu ijobiy munosabatlar oqituvchi mavqeining o‘shishiga olib keladi. Shuning uchun o‘qituvchi o‘quv faoliyatiga va ta’lim-tarbiya jarayoniga ma’suliyatli yondashishi hamda o‘quvchilar bilan o‘zaro hamkorlikda ijodiy faoliyatni yo‘lga qo‘yishga undashi kerak. Masalan, o‘quvchilarning matematik tafakkurini rivojlantirishda an’anaviy darslarni pedagogik texnologiya asosida mazmunli va qiziqarli tashkil etish bilan birga noan’anaviy darslar (konferensiya, sayohat, ishchanlik o‘yinlari, rolli o‘yinlar va boshqalar) ni ham tashkil etish o‘quvchilar uchun qiziqarli.

Shunday qilib, innovatsion texnologiyaning mos turlarini tanlash orqali ta’lim-tarbiyani olib borish o‘quvchilarda o‘qitilayotgan har bir fan bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakalarini shakllantiribgina qolmasdan, balki davlatimiz buyurtmasi bo‘lgan malakali kadrlarni tayyorlashning kafolati ham bo‘ladi.

### **Adabiyotlar**

1. Umumiy pedagogika fanidan namunaviy dastur. Tuzuvchi B.Xodjayev. T., 2017 y.
2. “Elektron pedagogika va pedagogning shaxsiy, kasbiy axborot maydonini loyihalash” moduli bo‘yicha o‘quv –uslubiy majmua. Tuzuvchilar: T.T.SHoymardonov va boshq. T., 2015 y.



**Xayitmetov Ikrom Jumaniyazovich**

Xiva tumanidagi 6 -son umumiy o`rta ta`lim maktabi  
musiqqa madaniyati fani o`qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ta`lim tizimiga shiddat bilan kun sayin kirib kelayotgan yangi metodlar, pedagogik texnologiyalar, o`qituvchilar tomonidan musiqqa dars jarayonida innovatsiyalardan qanday qo`llanishiga doir qimmatli fikrlar keltirilgan.

**Kalit so`zlar:** musiqqa, interfaol, alternativ, tarjimon, badiiy tasvir, ijodkorlik.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturi «Ta'lim to`g`risida» gi O`zbekiston Respublikasi qonunining qoidalariga muvofiq xolda tayyorlangan bo`lib, milliy tajribaning taxlili va ta'lim tizimidagi jaxon miqyosidagi yutuqlar asosida tayyorlangan hamda yuksak umumiy va kasb-hunar madaniyatiga, ijodiy va ijtimoiy faollikka, ijtimoiy-siyosiy xayotda mustaqil ravishda mo`ljalni to`g`ri ola bilish mahoratiga ega bo`lgan, istiqbol vazifalarini ilgari surish va xal etishga qodir kadrlarning yangi avlodini shakllantirishga yo`naltirilgan.

Musiqqa madaniyati o`quv predmeti umumiy o`rta ta'lim maktablarida o`qitiladigan barcha o`quv predmetlari, jumladan, adabiyot, tasviriy san'at, jismoniy tarbiya, mehnat va boshqa fanlar bilan bog`lanadi. Barcha o`quv fanlari qatori musiqiy ta'limda ham DTSlarning joriy etilishi milliy musiqiy meroslardan to`la qonli foydalanish imkonini beradi. Bular amaliy xalq kuy va qo`shiqdarida, xonanda va sozandalarning ijodiy faoliyatlarini. Maqom, shashmaqom dostonlar va bugungi zamonaviy musiqada o`z aksini topdi. Musiqqa san'atining bu kabi imkoniyatlari yangi avlodni tarbiyalashda ularning barkamol bo`lib etishlarida o`ziga xos va takrorlanmas manbaa bo`lib xizmat kiladi. Azaldan Sharq, jumladan, o`zbek musiqqa ta'lim-tarbiyasi pedagogikasi va uning mukammal ustoz va shogird an'analari misolida takomillashib borgan. Davlat ta'lim standartlarida ommaviy xalq musiqqa pedagogikasi, professional musiqqa ijodkorlari, musiqqa ijrochilari (sozanda, xonandalar) katta ashulachilar, maqomchilar, dostonchilar asarlarning elementar asoslarini o`rganish me'yorlashtirilgan.

Musiqiy ta`lim har bir inson hayotida muhim o`rin tutadi. Badiiy tasvir, ijodkorlik va ilhom baxsh etgan musiqqa o`ziga xos tushunchadir. U bolalarda noan`anaviy fikrlash, ijodkorlik hissi va dunyoni aks ettirish qobiliyati, mustaqil hayotiy pozitsiyani shakllantiradi. Musiqqa darslarida innovatsion dasturni qo`llash uchun bir qancha omillarni asos qilib olish mumkin. Bu, asosan, boshlang`ich sinf yoshidagi bolalarni o`qitish jarayonida asosiy fikrlarni aniqlash imkoniyatini vujudga keltiradi. Boshlang`ich maktab yoshidagi bolalarni tarbiyalash bugungi kunda ko`p mezonlarga muvofiq yangilanishi zarur.

Musiqqa darsining ijod namunasi ekanligini tushunish va boshlang`ich maktab yoshidagi bolalar uchun bunday dars texnik jihatdan jihozlangan sinfda (kompyuter, audio tizim, konsol, mikrafonlar va boshqalar) yorug` xonada o`tkazilishini ta`minlash zarur. Zamonaviy musiqqa darsining bu kabi ko`rinishi — XXI asrning musiqiy sabog`idir.

«Skarabey» interaktiv texnologiya bo`lib, o`quvchilarda fikriy bog`liqlik, mantiq, xotiraning rivojlanishiga imkoniyat yaratadi, qandaydir muammoni hal qilishda o`z fikrini ochis va erkin ifodalash mahoratini shakllantiradi. Mazkur texnologiya o`quvchilarga mustaqil ravishda bilimning sifati va saviyasini xolis baholash, o`rnatilayotgan mavzu haqidagi tushuncha va tasavvurlarni aniqlash imkonini beradi. U, ayni paytda, turli g`oyalarni ifodalash hamda ular orasidagi bog`liklarni aniqlashga imkon yaratadi.

«Skarabey» texnologiyasi o`quvchilar tomonidan oson qabul qilinadi, chunki u faoliyatining fikrlash, bilish xususiyatlari inobatga olingan holda ishlab chiqilgan. U o`quvchilar tajribasidan foydalanishni ko`zda tutadi, reflektiv kuzatishlarni amalga oshiradi, faol ijodiy izlash va fikriy tajriba o`tkazish imkoniyatlariga ega.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Avliyoqulov N.X.. Zamonaviy o`qitish texnologiyalari.- Buxoro. Matbaa,
2. Ilmiy-metodik, ta`limiy, ma`naviy-ma`rifiy jurnal “Estetik fanlar metodikasi”.
3. Ziyomhammadov B., Abdullaeva Sh. Ilg`or pedagogik - texnologiyalar. - Toshkent: Abu Ali Ibn Sino.



## INGLIZ TILI DARSLARIDA AXBOROT TEXNALOGIYALARIDAN SAMARALI FOYDALANISH USULLARI

**Xudayberganova Madina Maqsudbekovna**  
**Allayorova Madina**

Yangiariq tumani 23-son umumiy o'rta ta'lim maktabining ingliz tili fani o'qituvchilari

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada ingliz tili darslarida axborot texnologiyalari vositalaridan samarali foydalanish usullari, ta'lim tarbiya jarayonida multimedia vositalarining ahamiyati haqida mulohaza yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** ingliz tili, multimedia, malaka, hamkorlik, hulq, oila, maktab.

Ta'lim-tarbiya jarayonining jamiyat taraqqiyotidagi roli nihoyatda beqiyosdir. O'quvchini tarbiyalash, uni bilim olishga, ingliz tillarni o'rganish bilan shug'ullanishga undash va bu hattiharakatini sekin-asta ko'nikmaga aylantirib borish lozim. Ingliz tilini o'rganish o'quvchining mushohada qilish qobiliyatini tarbiyalaydi, shu tarzda o'quvchi asta-sekin takomillashib, komillikka erisha boradi. Ammo bu jarayon o'quvchi va o'qituvchidan uzoq davom etadigan mas'uliyat, sharaflil mehnat, qunt va irodani talab etadi.

Umum ta'lim maktablarida o'quvchilarga ingliz tillarni o'rgatishda multimedia vositalarining o'rni muhim ahamiyatga ega. O'quvchilarda ma'naviy, sog'lom sifatlarining shakllanishida multimedia vositalari, atrofdagi, jamiyatdagi ma'naviy muhit va ularga bo'lgan munosabat muhim rol o'ynaydi. Multimedia vositalari asosida o'quvchilarning bir-birlariga bo'lgan munosabatlarini ko'rgan o'quvchi shunga qarab shakllana boradi. So'ng, sekin-asta shug'ullanayotgan faoliyatining mohiyatini anglaydilar. Biz agar boy ma'naviy merosimizga nazar tashlaydigan bo'lsak, unda allomalarimiz tomonidan yaratilgan ma'naviy ta'limotning nihoyatda sermazmun ekanligiga amin bo'lamiz.

Birinchisi – bolaning ruhi uchun bo'lib, u yoshlikdan boshlab yaxshi xulqli bo'lib o'sadi va keyinchalik bu unga ajralmas malaka bo'lib qoladi.

Ikkinchisi – uning badani uchundir, chunki yomon xulq turli mijoz buzilishlaridan bo'ladi. Shuningdek, agar yomon xulq odatga kirib qolsa, u mijoz buzilishini keltirib chiqaradi. Masalan, g'azab kuchli qizdiradi, qayg'u kuchli quritadi...».

Ingliz tilini o'rgangan har bir o'g'il-qiz mukammal, yetuk, sog'lom inson sifatida tarbiya oladi. Maktabdagi ta'lim-tarbiya muhiti o'quvchi tarbiyasiga ham salbiy, ham ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Ustoz o'quvchining bilim olishi uchun mas'ul. Ular o'quvchilarining ingliz tilini o'rganish bilan shug'ullanishlari, ilm olishi, o'qimishli bo'lishi uchun shart-sharoit yaratib berishi lozim. Shu nuqtai nazardan “ustoz – o'quvchi – oila” ijodiy hamkorligini multimedia vositalari asosida ta'lim-tarbiya tizimiga yo'naltirishda ustozlar oldida turgan quyidagi vazifalarni keltiramiz: - o'quvchi va ustoz faoliyatini multimedia vositalari asosida ta'lim- tarbiya tizimi qonuniyatlariga moslashtirish;

- ingliz tilini o'rganish jarayonini amalga oshirishda har bir o'quvchini o'quv-tarbiya jarayoniga jalb qiladigan va sog'lom fikrlashga o'rgatadigan interfaol usul va uslublardan foydalanish; - ingliz tilini o'rganish jarayonida turli xil interaktiv usullarni qo'llash va sog'lom muhitga erishish uchun multimedia vositalaridan foydalanishdan iborat.

Xulosa qilib aytganda, yuqorida ta'kidlangan ta'lim-tarbiya vazifalarining multimedia vositalari asosida hal etilishi o'quvchi shaxsining kelajakda sog'lom inson bo'lib yetishishida muhim ahamiyat kasb etadi. Biz har bir o'qituvchiga darslarda multimedia vositalaridan foydalanishni tavsiya qilgan bo'lar edik.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ishmuhammedov R va boshqalar. “Ta'limda innovatsion texnologiyalardan foydalanish”. Toshkent. 2008 y
2. Ishmuhammedov R va boshqalar. “Ta'lim-tarbiya jarayonlarida innovatsion texnologiyalardan foydalanish”. Toshkent. 2010 yil.
3. M. Xoldorova, N. Fayziyeva, F. Rixsittilayeva. Chet tilini o'qitishda yordamchi vositalardan foydalanish.



## INFORMATIKA FANINI O'QITISHDA INNOVATSION DARS O'TISHNI TASHKIL ETISHNING AHAMIYATI

**Xudayberganova Shahnoza Qoldosh qizi**  
**Rozmetov Azamat Qurbondurdi ogli**

Yangiariq tumani 23-son umumiy o'rta ta'lim maktabining Informatika va AKT fani o'qituvchilari

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada informatika va AKT darsi olib borishning yangi usullaridan foydalanilgan holda dars mashg'ulotlarini qiziqarli va samarali tashkil etishning zamonaviy usullari haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** Innovatsiya, innovatsion yondashuv, Pedagogik faoliyat.

Ta'lim tizimida yil sayin rivojlanib borayotgan axborotkommunikatsiya texnologiyalari va uning ta'lim tizimiga kirib kelishi, ta'lim jarayonini sifat va mazmun jihatdan yanada yuqori bosqichga ko'tarishga xizmat qilayotganligi barchamizga ma'lum. Ayniqsa, ta'lim jarayonini mazmunli tashkil etish uchun zamonaviy texnik vositalardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Xususan, ham innovatsion texnologiyalardan foydalanilgan holda ta'lim berishni davr taqazo etmoqda. Bugungi kunda pedagogning mas'uliyati yana bir marta o'sdi. Endilikda o'qituvchining asosiy vazifasi darsni zamonaviy yondashuvlar asosida o'quvchilarga sifatli hamda qiziqarli yetkazib berishdir. Albatta, bu pedagogdan yuksak mahorat hamda bilim talab qiladi. O'qituvchi brinchi o'rinda, o'z sohasini mukammal darajada bilishi va eng muhimi esa zamon ruhiga mos axborot kommunikatsiyalari va texnologiyalaridan xabardor bo'lishi lozim. Zero, o'quvchilarning har tamonlama yetuk inson bo'lib yetishishida pedagoglarning o'rni beqiyos. Bugungi kun o'qituvchisi faqatgina darslikdan foydalanib qolmasdan, har bir dars uchun o'zi ham kichik kashfiyotlar yaratishi kerak. Chunki bolalarni qirq besh daqiqalik dars mobaynida diqqatini faollashtirib bilim berish – bu murakkab jarayon. Shuning uchun bolalarga turli ko'rgazmalar, multimediyalar va o'yinlar orqali ta'lim berish ularning nutqi rivojlanishiga va fikr doirasi kengayishiga imkon beradi. Eng asosiysi, darsda samaradorlikka erishiladi Hozirda darslarni mazmunli tashkil etish esa o'z navbatida pedagogdan yuksak bilim talab qiladi. Dars jarayonida qo'llash uchun o'zi turli pedagogik metodlarni dars jarayonida ishlab chiqadi hamda hayotga tadbiq etadi. Ta'limda darsni keng qo'llanib kelinatoygan hamda bilim berish samarasini oshiruvchi “Aqliy hujum”, “Fikrlar hujumi”, “Tarmoqlar” metodi, “Beshinchisi ortiqcha”, “6x6x6”, “Bahs-munozara”, “Rolli o'yin”, “Kichik guruhlarda ishlash”, “Yumaloqlangan qor”, “Zigzag”, “Oxirgi so'zni men aytay” kabi zamonaviy texnologiyalar qo'llanmoqda. Bu pedagogik metodlar asosan darsni samarali tashkil etish orqali o'quvchilarni darsga qiziqtirishga xizmat qiladi. E'tibor qaratadigan bo'lsak, sanab o'tilgan metodlarning deyarli barchasi erkin suhbat, o'yin topshiriq va baxs- munozara shaklida tashkil etiladi. Bu orqali o'quvchini darsda to'liq qamrab olish, uni dars jarayoning faol ishtirokchisiga aylantirish imkoni paydo bo'ladi. Shuni ham unutmaslik lozim. O'qituvchi tomonidan tanlangan o'yinlar, ya'ni pedagogik metodlar tog'ri tanlanishi va tog'ri tashkil etilishi juda muhim omil sanaladi.

Bizningcha, ta'limiy o'yinlarga qo'yiladigan asosiy talablar quyidagilardan iboratbolsamaqsadga muvofiq bo'lar edi: 1. Ta'limiy o'yinlar o'quvchilar yoshiga mos bo'lishi kerak; 2. O'yinlar o'tilayotgan mavzu mazmun-mohiyatiga mutanosib bo'lishi lozim; 3. Ta'limiy o'yinlarni o'tkazish vaqti aniq belgilanishi shart; 4. Ta'limiy o'yinlar ham ta'limiy, ham tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lishi kerak; 5. Ta'limiy o'yinlarning o'tkazilish maqsadi, ahamiyati belgilanishi lozim.

Dars mashg'ulotlarida o'yin-topshiriqlarni takrorlash yoki mustahkamlash darslarida foydalanilsa ijobiy natija berishi tajribalardan ma'lum. O'yin-to'shiriqning qaysi bir turini tanlash darsning turiga, sinf o'quvchilarining o'yin-topshiriqlarni bajarishga o'rgatilganlik darajasi, ularning bilim saviyasi, mustaqil ijodiy ishlash imkoniyatlari, o'rganilganlarni xotirada tez tiklay olishi, ijodkorlikning qay darajada shakllanganiga ham bog'liq bo'lishi kerak.

### Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Omonov N.T. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat / – T.: “Iqtisod–moliya”. 2009.
2. Pirmuxamedova M. Pedagogik mahorat asoslari. - T.: 2008.



## BOSHLANG'ICH TA'LIMDA O'QUVCHILARNING NUTQINI O'STIRISH VA ULARDA NUTQIY KOMPETENSIYAKARINI SHAKLLANTIRISH

**Yuldashova Dilnoza Bagandikovna**

Hazorasp tumani 12-son maktab o'qituvchisi

Telefon: +998 (97) 525 93 02

yuldashovadilnoza\_12@inbox.uz

**Yuldashova Gulnoza Bagandikovna**

Tuproqqal'a tumani 2-son maktab o'qituvchisi

Telefon: + 998 (97) 514 15 20

y.gulnoza\_2school@inbox.uz

**Annotatsiya:** Ushbu maqola boshlang'ich ta'limda o'quvchilarning nutqini o'stirish va ularda nutqiy kompetensiyakarini shakllantirish haqida.

**Kalit so'zlar:** Nutq, tafakkur, ko'nikma, usul, fikr.

Til milliy ma'naviyat, ma'rifat va madaniyatning eng xolis va xira tortmas ko'zgidir. Hadisi shariflarda “Kishining zebu ziynati, go'zalligi uning tilidadir” deyiladi. Qadim-qadim zamonlardan beri har bir millat, har bir qavm o'z tiliga buyuk hurmat bilan qaraydi. Bu tilning sohir ohanglari og'ushida erimoqdan adoqsiz huzur tuyadi. Bu tilga timsol topmaslikdan taskin topadi. Bu nodir boylikni dunyolarga bermaslikka hozir turadi. Chunki til millat degan birlikning tamal toshi, u boy berilsa, millat ham boy beriladi.

Tilning lug'at boyligini yetarli darajada bilmasdan turib madaniy nutq tuzish mumkin emas. So'zlarning semantik strukturasi, undagi taraqqiyot, leksik sistemadagi so'zlarning bir-biriga munosabati kabi masalalardan boxabar bo'lmasdan turib, tilning behad boy so'z xazinasidan konkret nutq uchun eng keraklisini tanlash mushkul.

Boshlang'ich ta'limning asosiy vazifalaridan biri o'quvchilar nutqini o'stirishdir. Nutq o'stirish quyidagi uch yo'nalishda amalga oshirilishi metodik adabiyotlarda qayd etilgan:

- so'z ustida ishlash;
- so'z birikmasi va gap ustida ishlash;
- bog'lanishli nutq ustida ishlash orqali

Nutq fikrni bayon etish vositasi bo'libgina qolmay, uni shakllantirish quroli hamdir. Fikr nutqning psixologik asosi vazifasini bajaradi, uni o'stirish sharti esa fikrni boyitish hisoblanadi.

Aqliy faoliyat tizimini egallash asosidagina nutqni muvaffaqiyatli o'stirish mumkin. Shuning uchun o'quvchilar nutqini o'stirishda materialni tayyorlash, takomillashtirish, mavzuga tegishlisini tanlash, joylashtirish va mantiqiy fikrlashga yo'naltiradigan ish turlariga katta ahamiyat beriladi.

Tafakkur til materiali yordamida nutqiy shakllantirilsa va bayon etilsagina, muvaffaqiyatli o'sadi. Tushuncha so'zlar yoki so'z birikmalari bilan ifodalanadi, shunday ekan, u til vositasi bo'lgan so'zda muhim aloqa materialiga aylanadi. Kishi tushuncha ifodalaydigan so'z (so'z birikmasi)ni bilsagina, shu tushunchaga asoslangan holda, tashqi nutqda fikrlash imkoniga ega bo'ladi.

Nutqda fikr shakllantiriladi, shu bilan birga, fikr nutqni yaratadi. «Nutq tafakkur bilan chambarchas bog'langandir. Nutq bo'lmasa, tafakkur ham bo'lmaydi, til materiali bo'lmasa, fikrni ifodalab berib bo'lmaydi».

Fikrni nutqiy shakllantirish uning aniq, tushunarli, sof, izchil, mantiqiy bo'lishini ta'minlaydi. Tilni egallash shu tilning fonetikasini, lug'at tarkibini, grammatik qurilishini bilib olish, fikrni takomillashtirish uchun, tafakkurni o'stirish uchun shart-sharoit hozirlaydi. Bilimlar, dalillar, har xil axborotlar tafakkurning ham, nutqning ham materialidir. Nutq tafakkur jarayonini o'rganishning muhim vositasi bo'lib xizmat qiladi. Nutqdan o'quvchi fikriy rivojining asosiy o'lchovlaridan biri sifatida foydalanadi. O'quvchining barcha o'quv predmetlaridan materialni o'zlashtirishi va umumiy aqliy rivojlanish haqida fikr yuritganda, u yoki bu mavzuni o'quvchi o'z nutqida (yozgan inshosida, axborotida, qayta hikoyalashda, savollarga bergan javobida) qanday bayon eta olishiga qaraladi.

O'quvchilar nutqini o'stirish boshqa o'quv predmetlaridan o'tkaziladigan mashg'ulotlar bilan ham uzviy ravishda bog'lanadi. Ona tili darslarida o'quvchilar til yordamida tabiat va kishilar hayoti haqida bilim oladilar; ular kuzatishni, o'ylashni va ko'rganlari, eshitganlari, o'qiganlari



haqida to'g'ri bayon qilishni o'rganadilar. Ona tili darslari bolalar lug'atini boyitishga samarali yordam beradi, nutqni to'g'ri tuzishni o'rgatadi.

Boshlang'ich sinflardagi boshqa darslarda ham o'quvchilar nutqi xilma-xil so'zlar bilan boyitiladi. Kuzatish va turli ko'rgazmali qurollar bu darslarda ham bilim olish, tushunchalarni shakllantirish vositasi hisoblanadi.

Shunday qilib, nutqni tafakkurdan ajratib bo'lmaydi, nutq tafakkur asosida rivojlanadi; fikr nutq yordamida pishib yetiladi, yuzaga chiqadi. Ikkinchi tomondan, nutqning o'sishi fikrni shakllantirishga yordam beradi, takomillashtiradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:**

1. Karimov S. O'zbek tilining badiiy uslubi.- Samarqand, 1992.
2. Mirtojiev M., Mahmudov N. Til va madaniyat. Toshkent, «O'zbekiston» 1992.



## BIOTEKNOLOGIYA FANINI O'QITISHDA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISH

Yusupova Azada Kadambayevna

UrDU tabiiy fanlar fakulteti

Biologiya kafedrası stajyor o'qituvchisi

*Annatotsiya:* Biotexnologiya fanini o'qitish usullariga doir barcha masalalarni birgina ishda qamrab olish qiyin bo'lgani uchun o'qituvchilar biotexnologiya fanini o'qitishga ijodiy yondashib, sinfdagi mavjud sharoit va holatni hisobga olgan holda, bayon etilgan fikrlarni to'ldirib boradilar.

*Kalit so'z:* Zamonaviy, fikr, o'quvchi, og'zaki, yozma, didaktik, ta'lim.

**Interfaol (“Inter” – bu o'zaro, “ast” – harakat qilmoq) – o'zaro harakat qilmoq yoki kim bilandir suhbat, muloqot tartibida bo'lishini anglatadi.** Boshqacha so'z bilan aytganda, o'qitishning interfaol uslubi otlari – bilish va kommunikativ faoliyatini tashkil etishning maxsus shakli bo'lib, unda ta'lim oluvchilar bilish jarayoniga jalb qilingan bo'ladilar, ular biladigan va o'ylayotgan narsalarini tushuntirish va fikrlash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Interfaol darslarda o'qituvchining o'rnini qisman talaba(o'quvchi)larning faoliyatini dars maqsadiga erishishga yo'naltirishiga olib keladi. O'quv jarayonida geografiya talimini zamonaviy ta'lim texnologiyalari asosida olib borishda interaktiv usullardan foydalanish muhim rol o'ynaydi. O'qitishning interaktiv usuli yordamida o'quv jarayoni to'g'ri tashkil etish kerakki, bunda sinfda talim oluvchilarning o'qish, bilim olish jarayoniga to'la jalb etiladi. Ular o'zlarini oylagan va bilgan barcha narsalar to'g'risida erkin fikr yuritish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Ya'ni mavzu materiyallarini idrok etish va o'zlashtirish jarayonida o'quvchi va o'qituvchilarning birgalikdagi faolyati natijasida jaroyani tashkil etiladi. Bu jaroyonda o'quvchilar o'zlarini alohida individual hissasini qo'shadi. O'quvchilar o'z fikrlari, bilimi faoliyati, dunyo qarashi yangi mavzuga oid bo'lgan tasovurlari bilan o'rtoqlashadilar. Bu jarayon o'quvchilarning o'zaro ittifoqligi qo'llab-quvvatlash muhitida amalga oshadi. Interaktiv usulblar g'oyalarning ustunligi, yagonaligini vaqtincha inkor etadi. Talim jarayonida o'quvchilar tanqidiy fikrlashni o'rganadilar. Bundan tashqari, o'quvchilar tomonidan aytilgan al'ternativ fikrlarni taroziga solib ko'rish oylab xulosa chiqarish, bahs-munozarasida ishtirok etish, o'z fikrini bayon qilib berishni o'rganadilar. Bundan tashqari, o'quvchilar tomonidan aytilgan al'ternativ fikrlarni taroziga solib ko'rish oylab xulosa chiqarish, bahs-munozarasida ishtirok etish, o'z fikrini bayon qilib berishni o'rganadilar. Bu uslubni amalga oshirishda o'qituvchi, o'quvchilar darsni tashkil etishda yakka juft, holatda amalga oshiriladi. O'qituvchi interaktiv uslubni amalga oshirish uchun puxta tayyorgarlik ko'rish kerak:

1. Auditoriya dars jarayoni uchun tayyor bo'lish kerak. Kerakli materiallar oldindan tayyorlanishi lozim.

2. Bu jarayonni amalga oshirishda vaqtni o'quvchilar bilan kelishilgan holda to'g'ri taqsimlash lozim.

3. O'quvchilar guruhlariga bo'lishda birinchi ixtiyoriy holat, keyin esa tasodifiy holatga bo'lish kerak. Chunki yaxshi, aktiv o'quvchilar bir guruhga to'planib qolishi mumkin. Buni oldini olish lozim.

4. Darsda o'quvchilarni guruhlarda bo'lishda, o'quvchilarning psixologik holatini hisobga olish kerak. Bu jarayonni tashkil etish juda nozik bo'lib, darsni qanday o'tishni belgilab beradi. Dastlab o'quvchilar birdaniga darsga kirib ketishga tayyor bo'lmaydilar.

5. Fan o'qituvchisining mahorati o'quvchilarni o'ziga jalb eta olish, so'zlashuv odobi, nutqining qandaydir o'ziga hosligi keyingi darslarda ham shu uslublardan foydalanish kerakligini o'quvchilarda shakllantirish lozim.

Rolli o'yinlar. O'qitishning bu usulida o'quvchilar «real hayot» holatlarini qayta jonlantiradilar. Bu ularga o'z amaliy ish faoliyatlarida qo'llash mumkin bo'lgan yangi turdagi faoliyatlarni sinab ko'rish va tekshirish imkonini beradi. Qo'llanilishi:

- Yangi turdagi faoliyatni sinash imkonini ko'rsatishda;
- O'quvchilarni nazariyani amaliyotda qo'llab ko'rishga o'rgatishda;
- O'quvchilar faolligini yanada oshirishda. Afzalligi:
- «real hayot» ning qayta tiklanishi; - o'quvchilarning mavzuga chuqurroq jalb qilinishi;
- O'quvchilarning muammoga boshqacha yondashuvini ko'rish imkonini berish.



Guruh munozarasi: O'qitishning bu usuli o'quvchilarning o'zaro muloqoti va fikr almashinuviga asoslangan. Bunda guruhda tahlil qilish, baholash va tekshirish asosida muayyan mavzu yoki muammo ishlab chiqiladi. Qo'llanilishi.

- Qiziqishni kuchaytirish va o'ylash, fikr yuritishga chorlashda;
- Ma'ruza o'qish va boshqa usullarni mustahkamlashda;
- Mashgulot mazmunining asosiy qismini ishlab chiqishda;
- Muammoning ko'zda tutilgan qarorini ishlab chiqishda;
- Yakun yasash yoki tekshirishni amalga oshirishda;
- Mavzu tushunarligini baholashda;
- O'quvchilarni kelgusi darsga tayyorlashda.

Afzalligi: -O'quvchilarda qiziqishni orttiradi va darsga jalb qilinishini mustahkamlaydi;

-O'quvchilar fikr va tajriba almashish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Biologik o'yin bolalarning bilimga qiziqishlarini faollashtirish yo'lidagi eng qulay vositadir. Bulardan eng qizig'i rolli o'yinlar, bunda tashabbus bilan bolalar o'z oldiga qo'ygan topshiriqlarni hal qilishi, qiyinchiliklarni yengish, mehnatga muhabbat harakteriga ta'sir qilishi mumkin.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. Yo'ldoshev J.G., Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari.-T, 2001.
2. Safin D.V., Musina R.G. Ta'lim berish va o'qishning interfaol usullari. O'quv qo'llanma.-1-modul. Interfaol o'qitishning nazariy asoslari. - Toshkent, 2007.
3. Yuldashev J. “Yangi pedagogik texnologiya:yo'nalishlari, muammolari, yechimlari”, “Xalq ta'limi”1999-yil, 4-son.
4. Faberman B.L., Musina R.G., Jumaboyeva F.A. Oliy o'quv yurtlarida o'qitishning zamonaviy usullari. T.:2003.



## NEMIS TILI FANINI O`QITISHDA YANGI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Yusupova Gulnoza Odilbekovna

Xonqa tumani 24-maktab  
nemis tili fani o`qituvchisi

**Annotatsiya:** Ush bu maqolada umumiy o`rta ta`lim maktablarimizda nemis tili ta`lim usullarining, ta`lim jarayonlarining yangidan yangi modellarini joriy etish va ularni ustoz-murabbiylarimiz qo`llay olishi uchun metodik tavsiyalar berilgan.

**Kalit so`zlar:** pedagogika, metod, innovatsion texnologiya, o`qituvchi.

Davlatimiz musaqilikka erishgandan keyin ta`lim tarbiyaga katta e`tibor qaratildi. Hozirgi kunga kelib ta`lim tarbiyada ko`plab yutuqlarga erishildi. Zamonaviy ta`lim oldida turgan eng muhim vazifa o`quvchi shaxsining ilm olishga bo`lgan ehtiyojini qondirishga qaratilgan.

Ta`lim jarayonida o`quvchiga iloji boricha qisqa fursatda ko`p ma`lumot yetkazib bera olish, shu bilan birga malakali kadrlar tayyorlay olish hozirgi kun o`qituvchisining oldidagi dolzarb vazifalardan biridir.

Butun dars davomida faol o`quvchilar berilgan barcha masalalarni to`g`ri va tez ishlab boradilar. Sust o`zlashtiruvchi o`quvchilar esa, aksincha bir-ikkita masalani to`g`ri ishlay oladilar. Bu vaqtda o`qituvchi o`quvchilar bilimini baholashga qiynaladi. Quyidagi metodni qo`llash orqali bu muammoni bartaraf etish va o`quvchilarning darsga qiziqishini yanada oshirish mumkin.

O`qituvchi masala yechish darsi mavzusini e`lon qiladi. Mavzu yuzasidan kerakli fizik kattaliklar va ularning ifodalari haqida batafsil ma`lumot beradi. Shundan so`ng masalalar yechish boshlanadi. 1-mashqning sharti e`lon qilinadi. Mashqni to`g`ri va tez ishlagan o`quvchilar daftariga o`qituvchi baho emas, balki “N” harfli belgini qo`yadi. Keyin 2-mashqni ishlashga kirishadilar. Bu masala uchun “A” harfi bilan belgi qo`yiladi. 3-mashq uchun “M” harfi va h.k. Shu tariqa keyingi mashqlar ishlanadi. Agar bitta o`quvchi dars davomida berilgan hamma mashqlarni to`g`ri va tez ishlasa, ketma-ket ball o`rniga “namunali” so`zini hosil qiluvchi harfli belgilar qo`yib boriladi. Dars yakunida “NAMUNALI” so`zining barcha harflarini to`plagan o`quvchilarga “Nemis tili fanidan namunali o`quvchi” deb yozilgan rag`bat kartochkasi beriladi va “5” baho bilan baholanadi. Dars davomida “NAMUNA” harflarini to`play olgan o`quvchilarga “Nemis tili darsida yaxshi qatnashchi” kartochkasi beriladi va “4” baho bilan baholanadilar. Dars davomida 5 tagacha masala ishlay olgan o`quvchilarga “Nemis tili qiziqarli fan. O`z ustingizda ishlang.” Kartochkasi beriladi va bu o`quvchilar “3” baho bilan baholanadilar. Bu metod “Sirli baho”metodi deyiladi.

Nemis tili ta`limida yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish yaxshi natija beradi. Chunki nemis tili fanini faqatgina darslikdan o`qib, yoki o`qituvchining ma`ruzasini tinglab o`rganish mushkul. Ta`lim oluvchilarda yetarli darajada bilim va ko`nikmalar shakllanishi uchun ular tegishli hodisa va qonuniyatlar bo`yicha o`z mustaqil fikrlarini bildirishlari, o`qituvchi yoki boshqa o`quvchilar bilan fikr almashishlari lozim bo`ladi. Darsda o`rganiladigan mavzuning mazmunini inobatga olgan holda, o`quvchilardan kichik guruhlar tashkil etish, interfaol metodlardan foydalanish, ko`rgazma qurollari, taqdimotlar, slaydlar, multimedialardan foydalanib darsni tashkil qila olish dolzarb sanaladi.

Yangi pedagogik texnologiyalarni nemis tili ta`limida to`laqonli tarzda texnologik jarayon sifatida tadbiq etish, ta`lim-tarbiya jarayonini texnologiyalashtirish - ta`lim muassasasining kuchli moddiy-texnik bazasini, ko`p vaqt va mehnat talab etadigan murakkab jarayondir. Nemis tili ta`limida yangi pedagogik texnologiyalarni qo`llash uchun o`qituvchi yuksak pedagogik mahoratga ega bo`lib, dars mavzusi, o`quvchilar soni, ularning qiziqishi, qobiliyatlarini har tomonlama hisobga olishi kerakligi ma`lum bo`ldi.

### Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Yuldashev J. “Yangi pedagogik texnologiya: yo`nalishlari, muammolari, yechimlari”, “Xalq ta`limi” 1999-yil, 4-son.

2. Faberman B.L., Musina R.G., Jumaboyeva F.A. Oliy o`quv yurtlarida o`qitishning zamonaviy usullari. T.: 2003.



## BOSHLANG'ICH SINFLARDA HIKOYA O'QISH VA UNING TAHLILIIY METODLARI

**Yusupova Ro'zibika G'ayibnazarovna**

Xorazm viloyat Xiva tuman

10-son maktabning boshlang'ich sinf o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada boshlang'ich sinflar hikoya o'qish metodikasi, hikoya tahlili va buni o'quvchi dunyoqarashini oshirishdagi ahamiyati haqida fikr bildiriladi.

**Kalit so'zlar:** Hikoyani tahlil qilish, hikoyani izohli o'qish, “Dadam qurgan dengiz”, “Olma”, tushunarlilik

Hikoya kichik hajmli badiiy asar bo'lib, unda kishi hayotidagi ma'lum bir voqea, hayotning muhim tomonlari umumlashtirib tasvirlanadi. Hikoya ko'pincha kishi hayotida bo'lgan bir epizodni tasvir etadi. Uning mazmuni ertakdagidan ortiqroq hayotiydir. Hikoya mazmunan boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun mos janr hisoblanadi. Kichik yoshdagi o'quvchilarni qahramonlarning xatti-harakati, tashqi ko'rinishi, portret tasviri, voqea-hodisalar haqidagi hikoyalar ko'proq qiziqtiradi. Shuning uchun, bolalarni hikoya bilan tanishtirish uning syujetini tushuntirishga bog'lab olib boriladi. Boshlang'ich sinflarda hikoyani o'qishga bag'ishlangan izohli o'qish darslarida o'qilgan hikoya mazmunini ochish, lug'at ustida ishlash, o'qilgan matnni qayta hikoyalash kabilar asosiy ish turlaridan foydalaniladi. Ushbu jaryonda asosiy ish turi hikoyani tahlil qilishdir. Hikoya mazmuni odatda savollar asosida tahlil qilinadi.

**Hikoyani tahlil qilish.** Ushbu dars jarayonida hikoya o'qituvchi tomonidan tushuntirib o'qib beriladi. So'ngra darsning asosiy qismi hisoblangan hikoyani tahlil qilish bosqichiga o'tiladi. Bu eng muhim bosqich bo'lib, asosan o'quvchining fikrlashi hamda nutqini o'stirishga xizmat qiladi. O'qituvchi tomonidan o'qib tushuntirib bergan hikoya asosida tahliliy suhbat o'tkaziladi. Ya'ni, hikoya qahramonlari, undagi voqealar rivoji, qaysi epizod yoqqanligi va h.k. Bu orqali o'quvchida fikrlash hamda keng dunyoqarashni shakllantirish imkoni paydo bo'ladi. Dars jarayoni taxminan shunday tashkil etilsa maqsadga muvofiq:

1. Matn mazmuni yuzasidan o'qituvchi savollariga javob berish.
2. Hikoya matni asosidagi savol-topshiriqlarni bajarish.
3. Hikoya mazmuni yuzasidan o'quvchilarning savollar tuzishi.
4. Hikoya mazmuniga mos rasmlar chizish.
5. Hikoya matnini qismlarga bo'lish.
6. Har bir qismga sarlavha topish.
7. Hikoyaga reja tuzish.
8. Reja asosida qayta hikoyalash (to'liq, qisqartirib va ijodiy qayta hikoyalash).
9. Reja asosida bayon yozish.

Lekin hikoyani tahlil qilishda syujetni to'liq tushuntirishga berilib ketib, qahramonlarga tavsif berish, asar qurilishi va tilini tahlil qilish kabi ish turlari e'tibordan chetda qolmasligi lozim. Ertak janriga xos matnlar jozibadorligi bilan bolani o'ziga tortadi. Lekin hikoya janri ham hayotiyligi bilan o'ziga xos. Hikoyada voqealar tez rivojlanib boradi. Unda inson hayoti, u bilan bog'liq hayotiy lavhalar bayon etiladi. O'quvchilar qahramonlarning xarakteri, ulardagi xususiyatlar bilan qiziqadilar. Masalan, 3-sinf „O'qish kitobi“dagi „Dadam qurgan dengiz“ (Hakim Nazir), «Olma» (Malik Murodov) va boshqa qiziqarli hikoyalar berilgan. Ular mavzu jihatdan xilma-xil bo'lib, qahramonlarining xarakter-xususiyatlari bilan ham farq qiladi.

Boshlang'ich sinflarda hikoya syujeti, kompozitsiyasi, qahramonlarini o'rganish bo'yicha turli tahlillar matn ustida ishlash asosida olib boriladi. Bunda o'quvchining ijodiy faolligi ortadi, ijodiy fikrlash doirasi kengayadi. Shuningdek, tahlilda o'qilayotgan hikoya matnining tushunarlilik ham hal qiluvchi ahamiyatga ega. Tushunarlilik deganda, biz hikoyani qanchalik bolaning dunyoqarashi, tafakkuriga mos tanlanishini anglashimiz mumkin. Hikoyani tahlil qilishda savollarni, odatda, o'qituvchi beradi, ammo asar mazmuni, qatnashuvchi shaxslarning xulq-atvorini ochish yuzasidan o'quvchilarga ham savol tuzdirish juda foydali. Bu usul bolalarga juda yoqadi va ishni jonlantiradi, asar mazmunini yaxshi tushunish, o'z fikrini izchil bayon qilish malakasini egallash, mazmun va voqealar orasidagi bog'lanishni to'liq esda saqlab qolishda o'quvchilarga yordam beradi.

**Hikoyani izohli o'qish** darsini quyidagicha reja asosida olib borish mumkin:



1. Hikoyani o'qishga tayyorlash (hikoyadagi kabi odamlar hayoti va davrga xarakteristika berish va boshqa.).
2. Hikoyani o'qish (bunda to'liq va ma'no jihatdan tugal qismni o'qituvchi yoki oldindan tayyorlangan o'quvchi ifodali o'qishi mumkin)
3. Lug'at ustida ishlash.
4. Idrok etishni tekshirish (qatnashuvchilarning xatti-harakatlari, shaxslar va voqealar o'rtasidagi munosabatlar, badiiy vositalar yuzasidan qisqacha suhbat).
5. Hikoyani qayta o'qish (qismlarga bo'lib, rollarga bo'lib o'quvchilarga o'qitish).
6. Hikoyaning har bir bo'limi (qismi) yuzasidan suhbat uyushtirish, hikoya rejasini tuzish.
7. Hikoyani ifodali o'qishga yoki sahnalashtirishga tayyorlanish (sinfda yoki uyda).

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Karima Qosimova, Safo Matchonov, Xolida G 'ulomova, Sharofat Yo'ldosheva, Sharoljon Sariyev “Ona tili o'qitish metodikasi” Toshkent «NOSIR» nashriyoti 2009
2. Sulton Adabiyot nazariyasi. - Toshkent: „o'qituvchi“, 1980. 245-bet.
- 3, www.ziyouz.com kutubxonasi



## BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARINI KREATIV FIKRLASHGA O‘RGATISH

**Sharipova Zamira Bozarbayevna**

Urganch shahri 18-maktabning

boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

Telefon: +998 91 2776535

***Annotatsiya:** “Boshlang‘ich ta’limda kreativ fikrlashga o‘rgatish” mavzusidagi maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ijodkorlikka, mustaqil fikrlarini bayon qila olishga, ifodali o‘qishga o‘rgatishning afzalliklari haqida fikr yuritiladi.*

Kalit so‘zlar: kitob o‘qish, samarali o‘qish texnologiyasi, tanqidiy fikrlash.

Bizga ma’lumki, ko‘pincha o‘quvchilar o‘qiganlarida tinish belgilariga yaxshi e’tibor bermaydilar. Ular har bir o‘qigan narsasiga ijodkorlik va yaratuvchanlik bilan yondoshmoqliklari kerak. Shuning uchun har bir so‘zga, gapga urg‘uni to‘g‘ri qo‘yib o‘qishni o‘rgatishimiz lozim. Asarni o‘qiganda tushunib, ongli idrok qilib o‘qish lozim. Har bir fikrni ijodkorlik bilan tushunib bayon qila olsa o‘quvchi intiluvchanligidan darak beradi. Umuman, inson faoliyatida yaratuvchanlik, ijodiy fikrlash har muammoni, vazifani, loyihani yechishda sermahsul jarayon hisoblanadi. Hozirgi zamon ta’limining bosh va asosiy vazifasi — o‘quvchining intellektual darajasini, yaratuvchanligini, ijodkorligini, izlanuvchanligini takomillashtirish orqali ularni yangi bilimlarni olish, yaratishga ruhlantirishga qaratilmog‘i kerak. Ma’lumotlarga qaraganda (yoshlar psixologiyasiga ko‘ra) olti yoshgacha bo‘lgan bolalar 40% iste’dod potensialiga ega ekanlar. Bolalar eng kichik yoshdanoq ijodkorlik, yaratuvchanlikka juda moyil bo‘lar ekanlar. Agar shu davrda ular bilan olib borilayotgan ta’lim jarayoniga faqat an’anaviy asosda yondashilsa, ulardagi ijodkorlikka moyillik so‘nib boradi. O‘quv-biluv ijodkorlikka yo‘naltirilsa, bolaning faolligi, yaratuvchanlik qobiliyati oshib boradi. Ijodkorlik asosida ish yuritishda faqatgina obyektning o‘zi bilangina cheklanmay, ya’ni subyekt (bola)ning ijodkorligi, moyilligi, ehtiyojiga qarab ish tutilsa, ijobiy natijalar beradi, ya’ni ijodkorlikka bolalikdan o‘rgatish mumkin va zarur.

Umuman, ulug‘ kashfiyot namoyandalari fikrlash algoritmini yaxshi o‘zlashtirganlar, chuqur, atroflicha bilimga ega bo‘lganlar. Ular, asosan, evristik metod va usullarni yaratganlar, shular asosida ijodkorlik namunalari namoyon qilganlar.

„Kreato“ lotincha so‘z bo‘lib, *yaratuvchanlik, ijodkorlik* degan ma’noni beradi. Yaratuvchanlik va ijodkorlik metodlarini yaratishni, o‘rgatishni kreativ pedagogika o‘rgatadi.

Agar ta’lim jarayoni o‘quvchi faolligiga asoslangan muammoli, dasturlangan, loyihalar, masofaviy ta’lim jadallashtirilgan holda kechsa, u holda kreativ yo‘nalishga ega bo‘lib, o‘quvchining faolligi tufayli u yangilik, ijodkorlik sari yetaklaydi. O‘quvchilarni mustaqil fikrlashga kichik paytidan o‘rgatish lozim. Uning o‘zlashtirib, asarlarni ravon va mazmunli o‘qishida bu ham juda muhim hisoblanadi. Mutaxassislar ta’kidlaydiki, bolani fikrlashga, harakatga o‘rgata olsak, u jamiyatdan munosib o‘rin egallaydi va bilimlarni puxta egallaydi. Fikrlashga o‘rgatish uchun eshitish, erkin qo‘yish kerak. Savol-javoblarda aktivlikka erishish kerak. O‘quvchi qachon mustaqil fikrlay oladi. Qachonki u mustaqil ko‘p kitob o‘qisa. O‘qigan asarini o‘zi tushunib, idrok qilib gapirib bera olsa, demak bu o‘quvchi asarni to‘la tushungan bo‘ladi. Ko‘pgina o‘quvchilar juda qobiliyatli bo‘ladi. Ular har qanday topshiriqni tez bajara oladilar. Lekin ba’zi o‘quvchilar ravon va mazmunli o‘qishga qiynaladilar. Bunday paytlarda bu o‘quvchilar bilan darsdan keyin individual shug‘ullanishni tavsiya qilaman. Ta’lim bilan bog‘liq har qanday faoliyat loyihalashtirish asosida kechsa yaxshi natijalarga olib keladi. Hozir texnik jihatdan katta o‘sish, o‘zgarishlar davri. O‘quv jarayonini algoritmlash, loyihalash, modullashtirish o‘quvchining o‘quv jarayoniga bo‘lgan shaxsiy mas’uliyatini oshiradi. Ularda motivatsiyaning kuchayishi orqali qo‘shimcha ma’lumotlar olish asosida o‘z bilimini boyitib borish ehtiyojini tug‘diradi.

O‘quv jarayonini kreativ yo‘naltirish uchun:

1. O‘quv jarayoni o‘quv materialini berib borish, boshqa qiziqarli qo‘shimcha materiallarni taklif etish va o‘quvchini izlanishga, ijodkorlikka yo‘naltiruvchi material asosida uni o‘z ehtiyoji, xohishi bilan yangilik sari yetaklash.

2. O‘quv jarayonini ham shunday o‘zgartirish kerakki, o‘quvchi o‘quv materiallarining yaratuvchisiga aylanib, berilgan o‘quv materialini o‘sha yaratuvchilikka xizmat qilsin.

3. O‘quv materiallariga yangi qo‘shimchalar kiritish orqali evristik strategiya, taktika, metod va



usullar taklif etish orqali o‘quvchining ijodiy fikrlashga bo‘lgan qiziqishini oshirish kerak.

O‘quv jarayonida o‘quvchi mustaqil ravishda masalaning yechimiga intilsa, o‘qituvchi muammoli vaziyatni o‘z vaqtida tashkil etsa, o‘quvchi uchun sekin-asta ko‘nikma va malakaga aylana boradi.

Umuman, inson faoliyatida yaratuvchanlik, ijodiy fikrlash har muammoni, vazifani, loyihani yechishda sermahsul jarayon hisoblanadi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O‘zbekiston, 1992.
2. O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonuni. G‘G‘Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.: Sharq, 1997.
3. Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi. Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.: Sharq, 1997.
4. Azizxo‘jayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. – T.: TDPU, 2015.

**BOSHLANG'ICH SINFLARDA JISMONIY TARBIYA DARSLARINI TASHKIL ETISHNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI****O'razbayeva Zuhra Baxtiyor qizi**

18-son maktabning boshlang'ich ta'lim fanidan jismoniy tarbiya fani o'qituvchisi Tel: +998 97 512 92 98

**Annotatsiya:** Maqolada asosan boshlang'ich sinflarda jismoniy tarbiya darslarini qiziqarli tashkil etishning pedagogik imkoniyatlari sifatida o'quvchilar harakatchanligini oshirish, salomatliklarini yaxshilash va jismoniy rivojlanishida normal o'sishni amalga oshirish borasida fikr yuritildi.

**Kalit so'zlar:** Salomatlikni yaxshilash, jismoniy tarbiya, sport, harakatli o'yinlar, funktsiyonal o'sish.

Salomatlikni asosan tananing barcha organizmlarining to'g'ri joylashishi tuzilishi funksional faolligi har qanday kasaliklarga moyinlik yo'qligi bilan belgilanadi. Oddiy jismoniy rivojlanish-bu yoshda tanasining tuzilishi va funksiyalarining o'sishiga bilan tabiiy ravishda sodir bo'ladigan morfologik va funksional o'zgarishlar juda murakkab ammo shunga qaramay rivojlanishning normal g'ayritabiiy yo'nalishi jarayonni tashqi ko'rinishda aks ettiruvchi ba'zi ko'rsatkichlar bo'yicha baholanishi mumkin. Ko'rsatkichlar tananing balandligin, vazni va ko'krak qafasining atrofi. Ularning tananing massasi, zichligi va shakli bilan bog'liq. Ushbu omillarning o'zaro bog'liqligi bo'yicha bolalarning jismoniy kuchini baholash mumkin. Uzunlikning o'sish sur'ati avvalgi davirga nisbatan biroz sekinlashadi maktabgacha yosh lekin tana vazni ortadi. Bandligi har yili tahminan 4sm ga o'sadi vazni 2kg ga oshadi. Shuning uchun bu yosh yaxlitlash davr deb ataladi. Faol vosita faoliyati suyak va mushak to'qimalarning osishi va rivojlanishiga yordam beradi. Ichki organlari va sezgi organlari bolalarning tanasida maktablik jarayonlari rag'batlantiradi himoya xususiyatlarini oshiradi. Qanday leykotsitlar sonining ko'payishi va ularning patogen mikroblarni singdirishi faolligi tufayli organizimni noqulay muhit issiqlik, sovuq, kislarot etishmasligi yuqori atmosfera bosim, zaharli havo aralashmalari va boshqalar ta'siriga chidamliligi. Shuni takidlash kerakki, o'sish rivojlanishi salomatlik, faoliyat birinchi navbatda ota-onalardan ma'lum jismoniy ma'lumotlarni meros qilib olish. Boshlang'ich maktab yoshidagi bolalarning mator faolligi ham ortiqcha bo'lishi kerak. International Conference on Developments in Education Hosted from Bursa, Turkey <https://econferencezone.org> April 25th 2022 65 Kuchli mashiqalarda extiyod bo'lishingiz kerak, chunki tananing energiya resurslarining muhim qisim ichida. Bu yoshda u plastik jarayonlarga o'sishi va rivojlanishi jarayonlari sariflanadi va mushaklarning faoligi yuqori energiya harsajatlari bilan bog'liq. Jismoniy tarbiya nazariyasida pedagogik faoliyat o'quv jarayonining asosiy shakli sifatida dars mashg'uloti uqtiriladi. Bu esa o'z navbatida jismoniy tarbiya faniga asosan taluqlidir. 1-4-siniflarda o'tiladigan darslarning turlar va asosiy mazmuni haqida ba'zi bir tushunchalarining keltirish mumkin. 1-sinf gimnastika darsi so'nggi yillarda darslarni tashkil qilish usullari pedagogik mahoratini ilmiy nazariy jihatdan tahlil qilish natijalariga ko'ra quydagilarni e'tirof etish mumkin; -Bolalarning bo'yiga ko'ra safda turishining da'vat etish; kichik yoshdagi bolalar eng avvalo o'zaro tanish-yaqinlari bilan yonma-yon turishi ma'qul bo'ladi. -Safda yomna-yon qator oldinma-keyin mashiqalarning bajarishga o'rgatish; “Saflan”, “bir qatorga tur” kabi ibora buyuruqlari ishlatish zarur. O'quv yilining 2-choragida o'quvchilarning qatorga o'rgatish mumkin. “Saflan”, “qatordan tarqal”, buyurugini ham tarqol iborasi bilan tushuntirish va amalda takrorlash lozim. -Ikki qator safga turish va tarqalib ya'na saflanish; vazifalarini eng avvalo aholida bajartirishni ma'lum ko'nikmalar hosil qilinadigan keyingina boshqa o'yin mashq va sport turlarida yengil atletika harkatli o'yin va boshqalardan ham qo'llanish lozim. -Safda qatorda yurish; umum rivojlanturuvchi jismoniy mashiqalarni gimnastika mashiqalarni bajarish uslubiga e'tiborni jalb etish maqsadida o'ituvchi sergak va xushyor bo'lishi to'g'ri yo'l-yo'riq ko'rsatish lozim. -Akrabatik mashiqalar; Oldinga yonga do'mbaloq oshish qo'llarga tayanib charx aylanish to'siqlardan sakrab o'tish va harakatlanishi kerak.. Iqtidorli jismoniy tayyorgarlik qiziqish darajalari e'tiborga olingan. 1-sinf o'quvchilarning diqqati e'tibori va ijrochilik faoliyatini o'stirishda buyruq topshiriqlarni aniq qisqa mazmunda tushintirish amalda bjarish kerak. Jismoniy tarbiya darslarni mazmunli qiziqarli tashkil etish.



O'quvchilarning jismoniy qobiliyatlari shakillantirish hamda ularni tarbiyalab o'stirish davrimiz talabidir. Bu o'sib kelayotgan avlodni ma'naviy jismoniy barkamol bo'lib yetishlariga asosiy omil uslub bo'lib xizmat qiladi. 2-sinif O'quvchilar bilan dastur asosida darslarni tashkil qilish maqsad mazmun shakli jihatdan bir muncha takomilashish lozim. 3-4-sinif o'quvchilarning tana a'zolarini ancha rivojlanib murakkab harakatlarga bajarishga ko'nikma bo'ladi. Maktabning sport to'g'risidagi bolalar sport maktabida shug'ulanuvchilarga o'zlari hohlagan o'yinmashiqklarini boshqalarga namuna sifatida ko'rsatishga berish zarur. O'quvchilarda qiziqish uyg'otish bilan bir qatorda bahislashish raqobat kabi his-tuygularni kuchaytirib sport bilan shug'ulanishiga intilishini oshiradi. 1-4-siniflarda o'tqaziladigan jismoniy tarbiya darslarining mazmunida o'quvchilarning jismoniy barkamollik sari intilishlari va qiziqishlari muhim omillardan biri bolib xizmat qiladi. Bulardan unumli foydalanish samaradorlikni pedagogik texnologiyalarni turli metodlar yordamida o'quvchilar tomonidan mashg'ulot o'rganishning barqaror natijasidir. Bu yuzasidan ta'lim darslari turli darajadagi musobaqalarda o'quvchilar ishtirokini hisobga olgan holda yutuq va kamchiliklari dinamikasi ko'rsatiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Mirziyoyev Sh.M. “Buyuk kelakagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan quramiz”. Toshkent “O'zbekiston” – 2017 yil.
2. Sh.M.Mirziyoyev “Erkin va farovon demokratik o'zbekiston davlatini birligida barpo etamiz”. “O'zbekiston” NMIU, 2016 yil . Xo'jaev F. O'zbekistonda jismoniy tarbiya. 1997 y.



## НАСТАВНИЧЕСТВО КАК ПРОЦЕСС ФОРМИРОВАНИЯ ЛИЧНОСТИ МОЛОДОГО СПЕЦИАЛИСТА

**Аймбетова Асем Муратовна**

учитель математики и информатики

Общеобразовательной школы № 16

Канимехского района Навоийской области

**Елеусинова Нурсипат Калдарбековна**

учитель математики Общеобразовательной школы № 16

Канимехского района Навоийской области

**Умирбаева Зульфия Умаровна**

учитель математики и информатики

Общеобразовательной школы № 16

Канимехского Района Навоийской области

**Аннотация:** В данной статье раскрывается роль преподавателя-наставника в духовно-нравственном воспитании и определены и охарактеризованы требования, предъявляемые педагогу школы в подготовке будущих специалистов, обозначены дидактические принципы деятельности преподавателя в указанном выше направлении. Особо подчеркнута необходимость осуществления педагогического сотрудничества с наставниками, обучения их навыкам культуры общения.

**Ключевые слова:** педагогическое воздействие, духовно-просвещенческое воспитание, педагог-наставник, требования, принципы, современные знания, нравственные качества, убеждения, культура общения.

Наставничество – одна из наиболее эффективных форм профессиональной адаптации, способствующая повышению профессиональной компетентности и закреплению педагогических кадров. Задача наставника – помочь молодому учителю реализовать себя, развить личностные качества, коммуникативные и управленческие умения. Но при назначении наставника администрация образовательного учреждения должна помнить, что наставничество – это общественное поручение, основанное на принципе добровольности, и учитывать следующее: педагог-наставник должен обладать высокими профессиональными качествами, коммуникативными способностями, пользоваться авторитетом в коллективе среди коллег, учащихся (воспитанников), родителей.

Когда молодой учитель приступает к профессиональной деятельности, он, конечно же, нуждается в поддержке. Поэтому наставнику необходимо обратить внимание молодого специалиста:

- на требования к организации учебного процесса;
- требования к ведению школьной документации;
- формы и методы организации внеурочной деятельности, досуга учащихся;
- практического и теоретического освоения основ педагогической деятельности (подготовка, проведение и анализ урока; формы, методы и приемы обучения; основы управления уроком и др.);
- выбора приоритетной методической темы для самообразования;
- подготовки к первичному повышению квалификации;
- подготовки к предстоящей аттестации на подтверждение или повышение разряда.

Выбор формы работы с молодым специалистом должен начинаться с вводного анкетирования, тестирования или собеседования, где он расскажет о своих трудностях, проблемах, неудачах. Затем определяется совместная программа работы начинающего учителя с наставником. Наставничество – это постоянный диалог, межличностная коммуникация, следовательно, наставник, прежде всего, должен быть терпеливым и целеустремленным. В своей работе с молодым педагогом он должен применять наиболее эффективные формы взаимодействия: деловые и ролевые игры, работу в "малых группах", анализ ситуаций, самоактуализацию и пр., способности принимать решения, умение аргументировано формулировать мысли.

Организация наставничества – это одно из важных направлений деятельности любого



руководителя. Человек становится успешным наставником только в том случае, если он эффективно реализует навык наставничества. Руководителю образовательного учреждения следует стремиться к неформальному подходу в обучении педагогической молодежи: обучаюсь – делаю; делаю – обучаюсь; формировать общественную активность молодых учителей, обучать их объективному анализу и самоанализу. Не следует бояться таких форм работы с молодежью, когда они сами становятся экспертами: присутствуют друг у друга на уроках, посещают уроки своих старших коллег, рефлексиируют, обмениваются опытом, мнениями.

Администрация школы или учитель - наставник могут создать портфолио молодого специалиста, куда вносятся педагогические находки, достижения, анкеты с отзывами на проведенные уроки и т. д. Это дает возможность увидеть динамику в профессиональном становлении молодого учителя в процессе наставнической деятельности. Портфолио – своеобразный паспорт повышения профессионального уровня педагога, свидетельствующий о его способностях, самоорганизации, коммуникативных навыках, отвечающий его потребности в практической самореализации. Портфолио может вести и сам молодой учитель, отмечая в нем повышение своей профессиональной компетентности и достижения в личностном росте.

### **КОМПЕТЕНТНОСТИ ПЕДАГОГА-НАСТАВНИКА**

1. Наставник обязан четко представлять цели своей деятельности, знать требования и потребности школы в этой сфере педагогической практики.

2. Наставник должен разрабатывать и предлагать оптимальную программу педагогической помощи каждому молодому педагогу, с учетом его индивидуальных особенностей, уровня профессионализма и коммуникативных навыков.

3. Наставник должен уметь наладить положительный межличностный контакт с каждым своим воспитанником, предложить конструктивные формы и методы взаимодействия.

4. Наставник осуществляет диагностирование, наблюдение, анализ и контроль за деятельностью своего подопечного.

5. Наставник несет моральную и административную ответственность перед самим собой и руководством образовательного учреждения за подготовку молодого специалиста.

6. Наставник обязан быть образцом для подражания и в плане межличностных отношений, и в плане личной самоорганизации и профессиональной компетентности.

### **ПРАВИЛА ОБЩЕНИЯ С МОЛОДЫМ ПЕДАГОГОМ**

Чтобы взаимодействие с молодыми специалистами было конструктивным и приносило желаемый эффект, педагогу-наставнику необходимо помнить о правилах общения, которые необходимо соблюдать.

**1. Не приказывать.** Наставник должен помнить, что фраза, содержащая обязательство какого-либо рода, вызывает протест. В процессе общения с молодыми учителями следует отказаться от фраз типа «вы должны», «вам необходимо», «вам нужно» и т. п. Естественной их реакцией на эту фразу могут стать слова: «Ничего я вам не должен. Как хочу, так и работаю!»

**2. Не угрожать.** Любая угроза – это признак слабости. Угроза со стороны наставника – это еще и признак педагогической несостоятельности, некомпетентности. Угрозы или ультиматум со стороны учителя-наставника провоцируют конфликт. «Если Вы не будете выполнять мои требования, то...» – подобные замечания свидетельствуют о неумении наставника аргументировать свою педагогическую позицию, о непонимании ситуации, об отсутствии дипломатических навыков общения. Этот прием не способствует установлению отношений сотрудничества и взаимопонимания между наставником и подопечным.

**3. Не проповедовать.** «Ваш профессиональный долг обязывает...», «На Вас лежит ответственность...» – эти воззвания чаще всего являются пустой тратой времени. Они не воспринимаются и не осознаются молодыми специалистами как значимые, вследствие их абстрагированности от реальной педагогической ситуации.

**4. Не поучать.** Наставник должен помнить о том, что нет ничего хуже, чем навязывать свою собственную точку зрения собеседнику («если бы Вы послушали меня, то...», «если бы Вы последовали примеру...»).

**5. Не подсказывать решения.** Наставник не должен «учить жизни» молодого учителя. «На Вашем месте я бы...» – эта и подобные ей фразы не стимулируют процесс профессиональной



поддержки, поскольку произносятся чаще всего с оттенком превосходства и ущемляют, таким образом, самолюбие молодого педагога.

**6. Не выносить суждений.** Высказывания со стороны наставника типа «Вы должны сменить место работы», «Вы слишком мало внимания уделяете работе» чаще всего наталкиваются на сопротивление и протест молодых учителей, даже в тех случаях, когда они абсолютно справедливы.

**7. Не оправдывать и не оправдываться.** Наставник потеряет значительную долю своего влияния, если будет строить свое взаимодействие с подопечными на основе этих приемов общения. «Вы организовали и провели урок не так уж плохо, как кажется на первый взгляд» – данная форма оправдания, конечно, снимает некоторое напряжение в отношениях, но делает существующую профессиональную проблему менее значимой для молодого учителя.

**8. Не ставить «диагноз».** «Вам нельзя работать в школе, Вы слишком эмоциональны» – такая фраза опытного педагога непременно насторожит молодого учителя и настроит его против наставника.

Список литературы статьи

1. Абдулина О.А. Педагогический мониторинг качества подготовки учителя // Преподаватель, 2005. №3. - С.21-23
2. Абросимова З.Ф. Формирование педагогической культуры будущего учителя. Дисс. на соиск.уч.степ.канд.пед.наук. – Челябинск.
3. Алексашина И.Ю. Основные направления формирования педагогического мастерства в процессе повышения квалификации учителей / Тезисы докладов научно-практической конференции. -Новгород, 1990.-С. 1-2.
4. П.Андрienко Е.В. Подготовка учителя к самоактуализации в педагогической деятельности: Народное образование. 2005, - №12. - С.31-37.
5. Вершловский С.Г. Школа молодого учителя: Методические рекомендации Л.,1994. - 96с.



## ФОРМИРОВАНИЕ ИНТЕРЕСА ШКОЛЬНИКОВ НА УРОКАХ

Икрамова Любовь Олеговна

Цой Эллина Вадимовна

Учителя начальных классов средней  
общеобразовательной школы № 42,  
г. Фергана, Ферганская область

**Аннотация:** В статье представлена информация о развитии у учащихся интереса и активность в начальном образовании.

**Ключевые слова:** проблема, актуальность, цель, эмоции, отношение, интерес.

Создание заинтересованного отношения к учению — проблема, проходящая через всю историю школы, не потерявшая актуальность и сегодня. Учение, лишённое всякого интереса и взятое только силой принуждения, убивает в ученике охоту к овладению знаниями. Приохотить ребёнка к учению гораздо более достойная задача, чем приневолить. Сегодня наиболее острые проблемы в области обучения и воспитания связаны с демотивированностью основной массы школьников. Поэтому одной из центральных задач современной школы является формирование у учащихся положительной устойчивой мотивации учебной деятельности, такой мотивации, которая побуждала бы их к упорной, систематической учебной работе. Согласно А. К. Марковой, крупнейшего исследователя в области мотивационной сферы человека, в структуру учебной мотивации входят потребность в учении, смысл учения, мотив учения, цель, эмоции, отношение, интерес.

Возникновение интереса у учащихся зависит в большей степени от методики её преподавания, от того, насколько умело будет построена учебная работа. «Сделать учебную работу насколько возможно интересной для ребёнка и не превратить эту работу в забаву — одна из труднейших и важнейших задач дидактики», -говорил Константин Дмитриевич Ушинский.

Немаловажную роль в развитии познавательного интереса играют дидактические игры. Включенные в урок игровые моменты делают процесс обучения интересным и занимательным, у детей создается рабочее настроение, которое помогает преодолевать трудности в усвоении учебного материала. В игровых формах обучения проявляется возможность эффективной организации взаимодействия педагога и учащихся, продуктивной формы их общения с элементами соревнования, непосредственности. В процессе игры у учащихся вырабатывается привычка сосредотачиваться, мыслить самостоятельно, развивается внимание, стремление к знаниям. Увлекаясь, дети не замечают, что учатся, познают и запоминают новое, ориентируются в необычных ситуациях. Даже самые пассивные учащиеся включаются в игру с большим интересом. Например, на уроках я предлагаю учащимся ребусы. Они с удовольствием их разгадывают, увлекаются, а затем самостоятельно находят новые ребусы в книгах или придумывают их сами. На своих уроках я стараюсь учить учащихся самостоятельно работать, высказывать и проверять собственные предложения и догадки; формировать умения делать обобщения изучаемых фактов; творчески применять знания в новых ситуациях.

Доказательство теорем различными способами помогает воспитывать интерес к предмету: математика уже не кажется им сухой и скучной наукой, дети видят, что и здесь нужны выдумка, полёт фантазии, творческие способности. Опыт показывает, что после проведения подобных экспериментов действительно оказывается, что систематическое целенаправленное использование наглядных пособий на уроках математики в начальной школе повышает качество усвоения знаний, уровень сформированности умений и навыков.

### Список используемой литературы

1. Артемов А. К. Приемы организации развивающего обучения. А. К. Артемов// Начальная школа. – 2000. - №9. – с.15-17
2. Ахметов М. А. От дидактического принципа наглядности к полимодальному обучению// Стандарты и мониторинг в образовании. – 2005. - №5. – с. 6



## В ШКОЛУ ИННОВАЦИОННАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ ПРЕПОДАВАТЕЛЯ В ОБУЧЕНИИ ЯЗЫКАМ

**Сабирова Барно Адамбаевна**  
преподаватель Хорезмская область  
Хивинская город ГСОШ № 1 т  
Телефон: +998 (91) 090 72 40  
barno.adambayevna\_1sc@umail.uz

**Аннотация:** В этой статье акмеологический подход в инновационной деятельности, креативность в инновационной деятельности, понятие «рефлексии» и структура инновационной деятельности преподавателя.

**Ключевые слова:** Инновационная деятельность преподавателя, акмеологический подход, акмеология, вершина профессионализма, нахождение новых технологий, креативность, продуктивное самосознание, творческая индивидуальность, беглость мысли, гибкость мысли, оригинальность.

Инновационная деятельность преподавателя рассматривается как созидательный процесс и результат творческой деятельности.

В.А.Сластенин при построении инновационной деятельности преподавателя опирается на акмеологический подход.

Акмеология (акме) – перевод с древнегреческого – высшая точка, острие, расцвет, зрелость, лучшая опора.

Акмеология с научных точек зрения рассматривает соотношение профессионализма и творчества. В этой связи выделяются следующие категории:

- творческая индивидуальность;
- процесс саморазвития и самоусовершенствования;
- креативный опыт как результат самореализации.

Творческая индивидуальность преподавателя включает:

- интеллектуально-творческую инициативу;
- интеллектуальные способности, широту и глубину знаний;
- чуткость к противоречиям, склонность к творческому сомнению, способность испытать внутреннюю созидательную борьбу;
- информационный голод, чувство новизны, необычного в проблеме, профессионализм, жажда познания. Основные функции реализации творческой индивидуальности В.А.Сластенина определил следующим образом:
- обогащение культуры, определяющейся критерием общественной значимости;
- преобразование педагогического процесса и личности;
- нахождение новых технологий, определяющихся критериями продуктивности и значимости;
- саморазвитие на основе самоопределения, самовыражения личности.

Таким образом, формирование творческой индивидуальности преподавателя динамическим инновационным процессом преобразования и саморазвития личности. Важнейшей характеристикой инновационной деятельности преподавателя является креативность. Термин «креативность» появился в англо-американской психологии в 60-х годах. Он обозначал способности, отражающие свойства индивида создавать новые понятия и формировать новые навыки. Дж.Гилфорд выделил ряд интеллектуальных способностей, характеризующих креативность:

- беглость мысли;
- гибкость мысли;
- оригинальность;
- любознательность;
- способность к разработке гипотезы;
- фантастичность и др.

Применительно к деятельности преподавателя можно определить несколько стадий креативности. Необходимым компонентом в структуре инновационной



деятельности преподавателя является рефлексия.

Анализ педагогической литературы свидетельствует о наличии двух традиций в трактовке рефлексивных процессов:

- рефлексивный анализ сознания, ведущий к разъяснению значений объектов и их конструирование;
- рефлексия как понимание смысла межличностного общения. В этой связи учеными-педагогами выделяются следующие рефлексивные процессы: • само понимание и понимание другого;
- самооценка и оценка другого;
- само интерпретация и интерпретация другого. Рефлексия

(от лат. reflexio – обращение назад) понимается как процесс самопознания субъектом внутренних психических актов и состояний. Рефлексия – это не просто знание или понимание субъектом самого себя, но и выяснение того, как другие знают и понимают его личностные особенности, эмоциональные реакции и когнитивные (связанные с познанием) представления.

При анализе деятельности выделяется два вида рефлексии:

- ретроспективный;
- проспективный.

Ретроспективная рефлексия – это рефлексия в форме ретроспективного восстановления истории акта деятельности.

Проспективная рефлексия - это динамика переживания потребности в ходе осуществления деятельности.

Инновационность означает открытость, признание другого мнения. Инновационная деятельность преподавателя предполагает осуществление в динамике столкновения и взаимообогащения различных позиций.

#### **Список использованной литературы:**

1. Слостенин В.А., Кодымова Л.С. Педагогика: Инновационная деятельность. – М.: Магистр, 1997.
2. Кан – Калик В.А., Никандров Н.Д. Педагогическое творчество. – М., 1990.
3. Загвязинский В.И. Инновационные процессы в образовании и педагогическая наука. – Тюмень, 1990.
4. Кларин М.В. Инновационные модели учебного процесса в современной зарубежной педагогике. – М., 1994.



## ТЕХНОЛОГИЯ КЕЙС-СТАДИ В ОБУЧЕНИИ РУССКОМУ ЯЗЫКУ

Сабилова Дилором Мадиримовна  
Ханкайская районная школа № 24  
Рахмонова Юлдуз Отабоевна  
Школа №23, Янгарикский район  
учителя русского языка

*Аннотация:* Одной из новых форм эффективных технологий обучения является проблемно-ситуативное обучение с использованием кейсов.

*Ключевые слова:* интерактив, образование, профессионал, педагог, язык.

Термин «кейс-метод», «кейс-технология» в переводе с английского как понятие «case» означает:

– описание конкретной практической ситуации, методический прием обучения по принципу «от типичных ситуаций, примеров – к правилу, а не наоборот», предполагает активный метод обучения, основанный на рассмотрении конкретных (реальных) ситуаций из практики будущей деятельности воспитанников, т.е. использование методики ситуационного обучения «case – study»;

– набор специально разработанных учебно-методических материалов на различных носителях (печатных, аудио-, видео- и электронные материалы), выдаваемых подросткам для самостоятельной работы.

Кейс представляет собой описание конкретной реальной ситуации, подготовленное по определенному формату и предназначенное для обучения подростков анализу разных видов информации, ее обобщению, навыкам формулирования проблемы и выработки возможных вариантов ее решения в соответствии с установленными критериями. Кейсовая технология (метод) обучения – это обучение действием. Суть кейс-метода состоит в том, что усвоение знаний и формирование умений есть результат активной самостоятельной деятельности подростков по разрешению противоречий, в результате чего и происходит творческое овладение знаниями, навыками, умениями и развитие мыслительных способностей. Метод кейсов способствует развитию умения анализировать ситуации, оценивать альтернативы, выбирать оптимальный вариант и планировать его осуществление. И если в течение периода реабилитации такой подход применяется многократно, то у подростков вырабатывается устойчивый навык решения практических задач. Работая с нашими воспитанниками, приходишь к пониманию того, что путем простой передачи даже самых современных знаний, умений и навыков не сформировать такие важные социальные качества личности, как ответственность, активность, самостоятельность, умение находить решение возникших жизненных задач. Важной чертой современного человека становится способность решать нестандартные задачи и находить нетрадиционные подходы к их решениям. И задача социального педагога построить свою работу с воспитанниками так, чтобы сформировать у них ответственность, активность, самостоятельность, умение находить решение возникших жизненных задач. Применение данной технологии дает возможность добиваться положительных результатов в работе по направлениям:

- работа с конфликтами (ребенок-педагог, ребенок-группа, ребенок-родитель);
- половое воспитание;
- формирование здорового образа жизни;
- формирование активной жизненной позиции;
- формирование социально-бытовых и экономических навыков;
- коррекция школьной тревожности.

Применение данной социально-педагогической технологии дает возможность развивать очень важные интеллектуальные навыки у воспитанников, которые будут ими востребованы при дальнейшей самостоятельной жизни и в профессиональной деятельности.

### Использованная литература.

1. Пырьева В. В. Кейсовая технология обучения и ее применение при изучении темы.
2. Пожитнева В.В. Кейс-технологии для развития одаренности//Химия в школе. – 2008. – №4. – с. 13-17.



“USTOZ-SHOGIRD” TIZIMI – ILMIY FAOLIYATNI RIVOJLANTIRISH OMILI

**Sattorova Mohigul Furqat qizi,**  
Navoiy shahar 2-umumta’lim maktab  
Biologiya fani o’qituvchisi  
**Abdullayeva Dilbar Xayrullayevna**  
Navoiy shahar 2-umumta’lim maktab  
Kimyo fani o’qituvchisi

*Haq yo’lida kim senga bir harf o’rgatmish ranj ila,  
Aylamak bo’lmas ado oning haqin yuz ganj ila.  
A.Navoiy*

Yurtimizda mustaqil O’zbekistonimizni rivojlantirish, milliy-ma’naviy qadriyatlarimizni tiklash va Vatanimizga sadoqat tuyg’ularini yoshlarimizda shakllantirish dolzarb vazifalardandir. Barchamizga ma’lumki, mustaqillikdan keyin ta’lim sohasi tubdan isloh olib qilindi. Bundan ko’zlangan maqsad, o’sib kelayotgan yosh avlodni bilimli, salohiyatli, yuksak ma’naviyatli, insoniy fazilatlarini, ona Vatan, uning ertangi kuni uchun mas’uliyatni his qila oladigan kelajak egalarini barkamol shaxs sifatida voyaga yetkazishdir.

Birinchi Prezidentimiz I.Karimov ham “Biz uchun ma’naviyat tarixiy va madaniy qadriyatlar, aholining ma’naviy, axloqiy holati, yosh avlodni tarbiyalash eng asosiy ustuvor vazifa bo’lishi lozim.” – degan edilar. Ana shunday yosh avlodga ta’lim-tarbiya berib shu darajaga yetishlari ustoz va murabbiylarning mashaqqatli mehnatlari samarasi hisonlanadi.

Inson hayotning murakkab so’qmoqlaridan yura bilishi, qiyinchiliklarni yenga olishi, chuqur bilim, ko’nikma va malakaga ega bo’lishida ustoz va murabbiylarning o’rni beqiyosdir. Millatning ravnaqi, voyaga yetayotgan yosh avlodning har tomonlama yetuk shaxs sifatida shakllanishini ta’minlashdek ulkan mas’uliyatni o’z zimmalariga ola bilgan ustoz va murabbiylarimiz haqidagi fikr mulohazalarimizni nihoyasiga yetkaza olmaymiz.

Ta’lim jarayoni jadal rivojlanib borayotgan bugungi kunda asosiy mazmunga ega yana bir e’tiborga loyiq lihat “Ustoz-shogird” an’anasidir. Xalq pedagogikasida “Ustoz ko’rmagan shogird har maqomga yo’rg’alar” deganidek, shogirdlar ustozlari bergan bilim, ko’nikma, malakalari bilan yutuqlarga erishadilar, yangi marralarni egallaydilar. Bizning buyuk mutafakkir bobokalonlarimiz Alisher Navoiy, Mirzo Ulug’bek, Amir Temur, Imom Termiziy, Imom Buxoriylar ham ustozlari ko’magi bilan buyuk inson bo’lganlar, biz uchun va kelajak avlod uchun bitmas-tuganmas ma’naviy meros qoldirganlar. Shogirdlar hamisha mas’uliyatni his qilishlari, ustozlari bergan o’g’it va nasihatlar hamda odob-axloq qoidalariga amal qilishlari shartdir. Bu haqida Husayn Voiz Koshifiy shogirdlik odoblari ettita ekanligi va ular quyidalar: o’z ishiga yaxshi munosabatda bo’lish, ya’ni o’z kasbini sevish; o’z kasbiga e’tiqod qilish va unga ishonish; ustoz oldida haqsevar bo’lish, o’z nojo’yi odatlarni tark etish; ko’rish lozim bo’lmagan narsadan nigohini olib qochish; eshitish mumkin bo’lmagan narsalarga quloq solmaslik; barcha noloyiq ishlardan qo’l tortish; ustoziga zid bo’lgan kishilar bilan muomala qilmaslik ekanligi, shogirdlikning asoslari oltita deya ular: rostgo’ylik, vafodorlik, mas’uliyatlilik, nasihatni quloqqa olish, ozor bermaslik, sir saqlash ekanligi, yana shu o’runda shogirdlikning eng yaxshi xislati poklik, noyob gavhari hamkasb do’stlarini xushnud etish ekanligi haqida fikrlar bayon etganlar. So’z mulkingning sultoni Alisher Navoiy ham ustozshogird an’anasiga alohida e’tibor berib, shunday degan edilar: “Agar shogird shayxulislom, agar qozidir, agar ustoz rozi-Tangri rozidir”. Bu bilan har doim ustozning roziligini olish, uning o’g’itlarini doim yodda tutish lozimligi haqida fikr bildirganlar. Navoiy bobomiz o’qituvchini jamiyatda obro’li va hurmatga loyiq inson deb bilganlar va shogirdlar hamisha ustozlarini hurmat qilishlari zarurligini ta’kidlaganlar. Mutafakkirimizning ustozlik faoliyati biz yoshlarga asrlar davomida ibrat va namuna bo’lib kelmoqda.

Yuqorida bayon etilgan fikrlardan ko’rinib turibdiki, Sharqda ustoz-shogirdlik tushunchasi yuksak milliy qadriyat sifatida ulug’lanib kelingan. Sharq mutafakkirlarining asarlari biz uchun qimmatli xazinadir va bu xazina bizni yuksak cho’qqilarga erishishimizda asosiy vosita bo’lib xizmat qiladi. Bu an’ana bugungi kunda ham davom etib kelmoqda. Bugungi kunda o’qituvchilarning samarali mehnatlari narijasida biz shogirdlarning yetarlicha bilim olmoqdamiz va buning uchun davlatimiz tomonidan ham barcha imkoniyatlar yaratilgan. Bizning shu



kungacha erishgan yutuqlarimiz ham yurtimizda ta'lim sohasiga qaratilgan katta e'tibor natijasi, ustoz-shogird an'anasini davom ettirib kelayotganimizdan dalolat beradi. Yurtimizda ta'sis etilgan yuksak sovrinlarni, Davlat mukofotlarini, jahon miqyosidagi fan olimpiada yoki sport chempionatlarda oliy o'rinlarni egallashimiz albatta ustoz-murabbiylarning tinimsiz va mashaqqatli mehnatlari natijasidir. Ustoz-shogird an'analari har bir sohada: ta'lim, musiqa, sport, hunarmandchilik qaysi sohani aytmaylik barchasida o'z aksini topgan.

Xulosa o'rnida aytmoqchimanki, ustozlar hamisha shogirdining kamolini ko'rish uchun bor kuchquvvatini, bilim va ko'nikmasini safarbar etadi, shogirdining yutug'ini o'z farzandining yutug'idek qabul qiladi. Ustozning shogirdga nisbatan qattiqqo'lligi, talabchanligi, vaqtida rag'batlantirishi yoki jazolashi uning yanada ko'proq yutuqlarga erishishiga turtki bo'ladi. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyevning quyidagi so'zlari fikrimizning ayni haqiqat ekanligini yana bir bor isbotlaydi: “ Biz ajdodlarimizning yorqin xotirasini asrab-avaylab, qalbimizda, yuragimizda abadiy saqlaymiz. Bukilmas iroda, fidoiylik va jasorat namunasini amalda namoyon etib, o'z hayotini aziz Vatanimizning har tomonlama ravnaq topishiga bag'ishlagan ustoz va murabbiylarimiz, zamondoshlarimiz bilan cheksiz faxrlanamiz.” O'ylaymizki, bugun ustoz-shogird an'analarni yanada rivojlantirish, takomillashtirish hamda uning davomiyligini ta'minlash yo'lidagi sa'y-harakatlarimiz bizdan keying avlodlar uchun dasturi amal bo'lib xizmat qiladi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1, Sh.M.Mirziyoyev “Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz” asari, Toshkent “O'zbekiston” nash. 2016-yil;



---

**AN INTEGRATIVE APPROACH TO THE HIGHER EDUCATION SYSTEM OF DEVELOPED FOREIGN COUNTRIES IN THE CONTEXT OF GLOBALIZATION**

**Turumbetova Zamira Yusupbayevna**

Researcher, Assistant teacher, Pedagogy and Psychology department

Karakalpak state university named after Berdakh

+998993183361

